


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALARI VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGISI FAKULTETI
QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA
ISHLASH TEXNOLOGISI KAFEDRASI**

A.YUSUFALIEV

MASHINA DETALLARI FANINING

**O'QUV - USLUBIY
MAJMUASI**



Guliston - 2024

Uslubiy qo'llanmada «Mashina detallari» fanini o'qitish bo'yicha ta'lim texnologiyalari, ularni qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyalar bayon etilgan. Ushbu tavsiyalar didaktik tamoyillar, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari texnologiyalarini ishlab chiqish usul va vositalari, ularning muhim belgilaridan iborat ta'limni texnologiyalash qoidalarini hisobga olgan holda loyihalashtirilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanma oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari va talabalari, «Mashina detallari» fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash jarayonlariga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

MUNDARIJA

Kirish.....	6
«Mashina detallari» o'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasining kontseptual asoslari.....	7
Ma'ruza, amaliyot va laboratoriya mashg'ulotlarida o'qitish texnologiyasi.....	15
1-mavzu. «Mashina detallari» fanining ahamiyati. Detallarning ishga layoqatliligi va uni ta'minlash.....	19
1.1. Kirish, vizual ma'ruzani o'qitish texnologiyasi 1-mashg'ulot	19
1.2. Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi: 1-mashg'ulot	21
2-mavzu. Ruxsat etilgan kuchlanishlar. Kuchlanish turlari. Xavfsizlik koeffitsienti.....	24
2.1. Axborot, vizual ma'ruza orqali o'qitish texnologiyasi.....	25
2.2. Munozara mashg'uloti orqali o'qitish texnologiyasi.....	26
3-mavzu. Mashinasozlikda ishlatiladigan materiallar. Termik qayta ishlash.....	28
3.1. Axborot-ma'ruza, birgalikda o'qish usulidan foydalangan holda o'tiladigan ma'ruza vositasida o'qitish texnologiyasi.....	29
3.2. Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha muammoli mashg'uloti orqali o'qitish texnologiyasi.....	29
4-mavzu. Uzatma turlari. Mexanik uzatmalar. Eskiz sxemalari. Afzallik va kamchiliklari. Asosiy xarakteristikalari.....	34
4.1. Vizual ma'ruza, ikki tomonlama tahlilga asoslangan ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	35
4.2. Mustaqil ishlash ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltirilgan muammoli seminar orqali o'qitish texnologiyasi.....	36
5-mavzu. Tishli uzatmalarni kinematik va geometrik o'lchamlari.....	38
5.1. Axborot, vizual ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	39
5.2. Muammoli masalalarni hal etish va bilimlarni chuqurlashtirish ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan seminar orqali o'qitish texnologiyasi.....	40
6-mavzu. Ilashishda xosil bo'lgan kuchlar. Tishli g'ildiraklarni aniqlik darajasi. Yuklanish koeffitsienti.....	43
6.1. Ma'ruza – konferentsiyasi vositasida o'qitish texnologiyasi.....	44
6.2. Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga yo'naltirilgan seminar orqali o'qitish texnologiyasi.....	45
7-mavzu. To'g'ri va qiya tishli tsilindsimon g'ildirakli uzatmalarni kontakt (mustaxkamlik) kuchlanish bo'yicha tekshirish.....	50
7.1. Axborot, vizual ma'ruza, yordamida o'qitish texnologiyasi	51
7.2. Seminar-munozara orqali o'qitish texnologiyasi.....	52
8-mavzu: To'g'ri va qiya tishli tsilindsimon g'ildirakli uzatmalarni egilishdagi kuchlanish bo'yicha tekshirish	56
8.1. Axborot, vizual ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	57
8.2. Muammoli masalalarni hal etish va bilimlarni chuqurlashtirish ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan seminar orqali o'qitish texnologiyasi.....	58
9-mavzu: Konussimon uzatmalar turlari. Ishlatilishi. Afzallik va kamchiliklari. Geometriyasi va kinematikasi.....	60
9.1. Axborot, vizual ma'ruza, "Insert", "Venna" diagrammasi texnikasini qo'llagan holda ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	61
9.2. Muammoli masalalarni hal etish va bilimlarni chuqurlashtirish ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan seminar orqali o'qitish texnologiyasi.....	62
10-mavzu: Konussimon uzatmalarni kontakt va egilishdagi kuchlanishlar bo'yicha mustaxkamlikka tekshirish.....	66
10.1. Talabalar bilan hamkorlikda binar ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	67

10.2. Muammoli seminarni o'qitish texnologiyasi.....	68
11-mavzu; Chervyakli uzatmalarni turlari. Ishlatilishi. Geometriya va kinematikasi. Sirpanish tezligi.....	70
11.1. Vizual, axborot ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	71
11.2. Seminar-munozarani o'qitish texnologiyasi.....	72
12-mavzu. Chervyakli uzatmalarni kontakt va egilishdagi kuchlanish bo'yicha mustaxkamlikka tekshirish. F.I.K. Uzatmalarni qizishga tekshirish. Moylash. Sovutish.....	79
12.1. Muammoli ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	80
12.2. Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish bo'yicha amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi.....	81
13-mavzu: Tasmali uzatmalar. Turlari. Tasmali uzatmalarni xisoblashni nazariy asoslari.....	85
13.1. Axborot, vizual ma'ruza ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	86
13.2. Muammoli masalalarni hal etish va bilimlarni chuqurlashtirish ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan seminar orqali o'qitish texnologiyasi.....	87
14-mavzu. Ponasimon tasmali uzatmalar. Turlari. Xisobi.....	92
14.1. Axborot, vizual ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	93
14.2. Munozara seminarini o'qitish texnologiyasi.....	94
15-mavzu. Yassi tasmali uzatmalar. Turlari. Xisobi.....	95
15.1. Mualliflik ma'ruzasini o'qitish texnologiyasi.....	96
15.2. Seminar-munozarani o'qitish texnologiyasi.....	96
16-mavzu. Tasmalarni tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar. Sirpanish tezligi. Tasmali uzatmalarni taranglash usullari.....	98
16.1. Hamkorlikdagi, axborot, vizual-ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	99
16.2. Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish bo'yicha amaliy mashg'ulot.....	100
17-mavzu. Friksion uzatmalar. Ishlatilishi. Afzallik va kamchiliklari. Variatorlar. Konstruktsiyasi. Ishlatilishi. Mustahkamlikka hisobi.....	102
17.1. Axborot ma'ruzasi, "birgalikda o'rganish" usulidan foydalangan holda ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	103
17.2. Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish bo'yicha muammoli seminarni o'qitish texnologiyasi.....	103
18-mavzu. Zanjirli uzatmalar. Ishlatilishi. Afzallik va kamchiliklari. Konstruktsiyasi. Geometriyasi. Hisobi.....	107
18.1. Axborot, vizual ma'ruzadan foydalangan holda ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	108
18.2. Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish hamda muammoli masalalarni hal etish ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha seminar-munozarani o'qitish texnologiyasi.....	109
19-mavzu. Vallar va o'qlar. Tuzilishi. Taxminiy hisobi. Eskiz chizmasi. Xavfsizlik koeffitsienti.....	116
19.1. Muammoli ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	117
19.2. Muammoli vazifani echish bo'yicha bilimni mustahkamlash va kengaytirish seminarini o'qitish texnologiyasi.....	118
20-mavzu. Podshipniklar. Sirpanish podshipniklar. Ishlatilishi. Konstruktsiyasi. Hisobi.....	124
20.1. Birgalikda o'qish va muammoli masalalarni echish usullaridan foydalangan holda vizual ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	125
20.2. Muammoli seminarni o'qitish texnologiyasi.....	126
21-mavzu: Dumalash podshipniklari. Turlari. Ishlatilishi. Dinamik yuk ko'taruvchanlik bo'yicha hisoblash.....	132
21.1. Axborot, vizual ma'ruza ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	133
21.2. Muammoli masalalarni hal etish va bilimlarni chuqurlashtirish ko'nikmalarni	134

rivojlantirishga yo'naltirilgan seminar orqali o'qitish texnologiyasi.....	
22-mavzu: Birikmalar. Ajralmas va ajraluvchan birikmalar. Ajraluvchi birikma turlari. Mustaxkamlikka xisoblash.....	143
22.1. Vizual, axborot ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	144
22.2. Seminar-munozarani o'qitish texnologiyasi.....	145
23-mavzu: Ajralmas birikmalar. Turlari. Mustaxkamlikka xisoblash.....	157
23.1. Axborot, vizual ma'ruza orqali o'qitish texnologiyasi.....	158
24.2. Munozara laboratoriya mashg'uloti orqali o'qitish texnologiyasi.....	159
24-mavzu: Muftalar. Turlari. Tanlash. Mustaxkamlikka xisoblash.....	164
24.1. Hamkorlikdagi, axborot, vizual-ma'ruzani o'qitish texnologiyasi.....	165
24.2. Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish bo'yicha amaliy mashg'ulot.....	166
AMALIY MASHG'ULOT	
1. Yuritmaning kinematik xisobi.....	173
2. Tsilindsimon uzatma hisobi.....	180
3. Konussimon uzatma hisobi.....	187
4. Chervyakli uzatma hisobi.....	200
5. Ponasimon tasmali uzatma xisobi.....	207
6. Zanjirli uzatma xisobi.....	221
7. Vallarni taxminiy xisobi. Eskiz loyixalash. Val tayanchlari uchun podshipnik tanlash.....	233
8. Tsilindsimon reduktor eskiz chizmasi I-bosqichi.....	242
9. Konussimon reduktor eskiz chizmasi I-bosqichi.....	247
10. Chervyakli reduktor eskiz chizmasi I-bosqichi.....	253
11. Eguvchi moment epyurasini qurish hamda dumalash podshipniklarni dinamik yuk ko'taruvchanlik bo'yicha hisoblash.....	257
12. Yopiq uzatma detallarini va elementlarini loyixalash. Reduktor eskiz chizmasini II-bosqichi.....	280
13. Vallarni xavfsizlik koeffitsienti hisoblash.....	295
14. Yuritmaning umumiy ko'rinishini loyixalash.....	302
15. Kurs loyixasini rasmiylashtirish.....	305
LABORATORIYA MASHG'ULOT	
1. Mexanik uzatmalarni eskiz chizmalari. Yuritmani tuzish.....	310
2. Tishli g'ildirakni geometriyasini o'rganish.....	313
3. Yopiq tsilindsimon uzatmalarni konstruktsiyasini o'rganish.....	316
4. Yopiq konussimon uzatmalarni konstruktsiyasini o'rganish.....	320
5. Yopiq chervyakli uzatmalarni konstruktsiyasini o'rganish.....	324
6. Dumalash podshipnik turlari. Xarakteristikasi.....	327
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	330

K I R I Sh

«Mashina detallari» fanidan ta'lim texnologiyasi o'quv qo'llanmasida bayon etilgan dars mashg'ulotlarida yangi texnologiyalarni qo'llash qonun-qoidalariga tayangan holda ishlab chiqilgan.

Talabalarga bilim berishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati to'g'risida so'z borganda Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning "O'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatadigan o'qituvchilarga e'tiborini yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lishi darkor" degan so'zlarini ta'kidlash o'rinlidir. Bu masala "Barkamol avlod yili" Davlat dasturida ham asosiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Uslubiy qo'llanmada keltirilgan ta'lim texnologiyalarining har biri o'zida o'quv mashg'ulotini o'tkazish shart-sharoiti to'g'risida axborot materiallarini, pedagogik maqsad, vazifa va ko'zlangan natijalarni, o'quv mashg'ulotning rejasi, o'qitishning usul va vositalarini mujassamlashtirgan. Shuningdek, bu o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasini, ya'ni o'qituvchi va o'quvchining mazkur o'quv mashg'ulotida erishadigan maqsadi bo'yicha hamkorlikdagi faoliyatning bosqichma-bosqich ta'riflanishini ham o'z ichiga oladi.

Ushbu qo'llanma tarkibi kirish, ta'lim texnologiyasining kontseptual asoslari, har bir mavzu bo'yicha ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida o'qitish texnologiyasidan iborat. Ma'lumotlar maksimal darajada umumlashtirilgan va tartibga solingan. Ularni o'zlashtirish va yodda saqlab qolishni kuchaytirish uchun turli shakllardan, jadvallardan va chizmalardan foydalanilgan.

Qo'llanmaning kontseptual asoslari qismida dastlab «Mashina detallari» fanining dolzarbligi va ahamiyati, mazkur o'quv fanining tarkibiy tuzilishi, o'qitishning usul va vositalarini tanlashda tayanilgan kontseptual fikrlar, kommunikatsiyalar, axborotlar berilib, so'ngra loyihalashtirilgan, o'qitish texnologiyalari taqdim qilingan.

Yigirma to'rt turdagi ma'ruza mashg'ulotlari: kirish, tematik, muammoli, vizual-ma'ruza, ma'ruza-munozara, hamkorlikdagi ma'ruza, avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma'ruza, sharhlovchi ma'ruza berilgan.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida muammoli vazifalarni hal etish, bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishga yo'naltirilgan usul, ishbilarmonlik o'yinlariga asoslangan, aniq holatlarning echimi bo'yicha laboratoriya o'tish texnologiyalari mavjud va h.k.

Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayoniga o'qitishning yangi, zamonaviy usul va vositalari kirib kelmoqda va samarali foydalanilmoqda. Jumladan, Toshkent to'qimachilik va engil sanoat institutida innovatsion va zamonaviy pedagogik g'oyalar amalga oshirilmoqda: o'qituvchi bilim olishning yagona manbai bo'lib qolishi kerak emas, balki talabalar mustaqil ishlash jarayonining tashkilotchisi, maslahatchisi, o'quv jarayonining menejeri bo'lishi lozim. Ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish asosida aynan shu g'oyalar yotadi.

Mualliflar, ushbu qo'llanmani tayyorlashda amaliy yordam ko'rsatgani va qo'llab-quvvatlagani uchun dots. R.X.Maksudovga o'z minnatdorchiliklarini bildiradi.

**“MASHINA DETALLARI”
FANIDAN TA’LIM TEXNOLOGIYASINING
KONTSIPTUAL ASOSLARI**

Umummuhandislik fanlari ichida «Mashina detallari» fani alohida o'rin tutadi. Chunki, har doim insonning hayoti mashina bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va uning asosida ta'minlab kelingan. Shuningdek, mashinalarning muhimligi shundaki, u insonning eng zarur moddiy sharoitini ta'minlaydi, yashash uchun sharoit yaratadi. Iqtisodiy jihatdan har tomonlama rivojlanayotgan jamiyatda tinchlik, tartib va barqarorlik xukm suradi. Mahsulot sifat ko'rsatkichlari standart asosida bilish esa insonlarda o'ziga ishonch uyg'otadi, eng qiyin bo'lgan sifat muammolarini tahlil qilish va baholashga, shuningdek aniq va to'g'ri qarorlar qabul qilishga imkon beradi.

«Mashina detallari» fanini o'rganish insonning ilmiy dunyoqarashi o'zgaradi, uning intellektual rivojlanishini rag'batlantiradi, eng qiziqarli mashg'ulotiga aylanadi. Mashina detallarining vazifasi – val, podshipnik, uzatma ya'ni mahsulotlarning sifatini standart asosida muqobillashtirishdir. Mahsulot sifatini baholashda va belgilashda, amalga oshirishda turli modellardan foydalanish iste'molchilarning talab darajalariga bo'lgan munosabatlarini o'zgarishiga yoki raqobatchilarning aks ta'sirlari, xatti-harakatlarini ma'lum ehtimollik darajasi bilan aniqlashga imkon beradi.

«Mashina detallari» fanini mukammal o'rganishning afzalligi yana shu bilan izohlanadiki, to'g'ri qaror qabul qilishda insonlar doimo kerakli va ishonchli nazariy bilimga va ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Agar ular o'z bilimlariga ega bo'lmasa tajriba va xatolaridan kelib chiqqan, holda o'ziga qimmatga tushgan usulni qo'llashi mumkin yoki boshqalarning tajribasi, xatolarini o'rganishi mumkin, lekin «Mashina detallari» fanidan olgan bilimlariga murojaat qilsa ularning ishi ancha engillashadi, belgilagan rejasi aniq bo'ladi.

Sifatli mashinalar har bir davlatning iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga asoslanib kelgan, uning muvaffaqiyatli rivojlanishiga sabab bo'lgan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishni muvaffaqiyatli amalga oshirish fan, madaniyatni rivojlantirish, demokratik davlat qurish uchun xalq ongi, ma'naviyatini yanada yuqori bosqichga ko'tarish zarurdir.

«Iqtisodiyotimizda erishilgan natijalar negizida avvalo bozor islohotlari va mamlakatni modernizatsiya qilishning puxta o'ylangan modeli va uzoq muddatga mo'ljallangan dasturini bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli, izchil va qat'iy xarakterli turganini kuzatish qiyin emas»¹.

Iqtisodiy islohotlarni hayotga samarali tadbiriq etishning yana bir sharti sifat tizimini modernizatsiyalashdir, soha uchun mutaxassislarni shakllantirish mexanizmini yaratishdir.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlarning asosini shakllantiruvchi qator me'yoriy xujjatlar qabul qilingan va amalga oshirilib kelinmoqda. Bular asosida "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlar alohida o'rin tutadi. Bu qonunlardan kelib chiqadigan vazifa ta'lim dasturlari mazmunining yuqori sifatiga erishish va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilishdir.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar dars berishning interfaol usullarini nazarda tutadi. Bular munozara darslari, iqtisodiy muzokaralar, ishbilarmon o'yinlar, muammoli holatlarni, keys stadilarini echish va hokazolardir. Ushbu usullar talabalarning ijodiy faolligini oshirishda,

Davlat ta'lim standartida bakalavrning tayyorgarlik darajasiga quyidagi talablar qo'yilgan.

Bakalavr:

- dunyoqarashni kengaytiruvchi bilimlar tizimiga ega bo'lishi, gumanitar va sotsial-iqtisodiy fanlarning asosini, davlatning hozirgi kundagi siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammo va hodisalarni mustaqil tahlil qila olishga qodir bo'lishi;

- mamlakatimiz tarixini bilishi, milliy g'oya va umuminsoniy qadriyatlar masalalari bo'yicha o'z nuqtai-nazarini ilmiy asoslash, milliy mustaqillik g'oyasi asosida faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

- tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan jarayon va hodisalar to'g'risida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida ilmiy asoslangan holda foydalana olishi;

- insonning insonga, jamiyatga, atrof-muhitga nisbatan bo'lgan munosabatini boshqarishning huquqiy va ahloqiy me'yorlarini bilish, kasbiy ish jarayonida ularni hisobga olib bilishi;

- axborotni to'plash, saqlash, qayta ishlash va uni qo'llash usullarini bilishi, o'zining kasbiy ish tajribasiga asoslangan xulosalar chiqarishi;

- mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishi, o'z malakasini oshirishi va mehnatini ilmga asoslangan holda tashkillashtirishi;

- sog'lom hayot kechirish tarzining muhimligi to'g'risida ilmiy tushunchalarga va asoslarga, jismoniy rivojlanish borasidagi bilim va malakalarga ega bo'lishi;

- kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida qo'shimcha kasbiy ta'lim olishi kerak.

«Mashina detallari» fanining o'qituvchisi doimo o'z pedagogik mahoratini oshirib, uni san'at darajasiga etkazib borishi kerak. O'z fikrini tushunarli, ko'rgazmali ifodalay bilish, jahon va mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi voqealarga o'z munosabatini bildirishi, ta'lim berishga ijodiy yondashuvni rivojlantirib borishi kerak.

O'qituvchining ijodiy yondashuvi talaba tomonidan «Mashina detallari» fanini o'rganishga ijodiy yondashuvining bevosita shartidir.

Odatdagi ma'ruza darslarining an'anaviy tarzda, ilg'or pedagogik usullarsiz olib borilishi talabdan faollik talab qilmaydi. Darsni o'zlashtirish ham osonday tuyuladi, fanga nisbatan qiziqish uyg'onmaydi. Muammoli holatlarning yaratilishi, aniq misollar yordamida iqtisodiy masalalarning echilishi, talabani fanga qiziqtirish, uning faolligini oshirib, kengroq fikrlashga, maqsadga qarab intilishga, kerakli bilim va ko'nikmalar hosil qilishga yordam beradi.

Respublikamizda etakchi olimlar tomonidan bu sohada munosib ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Toshkent to'qimachilik va engil sanoat institutida chop etilayotgan yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalar talaba va o'qituvchilarning bu boradagi ehtiyojlariga qaratilgan. Professor R.N.Tojiboev, A.J.Jo'raev lar tomonidan yaratilgan yangi «Mashina detallari» fanidan ta'lim texnologiyasi ham shular jumlasidandir.

Shu bilan birga xalqaro standartlarga mos keluvchi mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning yuqori iqtisodiy ta'lim darajasini ta'minlash, bu vazifani sifatli, samarali, tushunarli amalga oshirish «Mashina detallari» fanining asosiy uslubiy vazifasi hisoblanadi. Uni amalga oshirish o'qitish jarayonini texnologiyalashtirish, ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni zarur qilib qo'yadi.

«Mashina detallari» fanidan ma’ruza, amaliyot va laboratoriya mashg’ulotlari mavzularining soatlar bo’yicha taqsimoti jadvali

TG r	Mavzularning nomi	Ma’ruza soati
1.	«Mashina detallari» fanining ahamiyati. Detallarning ishga layoqatliligi va uni ta’minlash	2
2.	Ruxsat etilgan kuchlanishlar. Kuchlanish turlari. Xavfsizlik koeffitsienti	2
3.	Mashinasozlikda ishlatiladigan materiallar. Termik qayta ishlash	2
4.	Uzatma turlari. Mexanik uzatmalar. Eskiz sxemalari. Afzallik va kamchiliklari. Asosiy xarakteristikalar	2
5.	Tishli uzatmalarni kinematik va geometrik o’lchamlari	2
6.	Ilashishda xosil bo’lgan kuchlar. Tishli g’ildiraklarni aniqlik darajasi. Yuklanish koeffitsienti	2
7.	To’g’ri va qiya tishli tsilindsimon g’ildirakli uzatmalarni kontakt (mustaxkamlik) kuchlanish bo’yicha tekshirish	2
8.	To’g’ri va qiya tishli tsilindsimon g’ildirakli uzatmalarni egilishdagi kuchlanish bo’yicha tekshirish	2
9.	Konussimon uzatmalar turlari. Ishlatilishi. Afzallik va kamchiliklari. Geometriyasi va kinematikasi	2
10.	Konussimon uzatmalarni kontakt va egilishdagi kuchlanishlar bo’yicha mustaxkamlikka tekshirish	2
11.	Chervyakli uzatmalarni turlari. Ishlatilishi. Geometriya va kinematikasi. Sirpanish tezligi	2
12.	Chervyakli uzatmalarni kontakt va egilishdagi kuchlanish bo’yicha mustaxkamlikka tekshirish. F.I.K. Uzatmalarni qizishga tekshirish. Moylash. Sovutish	2
13.	Tasmali uzatmalar. Turlari. Tasmali uzatmalarni xisoblashni nazariy asoslari	2
14.	Ponasimon tasmali uzatmalar. Turlari. Xisobi	2
15.	Yassi tasmali uzatmalar. Turlari. Xisobi	2
16.	Tasmalarni tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar. Sirpanish tezligi. Tasmali uzatmalarni taranglash usullari	2
17.	Friktsion uzatmalar. Ishlatilishi. Afzallik va kamchiliklari. Variatorlar. Konstruktsiyasi. Ishlatilishi. Mustahkamlikka hisobi	2
18.	Zanjirli uzatmalar. Ishlatilishi. Afzallik va kamchiliklari. Konstruktsiyasi. Geometriyasi. Hisobi	2
19.	Vallar va o’qlar. Tuzilishi. Taxminiy hisobi. Eskiz chizmasi. Xavfsizlik koeffitsienti	2
20.	Podshipniklar. Sirpanish podshipniklar. Ishlatilishi. Konstruktsiyasi. Hisobi	2
21.	Dumalash podshipniklari. Turlari. Ishlatilishi. Dinamik yuk ko’taruvchanlik bo’yicha hisoblash	2
22.	Birikmalar. Ajralmas va ajraluvchan birikmalar. Ajraluvchi birikma turlari. Mustaxkamlikka xisoblash	2
23.	Ajralmas birikmalar. Turlari. Mustaxkamlikka xisoblash	2
24.	Muftalar. Turlari. Tanlash. Mustaxkamlikka xisoblash	2

Amaliy mashg'ulot nomi		
1.	Yuritmaning kinematik xisobi	2
2.	Tsilindrsimon uzatma hisobi	4
3.	Konussimon uzatma hisobi	4
4.	Chervyakli uzatma hisobi	2
5.	Ponasimon tasmali uzatma xisobi	2
6.	Zanjirli uzatma xisobi	2
7.	Vallarni taxminiy xisobi. Eskiz loyixalash. Val tayanchlari uchun podshipnik tanlash.	4
8.	Tsilindrsimon reduktor eskiz chizmasi I-bosqichi	2
9.	Konussimon reduktor eskiz chizmasi I-bosqichi	2
10.	Chervyakli reduktor eskiz chizmasi I-bosqichi	2
11.	Eguvchi moment epyurasini qurish hamda dumalash podshipniklarni dinamik yuk ko'taruvchanlik bo'yicha hisoblash.	2
12.	Yopiq uzatma detallarini va elementlarini loyixalash. Reduktor eskiz chizmasini II-bosqichi.	4
13.	Vallarni xavfsizlik koeffitsienti hisoblash	2
14.	Yuritmaning umumiy ko'rinishini loyixalash.	4
15.	Kurs loyixasini rasmiylashtirish	2
Laboratoriya mashg'ulot nomi		
1.	Mexanik uzatmalarni eskiz chizmalari. Yuritmasini tuzish.	4
2.	Tishli g'ildirakni geometriyasini o'rganish.	6
3.	Yopiq tsilindrsimon uzatmalarni konstruktsiyasini o'rganish.	4
4.	Yopiq konussimon uzatmalarni konstruktsiyasini o'rganish	6
5.	Yopiq chervyakli uzatmalarni konstruktsiyasini o'rganish	4
6.	Dumalash podshipnik turlari. Xarakteristikasi.	4

1-MAVZU. «Mashina detallari» o'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasining kontseptual asoslari. «Mashina detallari» fanining sanoat rivojlanishida ahamiyati, maxsulot sifatini aniqlash borasida olimlarning olib borgan ilmiy yo'nalishlari, O'zbekiston olimlarining mashinasozlik ilmiga qo'shgan xissalari.

2-MAVZU. Ruxsat etilgan kuchlanishlar. Kuchlanish turlari. Xavfsizlik koeffitsienti. Tashqi kuchlar ta'sirida detal va uzellarda xosil bo'ladigan kuchlanishlar. Kuchlanish turlari. Doimiy, simmetrik, nosimmetrik pulsatsiya tsiklidagi kuchlanishlar. Extiyotlik koeffitsienti.

3-MAVZU. Mashinasozlikda ishlatiladigan materiallar. Termik qayta ishlash. Mashinasozlikda ishlatiladigan materiallar. Qora, rangli va metalmas materiallar. Materiallarni qattiqligini oshirish uchun termik qayta ishlash. Termik qayta ishlash turlari. Bir-biridan farqi.

4-MAVZU. Uzatma turlari. Mexanik uzatmalar. Eskiz sxemalari. Afzallik va kamchiliklari. Asosiy xarakteristikalar. Uzatmalar. Turlari. Eskiz sxemalar. Afzallik va kamchiliklari. Asosiy xarakteristikalari. Ishlashish va ishqalanish hisobiga harakatni uzatuvchi uzatmalar.

5-MAVZU. Tishli uzatmalarni kinematik va geometrik o'lchamlari. Tishli uzatmalarni geometriya va kinematikasi. Ilashish moduli to'g'risida tushincha. Modul yordamida tishli g'ildiraklarni tashqi, tish osti, bo'luvchi aylana diametrlarini aniqlash. O'qlararo masofa. Tish qadami, balandligi. Tishlar soni. Uzatish soni.

6-MAVZU. Ilashishda xosil bo'lgan kuchlar. Tishli g'ildiraklarni aniqlik darajasi. Yuklanish koeffitsienti. Tsilindsimon to'g'ri va qiya tishli uzatmalarda ilashishda hosil bo'lgan kuchlar. Kuchlarning yo'nalishi. Qiymati mashinasozlikda ishlatiladigan tishli g'ildiraklarni aniqlik darajalari. Aniqlik darajalarni bir-biridan farqi. Mohiyati. Yuklanish koeffitsienti.

7-MAVZU. To'g'ri va qiya tishli tsilindsimon g'ildirakli uzatmalarni kontakt (mustaxkamlik) kuchlanish bo'yicha tekshirish. To'g'ri va qiya tishli tsilindsimon g'ildiraklarni kontakt kuchlanish bo'yicha tekshirish. Mustahkamlik sharti. Gerts formulasini keltirib chiqarish. Kontakt kuchlanish qiymatiga uzatma uzatish soni, tishli g'ildirak materiallari, tish eni koeffitsient qiymatlarini ta'siri.

8-MAVZU. To'g'ri va qiya tishli tsilindsimon g'ildirakli uzatmalarni egilishdagi kuchlanish bo'yicha tekshirish. To'g'ri va qiya tishli tsilindsimon tishli g'ildiraklarni eguvchi kuchlanish bo'yicha mustahkamlikka tekshirish. Formulani keltirib chiqarish. Eguvchi kuchlanish qiymatiga ilashish moduli, geometrik o'lchamlari, burovchi moment qiymatlarni ta'siri.

9-MAVZU. Konussimon uzatmalar turlari. Ishlatilishi. Afzallik va kamchiliklari. Geometriyasi va kinematikasi. Uzatish soni. To'g'ri, qiya va aylanasimon tishli konussimon uzatmalar. G'ildirak tishlarni kesish usullari. Afzallik va kamchiliklari. Ilashishda hosil bo'lgan kuchlar.

10-MAVZU. Konussimon uzatmalarni kontakt va egilishdagi kuchlanishlar bo'yicha mustaxkamlikka tekshirish. Kontakt kuchlanish qiymatiga tishli g'ildirak materialni ta'siri hamda uzatmaning geometrik o'lchamlariga uzatmani uzatish sonini ta'siri.

11-MAVZU. Chervyakli uzatmalarni turlari. Ishlatilishi. Geometriya va kinematikasi. Sirpanish tezligi. Chervyakli uzatmalarni turlari. Konstruktsiyalari. Ishlatilishi. Afzallik va kamchiliklari. Geometriya va kinematikasi. Chervyak va chervyakli g'ildiraklarni eskiz chizmalari. q – koeffitsient to'g'risida tushuncha. Uzatish soni. Ilashish moduli. Sirpanish tezligi.

12-MAVZU. Chervyakli uzatmalarni kontakt va egilishdagi kuchlanish bo'yicha mustaxkamlikka tekshirish. F.I.K. Uzatmalarni qizishga tekshirish. Moylash. Sovutish. Kuchlanish qiymatlariga chervyakli g'ildirak materialning ta'siri. F.I.K. Uzatmani qizishi, moylash, sovitish yo'llari.

13-MAVZU. Tasmali uzatmalar. Turlari. Tasmali uzatmalarni xisoblashni nazariy asoslari. Eyler formulasini keltirib chiqarish. Etaklovchi va etaklanuvchi tarmoqlarda kuchlar. Tarmoqdagi kuchlar qiymatiga qamrov burchagi, ishqalanish koeffitsient qiymatlarini ta'siri.

14-MAVZU. Ponasimon tasmali uzatmalar. Turlari. Xisobi. Ponasimon uzatmalar turlari. Ponasimon tasmalarini tuzilishi. Uzatmada uzatish soni, shkv diametlari, uzatmani tezliklarini tasmadagi kuchlanishlarga ta'siri. Tarmoqlarda hosil bo'lgan kuchlanishlar. Uzatmani hisobi. Tasmalar soni.

15-MAVZU. Yassi tasmali uzatmalar. Turlari. Xisobi. Yassi tasmali uzatmalar. Turlari. Tasmalarda xosil bo'lgan kuchlanishlar. Kuchlanishlarni tarmoqlar bo'yicha taqsimlanish epyurasi. Yassi tasmali uzatmalarni xisobi. Tasmalarni eni va qalinligini aniqlash.

16-MAVZU. Tasmalarni tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar. Sirpanish tezligi. Tasmali uzatmalarni taranglash usullari. Tasmalarni tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar. Materiallar turlari. Ishlatish sharoitlari. Tasmali uzatmalarni taranglash uchun moslamalar. Taranglashdan maqsad. Qamrov burchagini oshirish yo'llari. Ishqalanish koeffitsientini oshirish yo'llari.

17-MAVZU. Friksion uzatmalar. Ishlatilishi. Afzallik va kamchiliklari. Variatorlar. Konstruktsiyasi. Ishlatilishi. Mustahkamlikka hisobi Friksion uzatmalar. Ishlatilishi. Afzallik va kamchiliklari. Konstruktsiyasi. Variatorlar. Ishlatilishi. Konstruktsiyasi. Uzatish soni. Boshqarish darajasi. Kinematika va geometriyasi. Kotoklarni tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar. Mustaxkamlikka tekshirish.

18-MAVZU. Zanjirli uzatmalar. Ishlatilishi. Afzallik va kamchiliklari. Konstruktsiyasi. Geometriyasi. Hisobi. Zanjirli uzatmalar. Ishlatilishi. Turlari. Afzallik va kamchiliklari. Konstruktsiyasi. Ishlatilishi. Rolikli, vtulka-rolikli, zanjirli uzatmalar. Zanjirlarni tanlash. Asosiy xarakteristikalar. Hisobi. Moylash.

19-MAVZU. Vallar va o'qlar. Tuzilishi. Taxminiy hisobi. Eskiz chizmasi. Xavfsizlik koeffitsienti. Vallar va o'qlar. Tuzilishi. Taxminiy hisobi. Eskiz chizmasi. Val va o'qlar uchun moslamalar. Eguvchi moment epyuralarini qurish. Xavfsizlik koeffitsientini aniqlash.

20-MAVZU. Podshipniklar. Sirpanish podshipniklar. Ishlatilishi. Konstruktsiyasi. Hisobi. Podshipniklar. Umumiy malumotlar. Sirpanish podshipniklari. Ishlatilishi. Afzallik va kamchiliklari. Konstruktsiyasi. Quruq, nim quruq, nim suyuq, xamda suyuqlikdagi ishqalanish. Quruq va nim quruq nim suyuq ishqalanishlarni shartli xisobi. Suyuqlikdagi ishqalanishni xosil qilish sharti.

21-MAVZU. Dumalash podshipniklari. Turlari. Ishlatilishi. Dinamik yuk ko'taruvchanlik bo'yicha hisoblash. Radial, radial-tirak, tirak podshipniklar. Tuzilishi. Afzallik va kamchiliklari. Qo'shimcha bo'ylama kuchlarni hosil bo'lishi. Dinamik va statik yuk ko'taruvchanlik bo'yicha xisoblash.

22-MAVZU. Birikmalar. Ajralmas va ajraluvchan birikmalar. Ajraluvchi birikma turlari. Mustaxkamlikka xisoblash. Boltli, shponkali, shlitsli birikmalar. Ishlatilishi. Afzallik va

kamchiliklari. Konstruktsiyalari. Tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar. Mustaxkamlikka tekshirish.

23-MAVZU. Ajralmas birikmalar. Turlari. Mustaxkamlikka xisoblash. Ishlatilishi. Konstruktsiyasi. Tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar. Mustahkamlikka tekshirish.

24-MAVZU. Muftalar. Turlari. Tanlash. Mustaxkamlikka xisoblash. Doimiy biriktiriladigan muftalar. Elastik elementli muftalar. Vtulka-barmoqli muftalarda barmoqlarni mustahkamlikka tekshirish. Avtomatik muftalar. Muftalarni konstruktsiyalari.

3.	«Mashina detallari» fani bo'yicha ma'ruza, amaliyot va laboratoriya mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishning kontseptual asoslari
-----------	--

Ta'lim texnologiyasi insoniylik tamoyillariga tayanadi. Falsafa, pedagogika va psixologiyada bu yo'nalishning o'ziga xosligi talabning individualligiga alohida e'tibor berish orqali namoyon bo'ladi.

Shulardan kelib chiqqan holda "Mashina detallari" kursining ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirishda quyidagi asosiy kontseptual yondashuvlarga e'tibor berish kerak.

Ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi. O'z mohiyatiga ko'ra bu yo'nalish ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning to'laqonli rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu esa Davlat ta'lim standarti talablariga rioya qilgan holda o'quvchining intellektual rivojlanishi darajasiga yo'naltirilib qolmay, uningning ruhiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni ham anglatadi.

- **Tizimli yondashuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam qilishi zarur: jarayonning mantiqiyliqi, undagi qismlarning o'zaro aloqadorligi, yaxlitligi.

- **Amaliy yondashuv.** Shaxsda ish yuritish xususiyatlarini shakllantirishga ta'lim jarayonini yo'naltirish; o'quvchi faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha layoqati va imkoniyatlarini, sinchkovligi va tashabbuskorligini ishga solishni shart qilib qo'yadi.

- **Dialogik yondashuv.** Ta'lim jarayonidagi ishtirokchi sub'ektlarning psixologik birligi va o'zaro hamkorligini yaratish zaruratini belgilaydi. Natijada esa, shaxsning ijodiy faolligi va taqdimot kuchayadi.

- **Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratiya, tenglik, sub'ektlar munosabatida o'qituvchi va o'quvchining tengligi, maqsadini va faoliyat mazmunini birgalikda aniqlashni ko'zda tutadi.

- **Muammoli yondashuv.** Ta'lim jarayonini muammoli holatlar orqali namoyish qilish asosida o'quvchi bilan birgalikdagi hamkorlikni faollashtirish usullaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy bilishning ob'ektiv ziddiyatlarini aniqlash va ularni hal qilishning dialektik tafakkurni rivojlantirish va ularni amaliy faoliyatda ijodiy ravishda qo'llash ta'minlanadi.

- **Axborot berishning eng yangi vosita va usullaridan foydalanish,** ya'ni o'quv jarayoniga kompyuter va axborot texnologiyalarini jalb qilish.

Yuqoridagi kontseptual yondashuv va "Mashina detallari" fanining tarkibi, mazmuni, o'quv axborot hajmidan kelib chiqqan holda o'qitishning quyidagi usul va vositalari tanlab olindi.

- **O'qitish usullari va texnikasi:** muloqot, keys stadi, muammoli usul, o'rgatuvchi o'yinlar, "aqliy hujum", insert, "Birgalikda o'rganamiz", pinbord, ma'ruza (kirish ma'ruzasi, vizual ma'ruza, tematik, ma'ruza-konferentsiya, aniq holatlarni echish, avvaldan rejalashtirilgan xatoli, sharhlovchi, yakuniy).

- **O'qitishni tashkil qilish shakllari:** frontal, kollektiv, guruhiy, dialog, polilog va o'zaro hamkorlikka asoslangan.

- **O'qitish vositalari:** odatdagi o'qitish vositalari (darslik, ma'ruza matni, tayanch konspekti, kodoskop)dan tashqari grafik organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.

- **O'zaro aloqa vositalari:** nazorat natijalarining tahlili asosida o'qitishning diagnostikasi (taxlili).

- **Boshqarishning usuli va vositalari.** O'quv mashg'ulotini texnologik karta ko'rinishida rejalashtirish o'quv mashg'ulotining bosqichlarini belgilab, qo'yilgan maqsadga erishishda o'quvchi va o'qituvchining hamkorlikdagi faoliyatini talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini aniqlab beradi.

- **Monitoring va baholash.** O'quv mashg'uloti va butun kurs davomida o'qitish natijalarini kuzatib borish, o'quvchi faoliyatini har bir mashg'ulot va yil davomida reyting asosida baholash.

Ma'ruza mashg'ulotini tashkil etishning shakl va xususiyatlari:

tG'r	Ma'ruza shakllari	O'ziga xos tavsiflovchi xususiyatlari
1.	Kirish ma'ruzasi	Fan to'g'risida yaxlit tasavvur hamda ma'lum yo'nalishlar beradi. Pedagogik vazifasi: o'quvchini ushbu fanning vazifalari va maqsadi bilan tanishtirish, kasbiy tayyorgarlik tizimida uning o'rne va rolini belgilash, kursning qisqacha sharhini berish, fanning yutuqlari va taniqli olimlar nomlari bilan tanishtirib, kelajakdagi izlanishlarning yo'nalishini belgilash, tavsiya qilingan o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlilini berish, hisobot va baholashning muddatlari va shakllarini belgilash.
2.	Ma'ruza axborot	Ma'ruzaning odatdagi an'anaviy turi. Pedagogik vazifasi: o'quv ma'lumotlarini bayon qilish va tushuntirish.
3.	Sharhlovchi ma'ruza	Bayon qilinayotgan nazariy fikrlarning o'zagini, ilmiy tushunchalar va butun kurs yoki bo'limlarining kontseptual asosini tashkil etadi. Pedagogik vazifasi: ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish, fanlarning o'zaro aloqadorligini ochish.
4.	Muammoli ma'ruza	Yangi bilimlar qo'yilgan savol, masala, holatning muammoliligi orqali beriladi. Bunda o'quvchining o'qituvchi bilan birgalikdagi bilish jarayoni ilmiy izlanishga yaqinlashdi. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv axborotining mazmunini ochish, muammoni qo'yish va uni echimini topishni tashkil qilish, hozirgi zamon nuqtai nazarlarini tahlil qilish.
5.	Vizual ma'ruza	Ma'ruzaning mazkur shakli vizual materiallarni namoyish etish hamda ularga aniq va qisqa sharhlar berishga qaratilgan. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarini o'qitishning texnik vositalari va audio, videotexnika yordamida berish.
6.	Binar (ikki kishilik) ma'ruza	Bu ma'ruza ikki o'qituvchining yoki ikkita ilmiy maktab namoyondasining, o'qituvchi-talabaning dialogidan iborat. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarining mazmunini yoritish.
7.	Avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma'ruza	Xatolarni izlashga mo'ljallangan mazmuni va uslubiyatida, ma'ruza oxirida tinglovchilar taxlili o'tkaziladi va qilingan xatolar tekshiriladi. Pedagogik vazifasi: yangi materiallar mazmunini yoritish, berilgan ma'lumotni doimiy nazorat qilishga talabalarni rag'batlantirish.
8.	Ma'ruza konferentsiya	Avvaldan qo'yilgan muammo va dokladlar tizimi (5-10 minut)dan iborat ilmiy-amaliy dars sifatida o'quv dasturi chegarasida o'tiladi. Dokladlar birgalikda muammoni har tomonlama yoritishga qaratilishi kerak. Mashg'ulot oxirida o'qituvchi mustaqil ishlar

		va talabalarning ma'ruzalarga yakun yasab, to'ldirib, aniqlashtirib xulosa qiladi. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotning mazmunini yoritish.
9.	Maslahat ma'ruza	Turli stsenariylar yordamida o'tishi mumkin. Masalan, 1) «Savol-javob» - ma'ruzachi tomonidan butun kurs bo'yicha yoki alohida bo'lim bo'yicha savollarga javob beriladi. 2) «Savol-javob-diskussiya» - izlanishga imkon beradi. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotni o'zlashtirishga qaratilgan.

**“MASHINA DETALLARI” FANIDAN
MA’RUZA MASHG’ULOTLARINI
O’QITISH TEXNOLOGIYASI**

1-mavzu.	«Mashina detallari» fanining ahamiyati. Detallarining ishga layoqatliligi va uni o'qitish.
-----------------	---

1.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Mashina detallari fanining rivojlanishi. 2. Mashina detallari fanining fundamental fanlar bilan bog'liqligi. 3. Detallarining ishga layoqatliligi va uni ta'minlash.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: “Mashina detallari” fanining o'rganish va bilish usullari, rivojlanish tarixi boshqa fanlar bilan aloqasi to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavurni shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar: - Mashina detallari tushunchasi va fan predmetini tushuntirish; - fanni rivojiga asos solgan namoyondalari bilan tanishtirish; - detallarni ishga layoqatliligi va ularni ta'minlash.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: - Mashina detallari fanini predmetini izohlaydi; - Mashina detallari fanini rivojlanishi va ularning asoschilarini aytib beradi; - Mashina detallarini ishga layoqatliligi to'g'risida ma'lumot beradi; - Mashina detallari faning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasini va uni fanlar ichida tutgan o'rnini tavsiflaydi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Vizual ma'ruza, blich-so'rov, bayon qilish, klaster, “ha-yo'q” texnikasi
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.
O'qitish shakli	Jamoa, guruh va juftlikda ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi (1-mashg'ulot)

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Mashina detallari fani qachondan boshlab rivojlana boshlagan? - Xamma mashinalarga xos bo'lgan detallarini qayd qiling? 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. Mashina detallari fanining rivojlanish tarixi, hissa qo'shgan olimlar haqida sharhlaydi. 2.3. Detallarini ishlash layoqatliligi to'g'risida tushuncha beriladi. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajasini aniqlash uchun tezkor savol javob	2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi. O'ylaydi, javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Eshitadi. Savollar berib asosiy joylarini yozib oladi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi.

	o'tkaziladi. a) Mashina detallari qachondan boshlab predmet sifatida o'rganiladi? b) Mashina detallari fanini rivojlanishiga xissa qo'shgan olimlar? v) Detallarning ishga layoqaliligi deganda nimani tushinasiz?	Xar bir savolga javob berishga xarakat qiladi. Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Detallarni ishga layoqatligi" so'ziga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

Vizual materiallar

1-savol. Mashina detallari fanini rivojlanishi.

1-ilova.

Mashina detallari fani hamma mashinalarga xos bo'lgan detal va uzellarini hisoblash va loyixalash asoslarini o'rgatadi.
Mashina detallari fani predmet sifatida 1900 yilda "Mashinalar loyixalash" fanidan ajratilgan. Umuman olganda mashinalar mexanizmi bilan qadim zamonlardan shug'lanib kelinadi.
Masalan: O'rta Osiyo olimlaridan Abdul Abbas Axmad Ibn Muxammad Kasir Al-Farobiy (1788 yilda tug'ilgan) tomonidan yaratilgan mexanik kalendar, burchaklarni o'lchash asboblari va boshqa asboblari, Abu Ali al-Xusayn Ibn Abdullax ibn Sinoning (980-1087) "Axl mezoni" asarida mexanizmdagi oddiy sistemalar, ya'ni g'ildiraklar, richaglar, blokklar, vintlar va ponalardan tuzilgan mexanizmlarning ishlash printsiplarini bayon etilgan.

Hozirda faning rivojlanishida taniqli olimlarimizdan H.H.Usmonxo'jaev, G'.S.Kuziboev, R.G'.Maxkamov, G'.Sh.Zokirov, A.Juraev, R.I.Karimov, Sh.Alimuxamedov, A.D.Gulushenko, O.V.Lebedev va boshqalarning xissalari katta

1900 yildan boshlab Oliy o'quv yurtlar uchun "Mashina detallari" predmet sifatida chop etila boshladi, bular:

1. K.Zvoro'kin. Mashina detallari kursi, 1900 y
2. V.E.Tir, Mashina detallari, Xarkov, 1903 y
3. M.N.Berlov, Mashina detallari, Riga, 1909-1934y
4. A.N.Rogovskiy, Mashina detallari, 2.1 i II M., 1909y,
5. I.I.Boboro'kov, Mashina detallari, 1913-1932 y.
6. I.M.Xolmagarov, Mashina detallari, 1926 y
7. D.A.Lebedev, Mashina detallari, 1934 y
8. I.N.Zamintskiy, Mashina detallari, 1936 y
9. L.B.Levenso, Guzenkov, Mashina detallari, 1939 y


2-savol. «Mashina detallari»ni fanining fundamental fanlar bila bog'liqligi



Mashina detallari

3-savol. Detallarning ishga layoqatliligi va ularni ta'minlash

Янги лойihalаниётган машина ва деталлар ишда ишончли, мустахкам, ишлаш муддати узок, йиғиш осон, иш унумдорлиги юкори, бошқариш қулай, ўлчамлари кичик, кўриниши эстетик жиҳатдан кўркем ҳамда иқтисодий жиҳатдан тежамли бўлиши керак.



Mashg'ulot bo'yicha xulosa

1. Mashina detallari fani asosan hamma mashinalarni xos detallarini xisoblash va loyihalash asoslarini o'rgatadi.
2. Mashina detallari fan sifatida rivojlanib, yangi-yangi izlanishlar detallarini ishonchli ishlashini oshirish bo'yicha olib boriladi.
3. Mashina detallari ishga layoqatliligi aniqlanib, uni ta'minlash uchun xisob ishlari olib boriladi

2-ilova.

Mashina mexanizmlari, uzellar va detallarni loyihalash asoslari. Detallarning ishga layoqatliligi va uni ta'minlash.

Sanoatda ishlaydigan hamma mashina va mexanizmlar detallardan tayyorlanib yig'iladi. Detal bu mashinaning bir xil materialdan tayyorlangan va ayrim bo'laklarga ajralmaydigan qismi, masalan: bolt, gayka, val, shkiv, tishli g'ildirak va boshqalar.

Mashinada ma'lum bir vazifani bajarish uchun mo'ljallangan va bir necha detallar yig'ilgan qismi uzal deyiladi. Masalan: podshipnik, mufta.

Mashina mexanizmlardagi detallarni soni yuzlab, minglab ayrim xollarda, masalan, samolyotlarda millionlab bo'lishi mumkin. Lekin shunga qaramasdan hamma mashinalarda bir-biriga o'xshash detal va uzellar mavjud. Masalan: tishli g'ildirak, podshipniklar, val, birikmalar, muftalar va shunga o'xshash detallar va uzellar. Amaliy mexanikaning bu qismida shu detal va uzellarni loyihalash asoslari o'rganiladi. Maxsus detallar esa mutaxassis kafedralarda o'rganiladi.

Loyihalalanayotgan mashina va detallar ishda ishonchli va aniq, mustahkam, ishlash muddati uzoq, yig'ish engil, unumdorligi yuqori, boshqarish o'ng'ay, o'lchamlari kichik, estetik ko'rinishli hamda iqtisodiy jihatdan tejamli bo'lishi kerak.

Ishlash layoqati uning mustahkamligi, bikrligi va issiqqa, eyilishga va titrashga chidamliligi bilan belgilanadi.

Detalning ishlash layoqati shu detallarning ishlash sharoitiga nisbatan belgilanadi. Shuning uchun detallarni qanday sharoitda ishlashini aniqlab, qanday shart qo'yilishini belgilash kerak va uni hisoblash va loyihalashda shu shart bajarilishini ta'minlash lozim.

Mustahkamlik bu detalning berilgan vaqt ichida deformatsiyalanishi me'yorida bo'lgan holda ishlay olish xususiyati. Detalning mustahkamligi uning xavfli kesimida normal va urinma kuchlanishlar qiymati bilan belgilanadi.

Detailarning ishlash jarayonida elastik deformatsiyasi ruxsat etilgan qiymatdan oshmasligi uchun uning bikrligi ta'minlanishi kerak.

Ish jarayonida detallarning bikrligi ta'minlash uchun chiziqli va burchak siljishlarning qiymatlari ruxsat etilgan qiymatdan oshmasligi, ya'ni quyidagi shart $\varphi_{\max} < [\varphi], f_{\max} < [f]$ bajarilishi kerak.

Eyilishi detallarning o'zaro ishqalanishi tufayli sodir bo'lib, detallar o'z o'lchamini asta-sekin o'zgartirishidir.

Eyilgan stanoklarda tayyorlangan mahsulotlar noaniq tayyorlanadi. Shuning uchun detallarning eyilishi ma'lum darajaga etgandan so'ng uni almashtirish tavsiya etiladi.

Hozirgi vaqtda sanoatda ishlatiladigan mashinalarning 70÷75% shu detallarning eyilishi tufayli ishga yaroqsiz bo'lmoqda. Mashinalarni ishlatish jarayonida tez-tez ta'minlanib turilishi chiqarilayotgan mahsulot tannarxini oshiradi. Demak, mashinasozlik sanoatida loyihalananayotgan, tayyorlanayotgan mashinalar butun ish jarayonida ta'mirlanmasdan ishlashi ta'minlanishi kerak. Shuningdek detallarni eyilish sabablarini, ya'ni ishlash sharoiti, moylanish darajasi, kontakt kuchlanishining qiymatlari va boshqa omillari yaxshi o'rganilishi kerak.

Hozirgi vaqtda mashinasozlikda detallarni eyilishini kamaytirish uchun ishqalanish yuzalarida suyuqlikdagi ishqalanish hosil qiluvchi konstruksiyalar yaratish ustida ishlanmoqda, bunda ishqalanish koeffitsienti 0,005. Shu suyuqlikdagi ishqalanish hosil bo'lmagan hollarda detallarni eyilishga chidamliligini ta'minlovchi aniq bir hisoblash usulini tavsiya etish qiyin. Shulardan eng ko'p tarqalgan solishtirma bosim q va shartli koeffitsientlar qv ni aniqlab, ularni ruxsat etilgan qiymatlari bilan solishtirish usulidir:

$$q \leq [q], qv \leq [qv]$$

bu erda: v -ishqalanish tezligi; mG 'sek; q -bosim, nG 'mm.

Ishqalanuvchi detallarni zarur darajada moylab turish, termik qayta ishlash, eyilishi chidamchi materiallar ishlatish, eyilishni kamaytirish tadbirlaridandir.

Titrashga chidamlilik. Mashinalar ishlash jarayonida titrash natijasida detallarda qo'shimcha dinamik kuchlar hosil bo'ladi, bu esa ularning toliqishiga sabab bo'ladi va ishdan chiqishini tezlatadi.

Mashinalarda titrash hodisasini kamaytirish uchun titroq so'ndirgichlardan, ya'ni maxsus elastik elementlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Issiqlikka chidamlilik. Detailarning o'zaro bir-biriga ishqalanishi natijasida qiziydi, natijada detallarni mustahkamligi pasayadi, moylash uchun ishlatiladigan yog'larni moylash xususiyatlari kamayadi, o'zaro ishqalanuvchi detallarning eyilishi ortadi. Shuning uchun mashinalar qizishi me'yoridan ortib ketmasligi kerak, ya'ni

$$Q < Q_1$$

Shart bajarilishi kerak.

Bunda: Q - ish jarayonida hosil bo'lgan issiqlik

Q_1 -yog' uchun ruxsat etilgan issiqlik qiymati.

Mashinaning qizishida salbiy hollar ro'y bermasligi uchun, mashina va mexanizmlar kerak bo'lgan hollarda qizishga tekshiriladi, bunda mashinalarni qizishi me'yordan oshiq bo'lsa maxsus sovutgichlar ishlatiladi yoki konstruktiv o'zgarishlar kiritiladi.

So'ngi yillarda mashinalarning ishonchli ishlashiga katta e'tibor berilmoqda. Mashinalarning qanchalik ishonchli ishlashi esa ularni to'xtab qolmay ishlash darajasiga qarab belgilanadi.

Mashina va mexanizmlarni ishonchli ishlashini ta'minlashni quyidagi etaplarga bo'lish mumkin: **loyihalash, mashina va mexanizmlar detallarini tayyorlash, yig'ish**, mashina va mexanizmlarni ishlatish davri.

Loyihalash davrida mashinalarni ishonchli ishlashiga asos solinadi. Bunda konstruktor chizmalarda, hisobda, texnik qog'ozlarida shu mashina ishonchli ishlashi uchun kerakli hamma shartlarni ko'rsatgan bo'lishi kerak.

Mashina va mexanizm detallarini tayyorlash jarayonida ularning ishonchli ishlashi uchun konstruktor tomonidan qo'yilgan hamma shartlar bajarilishi kerak, bu bajarilishi esa nazorat qilib turilishi kerak.

Mashinalarni ishlatish jarayonida ishonchli ishlashi, shu butun ishlashi kerak bo'lgan vaqt ichida to'xtab qolmay ishlash darajasiga qarab belgilanadi. Masalan, dvigatelni ishga tushurish uchun 100 marta harakat qilinganda, u 99 marta ishlab ketsa, bu mashinaning ishonchlilik koeffitsienti 0,99 bo'ladi, ya'ni

$$P(t) = 99/100 = 0,99$$

Iшонchli koeffitsient qiymati, tekshirilayotgan detal qancha vaqt (t) ichida tekshirilganiga hamda shu detalning yangi yoki eskiligiga bog'liq. Eski detallarda bu P(t) qiymati kam bo'ladi.

Mashinalarning ishonchli koeffitsienti undagi har bir detallarning ishonchli koeffitsienti qiymatlari ko'paytmasiga teng, ya'ni:

$$P(t) = P_1(t) \cdot P_2(t) \cdot \dots \cdot P_n(t)$$

Demak bu formuladan ma'lumki:

1. Mashinaning ishonchli koeffitsienti, uning eng kam ishonchli koeffitsientli detalining qiymatidan ham kam bo'ladi.
2. Mashinada qanchalik detallar ko'p bo'lsa, uning ishonchli koeffitsient qiymati shunchalik kam bo'ladi. Masalan, mashinada 100 ta element bo'lib, hamma detallarning ishonchli koeffitsient qiymati P(t) 0,99 bo'lganda butun mashinaning ishonchli koeffitsienti $P(t) 0,99^{100} \approx 0,37$. Demak bunday mashina ishga yaroqsiz bo'ladi.

Umuman aytganda, yuqorida ko'rsatilgan belgilarning ko'pchilik detallar uchun zarur bo'lgan eng asosiysi mustahkamlikdir, chunki mustahkam bo'lmagan detallar butunlay ishlay olmaydi.

Detailarning ishga layoqatligini, ya'ni mustahkamlik, bikirliklarini ta'minlanganligini ruxsat etilgan kuchlanish qiymati bilan solishtiriladi, ya'ni $\sigma_{\max} < \{\sigma\}, \tau_{\max} < \{\tau\}$ yoki ehtiyotlik koeffitsientining qiymati $S \geq \{S\}$ bo'lishi kerak. $\sigma_{\max}, \tau_{\max}$ - xisobiy normal va urinma, $[\sigma], [\tau]$ - ruxsat etilgan normal va urinma kuchlanish:

Nazorat savollari.

1. Mashina detallari fanining vazifasi?
2. Umumiy, maxsus va uzellarga misollar keltiring.
3. Mashinalarning ishga layoqatligi deganda nimani tushinasiz?
4. Mashinalarning ishonchli ishlashi deganda nimani tushinasiz?
5. Mustahkamlik va bikirlik nima? Shartlarni yozing.
6. Detailarning eyilishni, qizishini, titrashini kamaytirish usullarini yozing.

2-mavzu.	Ruxsat etilgan kuchlanishlar. Kuchlanish turlari. Xavfsizlik koeffitsienti.
-----------------	--

2.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Ruxsat etilgan kuchlanish nima? 2. Kuchlanish turlari

	3. Xavfsizlik koeffitsienti.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Kuchlanish va kuchlanish turlari haqida ma'lumotga ega bo'lish hamda havfsizlik koeffitsientiga ta'sir qiladigan omillarni o'rganish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mashina detallarini tashqi kuchlar ta'sirida hosil bo'lgan kuchlanishlarni turlarini tushuntirish; - Xavfsizlik koeffi-tsienti haqida ma'lumot berish;	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - detallarda kuchlanishni xosil bo'lishini izohlaydi; - kuchlanish turlarini aytadi va chizadi; - xavfsizlik koeffitsient to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamoa va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Kuchlanish nima? - Ruxsat etilgan kuchlanish qanday kuchlanish? 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etadi.	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Eshitadi. Savollar berib asosiy joylarni yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalaga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish uchun vazifa: "Kuchlanish turlari" so'ziga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baxolaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. yozib oladilar 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

Vizual materiallar.


1-savol. Ruxsat etilgan kuchlanish nima?

1-ilova.

Машина деталларида ташқи кучлар таъсирида ҳосил бўлган кучланиш қийматлари катта аҳамиятга эга. Бу кучланишлар қиймати рухсат этилган кучланиш қийматларидан катта бўлмаслиги керак яъни $\sigma_H < [\sigma_H]$ шарт бажарилади

2-savol. Kuchlanish turlari

Кучланишлар доимий, симметрик, носимметрик, пульсация цикли турларига бўлинади.



3-savol. Xavfsizlik koeffitsienti.

Деталларнинг хавфсизлик коэффициентига таъсир қилувчи омиллар бу деталларни аниқлик даражаси, материал, термик қайта ишланиши, кучланишларни тўпланишга сабабчи омиллар.

Mashg'ulot bo'yicha xulosa

1. Mashina detallarida tashqi kuchlar hosil bo'lgan kuchlanish qiymatlari katta rol o'ynaydi.
2. Ta'sir qilinayotgan kuchlarga nisbatan kuchlanishlar bir necha turlarga bo'linadi.
3. Xavfsizlik koeffitsientini mashinalarni ishlash jarayoniga ta'siri to'g'risida mulohaza qilinadi.

2-ilova.

Ruxsat etilgan kuchlanishlar. Kuchlanish turlari. Xavfsizlik koeffitsienti.

Ruxsat etilgan kuchlanish va ehtiyotlik koeffitsenti

Detalning mustahkamlik va uzoq muddat ishlashini ta'minlash mumkin bo'lgan eng katta kuchlanish ruxsat etilgan kuchlanish deb ataladi. Far qanday detalni loyihalash ruxsat etilgan kuchlanish qiymatni tanlash bilan bog'langan bo'lib, bu esa detalni mashinada yaxshi ishlashi, nisbatan kam material sarf qilishini ta'minlaydi. Ruxsat etilgan kuchlanishning qiymati quyidagicha aniqlanadi:


$$[\sigma]q\sigma_{lim}[S]MPa; [\tau]q\tau_{lim} [S]Mpa$$

Bunda: $[\sigma],[\tau]$ - normal va urinma kuchlanishlarning ruxsat etilgan qiymatlari; $[S]$ - ehtiyotlik koeffitsientining ruxsat etilgan qiymati; σ_{lim}, τ_{lim} - detalning materialga, kuchlanishni o'zgarish xarakteriga bog'liqli normal va urinma kuchlanishlar.

Detaldagi kuchlanishlar o'zgaruvchan va o'zgarmas bo'lishi mumkin, (1, 1a,b,v-rasmlar) bunda eng katta va eng kichik kuchlanishlar yig'indisining yarmi σ_m o'rtacha kuchlanish, ayirmasining yarmi esa tsiklning amplitudasi deyiladi.

$$\sigma_m = \frac{\sigma_{\max} + \sigma_{\min}}{2}; \quad \tau_m = \frac{\tau_{\max} + \tau_{\min}}{2}$$

$$\sigma_a = \frac{\sigma_{\max} - \sigma_{\min}}{2}; \quad \tau_a = \frac{\tau_{\max} - \tau_{\min}}{2}$$



Ruxsat etilgan kuchlanishni aniqlashda ikki xil usuldan foydalaniladi, bu jadval hamda differentsial usullar.

Jadval usul ilmiy-tekshirish institutlari, mashinasozlik zavodlari tomonidan qabul etilib, ishlab chiqarishga tavsiya etiladi.

Differentsial usul – bunda detalning materiali hamda kuchlanishning o'zgarish harakteri hisobga olgan holda ruxsat etilgan kuchlanishlarning qiymati aniqlanadi.

Ruxsat etilgan kuchlanish qiymati, kuchlanishning katta qiymati bilan ehtiyotlik koefitsient qiymatiga bog'liq.

Ehtiyotlik koefitsientining qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$[S] = [S_1] \cdot [S_2] \cdot [S_3]$$

Bunda: $[S_1]=1 \div 1,5$ detalga ta'sir qiluvchi kuchlar qiymatini aniqligini hisobga oluvchi koefitsient; $[S_2]$ - ishlatilayotgan materialning tarkibini bir xilligini hisobga oluvchi koefitsient: po'lat materiallar uchun $[S_2]=1,2 \dots 1,5$ cho'yan materiallar uchun $[S_2]=1,5 \dots 2,5$; $[S_3]=1 \dots 1,5$ xavfsizlik koefitsienti.

Kuchlanish simetrik yoki assimetrik o'zgaruvchan bo'lganda buralish va egilishdagi kuchlanishlar ta'sirida ehtiyotlik koefitsientining qiymati:

$$[S] = S_\sigma \cdot S_\tau / \sqrt{(S_\sigma^2 + S_\tau^2)}$$

Elastik materiallar uchun $[S] = \sigma_{ok} / \sigma_{max}$

Murd materiallar uchun $[S] = \sigma_{ok} / \sigma_{max}$

Bunda: σ_{max} – tekshiralayotgan kesimdagi kuchlanishning eng katta qiymati

Nazorat savollari.

1. Qanday kuchlanish joiz kuchlanish deb ataladi?
2. Kuchlanishlarni qanday turlarga bo'linadi.
3. Simmetrik va nosimmetrik tsikl bilan o'zgaruvchi kuchlanishlarni eskiz chizmasini chizing.
4. Doimiy va pulsatsiya tsikl bilan o'zgaruvchi kuchlanishlarni eskiz chizmasini chizing.
5. Ruxsat etilgan kuchlanishlarni aniqlashni qanday usullarini bilasiz?

3-mavzu.	Mashinasozlikda ishlatiladigan materiallar. Termik qayta ishlash.
-----------------	--

3.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Mashinasozlikda ishlatiladigan materiallar. 2. Detallarni termik qayta ishlash.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Mashinasozlikda detallarni tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallarini bilish hamda detallarni qattiqligini oshirish yo'llari to'g'risida tasavvurni shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Mashinasozlikda ishlatiladigan materiallarini turlari va qanday xollar-da ishlatish sabablarini izoxlash;	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Mashinasozlikda ishlatiladigan materiallarga ta'rif beradi;

- Termik qayta ishlash usullarini tushuntirish; - Termik qayta ishlash maqsadini tushuntirish;	- Termik qayta ishlash sabablarini va usullarini tushuntiradi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Axborot ma'ruzasi, insert, blits-so'rov, prezentatsiya, grafik organayzer texnikalari, aniq holatlarni echish
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, proektor, qog'oz, marker, KTG'OTV, doska, bo'r
O'qitish shakli	Frontal ma'ruza, individual, guruh bilan ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Jihozlangan auditoriya


Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Mashinasozlikda qanday materiallardan foydalaniladi. - Qora metallar bu qanday materiallar; - Qanday xollarda rangli metallar ishlatiladi: 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan xolda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. Mashina detallarni mustaxkamligini oshirish maqsadida termik qayta ishlash usullari tushuntiradi.	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Termik qayta ishlashni sabablarini o'zaro muxokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalaga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Termik qayta ishlash" so'ziga klaster tuzilsin.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. yozib oladilar

Vizual materiallar.


1-savol. Mashinasozlikda ishlatiladigan materiallar

1-ilova.



2-savol. Detallarni termik qayta ishlash

2-ilova.



Mashg'ulot bo'yicha xulosa

1. Detallar ishlash sharoitini qarab hisobga olgan holda xar xil materiallardan tayyorlanadi.
2. Detallarni mustahkamligini oshirish uchun xar xil usullar bilan termik qayta ishlanadi.

3-ilova.

Mashinasozlikda ishlatiladigan asosiy materiallar va termik qayta ishlov berish.

Mashina detallarni tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar butun ish jarayonida ta'mirlanmasdan ishonchli ishlashi hamda tannarxi arzon, texnologik jihatdan tayyorlash engil bo'lishi kerak.

Mashinalar tannarxi ko'p foizni unga sarf qilingan materiallar tashkil etadi. Masalan, avtomobil sanoatida 65-70%, ko'tarish –tashish mashinalarida 70-75% tashkil etadi.

Detallarni tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallarni tanlash unga qo'yilgan talablarga bog'liq bo'ladi.

Mashina detallarni asosan po'lat, cho'yan, shuningdek, alyuminiy, magniy, titan va ularning qotishmalaridan tayyorlanadi.

Po'lat materiallar. Standartga asosan uglerodli va legirlangan po'latlar bo'ladi.

Uglerodli po'lat deb, tarkibida 2.14% gacha uglerod bo'lgan va kremniy, marganets, oltingugurt xamda-fosfor aralashmali temir-uglerod qotishmasiga aytiladi.

Po'latdagi uglerod asosan tsementit ko'rinishida bo'lib, uning qattiqligini, elastikligini, mustahkamligini oshiradi, lekin plastikligini, zarbiy yuklanishga qarshiligini kamaytiradi, ishlanuvchanligini qiyinlashtiradi.

Tarkibida uglerodni xajmi bo'yicha po'lat materiallar kam uglerodli, ($s_m \leq 0,25\%$) o'rtacha uglerodli ($0,25-0,6\%$) hamda yuqori uglerodli ($s > 0,6\%$) turlarga bo'linadi. Uglerodning miqdori oshishi bilan materialning mustahkamligi oshadi, elastiksimonligi kamayadi. Po'lat materialni shartli belgisidagi sonli qiymat uglerodni hajmini % ko'rsatadi (masalan, $S_T 45$ da 0,45 % uglerod)

Uglerodli po'lat materiallarni xususyatlarini yaxshilash uchun legirlanadi. Legirlangan po'lat tarkibida odatdagi aralashmalardan tashqari, uning xossalarini belgilovchi legirlovchi elementlar xam bo'ladi. Legirlovchi elementlarga xrom, volfram, vanadiy, molibden, nikel, shuningdek ko'p miqdorda kremniy va marganets kabi elementlar kiradi. Legirlangan po'latni markalashda legirlovchi elementlar quyidagicha belgilanadi: X-xrom, N-nikel, A-azot, V-volfram, F-vanadiy, G-marganets, D- mis, P-fosfor, M-molibden, S-kremniy, Yu-alyuminiy, I-tsirkoniy, E-selen, B-niobiy. Legirlangan po'lat materiallarni shartli belgisida raqam va harflar birgalikda legirlangan po'latning xarakteristikasini bildiradi. Agar markaning oldida ikkita raqam bo'lsa, protsenitning yuzdan bir bo'lagiga teng uglerodning o'rtacha miqdorini bildiradi. Marka oldida raqam bo'lmasa, uglerod 1%

va undan ortiq bo'ladi. Xarflardan keyingi raqamlar mazkur legirlovchi elementning miqdorini bildiradi. Marka oxiridagi A harfi po'lat yuqori sifatli ekanligini, unda oltingugurt va fosfor miqdori kam ekanligini bildiradi. Masalan: 12X2N4A-legirlangan bo'lib, tarkibida 0,12 % uglerod, 2% xrom, 4% nikel mavjud, yuqori sifatlidir.

Legirlangan po'lat metallar uglerodli po'lat metallardan qimmat turadi, mustahkamligi nisbatan yuqori bo'lganligi uchun tishli g'ildirak, val va shunga o'xshash detalarni tayyorlash uchun ishlatiladi.

Cho'yan, 2,14%-5% gacha uglerod hamda kremniy, marganets, oltingugurt, fosfor aralashmalaridan tashkil topgan. Cho'yan metallari po'lat metallariga nisbatan yuqori quymakor xususiyatiga ega, lekin elastikligi past.

Cho'yanlar ikki turga bo'linadi. Kulrang cho'yan va oq cho'yan. Kulrang cho'yanni shartli belgisi SCh -12 (kulrang cho'yan mustahkamligi $\sigma_M = 120MPa$) SCh-15 va xokazo, bunda harflardan keyingi sonlar mustahkamlik chegarasini bildiradi.

Kulrang cho'yan mashinasozlikda asosan quymakor material sifatida ishlatiladi.

Oq cho'yanlar qattiqligi yuqori, lekin mo'rt bo'lib, ikki turga bo'linadi, bu bolg'alanuvchi cho'yanlar (KCh-kovkiy chugun) kulrang cho'yanlarga nisbatan plastikroq, mustahkamligi yuqori bo'lgan cho'yanlar (VCh), yuqori mustahkamligi va plastikligi bilan ajralib turadi. Bunday cho'yanlar tirsakli val, tishli g'ildirak va shunga o'xshash detallarni tayyorlashga ishlatiladi.

Termik ishlov berish - po'lat metallarda tayyorlangan detallarni xususiyatini yaxshilash uchun termik qayta ishlanadi, ya'ni ma'lum issiqlikgacha kerakli tezlik bilan qizdirilib, shu issiqlikda ushlab turish, so'ngra sovutishdan iborat.

Termik qayta ishlashning eng ko'p tarqalgani otjig, normallashtirish, toblash va bo'shatishdir.

Otjig – bu detalni ma'lum darajagacha qizdirib shu qizdirilgan holatda ma'lum darajagacha ushlab turib sekin – asta sovutishdir. Bunda uglerodli va legirlangan po'latlarni qayishiqligi kamayadi, ishlanuvchanligi yaxshilanadi.

Normallashtirish-bu sovutish usuli bilan farq qiladi, bunda qizdirilgan detal ochiq havoda sovutiladi. Natijada otjigga nisbatan bir xil strukturali nisbatan qattiq va mustahkam xususiyatga ega bo'lgan material olinadi.

Toblash-bunda qizdirilgan detalni ma'lum darajada shu issiqlikda ushlagandan keyin sovutish tezligi katta bo'ladi. Sovutish suvda, yog'da tuz eritmalarida o'tkaziladi. Bunda bir xil strukturali, mayda donali qattiqligi yuqori, mustahkam, chidamli, lekin kam elastiksimon, ishlanuvchanlik qattiq material olinadi.

Detailarni toblashda butun hajmi bo'yicha yoki ishchi yuzasini toblash mumkin. Ishchi yuzani toblashda yuza katta tezlik bilan qizdiriladi va sovutiladi. Bunday toblashda hajmi toblashga nisbatan deformatsiya kam bo'ladi, hamda ishchi yuza eyilishga va kontakt kuchlanishga chidamli bo'ladi.

Ishchi yuzani toblash 40,45, 50, 40X, 40XM markali uglerod va kam legirlangan po'lat metallardan tayyorlanganni, yani tishli g'ildirak, val, kulachok va shunga o'xshash detallar qilish tavsiya etiladi.

Bo'shatish-termik ishlov berishning yakunlovchi operatsiyasi bo'lib, asosan toblangan po'latlar qilinadi. Bo'shatishdan maqsad po'latning qovushqoqligini oshirib, qayishiqligini kamaytirishdir. Qizdirish temperaturasiga ko'ra past, o'rta va yuqori temperaturada bo'shatishga bo'linadi. Past temperaturada bo'shatishda toblangan po'lat 150-250⁰S gacha qizdiriladi. Bunday temperaturada bo'shatilganda toblashda yuzaga kelgan kuchlanishlar yo'qotiladi. Past temperaturada bo'shatish asbobsozlik po'latlar tsementlanganda, sirtqi qismi toblangandan keyin qo'llaniladi.

Toblangan po'latni o'rtacha temperaturada bo'shatish uchun 350⁰-450⁰S temperaturagacha qizdiriladi. Bunday bo'shatishdan so'ng buyumlarning elastikligi yaxshi, qovushqoqligi etarli darajada bo'lish bilan birga qattiqligi (41-46 MRC_E) va mustahkamligi nisbatan katta bo'ladi. Shuning uchun prujina va resorlar o'rtacha temperaturada bo'shatiladi.

Yuqori temperaturada bo'shatishda toblangan buyumlar 450-650⁰S gacha qizdiriladi. Bunda zarbiy qovushqoqlik keskin oshadi. Shunday paytda zarbiy yuklanishlar tushadigan mashina detallari yuqori issiqlikda bo'shatiladi.

Toblash bilan yuqori temperaturada bo'shatish birgalikda po'latning xossalarini **yaxshilash deb** ataladi.

Ximiyaviy –termik ishlov berish. Bunda po'lat materiallarining sirtqi qatlamining tarkibi, xossalarini o'zgartirish maqsadida unga bir yo'la ham ximiyaviy, ham termik ta'sir o'tkazishdan iborat.

Ximiyaviy –termik ishlov berishni uglerod bilan to'yintirish, azot bilan to'yintirish, uglerod hamda azot bilan to'yintirish va diffuzion metallash usullar bor.

Uglerod bilan to'yintirish –bu usul yuzani uglerod bilan diffuzion to'yintirish jarayoni. Toblangan detal sirtining qattiqligi 58-60 HRC gacha bo'lib uning o'ziga qattiqligi o'zgarmaydi. Kam uglerodli 10, 15,20 markali hamda kam uglerodli legirlangan materiallardan tayyorlangan detallarni uglerod bilan to'yintirish tavsiya etiladi.

Azotlash-bu po'latning sirtqi qatlamining diffuzion yo'l bilan azotga to'yintirishdir. Bunda sirtning qattiqligini , eyilishiga chidamliligini hamda havoda, suvli, bug'li muhitlarda korroziyalanishga qarshiligini oshiradi. Bu usul bilan legirlangan po'lat materialardan tayyorlangan detallarni azotlash samaralidir. Sirtning qattiqligi 1100 HV ga etadi. Lekin azotlash uglerod hamda azot bilan to'yintirish jarayoni nisbatan uzoq davom etadi. Bunda to'yintirish jarayoni gazli yoki tsianid tuzlari muhitida kechadi. To'yintirish gazli muhitda bo'lganida detallarning eyilishiga chidamliligi ortadi, lekin suyultirilgan tsianid tuzlar muhitida to'yintirish nisbatan samaralidir(unumdor).Bunda detal yuzasining 0,2-1mm qalinlikdagi qatlamining qattiqligi oshadi, natijada detallarning eyilishga chidamliligi ortadi.

Diffuzion metallash. Bu po'lat sirtqi qatlamini alyuminiy , xrom, kremniy bilan to'yintirishdir. Alyuminiy bilan metallashda detallarning otashbardoshligi oshiriladi. Bunday detallarni 1200⁰S temperaturada ishlatish mumkin. Kremniylash otashbardoshlikni 800-850⁰S temperaturagacha oshiradi, ishqalanib eyilishga chidamliligini , ba'zi kislotalar korroziya bardoshlikni oshiradi. Xromlash qattiqlikni 1600-1800 HV gacha, korroziya bardoshlikni kuchaytiradi. Diffuzion metallashdan foydalanish texnika jihatidan samarali, iqtisodiy jihatdan foydalidir. Uglerodli po'latlardan yasalgan va sirti xrom, alyuminiy , kremniy bilan to'yintirilgan detallar otashbardosh bo'ladi, bu esa ularni qimmatbaho legirlangan otashbardosh po'latlardan tayyorlashga nisbatan ancha foydalidir.

Po'lat detallar sirtini deformatsiyalab puxtalash. Bu usulda detal sirtiga nitra purkalib rolik bostirib deformatsiyalanadi. Detailarga nitra purkash mexanik ishlov bergandan keyin maxsus nitra purkagichlarida bajariladi. Bunday puxtalashdan keyin detallarning ishlash muddati o'n martagacha oshadi.

Rangli metallar. Mis, alyuminiy, magniy, titan, qalay, qo'rg'oshin, nikel va boshqalar rangli metallardan hisoblanadi. Mashina detallari asosan, ularning qotishmalaridan tayyorlanadi.

Misning asosiy qotishmalari bu latun hamda bronzadir. Misning 4dan 45% gacha miqdori rux bilan qotishmasi latun deyiladi. Latunning mexanik xossalari, masalan, mustahkamligi misnikiga qaraganda yuqori, bosim ostida yaxshi ishlov berish mumkin. Latunning nisbatan arzon turishi uning afzalligi hisoblanadi.

Ishlatilishiga ko'ra qo'yima va bosim ostida ishlov beradigan latunlar bo'ladi. Latunni markalashda quyidagi belgilashlar qabul qilingan: l harfi latunligini , undan keyingi harflar esa

qotishma tarkibidagi mis miqdorini bildiradi. Masalan, $l62$ markali latunning tarkibida 62% mis qolgani ruxdan iborat. Maxsus latunlarni markalashda legirlovchi elementlarni quyidagicha belgilash qabul qilingan: A-alyuminiy, MN- marganets, K- kremniy, O-qalay, S-qo'rg'oshin, N-nikel, J-temirni bildiradi, qolgan raqamlar esa aralashmalarining miqdorini bildiradi. Masalan:

$lM_H \mathcal{K}$ -52-4-1 markali latun tarkibida 52% mis, 4% marganets, 1% temir, qolgani ruxdan iborat

Bronza. Misning qalay, alyuminiy, nikel elementlari bilan hosil qilgan qotishmasi bronza deb yuritiladi. Tarkibiga ko'ra qalayli va qalaysiz bronzalar bo'ladi. Bronzalar yaxshi quymakorlik xossalariga ega, bosim ostida va kesish yo'li bilan yaxshi ishlov berish mumkin. Ko'pgina

bronzalar korroziya bardoshlilikini yaxshiligi bilan ajralib turadi, bundan tashqari ular antifriktsion qotishma sifatida ham keng ko'lamda ishlatiladi.

Elastikligi va elektr o'tkazuvchanligi yuqori bo'lganligidan alyuminiy elektro texnika sanoatida simlar , kabellar, samolyotsozligida trubalar, moy va benzin trubalari; engil va oziq-ovqat sanoatida folga hamda idish tavoqlar tayyorlashda ishlatiladi. Mustahkamligi kam bo'lganidan hamda sovuqlayin plastik deformatsiyalanganda juda oz puxtalanganligidan texnik toza alyuminiy konstruksion material sifatida kamdan kam qo'llaniladi. Uning magniy , mis, rux va boshqa metallar bilan hosil qilgan qotishmalarning mustahkamligi etarli darajada yuqori, zichligi kichik, texnologik xossalari yaxshi bo'lganligi uchun asosan detallarni tayyorlashda bu qotishmalar ishlatiladi.

Bronzalarni markalash printsipli ham latunlarnikiga o'xshash: bu Br harfi bronzani bildiradi; Br harfidan keyin keladigan harflar qotishma tarkibiga kiradigan elementlarni , raqamlar esa elementlarning % da ifodalanadigan miqdorini bildiradi. Masalan: BrOts S8-4-3 markali bronza tarkibida 8% qalay, 4% Rux, 3% qo'rg'oshin , qolgani misdan iborat qalayli bronzadir.

Metallmas materiallar. Plastmassalar metallmas materiallar bo'lib, tabiiy va sintetik polimerlar asosida olinadi va ulardan plastik deformatsiyalash usullarida detallar tayyorlanadi.

Plastmassalar bir necha asosiy gruppaga bo'linadi: mashina detalari uchun ishlatiladigan konstruksion plastmassalar termoreaktiv smolalardan iborat kompozitsiyadir: agressiv muhitda ishlaydigan metallar uchun qo'llaniladigan korroziya bardosh plastmassalarga kiradigan fotoroplastlar va polixloroinlar; issiqlikdan himoya qiladigan asbotekstolit plastmassalar, qistirma zichlamabop plastmassalar; elektroizolyatsion getinaks ftoroplast materiallar; friktsion asbotekstolitlar; antifriktsion, yorug'lik o'tkazadigan va boshqa turlarga bo'linadi.

Plastmassalardan detallarni preslash, bosim ostida qo'yish, plastmassa listlarini shtamplash va boshqa usullar bilan olinadi.

Rezina-bu tabiiy va sun'iy sintetik kauchukni ximiyaviy o'zgarishi(vulkanizatsiya qilingan) natijasida hosil bo'lgan mahsulotni rezina uchun uning yuqori elastikligi , eyilshga chidamliligi , eletrizolyatsion xossalari yaxshiligi, ximiyaviy barqarorligi, gaz va suv o'tkazmasligi xosdir. Rezina o'zining bu xossalari bilan xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llaniladi.

Rezinaning mustahkamligini oshirish uchun undan yasalgan detallar armirlanadi , ya'ni mustahkamligini oshirish maqsadida devorlarni metall-kord, po'lat-sim yoki to'r, shisha yoki kapron iplar qo'shib to'qiladi.

Rezinalar ichida poliuretanlar alohida o'rin egallaydi. Rezinalarga qaraganda ularning fizik – mexanik xossalari yuqori, agressiv muhitlarga , yog', suyultirilgan kislota va ishqorlarga chidamliroq, mustahkamligi katta, eyilishga chidamlidir.

Savol va topshiriqlar.

1. Mashinasozlikda ishlatiladigan asosiy matreallar.
2. Detallarga qanday yo'llar Bilan termik ishlov beriladi?
3. Detailarni tayyorlashda qanday rangli metallar ishlatiladi.
4. Mashinasozlikda qanday metallmas materiallar ishlatiladi.
5. Mashinasozlikda ishlatiladigan qora materiallar qanday materiallar?

4-mavzu.	Uzatma turlari. Mexanik uzatmalar. Eskiz sxemalari. Afzallik va kamchiliklari. Asosiy xarakteristikalar
-----------------	--

4.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Mashinasozlikda ishlaydigan uzatmalar. 2. Mexanik uzatmalar. Asosiy xarakteristikasi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Mashinasozlikda ishlatiladigan uzatma turlari. Mexanik uzatmalarni turlari, ishlatilishi afzallik va kamchiliklari hamda asosiy xarakteristikalarini to'g'risida bilimlarni va tasavvurini shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Mexanik uzatmalarni turlari to'g'risi ma'lumot berish; - mexanik uzatmalarni afzallik va kamchiliklari to'g'risida to'xtaladi; - Mexanik uzatmalarini asosiy xarakteristikalarini tushuntirib beradi.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Mexanik uzatmalarni eskiz sxemalarini chizadi; - Mexanik uzatmalarni bir-birida farqni tushuntiradi; - Mexanik uzatmalarni afzallik va kamchiliklarni to'g'risida fikr bildiradi; - Mexanik uzatmalarni asosiy xarakteristikalarini ta'riflab beradi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, targatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamoa va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi


Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Mashinasozlikda qanday uzatmalar ishlatiladi - Mexanik uzatma turlari	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Mexanik uzatmalarni

	2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etadi. 2.3. Talabalarga mavzuni asosiy tushunchalariga e'tibor qilish va yozib olishni ta'kidlaydi.	bir-biridan farqi o'zaro muxokama qiladi 2.3. Savol berib asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mustaqil ish uchun "Mexanik uzatmalar" so'ziga klastr tuzishni vazifa qilib beradi, baxolaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. yozib oladilar


Vizual materiallar.

1-savol. Mashinasozlikda ishlatiladigan uzatmalar.

1-ilova.



2-savol. Mexanik uzatmalar. Asosiy xarakteristikasi.



Mashg'ulot bo'yicha xulosa

1. Mashinasozlikda ishlatiladigan uzatmalarni ta'riflaydi.
2. Mashina detallari fanida o'rganiladigan mexanik uzatmalarni bir-biridan farqi ta'kidlanadi.
3. Uzatmalarni afzallik va kamchiliklari qayd qilinadi.
4. Mexanik uzatmalarni asosiy xarakteristikalariga e'tibor beriladi.

2-ilova.

Mexanik uzatmalar. Uzatmalar haqida umumiy tushunchalar

Energiya manbai bilan mashinaning hamda ish bajaruvchi qism oralig'ida joylashib, ularni o'zaro bog'lovchi hamda harakatni talab qilingandek boshqarishda imkon beruvchi mexanizmlar uzatmalar deb ataladi.

Mashinasozlikda mexanik, elektrik, pnevmatik va gidravlik uzatmalardan foydalaniladi.

Mashina detallari kursida faqat mexanik uzatmalar o'rganiladi.

Uzatmalarining energiya manbai bilan ish bajaruvchi mashinalar o'rtasida joylanishning asosiy sabablari:

1. Elektrodvigatel vallarining aylanish sonini, ishchi vallarning aylanish soniga nisbati kattaligi.
2. Burovchi moment qiymatlarini uzatma vallarining aylanish soni hisobiga o'zgartirish mumkinligi.
3. Elektrodvigatel validagi aylanma harakatni ishchi valga ilgarilama, tebranma va boshqa harakatlarga aylantirish uchun.
4. Harakatni bir valdan bir necha valga uzatish uchun.

Mexanik uzatmalar ikki turga bo'linadi:

1. Ishqalanish hisobiga ishlaydigan uzatmalar (friksion, tasma, vintli);
2. Ilashish hisobiga ishlaydigan uzatmalar (tishli, cher-vyakli, zanjirli).

Uzatmalarining asosiy xarakteristikalarini bu uzatma vallari-dagi quvvat V_t , kV_t hisobida yoki burovchi moment T Nm hisobida hamda burchak tezligi ω , $1G'sek$.

Qo'shimcha xarakteristikalarini:

a) Uzatmaning F.I.K. $\eta_q R_2 G' R_1$ Ko'p pog'onali uzatma uchun

$$\eta_u \eta_{II} \eta_{III} \dots \eta_n$$

bu erda: $\eta_I, \eta_{II}, \dots, \eta_n$ yuritmadaagi har bir uzatmaning foydali ish koeffitsienti. R_1, R_2 -etaklovchi va etaklanuvchi valdagi quvvatlar.

b) Aylanma kuch $F_t q P G' v$, $F_t q 2 T G' d$

bu erda: R - V_t hisobida, v -aylanma tezlik $mG's$ hisobida

v) Burovchi moment $T = 9550 \frac{P}{n}$; $T = P \cdot \omega$

bu erda T , Nm , R , V_m, ω , s^{-1} hisobida $T_2 q T_1 \cdot u \cdot \eta$

g) Energiya oqimining yo'nalishidan qat'iy nazar istalgan ikki val burchak tezliklarining nisbatlari uzatish soni deb ataladi.

Shartli belgisi "u", ya'ni $u q \omega_1 G' \omega_2$, $u q \eta_1 G' \eta_2$.

Bu erda: ω_1 -etaklovchi valning burchak tezligi sek^{-1}

ω_2 -etaklanvchi valning burchak tezligi sek^{-1}

Harakatni sekinlashtiradigan uzatmalar uchun $u > 1$ ($\omega_1 > \omega_2$) tezlashtiradigan uzatmalar uchun $u < 1$ ($\omega_1 < \omega_2$).

Agar uzatma bir necha pog'onali bo'lsa, uning umumiy uzatish soni: $u_{yq} u_1^* u_2 \dots u_n$ bo'ladi, bu erda $u_1, u_2 \dots u_n$ – birinchi, ikkinchi va oxirgi pog'onalar uchun ayrim-ayrim topilgan uzatishlar soni.

Mashinasozlikda mexanik uzatmalar katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ularni o'rganish, yangi turlarini yaratish va mavjud turlarini takomillashtirish masalasiga katta e'tibor berish kerak.

Tishli uzatmalar. Umumiy ma'lumotlar

Aylanma harakatni bir valdan ikkinchi valga uzatish uchun o'zaro ilashgan tishlar yordamida harakatni uzatgan uzatmalar tishli uzatmalar deb ataladi. Tishli uzatmalar o'qlarni joylanishuviga nisbatan quyidagi turlarga bo'linadi: tsilindrsimon, o'qlari o'zaro parallel, konussimon, o'qlari o'zaro perpendikulyar, vintli, o'qlari o'zaro ayqash joylashgan. Bundan tashqari aylanma harakatni ilgarilama harakatga aylantiruvchi mexanizm sifatida foydalaniladigan va tishli g'ildirak bilan tishli reykanidan iborat uzatmalar ham ishlatiladi.

Tishlarning g'ildirak sirtida joylashuviga qarab, tishli g'ildiraklar to'g'ri, qiya, aylanaviy turlarga bo'linadi. G'ildirak tishlari shakliga ko'ra evolventali, L.Eylor ixtiro qilgan, nuqtaviy ilashish bilan ishlaydigan M.L. Novikov tomonidan ixtiro etilgan hamda tsikloid ilashish turlariga bo'linadi.

Bu xil uzatmalarni boshqa uzatmalarga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

1. Uzatmaning tezligi 150 mG's gacha bo'lib, uzatiladigan quvvat 50000 kVt gacha bo'lishi mumkin.

2. Sirtqi o'lchamlari nisbatan kichik

3. Tayanchlarga tushadigan kuch nisbati kichik f.i.k. qiymati $\eta_{q0,97} \div 0,98$ nisbatan yuqori.

4. Uzatish soniga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi sirpanish hodisasi bo'lmaydi.

5. Ishda ishonchli, chidamliligi esa katta.

6. Uzatma g'ildiraklarini har xil metall va metallmas materiallaridan tayyorlash mumkin.

Kamchiliklari: bir pog'onada uzatish soni qiymati chegaralangan bo'lib, qiymat $u_{max} \leq 12,5$ gacha bo'lishi mumkin; tayyorlanishning nisbatan murakkabligi; ishlayotgan vaqtda, ayniqsa katta tezlik bilan ishlayotganda shovqin chiqarishi; yuqori aniqlikda tishli g'ildiraklarni tayyorlash qiyinligi.

Ko'rsatilgan kamchiliklarga qaramasdan mashinasozlik va asbobsozlik sanoatida asosan tishli uzatmalar ishlatiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan uzatmalardan eng ko'p to'g'ri tishli tsilindrsimon uzatmalar ishlatiladi, chunki bu uzatmalar ishda ishonchli, gabirit o'lchamlari nisbatan kichik, tayyorlash nisbatan engil. Ishlash jarayonida harakatni yo'nalishini o'zgartirish kerak bo'lgan hollarda konussimon, vintli, chervyakli uzatmalar ishlatiladi.

Nazorat savollari

1. Mashinasozlikda qanday uzatmalar ishlatiladi?
2. Mexanik uzatmalar qanday turlarga bo'linadi?
3. Mexanik uzatmalarning asosiy xarakteristikalarini.
4. Yuritmaning umumiy foydali ish koeffitsientini aniqlang.
5. Yuritmaning umumiy uzatish sonini aniqlang.

5-mavzu.	Tishli uzatmalarni kinematikasi va geometrik o'lchamlari
-----------------	---

5.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Tishli g'ildiraklar geometriyasi va elementlari. 2. Tishli uzatmalarni kinematikasi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Tishli g'ildiraklarni geometrik o'lchamlarni aniqlash. Tishli g'ildiraklarda ilashish moduli, tish qadami va diametrini aniqlash hamda uzatmalarni kinematikasi to'g'risida ma'lumot berish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - tishli g'ildirak elementlari bilan tanishtirish; - tishli g'ildiraklarni ilashish modulini izohlash; - Tishli g'ildiraklarni geometrik o'lchamlarini aniqlash; - tishli uzatmalarni kinematikasini hisoblash	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Tishli g'ildiraklarni elementlarini izohlaydi; - Tishli g'ildiraklarni geometrik o'lchamlarni aytib beradi; - Uzatmalarni kinematik o'lchamlarni tushuntiradi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamo'a va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya


Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (50 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Tishli g'ildiraklar qanday elementlardan tashkil topgan; - Tishli g'ildirak diametrlari qanday aniqlanadi. 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etadi. 2.3. Talabalarga mavzuni asosiy tushunchalariga e'tibor qilish va yozib olishni ta'kidlaydi.	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Tishli g'ildirak elementlarini o'zaro muxokama qiladi 2.3. Savol berib asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mustaqil ish uchun "Tishli g'ildirak elementlari" so'ziga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baxolaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlash-tiradi. yozib oladilar

Vizual materiallar.

1-savol. Tishli uzatmalarni geometriyasi

$d_2 - 1.55 d_b$ – губчак диаметри
 $l_2 - (1.0-1.2) d_b$ – губчак узунлиги
 $c - 0.25 b$ – диск қалинлиги
 δ – гардиш қалинлиги
 $d = md$ – тиш бўлув диаметри
 $d_f = d - 21.2$ – тиш ости диаметри
 $d_a = d + 21.5$ – тиш ости диаметри



2-savol. Tishli uzatmalarni kinematikasi

$$U = \frac{z_2}{z_1} = \frac{n_1}{n_2} = \frac{d_2}{d_1} - \text{uzatmani uzatish soni}$$

$$a = \frac{d_1 + d_2}{2} - \text{o'qlararo masofa}$$

$$\eta = \frac{P_2}{P_1} - \text{f.i.k}$$

$$T = 9550 \frac{P}{n} - \text{burovchi moment}$$

Mashg'ulot bo'yicha xulosa

1. Tishli g'ildiraklarni asosiy elementlarga izoh beriladi.
2. Tishli g'ildiraklarni geometrik o'lchamlar to'g'risidagi bilimiga ega bo'ladi.
3. Uzatmalarni kinematikasi bilan tanishadi.

Tishli g'ildiraklarning geometrik o'lchamlari.

Tsilindrsimon to'g'ri tishli g'ildiraklarni geometrik o'lchamlari. Tishli g'ildirak geometrik o'lchamlarini ilashish moduli m xamda tishlar soni z yordamida aniqlanadi. G'ildirak tishlar xech qanday tuzatishsiz kesilsa uning boshlang'ich va bo'luvchi aylana diametrlari bir xil aniqlandi.

$$d = d_o = mz$$

G'ildirak tishlarning tashqi va tish osti aylanalarning diametrlari.

$$d_a = d + 2h_a = d + 2m$$

$$d_f = d - 2h_f = d - 2.5m$$

Uzatmaning o'qlararo masofasi.

$$a_o = \frac{(d_1 + d_2)}{2} = \frac{d_1(1+u)}{2} = \frac{mz_1(1+u)}{2} = \frac{m(z_1 + z_2)}{2} = \frac{mz_\Sigma}{2}$$

O'qlararo masofa a_o mm, standart asosida qo'yidagicha olinadi: 40, 50, 63, 80, 100, 125, 140, 160, 180, 200, 224, 250, 280, 315, 335, 400, 450, 500...2000.

2.9-formula dan

$$d_1 = \frac{2a_\omega}{(1+u)}; \quad d_2 = \frac{2a_\omega u}{(1+u)}$$

Tishli g'ildirak eni

$$b_2 = \psi_a \cdot a_\omega$$

bunda: ψ_a - tish eni koeffitsienti, qiymatlar jadvalda berilgan.


Etaklovchi tishli g'ildirak eni, tish ishchi yuzasining qattiqligi $< 350 \text{ NV}$ bo'lganda

$$b_1 = 1,12 b_2$$

Tishlarni ishchi yuzasining qattiqligi $> 350 \text{ NV}$ bo'lganda

$$b_1 = b_2$$

Tishli g'ildiraklarni geometrik o'lchamlarni ixchamlashtirish maqsadida tishlar sonini kamaytirishga xarakat qilinadi.




Tishlar sonini kamaytirish esa qoplanish koeffitsientini kamaytirishiga bu esa o'z navbatida tishning mustaxkamligini pasayishiga olib keladi. Odatda bu qiymat $z_1 \geq z_{min} \approx 17$. Tish shaklini tishlar sonini kamayishi bilan o'zgarish ko'rsatilgan. Bunda tishlar soni $z \rightarrow \infty$ bo'lganda tishli g'ildirak reykaqa aylanadi, tishlar soni kamayishi bilan tish asosi va uchining qalinligi kamayib egrilik radiusi oshadi. Tishlar sonini yanada kamaytirsak, ya'ni $z < z_{min}$ bo'lganda tishni asoslari kesilishi boshlanadi, bunda tishlarni egilishdagi kuchlanishga mustaxkamligi keskin kamayadi.

G'ildirak tishlarni asosini kesilishi $z_{min} < 17$ bo'lganda boshlanadi. Bunday g'ildirak tishlarini mustaxkamligini ta'minlash uchun tishlarni kesishda shakli o'zgartiriladi. G'ildirak tishlarini shaklni o'zgartirish kesish asbobi reykani odatdagi xolatdan gorizontal tekislik bo'yicha g'ildirak markaziga (manfiy) yoki unga teskari tomon (musbat) siljitish yo'li bilan erishish mumkin. Bu siljishlarni siljitish koeffitsienti x bilan belgilaymiz.

G'ildirak tishlarni shaklni tuzatishni ikki usuli mavjud:

1. Etaklovchi g'ildirakni siljitish koeffitsient musbat $x_1 > 0$, etaklanuvchi tishli g'ildirakni manfiy $x_2 < 0$ olinadi, ya'ni x_1 va x_2 koeffitsientlarni umumiy yig'indisi $\sum x_1 + x_2 = 0$ bo'ladi. Reykani siljitish natijasida tish eni o'lchami o'zgaradi. Xuddi



shuningdek o'yiqchalarning o'lchami xam o'zgaradi. Bunda bo'luvchi aylana bo'yicha tish eni bilan o'yiqcha enining yig'indisi doimiy bo'lib tish qadami R_t ga teng bo'ladi, markazlararo masofa o'zgarmaydi, lekin tish kallagi bilan oyoqcha balandliklarning nisbati o'zgaradi, ya'ni

$$h_a q m Q x, \quad h_f q m Q c - x \quad \text{bo'ladi.}$$

Tishli g'ildirak diametrlari

$$d_a q d Q 2(m Q x),$$

$$d_f q d - 2(m Q c - x)$$

O'qlararo masofa

$$a_\omega = a = \frac{(d_1 + d_2)}{2},$$

$$\alpha_\omega = \alpha = 20^\circ$$

Demak g'ildirak tish shaklni tuzatish natijasida asosan tish qismlarining balandligi o'zgaradi.

Shuning uchun bunday shakl tuzatishni balandlik tuzatish deyiladi.

1. Etaklovchi va etaklanuvchi g'ildirak tishlarini qirqishda reyka bir

tomonga siljiriladi. Bunda $x_1 > 0$, $x_2 > 0$ bo'lib umumiy siljirish koeffitsienti $x_{\Sigma} > 0$ 12 – rasm bo'ladi. Bunday xollarda etaklovchi va etaklanuvchi g'ildirak tishlarining bo'luvchi aylana diametri bo'yicha o'lhangan qalinligi $P_t G'2$ dan katta, o'yiqchalarning eni esa $P_t G'2$ dan kichik bo'adi. Shuning uchun ikkala g'ildirakning bo'luvchi aylanalari bir biriga tegmaydi, natijada boshlang'ich aylanalar bo'luvchi aylanalarda tashqarida joylashadi, ya'ni $d_{o1} > d_1$ $d_{o2} > d_2$ bo'ladi. Bu esa markazlararo masofaning kattalashuviga olib keladi, ya'ni $a_{\omega} = \frac{(d_{o1} + d_{o2})}{2} > a = \frac{(d_1 + d_2)}{2}$. Tishli g'ildiraklar ilashganda, ilashish chizig'iga o'tkazilgan umumiy urinma (ilashish chizig'i) ilashish qutbidan o'tgan gorizontaal chiziq bilan kesishganda tuzatishdan oldingiga qaraganda kattaroq burchak xosil bo'ladi va ilashish burchagi α kattalashadi, ya'ni $\alpha_{\omega} > \alpha = 20^{\circ}$ bo'ladi. Shuning uchun bunday tuzatishni burchak tuzatish deyiladi, natijada g'ildirak tishlarining kontakt kuchlanishiga chidamliligiga 20% gacha oshadi. Bunda etaklovchi g'ildirak tishlar sonini eng kichik qiymati $z_{1min} \geq 12$ bo'lishi mumkin.


$$\text{O'qlararo masofa } a_{\omega} = \frac{m(z_1 + z_2)}{2} \frac{\cos \alpha}{\cos \alpha_{\omega}} = \frac{mz_1(1+u)}{2} \frac{\cos \alpha}{\cos \alpha_{\omega}}$$

Qiya va shevron tishli tsilindrsimon g'ildiraklarni geometrik o'lchamlari. Bu g'ildiraklarda tish g'ildirak o'qiga nisbatan ma'lum burchak xosil qilib joylashgan.

Buning uchun tish kesuvchi reyka shu burchakka qiyalik bilan qo'yiladi. Shuning uchun qiya va shevron tishli g'ildiraklarni tishlari shakli n - n normal kesim bo'yicha to'g'ri tishli g'ildiraklarga o'xshash bo'ladi, ya'ni $m_n qm$ bo'yicha modul standartlashgan.

Qiya tishli g'ildiraklarda yon qadam R_t xamda normal qadam p_n bo'ladi, shuningdek yon modul m_t xamda normal modul m_n :

$$m_n = \frac{P_n}{\pi}; \quad m_t = \frac{P_t}{\pi}$$



Modullar o'rtasidagi bog'lanish

$$m_t = \frac{m_n}{\cos \beta}$$

Shuningdek yon kesimdagi tish shaklining burchagi α_t , normal kesim bo'yicha shakl burchagi α_n ga teng emas, ya'ni $\operatorname{tg} \alpha_t = \frac{\operatorname{tg} \alpha_n}{\cos \beta}$.

Tishli g'ildiraklarni geometrik o'lchamlarni xisoblashda standartlashgan normal modul m_n ishlatiladi.

Bo'luvchi va boshlang'ich aylana diametrlari

$$d = d_m = m_t z = \frac{m_n z}{\cos \beta}$$

Tashqi va tish osti aylana diametrlari

$$d_a \approx 2.2 m_n, \quad d_f \approx 2.5 m_n$$

O'qlararo masofa

$$a = \frac{(d_1 + d_2)}{2} = \frac{d_1(1+u)}{2} = \frac{m_t(z_1 + z_2)}{2} = \frac{mz_1(1+u)}{2 \cos \beta}$$


Tishli g'ildiraklarda qiyalik burchagi β ning qiymatlarni $8^{\circ} \div 20^{\circ}$ olish tavsiya etiladi. Agarda qiyalik burchagi 8° dan kam olinsa uzatma to'g'ri tishliga nisbatan o'zining afzalliklarni yo'qotadi, 20° dan katta olinsa bo'ylama kuchlarning qiymati oshib tayanch konstruksiyalari xajmi katta bo'ladi.

O'qlararo masofa a xamda uzatish soni u ning qiymati doimiy bo'lganda z_1 xamda m qiymatlarini o'zgartirib qiyalik burchagi β ni kerakli qiymatni aniqlash mumkin.

G'ildirak tishlarini mustaxkamligi uning normal kesim bo'yicha shakli va o'lchamiga bog'liq bo'ladi. G'ildiraklarni xisoblash jarayonida tish shaklining koeffitsienti tishlarning soniga qarab emas, balki «keltirilgan» to'g'ri tishli g'ildirak tishlarining soniga qarab olinadi.

Qiya tishning yo'nalishiga tik o'tkazilgan tekislikda shu «keltirilgan» g'ildirakni ifodalovchi shakl xosil bo'ladi, deb faraz qilinadi. Qiya tishga bo'lgan tekislik bilan kesilgan g'ildirakning ko'ndalang kesimida ellips xosil bo'ladi, uning egrilik radiusi

$$\rho_k = \frac{d}{2 \cos \beta}$$



bo'luvchi aylanasi diametri,

$$d_k = 2\rho_k = \frac{d}{2 \cos^2 \beta}$$

Ekvivalent tishlar soni

$$z_k = \frac{d_k}{m_n} = \frac{d}{m_n (\cos^2 \beta)} = \frac{m_t z}{m_t (\cos^3 \beta)} = \frac{z}{\cos^3 \beta}$$

bunda: z – g'ildirak tishlar soni.

Demak β – burchakni oshishi bilan «keltirilgan» tishlar soni z_k ni qiymatini oshishi, tishni mustaxkamligini oshishga sabab bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Tishli g'ildiraklar qanday turlarga bo'linadi?
2. Normal hamda yon modul o'rtasidagi farqni tushuntiring.
3. Qiyalik burchagining qiymati qanchagacha bo'lishi mumkin.
4. G'ildirak tishlari qanday aniqlanadi.
5. O'qlararo masofa diametrlari yordamida qanday aniqlanadi.

6-mavzu.	Ilashishda xosil bo'lgan kuchlar. Aniqlik darajasi. Yuklanish koeffitsienti.
-----------------	---

6.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejayi	1. Ilashishda xosil bo'lgan kuchlar 2. Tishli g'ildiraklar uchun ishlatiladigan aniqlik darajasi 3. Yuklanish koeffitsienti

<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Tishli g'ildiraklarni ilashishda xosil bo'lgan kuchlar ularni qiymati va yo'nalishini aniqlash. Tishli g'ildiraklarni aniqlik darajasi, axamiyati va bir-biridan farqi, xamda yuklanish koefitsientlarini uzatma ishiga ta'sirini o'rganish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Ilashishda hosil bo'lgan kuchlar bilan tanishtirish; - mashinosozlikda ishlatiladigan aniqlik darajalar to'g'risida ma'lumot berish; - Yuklanish koefitsienti to'g'risida ma'lumot berish;	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Ilashishda hosil bo'lgan kuchlarni izohlaydi; - Mashinasozlikda ishlatiladigan aniqlik darajalarni aytib beradi ; - yuklanish koefitsienti to'g'risida to'liq ma'lumot beradi..
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamo'a va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya


Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (55 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Ilashishda qanday kuchlar hosil bo'ladi; - Kuchlarni yo'nalishi qanday aniqlanadi.. 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etadi. Mashinasozlikda ishlatiladigan aniqlik darajalar va qabul qilingan standartlarni tushintirib beradi - Mashinasozlikda qanday aniqlik darajalari ishlatiladi. - Tishli g'ildiraklar uchun qanday aniqlik darajalar qabul qilingan.	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Ilashishda xosil bo'lgan kuchlarni o'zaro muxokama qiladi 2.3. Savol berib asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mustaqil ish uchun "Yuklanish koefitsienti" so'ziga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baxolaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. yozib oladilar


Vizual materiallar.

1-savol. Ilashishda xosil bo'lgan kuchlar


1-ilova.



2-savol. Aniqlik darajasi



3-savol. Yuklanish koeffitsienti.



Mashg'ulot bo'yicha xulosa


1. Tishli g'ildiraklarni ilashi jarayonida ilashi chizig'ida hosil bo'ladigan va kuchlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi.
2. Mashinasozlikda ishlatiladigan aniqlik darajalar xamda g'ildirak tishlarni kesish uchun ishlatiladigan aniqlik darajalar to'g'risida ma'lumot beriladi.
3. Yuklanish koeffitsientini tarkibiy qismlari to'g'risida tushintirish beriladi.

2-ilova.

Ilashishda hosil bo'lgan kuchlar. Tishli uzatmalarni ilashishi jarayonida ilashish chizig'ida har xil kuchlar xosil bo'ladi. Asosiy kuch bu tish sirtiga tik bo'lib ilashish chizig'i bo'yicha yo'nalgan normal F_n kuchdir.

To'g'ri tishli tsilindrsimon uzatmalarda F_n normal $F_n \approx F_t G \cos \alpha$ kuchni aylanma F_t hamda markazga intiluvchi F_r kuchlarga ajratamiz 18a-rasm.


Aylanma kuch F_t etaklovchi tishli g'ildiraklar uchun g'ildirakka urinma shaklida aylanishga teskari tomonga yo'nalgan bo'lsa, etaklanuvchi tishli g'ildiraklar uchun aylanish tomoniga yunalgan bo'ladi, $F_t \approx 2T_2 G$. Markazga intiluvchi kuch F_r ilashish chizig'idan markazga tomon intilgan bo'ladi, $F_r \approx F_t \tan \alpha$.



Qiya tishli tsilindirsimon uzatma. Ilashish chizig'idan normal F_n kuch tashkiliy aylanma F_t markazga intiluvchi F_2 xamda bo'ylama F_a kuchlariga bo'linadi bunda,

$$F_t = 2T_2 G' d_m; \quad F_r = q F_t \tan \alpha G' \cos \beta; \quad F_a = q F_t \tan \beta$$

Bu uzatmalarda F_t , F_r kuchlarni yo'nalishi tishli tsilindirsimon uzatmadek bo'lib, bo'ylama kuch F_a o'qqa parallel tayanchga tomon yo'nalgan bo'ladi. Shuning uchun tishli uzatmalarni engil qorishma materiallardan tayyorlangan qutgichalarda joylashtirish chegaralangan.



Qiya tishli tsilindirsimon uzatmalarni bu kamchiliklar shevron tishli tsilindirsimon uzatmalarda bartaraf etilgan. Tayanchlarda o'rnatilgan podshibniklarga tushadigan kuchlarni kamaytirish uchun qiya tishli uzatmalarda qiyalik burchagi $\beta < 20^\circ$ gacha shevron tishli uzatmalarda $\beta > 40^\circ$. gacha chegaralash tavsiya etiladi.

Yuklanish koefitsient.

Tishli uzatmalarni mustahkamlikka hisoblash hisobiy- yuklanish qiymatini aniqlashdan boshlanadi. Uzatmalarni ishlash jaraenida, ya'ni uzatma detallarni tayyorlashda (qayta ishlashda), yig'ishda yo'l qo'yilgan noaniqliklar, shuningdek vallarning, tishli g'ildiraklarning elastik defomatsiyasi natijasida yuklanishlar notekis taqsimlanadi. Tishli g'ildiraklarni ishlashdagi noaniklar natijasida qo'shimcha kuchlanishlar hosil bo'ladi. Hisobiy kuchlanish qiymata shu qo'shimcha kuchlanishlar qiymatini hisobga olgan holda aniqlanadi. Bu qo'shimcha kuchlanishdarning qiymati alohida olingan qo'shimcha kuchlanishlar kiymatining ko'paytmasi sifatida hisobga olinadi, ya'ni

$$k_q k_\beta \cdot k_v \cdot k_\alpha$$

bu erda: k -yuklanish koefitsient; k_β -yuklanish tish eni bo'yicha notekis taqsimlanishini hisobga oluvchi koefitsient; k_v -qo'shimcha dinamik kuchlarni hisobga oluvchi koefitsient; k_α -kuchlanishi tishlararo notekis taqsimlanishi hisobga oluvchi koefitsient.

Koefitsientlardagi « β » indeks uzatma g'ildirak tishlarining ilashish jaraenida β burchakka og'ishi tufayli yuklanishning notekis taqsimlanishi belgilovchi shartli belgi; « v »-indeks uzatma katta tezlik bilan haraktlanganda aniklik darajasi kichik bo'lgan uzatmalarda bo'lgan qo'shimcha dinamik kuchlanishlarni belgilovchi shartli belgi; « α » - esa tishli g'ildiraklar o'zaro ishlaganda ilashish burchagining o'zgarishi natijasi hosil bo'lgan qo'shimcha kuchlanishlarni belgilovchi shartli belgi.


Tishli g'ildiraklarni kontakt kuchlanishga chidamligi hisoblanganda yuklanish koefitsientining indeksi « n » harf (kontakt kuchlanishlarga hisoblashning asoschisi H.Heztz) bilan belgilanadi. Egilishdagi kuchlanishga chidamlikni aniqlashda indeks « F » xarfi (inglizcha «oyoqcha») so'zidan olingan) bilan belgilanadi, ya'ni k_{Nv}, k_{Fv}

Yuklanish koefitsientning taxminiy qiymatlari $k_q 1,3-1,5$ ga teng. Aniq tayyorlangan uzatmalar uchun bu koefitsienti 1,3 deb olish tavsiya etiladi.

k_β - yuklanishi tish eni bo'yicha notekis taqsimlanishi hisobga oluvchi koefitsient.

Lekin shu yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklardan qat'iy nazar bu uzatmalar xalq xo'jaligida ko'p ishlatiladi.

Xalq xo'jaligida asosan tsilindrsimon chervyakli uzatmalar ishlatiladi. Bu uzatmalarda o'qlararo masofa α uzatmaning moduli m hamda uzatish soni u ning qiymatlari GOST standartlashgan.


Chervyak va chervyakli g'ildirak geometrik o'lchamlari.

Chervyakli uzatmalarda ham tsilindrsimon uzatmalardek boshlang'ich va tish bo'luvchi aylanasining diametrlari bo'ladi, bunda d_{o1} , d_{o2} – chervyak va chervyakli g'ildiraklarning boshlang'ich diametrlari; d_1 , d_2 - tish bo'luvchisining diametri. Korrektsiya ishlatilmaganda $d_{o1} = qd_1$, $d_{o2} = qd_2$.




Chervyak. Chervyak bu rezkali vint bo'lib tsilindrik (arximed), konvolyuta, evaolventa, globoid shaklda bo'lishi mumkin. Agar chervyak o'z o'qiga tik tekislik bilan kesilganda hosil bo'lgan iz trapetsiyaga o'xshash bo'lsa (yon tomoni qaralganda o'ramlar arximed o'ramiga o'xshaydi), arximed chervyak deb ataladi. Xosil bo'lgan shaklning izi qisqartirilgan yoki cho'zilgan evolventaga o'xshash bo'lsa, bunday chervyak bu vint bo'lib, tora (globoid) yuzaga kesilgan o'ramdan iborat bo'ladi. Globoid chervyakli uzatmalarning tashqi o'lchamlari tsilindrsimon chervyakli uzatmaga o'xshash bo'lsa ham, bu uzatmalar nisbatan katta yuklanishga chidamli bo'ladi, lekin issiqlik chiqarish nisbatan katta, hamda globoidli chervyak bilan chervyakli g'ildirakni nisbatan yig'ish qiyin bo'lganligi tufayli bu uzatmalar kam ishlatiladi.

Chervyaklarni bir-biridan ajratish uchun quyidagi shartli belgilar qabul qilingan: ZA-



arximed chervyak; ZN-konvolyutali chervyak; ZX-evolventali chervyak.



Chervyakning asosiy xarakteristikalaridan biri, bu uning qadami, ya'ni yonma-yon joylashgan o'rاملarda bir xil nuqtalar orasidagi masofa.

$$\rho_t q \pi \cdot m$$

bunda: $m q \rho_t G' \pi$ -ilashish moduli qiymati standart bo'yicha olinadi.

Chervyak xam vintga uxshash, bir va ko'p kirimli qilib tayyorlanishi mumkin. Kirim soni z_1 bilan belgilanadi, qiymatlari $z_1 q 1, 2, 4$. z_1 qiymati oshishi bmlan tayyorlash texnologiyasi qiynlashadi, chervyakli g'ildirak tishlar soni ortadi, shuningdek gabarit o'lchamlari xam kattalashadi. Uzatmada chervyakning kirim soni uzatmaning uzatish soniga bog'liq bo'lib qo'yidagicha olish tavsiya etiladi;

$Z_1 q 4$	uq8-12.5
$Z_1 q 2$	uq16-25
$Z_1 q 1$	uq31.5-63

z_1 ni qiymati shu yuqoridagi tavsiya bo'yicha olinganda $z_2 \geq z_{2min}$ shart bajariladi. O'z-o'zidan to'xtaydigan uzatmalar uchun $z_1 q 1$ olish tavsiya etiladi.

Chervyak bir aylangandagi o'tgan masofa bu o'ram qadamining chervyak kirim soniga ko'paytmasiga teng, ya'ni $l q P_t \cdot z_1$

Chervyak o'ramining bo'lishi aylanasini diametrini modul bilan ifodasi $d_1 q m \cdot q$. q —chervyakning diametr koeffitsienti bo'lib, bo'lish diametridagi modullar sonini bildiradi, qiymatini 1-jadvaldan modullar soniga nisbatan tanlanadi. Bunda $q G' z_2 q 0, 22-0, 4$ tanlash tavsiya etiladi, chunki q ning qiymati oshishi bilan uzatmaning f.i.k qiymati pasayadi, aks holda esa chervyakning egilish dagi bikrligi kamayadi. Shuning uchun $q_{min} \geq 0.212 z_2$ shart bajarilishi kerak.

jadval


m	q	z_1
2,0; 2,5; 3,15;	8,0; 10; 12,5;	1; 2; 4.
4,0; 4,5; 6,3; 8,0.	16,0; 20.	
1,25; 1,6.	1,25; 16,0; 20,0.	

Chervyak o'ramining ko'tarilish burchagini shu bo'lish diametri bo'yicha aniqlash mumkin;

$$\operatorname{tg} \gamma q (P_t \cdot z_1) G' (\pi \cdot d_1) q \pi m \cdot z_1 G' \pi \cdot m \cdot q z_1 G' q.$$

yoki jadvaldan tanlash mumkin.

Demak, chervyak diametri koeffitsientining qiymati oshishi bilan o'ramning ko'tarilish burchagi kamayadi, natijada vint-gayka nazariyasiga asosan uzatmaning f.i.k kamayadi.



Chervyakning tashqi diametri $d_{a1} q d_1 Q 2 h_{a1} q d_1 Q 2 m$; chervyakning o'ram osti diametri $d_{f1} q d_1 - 2 h_{f1} q d_1 - 2, 4 m$. Chervyak o'ramining uzunligi, chervyakning qirqim soniga hamda siljish koeffitsientiga nisbatan jadvaldan tanlanadi. Chervyak o'ramining uzunligi v_1 , mm.


jadval

X-siljish koeffitsinti	Z_1	
	1; 2	4

-1.0	$v_1 \geq (10,5Qz_2)m$	$v_1 \geq (10,5Qz_2)m$
-0.5	$v_1 \geq (8Q0,006z_2)m$	$v_1 \geq (9,5Q0,009z_2)m$
0	$v_1 \geq (11Q0,006z_2)m$	$v_1 \geq (12,5Q0,009z_2)m$
Q0.5	$v_1 \geq (11Q0,01z_2)m$	$v_1 \geq (12,5Q0,1z_2)m$
Q1.0	$v_1 \geq (12Q0,1z_2)m$	$v_1 \geq (13,0Q0,1z_2)m$

Ilova: Freza yordamida kesilgan chervyaklar uchun $m > 11\text{mm}$ bo'lganda v_1 qiymati 25mmga, $m_{q10-16\text{mm}}$ bo'lganda v_1 ni 35...40mmga oshiradi.

Chervyakli g'ildirakni asosiy geometrik o'lchamlaridan biri tish bo'luvchi aylanasining diametri d_{2qmz_2} bunda; z_2 -chervyakli g'ildirak tishlar soni. Quvvat uzatadigan uzatmalar uchun $z_{2\min} \geq 26-28$. Asosan $z_2 \geq 32-63$ olinadi, lekin $z_2 < 80$ bo'lishi kerak z_2 ni qiymati oshishi bilan chervyakli g'ildirak diametri kattalashadi, tayanchlar o'rtasidagi masofa oshadi, bu esa chervyakni deformatsiyasini oshirish mumkin. G'ildirak tishlarini balandligi oyoqchasini va kallagini balandligi h_{a2qm} ; $h_{f2q1,2m}$.



3.4-rasm

Chervyakli g'ildirak tashqi va tish osti diametrlar:

$$d_{a2q} \geq 2Qz_2 h_{a2q} \geq 2Qz_2 m \quad d_{f2q} \geq d_2 - 2h_{f2q} \geq d_2 - 2.4m$$

eng katta tashqi diometr

$$d_{a2} \leq d_{a2Q} \frac{6m}{z_1 + z_2}$$

G'ildirak eni

$$z_1 \geq 1, z_2 \geq 2 \text{ bo'lganda } v_2 \leq 0.75d_{a1}$$

$$z_1 \geq 4 \text{ bo'lganda } v_2 \leq 0.67d_{a1}$$

Chervyakli g'ildirakni qamrov burchagi 2δ ;

$$2\delta = \frac{e_2}{d_{a1} - 0.5m}$$

O'qlararo masofa

$$a_w = \frac{d_1 + d_2}{2} = \frac{m(q + z_2)}{2}$$

Standart yopiq uzatmalar uchun a ning qiymat mm, xisobida; 40,50,63,80,100,125,160,200,250,315,400,500.

Nostandart yopiq uzatmalar uchun o'qlararo masofa qiymatni R_{a40} qatordan olish mumkin.

Ilashish modulining taxminiy qiymatni formula yordamida aniqlash mumkin. Quvvat uzatadigan uzatmalar uchun $qG'z_2 \geq 0,12 \dots 0,14$, bundan

$$m \approx (1,4 \dots 1,7) \frac{a_w}{z_2}$$

Aniqlangan modul qiymatni standart bo'yicha yaxlitlab olinadi.

Aniqlangan a_m ning qiymatni standart qatorga yoki R_{a40} qatorga keltirish uchun siljitish koeffitsienti ishlatiladi, bunda o'qlararo masofani butun son bo'lishi ta'minlanadi.

Siljitish koeffitsienti chervyak uchun ishlatilmasdan, faqat chervyakli g'ildiraklar uchun ishlatiladi. Bunda o'qlararo masofa qiymati aniqlangach, siljish koeffitsienti

$$Xq a_w G'm-0,5(qQz_2)$$

$$a_w q0,5(qQz_2 Q2x).$$

$$z_2 = \frac{2a_w}{m} - q - 2x;$$

Siljish koeffitsienti ishlatilganda g'ildirak diametri quyidagicha aniqlanadi:

$$d_{a_2} qd_2 Q2mQ2xm \quad d_{f_2} qd_2 -2,4mQ2xm.$$

G'ildirakning qolgan o'lchamlari o'zgarmaydi. G'ildirak tishlarining kesishish jaraenida tish osti kesilmasligi hamda tish uchi uchqur bo'lmasligi uchun siljish koeffitsientining qiymati $xq \pm 0,7$ bo'lishi kerak (kamdan-kam $\pm 1,0$.)

Uzatmada a_w, m, q qiymatlari berilgan bo'lsa (3) formula yordamida siljish koeffitsient x ni qiymatlarni o'zgartirib z_2 va u ning xar xil qiymatlarni olish mumkin. Natijada bitta korpusda xar xil uzatish sonlarini olish mumkin.

Uzatish soni, u. Uzatmada chervyak o'z o'q atrofida bir marta aylanganda, chervyakli g'ildirak kirimlar soni z_1 ga bo'raladi. Chervyakli g'ildirak o'z o'q atrofida tuliq bir marta aylanishi uchun chervyak $z_2 G'z_1$ marta aylanishi shart, shuning uchun

$$u = \frac{n_1}{n_2} = \frac{\omega_1}{\omega_2} = \frac{z_2}{z_1}$$

Bunda z_1 tishli uzatmalardagi etaklovchi tishli g'ildirakdek olinmoqda. Lekin $z_1 q 1; 2; 4$ bo'lganligi uchun, bir pog'ona uzatmada uzatish soni u ni qiymati nisbatan katta bo'lishi mumkin. Quvvat uzatadigan uzatmalar uchun uzatish sonini standart qiymatlari u : 8; 10; 12,5; 16; 20; 25; 28; 31,5; 40; 50; 63; 80. Uzatishlar uchun $u \geq 63$ olish tavsiya etilmaydi, chunki bunda uzatmaning f.i.k keskin ravishda kamayadi. Knematik uzatmalar uchun $u \geq 300$ olish mumkin.

Uzatmada uzatish soni u chervyak kirim soni z_1 chervyakli g'ildirak tishlar soni z_2 , xamda q koeffitsient o'rtasidagi bog'lanish jadvalda berilgan

jadval


u	z_1	z_2	q
8	4	32	8
10		40	10
12,5		50	12,5
16	2	32	8
20		40	10
25		50	12,5
31,5	1	32	8
40		40	10
50		50	12,5
63		63	16

Uzatmaning aniqlik darajasi. Chervyakli uzatmalar uchun standart asosida 12 ta aniqlik daraja belgilangan. Bunda chervyakli uzatmalarda yuqori darajada kinematik aniqlikni ta'minlash uchun 3,4,5,6 hamda quvvat uzatish uchun esa 5,6,7,8,9 aniqlik darajalar tavsiya etiladi.

Chervyakli uzatmalarda chervyak va chervyakli g'ildirak ilashish jaraenida o'zaro o'q bo'yicha siljitib o'rnatilishi, o'qlararo masofadagi(tayyorlash jarayonida) noaniqliklar uzatma ishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu qiymatlar uchun chekli chegara qiymatlari har bir aniqlik daraja uchun aniq belgilangan.

Chervyakli uzatmalarni mexanikasi.

Chervyakli uzatmalarda harakat chervyak o'ramlarining chervyakli g'ildirak tishlari bo'yicha vintli juftdek sirpanish natijasida amalga oshadi, bunda v_1, v_2 aylanma tezliklarning yo'nalishi orasidagi burchak 90° bo'ladi. Sirpanish tezligi v_c chervyakning vint chizig'iga urinma ravishda yo'nalgan bo'ladi. Uning qiymatini chervyakli va g'ildirak aylanma tezliklarining qiymatlaridan foydalanib aniqlash mumkin.



$$v_c \text{ q } \sqrt{v_1^2 + v_2^2} = v_1 / \cos \gamma; \quad v_1 = \frac{\pi d_1 n_1}{60}; \quad v_2 = \frac{\pi d_2 n_2}{60}; \quad \frac{v_2}{v_1} = \text{tg} \gamma$$

bunda v_1, v_2 -chervyak va g'ildirakning aylanma tezligi, mG's;

d_1, d_2 -chervyak va g'ildirakning tish bo'luvchisining aylanasi, mm;

v_c -sirpanish tezligi, mG's;

γ -chervyak o'ramining ko'tarilish burchagi.

Sirpanish tezligini oshishi bilan eyilish oshadi, F.I.K pasayadi, uzatmani moylash qiyinlashadi, bunda γ ning oshishi bilan v_s qiymati xam oshadi, shuning uchun γ ning qiymati chegaralangan $\gamma < 30^\circ$.

Uzatmani loyhalashda sirpanish tezligining taxminiy qiymatini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$v_c \approx \frac{4,5 n_1}{10^4} \sqrt[3]{T_2} \text{ mG's}$$

bunda n_1 -chervyakning aylanish soni, min^{-1} ;

T_2 -chervyakning g'ildirak validagi burovchi momenti, N.m.

Uzatmaning f.i.k. Chervyakli uzatmaning f.i.k. vintli juftning f.i.k.ga uxshatib aniqlash mumkin, bunda chervyak o'ramining chervyakli g'ildirak tishi bo'yicha sirpanishni, gaykani rezbasini vintning rezbasi bo'yicha sirpanish deb qarash mumkin. Natijada chervyakli uzatmada chervyak etaklovchi bo'lganda f.i.k. quyidagicha aniqlanadi:

$$\eta \text{ q } (0,95 \div 0,96) \frac{\text{tg} \gamma}{\text{tg}(\gamma + \rho^1)}$$

Buerda: (0,95÷0,96)-uzatma g'ildiraklarni qutisiga qo'yilgan yog'ni kesib o'tishda ishqalanishni engish uchun sarf bo'lgan qo'shimcha qiymati;

γ - chervyak o'ramining ko'tarilish burchagi;

ρ^1 -keltirilgan ishqalanish burchagi, qiymati jadvaldan olinadi;

Sirpanish tezligini v_c ni oshishi bilan ρ^1 ning qiymat kamayadi chunki chervyak va chervyak g'ildirak ilashishda moy qatlami bo'lishi mumkin.

F.i.k. qiymati chervyakning kirim soni oshishi (γ -qiymati oshadi) hamda ishqalanish koeffitsienti yoki ishqalanish burchagi ρ^1 ning qiymati kamayishi bilan oshadi.

v_c mG's	f	ρ^1	v_c mG's	f	ρ^1
0,01	0,11÷0,12	$6^\circ 17' \dots 6^\circ 51'$	2,5	0,03÷0,04	$1^\circ 43' \dots 2^\circ 17'$

0,1	0,08÷0,09	4 ⁰ 31 ¹ ...5 ⁰ 09 ¹	3,0	0,029÷0,035	1 ⁰ 36 ¹ ...2 ⁰ 00 ¹
0,25	0,065÷0,75	3 ⁰ 43 ¹ ...4 ⁰ 17 ¹	4,0	0,023÷0,03	1 ⁰ 26 ¹ ...1 ⁰ 43 ¹
0,5	0,055÷0,065	3 ⁰ 09 ¹ ...3 ⁰ 43 ¹	7,0	0,018÷0,026	1 ⁰ 02 ¹ ...1 ⁰ 29 ¹
1,0	0,045÷0,035	2 ⁰ 35 ¹ ...3 ⁰ 09 ¹	10,0	0,016÷0,024	0 ⁰ 55 ¹ ...1 ⁰ 22 ¹
1,5	0,04÷0,05	2 ⁰ 17 ¹ ...2 ⁰ 51 ¹	15	0,014÷0,02	0 ⁰ 48 ¹ ...1 ⁰ 09 ¹
2,0	0,035÷0,045	2 ⁰ 00 ¹ ...2 ⁰ 35 ¹			

Uzatmani hisoblashda f.i.k. ning taxminiy qiymati, chervyakning kirim soniga nisbatan quyidagicha aniqlash mumkin.

$z_1 q$	1	2	4
ηq	0,7÷0,75	0,75 ÷ 0,82	0,87 ÷ 0,92

Chervyakli uzatmaning geometrik o'lchamlari aniqlangach f.i.k. ning hisobiy qiymati aniqlanadi.

Chervyakli g'ildirak etaklovchi bo'lganda f.i.k. qiymati quyidagicha aniqlanadi: $\eta q \frac{tg(\gamma - \rho^1)}{tg\gamma}$ $\gamma \leq \rho^1$ bo'lganda $\eta q > 0$ bo'lib harakat to'xtaydi, ya'ni o'z-o'zidan to'xtaydigan uzatma hosil bo'ladi. Bunday uzatmalar yuk ko'taruvchi mexanizmlarda ishlatiladi.

Agar $\gamma > \rho^1$ bo'lsa,

$$\eta q \frac{tg\gamma}{tg(\gamma + \rho^1)} = \frac{tg\gamma}{tg2\gamma} < 0,5$$

Demak o'z o'zidan tuxtaydigan uzatmada f.i.k xar doim $< 0,5$.


Ilashishda hosil bo'lgan kuchlar.

Ilashayotgan chervyak va chervyakli g'ildirakning ilashish chizig'ida aylanma, markaziga intiluvchi hamda bo'ylama kuchlar hosil bo'ladi. Bunda chervyakdagi aylana kuch miqdori jihatidan g'ildirakdagi o'q bo'ylab yo'nalgan kuchga teng bo'lib, quyidagi ifodadan aniqlanadi.

$$F_{r1} q F_{a2} q 2 T_1 G' d_1 H$$

G'ildirakdagi aylana kuch esa chervyakdagi o'q bo'ylab yo'nalgan kuchga teng.

$$F_{r2} q F_{a1} q 2 T_2 G' d_2 H$$



Uzatmadagi markazga intiluvchi kuch quyidagicha bo'ladi:

$$F_2 = F_{r2} \cdot tg\alpha = 0,364 \cdot F_{r2}$$

Chervyak va chervyakli g'ildirakdagi burovchi momentlar o'zaro quyidagicha bog'langan:

$$T_2 = T_1 \cdot u \cdot \ell$$

Nazorat savollari

1. Qanday xollarda chervyakli uzatmalar ishlatiladi?
2. Bir pog'onali chervyakli uzatmalarda uzatish soni qanchagacha bo'lish mumkin?
3. Uzatmada chervyak va chervyakli g'ildirak materiallari qanday juft hosil qilishi kerak?

4. Chervyakli g'ildirak gardishi qanday materiallardan tayyorlanadi? Nima uchun?
5. Uzatma ilashish jarayonida qanday kuchlar hosil bo'ladi?
6. Sirpanish tezligi qanday aniqlanadi?

12-mavzu.	Chervyakli uzatmalarni kontakt va egilishdagi kuchlanish bo'yicha mustahkamlikka tekshirish.
------------------	---

12.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Chervyakli uzatmalarda o'qlararo masofani aniqlash. 2. Kontakt kuchlanish. Mustahkamlikka tekshirish. 3. Egilishdagi kuchlanish. Mustahkamlikka tekshirish.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Chervyakli uzatmalarda Gerts formulasidan foydalanib chervyakli g'ildirakni kontakt va egilishda kuchlanish mustahkamlikka tekshirish, xamda o'qlararo masofa a ni	

qiymatini aniqlash.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - O'qlararo masofani aniqlash; - Kontakt va egilishdagi kuchlanish bo'yicha mustaxkamlikka tekshirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - O'qlararo masofani aniqlashni tushuntirib beradi; - Kontakt kuchlanishga ta'sir qiluvchi omillarni tushuntirib beradi; - Egilishdagi kuchlariga ta'sir qiladigan omillarni tushuntirib beradi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamoa va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (50 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - O'qlararo masofa qiymatiga qanday omillar ta'sir etadi; - Nima uchun chervyakli g'ildirak gardishi rangli metallardan tayyorlanadi. 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etadi. - O'qlararo masofa a qiymatiga qanday omillar ta'sir etadi? - δ_H – kuchlanish qiymatiga qanday omillar ta'sir etadi.	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Chervyakli g'ildirak gardishi rangli materiallarni sabablari muxokama qilinadi. 2.3. Savol berib asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mustaqil ish uchun vazifa: "Chervyakli g'ildirak gardishi" so'ziga klaster tuzish vazifa beradi, baholaydi	3.1. Eshitadi, yozib oladilar


Vizual materiallar.

1-savol. Chervyakli uzatmalarda o'qlararo masofa qanday aniqlanadi.


1-ilova.



2-savol. Kontakt kuchlanishiga mustaxkamlikka tekshirish.



3-savol. Egilishdagi kuchlanishiga mustaxkamlikka tekshirish.



Mashg'ulot bo'yicha xulosa

1. Chervyakli g'ildiraklar gardishi rangli metaldan tayyorlanishi sababarlari tushuntiriladi.
2. a – o'qlararo masofa qiymatiga ta'sir qiluvchi omillar tushuntiriladi.
3. Kontakt va egilishdagi ta'sir qiluvchi omillar tushuntirib beriladi.

2-ilova.

Chervyakli uzatmalarni kontakt kuchlanish bo'yicha tekshirish.

Chervyakli: uzatmalarda sirpanish tezligi katta bo'lganligi xamda bu tezlikning yo'nalishi kontakt chizig'iga nisbatan noqo'lay joylashganligi sababli chervyakli g'ildirak tish ishchi yuzasining eyilish va yulini chiqish xollari ko'proq sodir bo'ladi. Bu xollarni oldini olish uchun uzatmada chervyak va chervyak g'ildirak antifriktsion materialdan tayyorlanadi, xamda kontakt kuchlanish bo'yicha tekshiriladi, bunda $\sigma_n \leq [\sigma_n]$ shart bajarilishi kerak. Chervyak g'ildirak gardishi chervyaka nisbatan yumshoq materialdan tayyorlanganligi uchun asosan shu g'ildirak gardishi kontakt kuchlanish bo'yicha tekshiriladi. Bunda tsilindirsimon va konussimon uzatmalardek Gerts formulasidan foydalanamiz, ya'ni:

$$\sigma_{nqZE} \sqrt{\frac{q}{\rho_k}}$$

(13) formulaga z_E , q , ρ_k qiymatlarni qo'yib σ_n qiymatni aniqlaymiz.

Egrilik radiusi ρ_k Arximed chervyagi uchun o'q bo'ylab o'tgan tekislikda o'ram kesimi to'g'ri chiziq bo'lganligi uchun yani $\rho_{q\infty}$ "keltirilgan" egrilik radiusi ρ_k ni aniqlashda chervyak o'ramining sirti etiborga olinmaydi, chervyakli g'ildirak esa odatdagi qiya tishli tsilindirlik g'ildirak deyish mumkin, yani:

$$\rho_{kq} \frac{\rho_1 \cdot \rho_2}{\rho_1 + \rho_2} q \rho_2 = \frac{d_2 \cdot \sin \alpha}{2 \cos^2 \gamma} = 0.176 d_2.$$

bunda: $\alpha q 20^0$, $\sin 20^0 q 0.342$, $\gamma q 10^0$, $\cos^2 10^0 q (0.9848)^2 q 0.97$

Ilashish chizig'idagi bosim. q . Qiya tishli uzatmalardagidek chervyakli uzatmalarda xam uzunlik birligiga to'g'ri keladigan bosim qo'yidagicha ifodalanadi.

$$q = \frac{F_n}{\ell_\varepsilon}; F_p \text{- ilashish chizig'idagi normal kuch, N;}$$

$$q_n = \frac{F_n}{\cos \alpha} = \frac{F_{t2}}{\cos \alpha \cdot \cos \gamma} = \frac{2T_2}{d_2 \cos \alpha \cdot \cos \gamma};$$

ℓ_ε -kontakt chizig'ining minimal uzunligi, qiymatni yon qiplanish koeffitsieti ε_α ga to'g'ri, $\cos\gamma$ ga nisbatan teskari proportsional rovishda o'zgaradi. 4-rasmdan d_1 aylana bo'yicha v yoyning uzunligi δ (rad) qamrov burchagiga $vq\delta_1G^2$ ga teng bo'ladi, yani.

$$\ell_\varepsilon = \frac{\varepsilon_\alpha \xi}{\cos\gamma} = \frac{d_1 \cdot \delta \varepsilon_\alpha \cdot \xi}{2 \cos\gamma};$$

bunda: $\varepsilon_\alpha q(1,8-2,2)$ -yon qoplanish koeffitsient;

ξ -0,75-g'ildirak tish sirtining chervyak o'rami sirtiga tegib turishi to'la bo'lmasligi natijasida kontakt chizig'i uzunligini kichrayishini xisobga oluvchi koeffitsient; $\gamma q 10^0$ -chervyak uramini ko'tarish burchagi; $\delta q 0,55\pi$ -qamrov burchagi.

$$\text{Natijada } q = \frac{F_n}{\ell_\varepsilon} = \frac{2T_2}{d_2 \cdot \cos\alpha} \cdot \frac{2}{d_1 \cdot \delta \cdot \varepsilon_\alpha \cdot \xi} = \frac{4T_2}{d_1 \cdot d_2 \cdot \cos\alpha \cdot \delta + \varepsilon_\alpha \cdot \xi};$$

Z_E -160MPa -chervyak va chervyakli g'ildirak materiallarni mexanik xossalarni xisobga oluvchi koeffitsiet.

(13) formulaga Z_E, q, ρ_k qiymatlarni qo'yib qo'yidagi ifodani olamiz,

$$\sigma_{nq} z_H \sqrt{\frac{q}{\rho_k}} = z_E \sqrt{\frac{4T_2}{d_1 \cdot d_2 \cos\alpha \cdot \delta \cdot \varepsilon_\alpha \cdot \xi} \cdot \frac{2 \cos^2 \gamma}{d_2 \cdot \sin\alpha}}$$

formulani sodalashtirish uchun qo'yidagilarga o'z qiymatlarni $\alpha q 20^0$, $\delta q 0,55\pi$, $\varepsilon_\alpha q 2,0$, $\xi q 0,75$, $\sin\alpha \cdot \cos\alpha q \frac{\sin 2\alpha}{2}$ qo'ysak, kontakt kuchlanishni xisobiy qiymatni aniqlash uchun ifodani olamiz

$$\sigma_H = \frac{480}{d_2} \sqrt{\frac{T_2 \cdot K_{H\delta} \cdot K_{H\beta}}{d_1}} \leq [\alpha_H]$$

bunda: $K_n q K_{N\delta} \cdot K_{N\beta}$ -yuklanish koeffitsienti.

(30) formula yordamida kontakt kuchlanishning xisobiy qiymatni aniqlaymiz. Uzatmani loyxlash uchun o'qlaroro masofani nisbatan ehamiz, bunda $d_1 q m q$, $d_2 q m z_2$, $a q 0.5m(qQz_2)q 0.5d_2(\frac{q}{z_2} + 1)$ ekanligini etiborga olsak, qo'yidagi ifodani olamiz.

$$a = 61 \sqrt{\frac{T_2 \cdot K_H}{[\sigma_H]^2}}_{MM}$$

Aniqlangan qiymat standart bo'yicha yaxlitlanadi.

Eguvchi kuchlanish bo'yicha tekshirish.

Eguvchi kuchlanish bo'yicha hisob. Eguvchi kuchlanish bo'yicha faqat chervyakli g'ildirak tishlarigina hisoblanadi, chunki chervyak po'latdan tayyorlanganligi uchun o'ramlarining mustahkamligidan katta.

Chervyakli g'ildirak egilishga mustahkamligini qiya tishli tsilindrsimon uzatmalardik hisoblanadi, lekin chervyakli g'ildirak tish asosining ko'ndalang kesimi qiya tishli tsilindrik g'ildiraklarnikidan farq qiladi. Tish kesimining shakli g'ildirak kesimining eni bo'yicha bir xil bo'lmaydi. Bundan tashqari, tish asosining to'g'ri chiziq bo'yicha emas, balki yoy bo'yicha joylashgan bo'ladi. Shuning uchun chervyak g'ildirak tishlarini mustahkamligi qiya tishli g'ildirak tishlarining mustahkamligidan 20÷40% yuqori bo'ladi.

Chervyakli uzatmalar uchun $y_\Sigma = \frac{1}{(\varepsilon_\alpha \cdot \xi)} = 0.74$, $y_\beta = 1 - \frac{\gamma}{140} = 0.93(\gamma = 10^0)$ qabul

qilsak, g'ildirak tishlarining xavfli kesimidagi egilishdagi kuchlanishning qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$\sigma_F = 0,7 \frac{F_{t2} \cdot y_{F2} \cdot k_F}{b_2 \cdot m_n} \leq [\sigma_F]$$

Bu erda:

F_{t2} -g'ildirakdagi aylanma kuch,H;

b_2 -g'ildirakning eni,mm;

m_n -normal kesmning moduli;

k_F -yuklanish koeffitsienti;

y_F -tish shaklining koeffitsienti, qiymati jadvaldan g'ildirak tishlar sonining «keltirilgan» qiymatiga nisbatan tanlanadi: $z_k = z_2 / (\cos^3 \gamma)$

z_k	24	28	30	32	35	37	40	50	60	80	100
y_F	1,88	1,80	1,76	1,71	1,64	1,61	1,55	1,45	1,4	1,34	1,3

Yuklanish koeffitsienti. Chervyakli uzatmada yuklanish koeffitsienti, bu qo'shimcha dinamik kuchlarni hisobga oluvchi koeffitsientlar ko'paytmasiga teng, ya'ni $k_H = k_F = k_\beta \cdot k_v$.

Uzatmada $v_2 < 3mG's$ bo'lganda $K_{NV} \approx 1,0$; $v_2 < 3mG's$ bulganda $K_{NV} \approx 1,0-1,3$: Yuklanish doimiy bo'lganda $K_{N\beta} \approx 1,0$, uzgaruvchan bo'lganda $K_{N\beta} \approx 1,05-1,2$.

Koeffitsintning katta qiymatlari q kichik, z_2 katta bo'lganda olish tavsiya etiladi.

Chervyakli uzatmalar uchun ishlatiladigan materiallar va ruxsat etilgan kuchlanishlar uzatma sirpanish tezligining qiymati nisbatan katta bo'lganligi uchun chervyak va uning g'ildiragi uchun ishlatilgan materiallar antifriktsion juft hosil qilishi kerak. Bu talabni etarli darajada qondirish uchun chervyak po'latdan, uning g'ildiragi esa bronza yoki cho'yandan tayyorlanadi.

Chervyak asosan uglerodli yoki legirlangan 40XN, 20XN3A, 30XGSA, 20X markali po'lat materiallardan tayyorlanib, bunda o'ram yuzasining qattiqligi termik qayta ishlash, masalan toblash, uglerod bilan to'yintirish natijasida HRC 45...50 bo'lishi kerak.

Ochiq chervyakli uzatmalarda chervyak 45 markali po'lat materiallardan tayyorlanib, o'ram yuzasining qattiqligi NV 300...350 gacha bo'lishi mumkin.

Chervyakli g'ildirak gardish materiallar uning sirpanish tezligiga bog'liq bo'lib, asosan qalayli bronza, kamdan-kam hollarda esa qalaysiz bronza, hamda cho'yandan tayyorlash mumkin. Bunda $B_p O \Phi 10-1$, $B_p OH \Phi$ markali bronza materiallar yaxshi mexanik xarakteristikalariga ega, shuning uchun uzatmalarning sirpanish tezligi $v_c = 5 \div 25M/c$ bulganda ishlatish tavsiya etiladi. Uzatmalarni sirpanish tezligi $v < 5mG'c$ bo'lganda chervyakli g'ildiraklarni qalaysiz bronza, masalan BRAJ 9-4 markali materiallardan tayyorlash tavsiya etiladi. Bunda chervyak o'rami ishchi yuzasining qattiqligi $> 45NRC$ bo'lib ishlov berib silliqilgan bo'lishi kerak. Kulrang cho'yanlarni esa uzatmaning sirpanish tezligi $v_c < 2mG's$ bo'lganda ishlatish mumkin.

Ruxsat etilgan kontakt kuchlanish. Chervyak o'ram ishchi yuzasining qattiqligi $> HRC45$ bo'lib, bu yuza ishlov berib silliqilgan bo'lsa, qalayli bronzalardan tayyorlangan g'ildiraklar uchun $[\sigma_H] = (0,85...0,9)\sigma_H$; agarda bu shart bajarilmasa $[\sigma_H] = C_v \cdot 0,75G_M$. Bu erda: C_v - uzatmaning sirpanish tezligini hisobga oluvchi koeffitsient:

v_c	<1	2	3	4	5	6	7	≥ 8
C_v	1,33	1,21	1,11	1,02	0,95	0,88	0,83	0,8

Chervyakli g'ildirak Ax-9-4 markali qalaysiz bronzadan tayyorlangan hamda chervyak o'ram yuzasining qattiqligi $> 45HRC$ bo'lib, unga ishlov berib, silliqilgan bo'lsa $[\sigma_H]$ qiymatini quyidagicha aniqlanadi.

$$[\sigma_H] = (300 - 25v_c) MPa$$

Ruxsat etilgan egilishdagi kuchlanish. Hamma xil bronza materiallardan tayyorlangan chervyakli g'ildiraklar uchun

$$[\sigma_F] = 0,25\sigma_{ok} + 0,08\sigma_M$$

Uzatmani qizishini tekshirish, sovitish va moylash.

Uzatmada ish jarayonida mexanik energiyaning bir qismi issiqlik energiyasiga aylanib uzatmani qizitadi. Agarda uzatma etarli darajada sovitilmasa, u qizib tezda ishdan chiqishi mumkin. Uzatma har sekundda hosil bo'lgan issiqlik miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = (1 - \zeta)P_1$$

bu erda; P_1 -uzatilayotgan quvvat,
 ζ -uzatmaning f.i.k.

Tabiiy holda uzatmada issiqlikning bir qismi yopiq uzatma qutisini tashqarisidan olib ketiladigan issiqlik miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = k_t(t_1 - t_0)A.$$

bunda: A-havo bilan sovitiladigan yuza qiymati, bu qiymat o'qlararo masofaga nisbati jadvaldan olinadi:

$a_{\omega, mm}$	80	100	125	140	160	180	20	225	250	280
A, m^2	0,19	0,24	0,36	0,43	0,54	0,67	0,8	1,0	1,2	1,4


t_1 -yopiq uzatma ichidagi issiqlik darajasi;

k_t -issiqlik chiqarish koeffitsienti $VtG \cdot m^2, rad$. Shamollatib turilmaydigan yopiq xonalarda $k_t = 13 \div 18 VtG \cdot m^2, rad$.

t_0 -Tashqi muxitning issiqlik darajasi:

$[t_1]$ ning qiymati foydalaniladigan moyning turiga bog'liq. Yopiq uzatmalarga mo'ljallangan moylar uchun $[t_1] = 60^{\circ} \div 70^{\circ}$. Samolyot moylari uchun $[t_1] = 100^{\circ} \div 120^{\circ}$.

Uzatmani qizib ketmasligi uchun $Q \leq Q_1$ shart bajarilishi kerak. Aks holda uzatma sun'iy sovitiladi. Bunga chervyak valiga sovitgich o'rnatish, ichida to'xtovsiz sovuq suv oqib turadigan bir necha bor bukilgan turbani moy ichiga joylashishi yoki moyni maxsus xalodilniklarda sovitish yo'llari bilan erishish mumkin.



Uzatma g'ildiraklarni, ya'ni chervyakli g'ildiraklar moyga cho'ktirish yo'li bilan moylash mumkin. Bunda chervyak o'rami chervyakli g'ildiraklarini tishi butun balandligi bo'yicha moyga cho'ktirish kerak. Sekin harakatlanuvchi uzatmalar uchun esa chervyakli g'ildirak diametrini 1G'3 balandligi bo'yicha cho'ktirish mumkin.

Uzatma har bir uzatilayotgan quvvat uchun 0,35...0,7l moy quyish tavsiya etiladi.

Tezligi $>12 mG's$ bo'lgan uzatmalarda tsirkulyatsiya yo'li bilan moylash tavsiya etiladi, bunda moy ilashish chizig'iga va podshibnikka tozalanib qo'yiladi.

Nazorat savollari.

1. Uzatmani moylash yo'llari.
2. Uzatmaning qizish sabablari. Qizishga tekshirish.
3. Uzatmani sovutish yo'llari.
4. Uzatmada qay bir g'ildirak mustahkamligi tekshiriladi? Nima uchun?
5. O'qlararo masofa qiymatiga $[\sigma_H]$ ta'sirini so'zlang.
6. $[\sigma_H]$ qiymatiga d_1 , d_2 ta'sirini so'zlang.

13-mavzu.	Tasmali uzatmalar. Turlari. Tasmali uzatmalarni hisoblashni nazariy asoslari.
------------------	--

13.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Tasmali uzatma turlari 2. Tasmali uzatmalarni xisobini nazariy asoslari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Tasmali uzatmalarni turlari. Tasmalarni tuzilishi, ishlash printsipli hamda hisoblashni nazariy asoslari bo'yicha talabalarda tasavvurni shakllantiradi.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Tasmali uzatma turlari; - tasmali uzatma tortish darajasiga ishqalanish ko'rsatish; - Eyler formulasini mohiyatini tushuntirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Talaba tasma turlarini va tuzilishini izohlaydi; - Ishqalanish ko'effitsienti hamda qamrov burchagini ta'sirini tushintiradi; - Eyler formulasi mohiyatini tushintirish beradi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.

O'qitish vositalari	Proektor, targatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamo'a va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya


Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (50 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Tasmali uzatmalar qanday turlarga bo'linadi; - Ishqalanish koeffitsienti va qamrov burchagini ta'siri qanday. 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etadi. 2.3. Tasmali uzatmalarni tortish darajasi nazariy asoslarni yaratuvchisi Eyler formulasini mohiyatini tushuntiradi. a) Eyler formulasini mohiyati nimada?	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Talaba tasmali uzatmalarni tortish darajasiga ta'sir qiluvchi omillar o'zaro muxokama qiladi. 2.3. Savol berib asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mustaqil ish uchun vazifa: "Tasma turlari" so'ziga klaster tuzish vazifa beradi, baholaydi	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. yozib oladilar


Vizual materiallar.

1-savol. Tasmali uzatma turlari

1-ilova.



2-savol. Tasmali uzatmalarni hisoblashni nazariy asoslari.



Mashg'ulot bo'yicha xulosa


1. Tasmali uzatmalarda harakatni bir valdan ikkinchi valga ishqalanish xisobiga o'tkaziladi.
2. Tasmali uzatmalar yassi, ponasimon, tishli va boshqa turlarga bo'linadi.
3. Tasmali uzatmalarni tortish darajasini nazariy asoslari Eylar tomonidan ta'riflab berilgan.

2-ilova.

Tasmali uzatma

Harakat va energiya etaklovchi shkifdan etaklanuvchi shkifga elastik tasma bilan shkif o'rtasida xosil bo'ladigan ishqalanish kuchi yordamida uzatiladigan uzatmalar tasmali uzatma deb ataladi.

Tasmali uzatma etaklovchi shkiv 1, etaklanuvchi shkiv 2, xamda taranglik bilan kiygizilgan tasma 3 dan iborat bo'ladi.



Tasmalar ko'ndalang kesimning shakliga ko'ra yassi (b-rasm), aylanasimon (v rasm), ponasimon (g-rasm), yarim ponasimon (d rasm) xamda tishli bulishi mumkin,

Afzalliklari: Harakatning nisbatan uzoq masofa (8...10 m) ga uzatish mumkin; shovqinsiz va ravon ishlaydi. Tuzilishi oddiy, nisbatan arzon turadi, mexanizmlarni sirpanish xisobiga o'ta yuklanishdan saqlanadi.


Kamchiliklari. Tashqi o'lchamlarni nisbatan kattaligi, uzatish sonini sirpanish xisobiga o'zgaruvchanligi, tayanchlarga tushadigan kuch qiymatlarni nisbatan kattaligi, ishlash muddatining kamligi (2000...3000s)

Mexanik uzatmalarda tasmali uzatmalar xarakatini kamaytirish uchun ishlatilib, asosan yuritmani tez xarakatlanuvchi pog'onasida ishlatish tavsiya etiladi. Uzatmadagi quvvat 50 kVtgacha, aylanma tezligi 40..50 mG's gacha uzatish sonini eng katta qiymati uq5..6 taranglovchi rolik ishlatilganda uq6..10 bo'lishi mumkin.

Tasmali uzatmalarni mexanikasi.

Tasmalarning elastik siljishi. Tasma uzatma tarmoqlarda taranglik F_1 , F_2 kuchlarining qiymatlari xarxilligi tufayli elastik siljish xosil bo'ladi. Rasmda tarmoqdagi kuchlar diagrammasi berilgan. Diagrammadan ma'lumki etaklovchi shkifda kuch F_1 dan F_2 gacha kamaymoqda, etaklanuvchi shkifda F_2 dan F_1 gacha oshmoqda. Ma'lumki deformatsiya taranglik kuchiga to'g'ri praportsional bo'lganligi uchun etaklovchi shkifda tasma qisqaradi ya'ni shkifda aylanishga qarama-qarshi tomonga sirpanadi, etaklanuvchi shkifda tasma uzayadi, bunda sirpanish shkifda aylanish tomon yo'nalgan bo'ladi. Bunday siljish **elastik siljish** deb ataladi.

Elastik siljish tasmali uzatmalar normal xolat bo'lib tarmoqdagi taranglik kuchlarini qiymati birxil emasligidan xosil bo'ladi. Uzatma tarmoqlarni tezligi V_1 , V_2 shkiylarni aylanma tezliklariga teng. Tezlikni sekinlashishi ($V_1 - V_2$) faqat etaklovchi shkifda sodir bo'lib, rasmda strelka bilan ko'rsatilgan. Bu sirpanish shkiv aylanish yo'nalishiga to'g'ri kelmaydi.



Tasma elastik siljishi sirpanish koeffitsienti bilan belgilanadi

$$\varepsilon = \frac{V_1 - V_2}{V_1}$$

bunda $V_1 - V_2$ - shkiylarning aylanish tezligi

Uzatmaning kinematikasi. Shkiylarni aylanma tezliklari

$$V_1 = \frac{\pi n_1 d_1}{60} \quad V_2 = \frac{\pi n_2 d_2}{60}$$

Tasmalarni elastik siljishini xisobga olib $V_1 > V_2$ yoki $V_1 = V_2 (1 - \varepsilon)$ yozish mumkin, bunda uzatish soni.


$$u = \frac{n_1}{n_2} = \frac{d_2}{d_1(1 - \varepsilon)}$$

Uzatmalarda $\varepsilon q 0,01 - 0,02$. Umuman oddiy xisoblashlarda $u \approx \frac{d_2}{d_1}$ qabul qilish mumkin.

Tasma tarmoqdagi kuch va ular o'rtasidagi bog'lanishlar.

Tasmalarni hisoblashda asos qilib, uning tortish darajasi va ishlash muddati olingan. Bunda tortish darajasi tasma bilan shkiv o'rtasidagi ishqalanish koeffitsienti hamda tasmaning qamrov burchagiga bog'liq, tasmaning ishlash muddati esa tajriba yo'li bilan olingan tavsiyalar asosidan belgilanadi.

Tasma tarmoqlardagi kuchlar va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash uchun yuklanishsiz $Tq 0$, hamda yuklanishni $T > 0$ uzatmalarni bir-biriga taqqoslab ko'ramiz, 3-rasm.



Bunda F_0 - tasma tarmoqlaridagi $Tq 0$ bo'lgandagi taranglik kuch; F_1, F_2 –uzatmada yuklanishi bo'lganda ($T>0$), etaklavchi va etaklanivchi tarmoqlardagi taranglik kuch; $F_t q 2T_1 G' d_1$ aylanma kuch; etaklavchi shkif uchun muvazanat sharti

$$T_1 q 0,5 d_1 (F_1 - F_2), \text{ yoki } F_1 - F_2 q F_t$$

F_1, F_2, F_0 -kuchlar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlaymiz.

Tasmaning uzunligi uning yuklanishiga bog'liq bo'lmaydi, shuning uchun etaklovchi tarmoqning cho'zilishi etaklanuvchi tarmoqning qisqarishi bilan muvazanatlashadi, ya'ni;

$$F_1 q F_0 q \Delta F, \quad F_2 q F_0 - \Delta F, \text{ yoki } F_1 q F_2 q 2F_0$$

tengliklarda $F_1 q F_t q F_2$ $F_1 q 2F_0 - F_2$.

Demak,


$$F_t q F_2 q 2F_0 - F_2; \text{ yoki } 2F_2 q 2F_0 - F_t, \text{ bunda } F_2 q F_0 - F_t G' 2; \quad F_1 q F_0 q F_t G' 2$$

Formular F_0, F_1, F_2 kuchlarni aylanma kuch F_t ga bog'liq holda o'zgarishini ko'rsatadi. Tasmaning tortish darajasi, tasmaning qamrov burchagi hamda tasma bilan shkiv o'rtasidagi ishqalanishga bog'liq. Taranglik kuchlarni shu α, f qiymatlariga bog'liqligi Eyler tomonidan hal qilingan. Buning uchun tasmaning elementar bo'lagi olinib, uning kuchlar ta'siridagi muvozanati ko'rilgan.

Muvozanat shartiga ko'ra, shkiv markaziga nisbatan olingan momentlar yig'indisi:

$$F \cdot \frac{d}{2} + fdR \frac{d}{2} - (F + dF) \frac{d}{2} = 0 \text{ yoki } F \cdot \frac{d}{2} + fdR \frac{d}{2} - F \frac{d}{2} - dF \frac{d}{2} = 0$$

bunda $fdR q dF$ (a). fdR -element ishqalanish kuch; fd -tasmaga elementar $d4$ burchagida tas'ir qilayotgan elementar kuch.



Kuchlarni vertikal o'qqa nisbatan proektsiyalar yig'indisi olinsa, quyidagicha bo'ladi:

$$dR - F \sin \frac{d\varphi}{2} - (F + dF) \sin \frac{d\varphi}{2} = 0$$

Bu tenglikdagi ikkinchi darajali kichik sonlarni tashlasak, ya'ni:

$$\frac{d\varphi}{2} \approx \frac{d\varphi}{2}$$

bunda $\sin \frac{d\varphi}{2} \approx \frac{d\varphi}{2}$ deb qabul qilinsa – $dR q F \cdot d\varphi$ (b) bo'ladi. (a) va (b) formuladan, ya'ni

$$\frac{dF}{F}$$

$dF q fdR, \quad dR q F \cdot d\varphi$ lardan $dF q fF \cdot d\varphi$ yoki $\frac{dF}{F} q fd\varphi$ (v).

Ma'lumki F ni qiymati F^1 dan F^2 gacha, φ ning qiymati 0 dan α^1 gacha o'zgaradi. Shuni e'tiborga olib (v) ni integrallansa.

$$\int_{F_2}^{F_1} \frac{dF}{F} q \int_0^{\alpha_1} fd\varphi, \quad \ln \frac{F_1}{F_2} q f\alpha, \quad \frac{F_1}{F_2} q e^{f\alpha} \text{ yoki } F_1 q F_2 \cdot e^{f\alpha}$$

kelib chiqadi. Bu erda e q 2,71 natural logarifmning asosi.

$F_1 - F_2$ q F^t tenglik bilan F_1 q $F_2 \cdot e^{f\alpha}$ tenglikni birga echilsa, quyidagi ifodalar olinadi:

$$F_1 q F^t - F_2; \quad F_2 e^{f\alpha} q F_1 - F_2; \quad F_2 e^{f\alpha} Q F_2 q F_1$$

$$F_2 (e^{f\alpha} Q 1) q F_1; \quad F_2 q \frac{F_1}{e^{f\alpha} + 1},$$

$$F_1 q F^t \cdot \frac{e^{f\alpha}}{e^{f\alpha} - 1}; \quad F_0 q \frac{F_1}{2} \left(\frac{e^{f\alpha} + 1}{e^{f\alpha} - 1} \right)$$

Natijada F_1, F_2, F_0 kuchlarni aylanish kuch F^t , qamrov burchagi α , ishqalanish koeffitsenti f bilan bog'laydigan formulalar olinadi.


Shu formula yordamida tasmani normal ishlashi uchun zarur bo'lgan taranglik kuchining eng kichik qiymatini aniqlash mumkin,

$$F_0 < \frac{F_1}{2} \left(\frac{e^{f\alpha} + 1}{e^{f\alpha} - 1} \right)$$


bo'lganda tasma to'la sirpanishni boshlaydi. Formuladan ma'lumki f va α ning qiymatlarini oshishi uzatmaning ishlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ponasimon tasmani hamda taranglovchi rolikli uzatmalar ana shu xulosa asosida yaratilgan, chunki ponasimon tasmani ishlatilishi f ni, taranglovchi rolikning ishlatilishi esa α ning o'zgarishiga bog'liq. a ning kichiklashuvi va u ning ortishi α ning kamayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun amalda bajariladigan hisoblashlarda a, u, α qiymatlari ma'lum oraliqda bo'lishi tavsiya etiladi.

Uzatmaning ishlash jarayonida tasma tarmoqlarida F_1, F_2, F_0 kuchlardan tashqari markazdan qochma F_r xamda qamrov burchaklarida egilishdagi kuchlanishlar xosil bo'ladi.

<p>Markazdan qochma kuchlar. Tasmaning aylanma xarakatida uning xarbir elementar dA yuzasmga elementar markazdan qochma dS kuch ta'sir etadi, 4.5-rasm. Bu esa tasmada qushimcha kuchlanish xosil qiladi. Bu kuchning qiymati qo'yidagicha aniqlanadi.</p> $F_0 q \rho \cdot A \cdot v^2$	
--	--

bunda ρ q 1,2-1,25 g'sm³-rezinalangan yassi, ponasimon tasmalarni zichligi; A q $v\delta$ -bosmaning kesim yuzasi, mm²; v -tasmaning tezligi, mG's. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, uzatmaning tezligi 20mG's oshganda F_0 kuch o'z ta'sirni ko'rsatadi.

<p>Egilishdagi kuchlanish. Uzatmaning ishlash jarayonida uning qamrov burchagida egilishda kuchlanish xosil bo'ladi, 6-rasm. Bu kuchlanishni eng katta qiymati etaklovchi shkivdan tasmaning qamrov burchagida bo'ladi.</p> <p>Kuchlanishni qiymati tasmaning qalinligi xamda shkivning diametriga bog'liq bo'lib qo'yidagicha aniqlanadi.</p>	
---	---

$$\sigma_{\alpha} = \frac{E\delta}{d}$$

bunda: E -tasma materialining elastiklik moduli, nG'mm²; δ -tasmaning qalinligi, mm; d -shkivni diametri, mm.

Tadiqotlar shuni ko'rsatdiki, tasma ish jarayonida toliqib ishdan chiqadi, shuning uchun $d_1 G \delta$ qiymat chegaralangan ($d_1 G \delta q25-40$).

Tasmaning ishlash muddatiga nafaqat σ_{σ_2} kuchlanish qiymatiga, balki bu qiymatini ta'sir etish xarakteriga va tsiklning qanchalik tez takrorlanib turishiga xam bog'likdir. Tsiklning takrorlanish tezligi tasmaning vaqt birligi ichida aylanib o'tish soni bilan o'lchanadi. Tasmaning bir sekunda shkivni necha marta aylanib utishi kuydagicha aniqlanadi:

$$v = \frac{V}{l} \leq [v]$$

bunda: v -tasmaning tezligi, mG's; l -tasmaning uzunligi, m; $[v]$ -tasma uchun ruxsat etilgan qiymat.

Tasmali uzatmalar uchun $[v]$ qiymat chegaralangan bo'lib, yassi tasmali uzatmalar uchun $[v] \leq 3 \div 5c^{-1}$, ponasimon tasmalar uchun $[v] \leq 10 \div 20c^{-1}$. Agarda $v > [v]$ shart bajarilmasa l qiymati oshiriladi.


O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, agarda shart bajarilsa tasmalarni ishlash muddati 2000÷3000 s bo'lishi mumkin.

Tasmadagi kuchlanishlar. Uzatmaning ishlash jarayonida etaklovchi tarmoqda eng katta kuchlanish bo'lib, qo'ydagi $\sigma_1, \sigma_v, \sigma_{eg}$ kuchlanishlarni yig'indisidan iborat, ya'ni:

$$\sigma_{\max} q \sigma_1 Q \sigma_v Q \sigma_{eg} \text{ asosan } \sigma_1 = \frac{F_0}{A} + 0,5\alpha_t$$


natijada $\sigma_{\max} q \sigma_0 Q 0,5\sigma_t Q \sigma_v Q \sigma_{eg}$

Kuchlanishning eng katta qiymati tasma etaklovchi tarmog'ining etaklovchi shkiv bilan uchrashgan joyida bo'ladi. rasmda shu kuchlanishlarni tarmoq bo'yicha taqsimlanish epyurasi berilgan.



Tasmalarni ishlash muddati tarmoqdagi kuchlanishlar turlicha ta'sir ko'rsatadi. Masalan formuladan ma'lumki boshlang'ich taranglik kuchlanish qiymati ortishi bilan umuman kuchlanish oshadi va natijada tasmani tortish darajasi ortadi. Lekin bu qiymat ma'lum chegaradan oshgach, tasmaning ishlash muddati kamayadi. Shuning uchun o'tkazilgan tadqiqotlarga asosan boshlang'ich kuchlanish σ_0 qiymatni ponasimon bosmalar uchun $\alpha_0 q 1,5MPa$, yassi tasmalar uchun $\sigma_0 q 1,8MPa$, qabul qilish tavsiya etilgan.

Val tayanchlariga ta'sir qiluvchi kuchlar. Tasma tarmoqlaridan F_1, F_2 kuchlarni teng ta'sir etuvchisi uzatma va tayanchlariga tushayotgan kuchni xosil qiladi.



Teng ta'sir etuvchi kuch qo'ydagicha aniqlanadi.

$$F_b = \sqrt{F_1^2 + F_2^2 + 2F_1 + F_2(180 - \alpha_1)} = (F_1 + F_2) \sin\left(\frac{\alpha_1}{2}\right)$$

Nazorat savollari

1. Tasmali uzatmalarni afzallik va kamchiliklari.
2. Tasmali uzatmalar qanday turlarga bo'linadi?
3. Tasmali uzatmalarni nazariy asoslari kim tomondan tavsiya etilgan.
4. Eyler formulasini mohiyatini tushuntirib bering.
5. Etaklovchi shkivda qamrov burchagi qancha bo'lishi shart.

14-mavzu.	Ponasimon uzatma turlari. Hisobi.
------------------	--

14.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Ponasimon tasma turlari 2. Tasmalarni tortish darajasiga ta'sir qiluvchi omillar.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Ponasimon tasma turlari va tuzilishi bilan hamda uzatmaning tortuvchanlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillar to'g'risida to'liq tasavvurni shakllantiradi.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Ponasimon tasma turlari va tuzilishini tushuntirish; - Ponasimon uzatmalarni tortuvchanlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillarga izoh berish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Ponasimon tasma turlarni izohlaydi; - Ponasimon tasma tuzilishini aytib beradi; - Ponasimon tasmali uzatmalarga tortuvchanlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni tushuntirib beradi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamoa va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi


Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.

2-bosqich. Asosiy (50 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Ponasiomn tasmalar qanday turlarga bo'linadi? - Tasmalarni tuzilishi chizib ko'rsating? 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etadi. Tasmali uzatmalarni tortuvchanlik darajasiga qamrov burchagi, tezligi, qiyalik burchagi va boshqa omillarni ta'siri tushintirib beradi. -tasmaning qamrov burchagi uning totish darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi? 2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishni ta'kidlaydi.	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Talabalar ponasimon tasmalar turini o'zaro muxokama qiladi. 2.3. Savol berib asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mustaqil ish uchun vazifa: "Ponasimon tasma turlari" so'ziga klaster tuzish vazifa beradi, baholaydi	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. yozib oladilar

Vizual materiallar.

1-savol. Ponasiomn tasmali uzatma turlari va tuzilishi.

1-ilova.



2-savol. Tasmali uzatmalarni tortish darajasiga ta'sir qiluvchi omillar.



Mashg'ulot bo'yicha xulosa

1. Ponasiomn uzatma turlari. Tuzilishi haqida ma'lumotlar beriladi.
2. Tasmali uzatmani tortuvchanlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillar to'g'risida tushuncha qabul qilinadi.

2-ilova.

Ponasimon tasmali uzatmalar. Ponasimon tasma turlari chegaralangan bo'lganligi uchun xar bir turi uchun eksperiment yo'li bilan bitta tasma yordamida uzatish mumkin bo'lgan kuvvat aniqlangan. jadval, bunda standart uzunlik ℓ_0 , α q180°, uq1,0, yuklanish bir tekis deb olingan.

jadval

Tasmalarning uzunligi L ₀ ,mm	Etaklovchi shkiv d ₁ mm	Tasmaning tezligi VmG's bo'lganda uzata oladigan quvvat kVt xisobida			
		5	10	15	20
0(L ₀ q1320)	63	0,49	0,82	1,03	-
	71	0,56	0,95	1,22	1,4
	80	0,62	1,07	1,41	1,65
A(L ₀ q1700)	90	0,84	1,39	1,75	-
	100	0,95	1,6	2,07	2,29
	112	1,05	1,82	2,39	2,88
B(L ₀ q2240)	125	1,39	1,16	2,8	-
	140	1,61	1,7	3,45	-
	160	1,83	3,15	4,13	4,88
V(L ₀ q3750)	200	2,77	4,59	5,8	-
	224	3,15	5,36	6,95	7,95

Loyixalanayotgan uzatmani ishlash sharoiti standart sharoit bilan bir xil bo'lmaganligi uchun bita tasma yordamida uzata olish mumkin bo'lgan quvvat qiymati tasma uzunligi, qamrov burchagi, uzatish soni va boshqalarni ta'sirini xisobga olganda xisoblanadi, bunda

$$P_u = \frac{P_0 \cdot C_\alpha \cdot C_l \cdot C_u}{C_p}$$

bunda C_l -tasma uzunligini ta'sirini xisobga oluvchi koeffitsent. qiymat standart L₀ uzunligini xisobiy uzunlik nisbatiga nisbatan olinadi.

$\frac{L_\alpha}{L_0} \dots \dots$	0,4	0,5	0,6	0,8	1,0	1,2	1,4	1,6	2,0
Ponasimon uzatma	0,8	0,86	0,89	0,95	1,0	1,04	1,07	1,1	1,15

S_u-uzatish soni koeffitsenti

u.-1,0	1,6	2,0	2,4	3
C _u1,00	1,1	1,12	1,13	1,14

C_α , C_p - koeffitsent qiymatlari yuqorida berilgan .

Ponasimon tasmali uzatmalarni xisoblashda kerakli tasmalar soni Z aniqlanadi.

$$Z = \frac{P_1}{(P_x \cdot C_z)}$$

bunda P₁- etaklovchi shkiv yordamida uzatiladigan quvvat kVt; C_z -yuklanishni notekis taqsimlanishni xisobiga koeffitsenti Zq2; S_zq0,95.

Zq2 3; S_zq0,9. Zq4, 6; S_zq0,85.

Uzatmadagi boshlang'ich taranglik kuchini qiymati

$$F_0 = \frac{850 P_1 \cdot C_p \cdot C_l}{Z \cdot V \cdot C_\alpha \cdot C_u} \quad R_1; \text{ kVt.}$$

Valga ta'sir qiluvchi kuch $F_b = 2F_0 Z \sin\left(\frac{\alpha_1}{2}\right)$.

Nazorat savollari

1. Ponasimon tasmalar qanday turlarga bo'linadi?
2. Ponasimon tasma tuzilishini tushuntirib bering.
3. Ponasimon tasmali uzatmalarni tortish darajasiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi.
4. Ponasimon tasmali uzatmalarda tasmalar soni qanchagacha bo'lishi mumkin? Sababini tushintiring.
5. Etaklovchi shkivda qamrov burchagi α_1 qanchagacha bo'lishi mumkin?

15-mavzu.	Yassi tasmali uzatmalar. Turlari. Hisobi.
------------------	--

15.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Yassi tasma turlari. 2. Tasmani tortish darajasiga ta'sir qiluvchi omillar.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Yassi tasma turlari, tuzilishi hamda uzatmaning tortuvchanlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillar to'g'risida to'liq tasavvurni shakllantiradi.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Yassi tasmalarni tuzilishini tushuntirish; - Yassi tasmali uzatmalarni tortuvchanlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillarga izoh berish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Yassi tasma turlarini izohlaydi; - Yassi tasma tuzilishini aytib beradi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamoa va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi


Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (50 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Tasmalar qanday turlarga bo'linadi? - Tasma bilan shkiv o'rtasidagi ishqalanish qanday bo'lishi kerak?	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. talaba shkiv bilan tasma o'rtasidagi ishqalanish qanday

	2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etadi.	bo'lishi kerakligini o'zaro muhokama qiladi.
		2.3. Savol berib asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mustaqil ish uchun vazifa: "Tasmani tortuvchanlik darajasi" so'ziga klaster tuzish vazifa beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. yozib oladilar


Vizual materiallar.

1-savol. Yassi tasmalarni tuzilishi.

1-ilova.



2-savol. Tasmani tortish darajasiga ta'sir qiluvchi omillar.



Mashg'ulot bo'yicha xulosa

3. Yassi tasmalarni tuzilishi bilan tanishadi.
4. Tasmali uzatmani tortuvchanlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni o'zlashtiradi.

2-ilova.

Yassi tasmali uzatmalar. Tasmalarni tortish darajasi uning yuzasini aniqlash bilan belgilanadi, bunda

$$A = \epsilon \delta = \frac{F_t}{[\sigma_t]}$$

Formula yordamida tanlangan tasma qalinligi (δ) bo'yicha v ni aniqlanadi.

Loyxalanyotgan uzatmalarni ishlash sharoiti standart sharoit bilan bir xil bo'lmaganligi uchun xisob boshlangich kuchlanishi σ_0 bo'yicha olib boriladi, bunda

$$[\sigma_t] = \frac{\sigma_0 \cdot c_\alpha \cdot c_v \cdot c_0}{c_p}$$

bunda: C_α -kamrov burchagini ta'sirini xisobga oluvchi koifitsent.

α°	70	90	110	130	150	180
C_α	0,57	0,68	0,78	0,86	0,92	1,0

S_v - markzdan kochma kuch ta'sirida tasma bilan shkiv o'rtasidagi ishkalanishni kamaytirishni xisobga oluvchi tezlik koifitsenti:

Yassi tasmalar uchun $S_v \text{ q } 1,04 - 0,0004v^2$;
 Ponasimon tasmalar uchun $S_v \text{ q } 1,05 - 0,0005v^2$;

S_0 - Tasmaning garizontga nisbatan joylanishini xisobga oluvchi koifitsent.

α	$0 \div 60^\circ$	$60^\circ \div 80^\circ$	$80^\circ \div 90^\circ$
S_0	1,0	0,9	0,8

Ponasimon tasmalar uchun $S_0 \text{ q } 1,0$

S_r - uzatmani ishlash sharoitini xisobga oluvchi koefitsent; ish bir smenali bo'lganda.

Yuklanish	bir tekisda,	uzgaruvchan,	katta zarbli.
S_{r1}	1,0	1,1	1,2

Nazorat savollari

1. Tasmalarning tuzilishlari so'zlab bering.
2. Tasmali uzatmani tortish darajasiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. α_1 ni qiymati qancha bo'lishi kerak?
4. Boshlang'ich kuchlanish σ_0 ning qiymati qanday tanlanadi?
5. Tasmalarni eni qanday aniqlanadi.

16-mavzu.	Tasmalani tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar. Uzatmalarni taranglash usullari.
------------------	--

16.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Tasmalarni tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar. 2. Uzatmalarni taranglash usullari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Tasmalarni tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallarni xususiyatlari. Materiallar qanday shartlarni bajarishi kerak. Tasmali uzatmalarni taranglash usullari. Sababi tushuntirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Tasma tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar bilan tanishtiradi; - Materiallar qanday ishlashi mumkinligini izohlaydi; - Uzatmalarni taranglash sabablarini tushintiradi.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Tasmani tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallarni izohlaydi; - Tasmalar qanday sharoitda ishlashini takrorlaydi; - Tasmali uzatmalarni taranglash sabablarini o'zlashtiradi..
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamoa va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi


Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Tasmalarni tayyorlash uchun qanday materiallar ishlatiladi?	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Tasma tayyorlash

	- Tasmalarni tuzilishi qanday bo'ladi? 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etadi. - Tasmali uzatmalarni taranglash sabablarini tushintiring? - Tasmali uzatmalarni taranglash usullari.	uchun ishlatiladigan materiallar o'zaro muxokama qilinadi. 2.3. Savol berib asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mustaqil ish uchun vazifa: "Uzatmani taranglash" so'ziga klaster tuzish vazifa beradi, baholaydi	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. yozib oladilar


Vizual materiallar.

1-ilova.

1-savol. Tasmalarni tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar.



2-savol. Uzatmalarni taranglash usullari.



Mashg'ulot bo'yicha xulosa

1. Tasmalar uchun ishlatiladigan materiallar o'zgaruvchan kuchlanishga echimiga chidamli bo'lib, ishqalanish koeffitsienti nisbatan yuqori bo'lishi kerak.

2. Uzatmalarni taranglashdan maqsad, tarmoqlardagi taranglik darajasini etarli bo'lishini ta'minlashdir.

2-ilova.

Uzatmaning geometrik o'lchamlari.

Shkiv diametri d_1 , d_2 , o'qlar aro masofa a , etaklovchi shkivning qamrov burchagi α_1 , uzatmani asosiy o'lchamlari xisoblanadi.

Shkiv diametrlarini –rasm, imkoni boricha katta olish tavsiya etiladi. Bunda tasmaning ishlash muddati, F.I.K, tasmaning tortish darajasi (α_1 burchak oshgani uchun) oshadi.

Uzatmani loixalashda etaklovchi shkivni xisobiy diametrini aniqlashadi. M. A. Saverin formulasidan foylalaniladi

$$d_1 = (52 \div 64) \sqrt[3]{T_1}$$

bunda T_1 -etaklovchi shkivda burovchi moment, Nm;

Aniqlangan qiymatlar standart bo'yicha yaxlitlanib olinadi
40,45,50,56,63,71,80,90,10,112,125,140,160,150,200,224,250,

Ponasimon tasmalar uchun etaklovchi shkivni diametrini tasmani turiga nisbatan 11-jadvaldan olinadi. O'qlararo masofani qiymati yassi tasmali uzatmalar uchun

$a \geq (1,5 \dots 2,0)(d_1 + d_2)$ tasma sintetik materialdan bo'lganda 1,5 qolgan xolda 2,0 koeffitsentni olinadi. Ponasmon tasmalar uchun

$$a_{\min} = 0,55(d_1 + d_2) + h; \quad a_{\max} = 2(d_1 + d_2)$$

bunda h -tasmaning balandligi, -jadvaldan tasmaning turiga nisbatan olinadi..

Tasmaning xisobiy uzunligi L_x .

$$L_x = 2a + 0,5\pi(d_1 + d_2) + \frac{0,25(d_1 + d_2)^2}{a}$$

Agarda tasma uchlari uzaro tikilsa, uzunligini $\Delta L = 100 \div 400 \text{ mm}$ uzaytiriladi. Cheksiz tasmalar uchun L_x qiymati standart bo'yicha yaxlitlanadi.

Tasmaning xisobiy uzunligi aniqlanishi o'qlar-aro masofani xisobiy qiymati.

$$a = 0,25(\Delta_1 + \sqrt{\Delta_1^2 - 8\Delta_2})$$

bunda $\Delta_1 = L_x - 0,5\pi(d_1 + d_2)$, $\Delta_2 = 0,25(d_1 - d_2)^2$

Etaklovchi shkivni qamrov burchagi α_1 ni qiymati

$$\alpha_1 = 150 - 57^\circ \frac{(d_2 - d_1)}{a} \geq [\alpha_1]$$

bunda $[\alpha_1]$ -etaklovchi shkivning qamrov burchagini ruxsat etilgan qiymati, yassi tasmali uzatmalar uchun $[\alpha_1] \geq 150^\circ$, ponasmon tasmali uzatmalar uchun $[\alpha_1] \geq 120^\circ$

Yassi tasmalar ishlash sharoiti, xarakat tezligi yuklanish xarakterlarini hisobga olgan xolda xar xil materiallardan tayorlanadi. Masalan junli, charim, ip gazlama, rezinalangan, xamda poliamid asosida tayorlangan plasmassali tasmalar.

Junli tasmalar egiluvchan bo'lganligi tufayli ularni notekis tsikil bilan to'satdan o'zgaruvchan yuklanishli uzatmalar ishlatish maqul. Katta xarakat, nam, chang va kislatalar junli tasmalarni ishlash sharoitiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmaydi. Shuning uchun ishlash sharoiti yuqorida ko'rsatilganidek bo'lganda, junli tasmalarni ishlatish tavsiya etiladi.

Ip gazlama uzatmalar, asosan kam quvvatli, tez xarakatlanuvchi uzatmalarda ishlatiladi. Bu tasmalar arzon turadi, ammo boshqa tasmalarga qaraganda tez ishdan chiqadi.

Charm tasmalar. Bu tasmalar o'zgaruvchan yuklanish ta'sir etadigan va tezligi kata bo'lgan uzatmalarda ishlatiladi. Kamchiligi nam joylarda ishlatib bo'lmaydi.

Rezinalangan tasmalar sanoatda eng ko'p tarqalgan bo'lib, vulkanizatsiyalangan rezinalar yordamida bir-biriga yopishtirilgan bir nechta qavat gazlamadan tuzilgan. Tasmaning gazlama qismi asosiy kuchlanishga ishlaydi, rezina esa gazlama qavatlarini bir butin qilib yopishtiradi va zarur ishqalanish koeffitsentini hamda egiluvchanligini ta'minlaydi. Tasmadagi gazlama qavatlar soni 2-9 ta bo'lishi mumkin. Bu turdagi tasmalarning kamchiligi, ular yog', kersin, benzin kabi moddalarga bardosh beraolmaydi, shuningdek uzatmalarda kichik diametrli shkivlar ishlatilganda qavatlar ajralib ketishi mumkin.

Plastmassali tasmalar. Bu tasmalar poliamid saqichi asosida tayorlanadi. Tasmalarni qalinligi 0,4-1,2 mm, uzatmalardi ishlatiladigan shkivlarning diametri nisbatan kichik bo'lganda ham uzatmalarning tezligi $V > 60 \text{ mG's}$, uzatiladigan quvvat 15kVt gacha bo'lishi mumkin.

Yuqorida bayon etilgan tasmalar uzun lentasmon tarzda tayorlanadi va rulon qilib o'ralgan xolda saqlanadi. Shuning uchun uzatmalarda tasmalardan foydalanishda kerakli

uzunlikda tasma qirqib olinib, ikki uchi ulanadi. Tasmalarning uchi elimlash, tikish xamda metal ulagichlar vositasida ulanadi.

So'ngi yillarda sanoatda malum uzunlikdagi cheksiz(chetlari ulangan) tasmalar (plstmassa tasmalar) ishlab chiqarila boshlandi. Bunday tasmalarning chidamligi odatdagidan yuqoribo'lib, uzatmalarni tezligini oshirishga imkon beradi.

Nazorat savollari.

1. Uzatma tasmalari qanday materiallardan tayyorlanadi?
2. Tasma materiallardan qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?
3. Tasmali uzatmada qaysi o'lchamlari standartlashtirgan?
4. Nima uchun tasmali uzatmalarda taranglovchi moslamalar ishlatiladi?
5. Qanday yo'llar bilan uzatmalarni taranglash mumkin?

17-mavzu.	Friktsion uzatmalar. Ishlatilishi. Afzallik va kamchiliklari. Variatorlar. Konstruktsiyasi. Mustahkamlikka hisoblash.
------------------	--

17.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Friktsion uzatma turlari. Ishlatish. Afzallik va kamchiliklari. Konstruktsiyasi. Mustahkamlikka hisoblash. 2. Variatorlar. Turlari. Ishlatish. Afzallik va kamchiliklari. Konstruktsiyasi. Mustahkamlikka hisoblash.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Friktsion uzatma, variatorlar turlari bilan tanishtirish. Ishlatish. Konstruktsiyasi. Afzallik va kamchiliklari. Ishlatish bilan tanishish. Kinematik xisobi.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Friktsion uzatma turlari bilan tanishish. - Variator turlari bilan tanishish. - Uzatma kinematik xisobi	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Friktsion uzatma turlari konstruktsiyalari bilan tanishadi. - Variatorlar tuzilishi, turlari, konstruktsiyasi bilan tanishadi. - Uzatmaning, kinematik xisobini o'zlashtiradi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamo'a va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi


Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Friktsion uzatma qanday ishlaydi; 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etadi. - Friktsion uzatma va variatorlarni konstruktsiyalari bilan tanishtiradi.	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Friktsion uzatmani turlarini o'zaro muxokama qilidi 2.3. Savol berib asosiy joylarini yozib oladi.

3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mustaqil ish uchun vazifa: “Friktsion uzatma turlari” so’ziga klaster tuzish vazifa beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. yozib oladilar
------------------------------------	---	---

Vizual materiallar.

1-ilova.

1-savol. Friktsion uzatma turlari. Ishlatish. Afzallik va kamchiliklari.




- a. Afzalliklari:
- tuzilishi oddiy;
 - harkatni bir tekisda o'zgartirish mumkin;
 - o'ta yuklanish bo'lganda sirpanish hisobiga kotoklarni sinishdan saqlash mumkin.

Фрикцион узатма турлари

- b. Kamchiliklari:
- uzatish sonini sirpanish hisobiga o'zgaruvchanligi;
 - tayanchlarga tushadigan kuchni kattaligi;
 - Ishchi yuzasini tez va notekis eyilishi.

2-savol. Variatorlar turlari. Ishlatilishi. Afzallik va kamchiliklari



Mashg'ulot bo'yicha xulosa


1. Friktsion uzatma turlari va konstruktsiyasi talaba tushunchaga ega bo'ladi.

2. Variator turlari va konstruksiyasi talaba tushunchaga ega bo'ladi.

2-ilova.

Friktsion uzatmalar



Uzatmada xarakat bir valdan ikkinchi valga ishchi yuzalarini siqish kuchi yordamida xosil bo'lgan ishqalanish xisobiga amalga oshirilsa, bunday uzatmalar friktsion uzatmalar deb ataladi. Etaklanuvchi val tayanchi muayan maxkamlanmagan, shuning uchun markazga tomon xarakatlanish mumkin .



Afzalliklari: tuzillishi oddiy, xarakatni bir tekisda o'zgartirish mumkin, o'ta yuklanish bo'lgan xollarda kotoklarni o'zaro sirpanishi natijasida mexanizmlarni sinishdan saqlash mumkin.


Kamchiliklari: Uzatish sonini sirpanishi xisobiga uzgaruvchanligi, tayanchlarga ta'sir kuchlarni kattaligi, ishchi yuzasini tez va noteks eyilishi.

Friktsion uzatmalarni ikki gruxga bo'lish mumkin bu uzatish soni doimiy bo'lgan friktsion uzatmalar, xamda o'zatish soni o'zgaruvchan bo'lgan uzatmalar ya'ni variatorlar, 2-rasm.



Friktsion uzatmalardan yordamida 20kVt gacha quvvat uzatish mumkin, tezligi 25mG's gacha.

Uzatish soni doimiy bo'lgan friktsion uzatmalar, quvvati uzatish mexanizm sifatida nisbatan kam ishlatiladi, chunki tishli uzatmalarga raqobatbardosh bo'la olmaydi, lekin ayrim xollarda (friktsion press) knematik uzatmalarda (magnitofon) ishlatiladi.



Friktsion variatorlar quvvati uzatadigan uzatmalarda, knematik uzatmalarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Bu uzatmalar konstruksiyasi bo'yicha tasmali, ko'p diskli va boshqa turlarga bo'linadi.

Uzatmaning mexanikasi.

Uzatmani knematikasi. Friktsion uzatmalarni ishlash jarayonida kotoklarni o'zora sirpanishi natijasida v_2 tezlik v_1 tezlik nisbatan kam bo'ladi. Kotoklarni uzora sirpanishni sirpanish koeffitsienti ε yordamida xisobga olinadi.

$\varepsilon = \frac{v_1 - v_2}{v_1}$. Bu koeffitsient qiymati $\varepsilon \approx 0.01 \dots 0.05$ eksperiment yo'li bilan aniqlanadi.

Demak etaklanuvchi kotok tezligi

$$v_2 \approx v_1(1 - \varepsilon)$$

Ma'lumki $v_1 = \omega_1 \frac{d_1}{2}$; $v_2 = \omega_2 \frac{d_2}{2}$, bundan uzatmaning uzatish soni etaklovchi va etaklanuvchi

kotoklarni burchak tezligi va diametrlarini nisbatiga teng

$$iq \frac{\omega_1}{\omega_2} = \frac{d_2}{d_1(1 - \varepsilon)}$$

Variatorlarni asosiy xarakteristikalaridan biri, bu uzatish sonini pog'onasiz boshqarishdir. Uzatmalarda variatorlarni ishlatish, ya'ni aylanish sonlarini birtekisda mashina tuxtatmasdan o'zgartirish mashina unumdorligini oshiradi va kerakli tezlikni ta'minlab beradi.

Xar qanday variatorni kinematik xarakteristikasi, bu uning boshqarish darajasi.

$$Dq \frac{n_{1max}}{n_{2min}} = \frac{u_{max}}{u_{min}} = \frac{R_{max}}{R_{min}}$$

bunda p_{2max}, p_{2min} etaklanuvchi valning max va min aylanish soni; i_{max}, i_{min} - uzatish sonini max va min qiymatlari.

Nazariy jixatdan olganda $R_{min} \rightarrow 0$, $Dq \rightarrow \infty$ bo'lishi mumkin, lekin R kichrayishi bilan sirpanish tezligi, kotoklarni eyilishi keskin oshadi, f.i.k kamayadi, shuning uchun boshqarish darajasi $D_{max} \rightarrow 9$ gacha bo'lishi mumkin.

Uzatmadagi kuchlar. Friktsion uzatmalarda xarakat bir valdan ikkinchi valga ishqalanish kuchi R_f yordamida amalga oshiriladi. Bu kuch esa siqish purjinasi yordamida muayan maxkamlanmagan tayanchga F_t kuch ta'sir natijasida xosil bo'ladi. Uzatmada xarakatni bir valdan ikkinchi valga o'tkazish uchun qo'yidagi shart bajarilishi kerak.

$$R_f \geq F_t$$

bunda: $F_t = 2T_2G'd_2$ - aylanma kuch $R_f = fF_2$ - ishqalanish koeffitsienti.

Demak $fF_p \geq F_t$ bo'lishi kerak bundan kotokni siqish uchun kerakli kuchning qiymati.

$$F_{p\text{q}} \frac{KF_t}{f} = \frac{2T_2 \cdot K}{(f \cdot d_2)}$$

bunda: $K_{q1.25-1,5}$ -xofsizlik koeffitsient; f -kotoklar o'rtasidagi sirpanib ishqalanish koeffitsienti. Kotoklar pulat yoki chuyan materiallardan tayyorlanib yog'lanmasa $f_{q0,15...0,20}$; yog'lansa $f_{q0,04-0,05}$.

Uzatmada quvvat ishqalanishni engish uchun sarf qilinadi, bunda f.i.k qiymatini $\eta_{q0,9-0,95}$ olinadi.

Uzatmalarni ishlash layoqatligi va xisobi.

Emirilish turlari. Moyli muxitda ishlaydigan uzatma kotoklarini ishchi yuzalarini tashqi siquvchi o'zgaruvchi kontakt kuchlar ta'sirida toliqish natijasida uvalanadi. Bunda qanchalik kontakt kuchlanish qiymatlari katta bo'lsa, shunchalik uvalanish xodisasi tezlashadi.

Kam moylangan yoki umuman moylanmagan uzatmalarda ishchi yuzalarining eyilish darajasi ishqalanish koeffitsenti f va kontakt kuchlanish σ_N ning qiymatlariga to'g'ri proporsional bo'ladi.

Metalmas materiallardan tayyorlangan katoklarning ishchi yuzalari eyilish bilan birga qatlamlarni ko'chish xollari ro'y beradi.

Xulos, uzatma kataklarining ishga layoqatligi bu ularning mustaxkamligi xamda eyilishiga chidamliligi bilan belgilanadi.

Uzatmaning xisobi. Mustaxkamlikka xisoblash kontakt kuchlanish bo'yicha olib boriladi, bunda Gerts formulasidan foydalaniladi $\sigma_H < [\sigma_H]$ shart bajarilishi kerak.

Uzatma kotoklari pulat yoki chuyan materiallardan tayyorlanib moyli muxitda ishlasa $[\sigma_N]_{q(2.5-3.0)NV}$, kotoklar moylanmasa $[\sigma_N]_{q(1.2-1.5)NV}$, kotoklar tekistalitdan tayyorlanib yog'lanmasa $[\sigma_N]_{q80-100MPa}$.

Nazorat savollari

1. Friksion uzatmalarni afzallik va kamchiliklari.
2. Uzatmalarni harakatni bir valdan ikkinchi valga qanday o'tkaziladi?
3. Kotok materiallari qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?
4. Uzatmada boshqarish darajasi qanchagacha bo'lishi mumkin.
5. Nima uchun kotoklarni yog'li muhitda ishlatish tavsiya etiladi.

18-mavzu.	Zanjirli uzatmalar. Ishlatilishi. Afzallik va kamchiliklari. Zanjirlar. Kinematika va geometrisi. Hisobi.
-----------	---

18.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Zanjirli uzatma turlari. Konstruktsiyasi. Ishlatish. Afzallik va kamchiliklari. 2. Zanjirlarni tanlash, mustaxkamlikka xisoblash.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Zanjirli uzatma konstruktsiyasi bilan talabalarni tanishtirish. Zanjirlarni tanlash. Rolikli, vatulka – rolikli, tishli zanjirli uzatmalar. Mustaxkamlikka xisoblash.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Zanjirli uzatma turlari bilan tanishtirish; - Zanjirlarni tanlash va mustaxkamlikka xisoblash.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Zanjirlarni turlari bilan tanishadi. - Zanjirlarni tanlash yo'llarni gapirib beradi. - Mustaxkamlikka xisoblashni asoslarini aytib beradi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamo'a va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya


Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Zanjirni qanday turlarini bilasiz? - Zanjirlar qanday tanlanadi? 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etadi.	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Zanjir turlarini xamda tanlash yo'llari muxokama qiladi. 2.3. Savol berib asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mustaqil ish uchun vazifa: "Zanjir turlari" so'ziga klaster tuzish vazifa beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. yozib oladilar


Vizual materiallar.

1-ilova.

1-savol. Zanjirli uzatma turlari. Ishlatilishi. Afzallik va kamchiliklari.



2-savol. Zanjirlarni tanlash. Mustaxkamlikka xisobi




Mashg'ulot bo'yicha xulosa

1. Zanjir turlari va konstruksiyasi bilan tanishadi. Tanlash yo'llarini o'rganadi.
2. Zanjir elementlari materiali va ularni qattiqligiga e'tibor beradi. Mustaxkamlikka xisoblash asoslarini o'rganadi.

1-ilova.

Zanjirli uzatmalar

Zanjirli uzatma bu etaklovchi yulduzcha 1, etaklanuvchi yulduzcha 2 xamda shu yulduzchaga kiydirilgan zanjir 3 dan iborat. Zanjir faqat bir tekislik bo'yicha egiladi, shuning uchun o'qlar o'zaro parallel bo'lishi shart.




Zanjirli uzatmalar asosan qishloq xo'jalik mashinalarda, mashina yuritmalarida xar xil stanoklarda kun ishlatiladi.

Afzalliklari: a) O'qlararo masofa 6-8 m gacha bo'lishi mumkin; b) vallarga tushadigan kuch tasmali uzatmalarga nisbatan kichik; v) 100 kvv gacha quvvat uzatishi mumkin; g) sirpanish xodisasi bo'lmaydi; d) f.i.k yuqori; e) bir pog'anada uzatish soni $u \approx 7$ gacha bo'lishi mumkin;

Kamchiliklari: a) tannarxi yuqori; b) yulduzchalarni tayyorlash birmuncha murakkab; v) ishlash jarayonida etibor bilan qarab turishni hamda yig'ishda yuqori aniqlikni talab qiladi; g) zanjir

elementlarining eyilish zvenolari uzunligining ortishiga va qo'shimcha dinamik kuchlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi, bu esa uzatmaning notekis ishlashiga sabab bo'ladi.

Zanjirlar. Uzatmalarda asosan rolikli va tishli zanjirlar ishlatiladi. Rolikli zanjirlar vtulka-rolikli va vtulkali turlariga bo'linadi. Zanjir qo'yidagi elementlardan tashkil topgan, bu tashqi va ichki plastinalar (1,2), tashqi plastina valik 3ga, ichki plastina valikda aylanayotgan vtulka 4 ga presslab o'rnatilgan. Valik bilan vtulka sharnir xosil qiladi. Vtulkaga uning atrofida bemolol aylanadigan qilib rolik 5ga o'rnatilgan.



Vtulkali zanjirning vtulka-rolikli zanjirdan farqi shuki, unda vtulka ustiga kiydirilgan rolik 5 bo'lmaydi. Buning natijasida zanjirning og'irligi va tannarxi kamayadi. Biroq vtulkali zanjirning hamda u bilan ishlashishda bo'lgan yulduzchalarning tishlari nisbatan tez yoyiladi. Shuning uchun ulardan kam yuklanishli va harakat tezligi nisbatan kichik uzatmalarda foydalanish tavsiya etiladi.

Zanjirni asosiy geometrik o'lchami bu rolik o'qlarini o'rtasidagi masofa, ya'ni rolik qadami t .

Zanjirni o'lchamlari va tortish darajasi uning qadamiga bog'liq bo'lib, u qiymat qancha katta bo'lsa, tortish darajasi shuncha kamayadi hamda zanjirlarni yulduzchalardan chiqib ketish hodisasi tug'iladi. Nisbatan sekin xarakatlanadigan uzatmalarda zanjir qadami $t > 25,4$ mm, tez xarakatlanadigan uzatmalarda $t < 25,4$ mm olish tavsiya etiladi.

Quyidagi zanjir qadamini etaklovchi yulduzga aylanish soniga nisbatan tanlash ko'rsatilgan.


$t, \text{ mm}$	8-9,525	12,7 - 25,4	31,75-44,45	50,8-78,1
$p_1, \text{ min}^{-1}$	3000-2500 ⁻⁷	1250-800	630-400	300-150

Zanjir qadami t bilan o'qlararo masofa o'rtasidagi nisbatni $0,02 a < t < 0,04a$ olish tavsiya etiladi.

Rolikli zanjirlar zanjir qadami t ni rolik diametri d ga nisbati bo'yicha engil (PRL), normal (PR), hamda uzun zvenoli ($tG'd > 2$, asosan qishloq xo'jaligida ishlatiladi) guruhlarga bo'linadi.

Zanjirlar bir va bir necha qatorli qilib tayyorlanishi mumkin. Yuklanish va tezligi katta bo'lganda ko'p qatorli zanjirlar ishlatiladi.

Zanjirlarning asosiy xarakteristikasi, bu uzuvchi kuch bo'lib, uning qiymati zanjir qatori oshishi bilan propportsional ravishda oshib boradi.



Tishli zanjirlar nisbatan og'irligi, tayyorlash qiyinligi tufayli kamroq ishlatiladi. Bu uzatmalar rolikli zanjirlarga nisbatan ishda ishonchli va mustahkam, katta tezlik bilan xarakatlanuvchi uzatmalarda ishlatish mumkin.

Zanjirlarni plastinalari termik qayta-ishlash mumkin bo'lgan o'rta uglerodli xamda legirlangan 45, 50 markali pulat materiallaridan tayyorlanadi, qattiqligini 40-50 NRS gacha etkazish uchun toblash yo'li bilan termik qayta ishlanadi. O'q, vtulkalarni 15, 20, 15X, 20X markali po'lat materiallardan tayyorlanib qattiqligini 55-65 NRS gacha ekazish uchun uglerod bilan to'yintirib toblash yo'li bilan termik qayta ishlanadi.

Bir qatorli rolikli zanjirlar uchun uzuvchi kuchning, qiymatlari, zanjir qadamiga nisbatan 1-jadvalda berilgan

Zanjir qadami t, mm	$F_{o'z}$, kN
9,25	9,1
12,7	18,22
15,875	22,7
19,05	31,8
25,4	60,0
31,75	88,5
38,1	127,0
44,45	226,8

A- zanjir sharnirning tayanch yuzasi, $Aq0,2t$. zanjir qadami $tq15,875$ mm bo'lganda, $Aq0,22t$, $tq9,52$ mm, $tq12,7$ mm bo'lganda, $Aq0,3t$.

Ilova: Bir qatorli zanjir yulduzcha tishining eni $bq0,93V-0,15$ mm.

Ikki va uch qatorli zanjir yulduzcha tishini eni $bq0,93V-0,15$ mm.

Bir qatorli vtulka-rolikli zanjirlar uchun extiyotlik koeffitsienti [S] ning qiymati

Zanjir qadami t, mm	Etaklovchi yulduzchanning aylanish soni, min									
	50	100	200	300	400	500	600	800	1000	1200
12,7	7,1	7,3	7,6	7,9	8,2	8,5	8,8	9,4	10,0	10,6
15,875	7,2	7,4	7,8	8,2	8,6	8,9	9,3	10,1	10,8	11,6
19,05	7,2	7,6	8,0	8,4	8,9	9,2	9,2	10,8	10,7	12,7
25,4	7,3	7,6	8,3	8,9	9,5	10,2	10,8	12,0	13,3	14,5
31,75	7,4	7,8	8,6	9,4	10,2	11,0	11,8	13,4	15,0	
38,1	7,5	8,0	8,9	9,8	10,8	11,8	12,7			

44,45	7,6	8,1	9,2	10,3	11,4	12,5				
50,8	7,6	8,3	9,5	10,8	12,0					

Tishli zanjirlar uchun uzuvchi kuchning qiymati


6.3 – jadval

Zanjir qadami t, mm	F _{o'z} , kN			
tq12,7	26	tq19,05	74,0	
	31		89,0	
	36		105,0	
	42		124,0	
	49		143,0	
	56		101,0	
tq15.675	41,0	tq25,4	132,0	
	50,0		164,0	
	58,0		196,0	
	69,0		tq31,75	166,0
	80,0			206,0
	91,0			246,0
			286,0	

Tishli zanjirlar uchun extiyotlik koeffitsienti [S], Z₁≥17

Zanjir qadami t, mm	Etaklovchi yulduzchanning aylanish soni, min ⁻¹								
	50	100	200	300	400	500	600	800	1000
12,7	20	21	22	23	24	25	26	28	30
15,875	20	21	22	24	25	26	27	30	332
19,05	21	22	22	24	26	28	29	32	35
25,4	21	22	24	26	28	30	32	36	40
31,75	21	22	25	28	30	32	35	40	

Yulduzcha. Tuzilishi tishli tsilindrsimon g'ildiraklarga o'xshash bo'lib, gardishi bilan farq qiladi.



Sekin xarakterlanadigan uzatmalarda yulduzcha SCh-20 markali cho'yan materiallardan yoki mustaxkamligi yuqori antifriktsion materiallardan tayyorlanadi.

Yulduzchalar asosan uglerod bilan to'yintirish mumkin bo'lgan o'rta uglerodli legirlangan (20X, 12XN3A, 45, 40X, 50T2) materiallardan tayyorlandi, qattiqligini toblash yo'li bilan >45 HRC gacha etkaziladi.

Zanjirli uzatmalar mexanikasi.

Uzatmaning kinematikasi. Uzatmaning uzatish soni

$$u = \frac{n_1}{n_2} = \frac{\omega_1}{\omega_2} = \frac{z_2}{z_1}$$

Zanjirli uzatmalar uzatish sonini $u \leq 4$ olish tavsiya etiladi, lekin $u \leq 7$ gacha olish mumkin.

Uzatma tarmoqlardagi kuchlar. Zanjirli uzatmalarda hosil bo'ladigan kuchlarning yo'nalishi sxemasi tasmali uzatmalarnikida bo'ladi, ya'ni bu uzatmalarda ham F_1 , F_2 zanjirning etaklovchi va etaklanuvchi tarmoqlaridagi kuchlar; F_t -aylanma kuch; F_0 -dastlabki taranglik kuchi; F_v -markazidan qochirma kuch tasirida hosil bo'ladigan kuch.

Asosiy kuchlar orasidagi munosabat ham tasmali uzatmalardagiga o'xshash, ya'ni:

$$\frac{F_1 - F_2 q F_t}{F_v q v^2}$$

bu erda: q-bir metr zanjirning massasi kgG'm; v-aylanma tezlik, mG's;

Zanjirli uzatma uchun dastlabki taranglik deganda zanjirli uzatmaning normal ishlashi uchun zanjirning tarang tortilishi emas, balki ma'lum darajada salqilikka ega bo'lishi tushinilishi kerak. Odatda, salqilik zanjirning og'irligi tufayli hosil bo'ladi. Shuning uchun zanjirning o'z og'irligidan uning tarmog'ida hosil bo'ladigan taranglik kuchi dastlabki taranglik kuchi deb yuritiladi va quyidagicha topiladi:

$$F_0 q F_f \text{ .a.q.g}$$

bu erda: g-og'irlik kuchining tezlanishi, mG's; a-zanjirning salqilik hosil qiladigan qismi uzunligi (bu uzunlik shartli ravishda markazlararo masofaga teng qilib olinadi); F_f -salqilik koeffitsienti (bu koeffitsient uzatmaning gorizont tekislikka nisbatan joylashuviga va salqilikning qiymatiga bog'liq), odatda, $F_f q(0,01 \div 0,02)$ bo'lishi tavsiya etiladi. Bunday hollarda uzatma gorizont joylashgan bo'lsa $F_f q 6$; gorizontga nisbatan 400burchak bilan joylashgan bo'lsa; $F_f q 3$; vertikal holatda bo'lsa, $F_f q 1$ qilib olinadi.

Zanjirli uzatmalarda F_2 ning qiymati kichik bo'lib F_0 yoki F_v qiymatlrning qay birini qiymati katta bo'lsa, shu qiymatga teng qilib olinadi. F_0 -tasmali uzatmalardek katta ahamiyatga ega emas, chunki bu qiymat F_t kuchning 4 % ni tashkil etadi. Shuningdek F_v kuch ham <10 mG's bo'lgan uzatmalarda F_t kuchning 0,1% tashkil etadi. Shuning uchun amaliy hisoblarda $F_1 q F_t$, $F_2 q 0$ qilib olinadi.

Uzatmaning asosiy o'lchamlari.

Yulduzchalarni tishlar soni uning gabarit o'lchamlariga, zanjirlarni ishlash muddatiga ta'sir qiladi, shuning uchun z_1 , z_2 ni tishlar soni iloji boricha kichik bo'lishi kerak. Lekin etaklovchi yulduzchanning tishlar sonini kamayishi bilan, zanjir sharnirlarini eyilishi ortadi. Shuning uchun etaklovchi yulduzcha tishlar soni kichik olish tavsiya etilmaydi .

Rolikli zanjirlar uchun etaklovchi yulduzchanning tishlar sonini eng kichik qiymati

$$z_{1\min} = 29 - 2u$$

Etaklanuvchi yulduzcha tishlar soni

$$z_2 = z_1 \cdot u$$

Etaklanuvchi yulduzchalarni tishlar soni max qiymati rolikli zanjirlar uchun $z_2 \leq 120$, vtulka – rolikli zanjirlar uchun $z_2 \leq 90$, tishli zanjirlar uchun $z_2 \leq 140$.

O'qlararo masofa a, zanjirning uzunligi L. Uzatmada o'qlararo masofa a bilan zanjir uzunligi o'zaro bog'langan. O'qlararo masofa a kichik bo'lganda zanjirlarni eyilishi tezlashadi, agarda katta bo'lsa zanjirni og'irligi uchun soliqligi, zanjirni tebranishi oshadi, ishlash jarayonida gabarit o'lchamlari kattalashadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadaiki, uzatma zanjirlarni ishlash muddati etarli darajada bo'lishi uchun a ni o'lchamini quyidagicha olish tavsiya etiladi:

$$a = (30 \div 50)t$$

Uzatmada uzatish sonini qiymati oshishi bilan sonli koeffitsient qiymatni xam katta olish tavsiya etiladi.

Uzatma uchun qabul qilingan taxminiy o'qlararo masofa a, zanjir qadami t, etaklovchi va etaklanuvchi yulduzcha tishlar soni z_1 , z_2 qiymatlar asosida zanjirdagi zvenolar soni aniqlanadi.

$$L_x = \frac{2a}{t} + 0.5(z_1 + z_2) + \frac{t(z_2 - z_1)^2}{40a}$$

Aniqlangan qiymat juft songa yaxlitlanadi, natijada zanjirning uzunligi

$$L_t = L_x \cdot t$$

Zanjirda zvenolar sonini aniq qiymati ma'lum bo'lgach, o'qlararo masofaning xisobiy qiymatni taranglovchi rolik ishlatilmaganda quyidagi formula yordamida aniqlaymiz.

$$a = 0.25t(\Delta_1 + \sqrt{\Delta_1^2 - 8\Delta_2})$$

bunda: $\Delta_1 = L_t - 0.5(z_1 + z_2)$; $\Delta_2 = \left[\frac{(z_2 - z_1)}{2\pi} \right]^2$

Uzatma normal ishlashi uchun zanjir ma'lum darajada solqli bo'lishi kerak. Buning uchun a ning qiymati (0,002÷0,004)a qadar kamaytiriladi. Uzatmada zanjir elementlarni eyilishi natijasida zanjirning uzunligi, soliqligi ortadi. Bu xol esa uzatma ishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun zanjirli uzatmalarni loyixalashda ulardagi salqlikni me'yorida bo'lishi ta'minlovchi qurilma xam bo'lishi kerak. Odatda, bunda tayanchlarini birini qo'zg'aluvchi qolish yoki aloxida taranglovchi yulduzchadan foydalanish tavsiya etiladi.

Zanjirli uzatmalarni hisobi.

Standart asosida tayyorlangan zanjir elementlarini hammasini ishlash muddati bir xil bo'lishi kerak. Amalda esa zanjirlarning ishlash muddati zanjir sharnirlarining ishlash muddati bilan chegaralanadi. Shuning uchun zanjir sharnirlarining eyilishga chidamliligini aniqlash, zanjirli uzatmalar uchun hisolashni asosiy hisoblanadi ya'ni:


$$q = F_1 / (Bd) \leq [q]$$

shart bajarilishi kerak.

Bunda q-sharnirlardagi bosim; Ft-aylanma kuch, H; d-valikning diametri: V-zanjirning eni.

Zanjir sharnirining eyilishiga asosiy sabab, bu sharnirlar yulduzcha bilan ilashib birga aylanganda o'z o'qi atrofida:

$$\varphi = 2\pi / z$$

<p>burchakka burilishdir. Shu buralish zanjir uzatmani bir marta aylanganda to'rt marta takrorlanishidir, ya'ni ikki marta etaklovchi yulduzcha, ikki marta etaklanuvchi yulduzchada. Natijada vtulka bilan valik eyiladi, ularni markazi esa Δ ga o'zgaradi.</p>	
---	--

Sharnirni ishlash muddati uzatmaning o'qlararo masofasi a ga, etaklovchi yulduzcha tishlar soni Z_1 , sharnirlarning bosimi, sharnir materiallarining eyilishga chidamliligiga bog'liq.

O'qlararo masofaga qiymati oshishi bilan zanjirlarni ishlash muddati oshadi, chunki sharnirlarni o'z o'qi atrofida buralishi kamayadi. Shuningdek, etaklovchi yulduzcha tishlar soni Z_1 qiymati oshishi bilan sharnirlar kam eyiladi.

Zanjir sharnirlari eyilishini ortishi bilan, zanjirlarni yulduzcha tishlari bilan ilashishdan chiqib ketish xavfi tug'iladi.

Yulduzcha tishlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, zanjir sharnirlari shunchalik sekin eyiladi, lekin ishlash jarayonida o'zaro ilashishdan chiqib ketish xavfi tug'uladi. Kam tishli yulduzchalarda zanjir sharnirlari nisbatan tez eyiladi, ilashishdan chiqib ketish xavfi tug'ulmaydi.

Zanjir sharnirlari uzoq muddat ilashishni ta'minlash uchun etaklovchi yulduzcha tishlar sonini, uzatmaning uzatish soniga nisbatan quyidagicha tanlash tavsiya etiladi:

jadval

u	1..2	2..3	3..4	4..5	5..6	>6
Z1	30..27	27...25	25...23	23..21	21..17	17,,,15

Sharnirlarning eyilishga asosiy sabab, bu valik va vtulka o'rtasidagi bosim. Bosim qiymatini rolikli zanjirlar uchun, zanjirning qadami hamda etaklovchi yulduzchani aylanish soniga nisbatan jadvaldan tanlash mumkin. Bu qiymatlar maxsus izlanishlar natijasidir. Bunda zanjirli uzatmani ishlash sharoitlari ta'minlangan bo'lsa, bu zanjirlarni ishlash muddati 3000,,5000s gacha bo'lishi mumkin.

Ishlash jarayonida xar xil sharoitlarni xisobga olgan xolda, bu bosimning xisobiy qiymati quyidagicha aniqlanadi.

$$q_x = \frac{F_t \cdot K_{IO}}{A_{IO3} K_K} \leq [q]$$

bu erda: F2 –aylanma kuch, N xisobida; KYu-yuklanish koeffitsenti; KYuqK1 , K2, K3, K4, K5, K6. koeffitsent qiymatlari 7 – jadvalda berilgan. Ayuzq0,28t –sharnirni tayanch yuzasi. Km-zanjir qatorlarini hisobga oluvchi koeffitsent:

$$m = 1, \quad 2, \quad 3, \quad 4.$$

$$K_m = 1, \quad 1.7, \quad 2.5 \quad 3.$$

[q]-bosimning ruxsat etilgan qiymati, jadvalda berilgan.

Etaklovchi yulduzchani soni p1 xamda tishlar soni (Z,=15÷30) ga nisbatan [q] bosimni ruxsat etilagn qiymati, 6 – jadvaldan olinadi.

jadval

t ₁ mm	Aylanish soni P ₁ min ga nisbati bosim [q] ni ruxsat etilagn qiymati.						
	50	200	400	600	800	1000	1200
12,7 ÷ 15,875		31,5	28,5	26	24	22,5	21
19,5 ÷ 25,4	35	30	26	23,5	21	19	17,5
30,0 ÷ 38,1		29	24	21	18,5	16,5	15
40,0 ÷ 58,8		26	21	17,5	15	-	-

Yuklanish koeffitsienti K_{yu} ni tashkil etuvchi qiymatlari

jadval

Kordinantlar	Uzatmani ishlash sharoiti	Koeffitsient qiymatlari
K ₁ – dinamik yuklanish koeffitsienti.	Yuklanish bir tekisda	1,0
	Yuklanish zarb bilan ta'sir qiladi	1,2÷1,5
	Yuklanish zarb bilan ta'sir qiladi	1,8
K ₂ – Eyilishga zanjir uzunligini ta'sirini hisobga oluvchi koeffitsient	aq(60÷80) t bo'lganda	0,9
	aq(30÷50) t bo'lganda	1,0
	aq25 t bo'lganda	1,25
K ₃ – Uzatmani gorizontga nisbati joylanishini hisobga oluvchi koeffitsienti.	Uzatma yulduzchasining markazi gorizontga nisbatan 70 ⁰ gacha bo'lganda	1,0
	70 ⁰ dan oshiq bo'lganda	1,25
K ₄ – Uzatma yig'ish darajasini hisobga oluvchi koeffitsienti.	Uzatma tayanchlari harakatlanuvchan bo'lganda	1,0
	Uzatmada tarnglovchi rolik ishlatilsa	1,5
	Uzatma tayanchlari harkatlanmaydi	1,25
K ₅ – Uzatmani moylash turini hisobga oluvchi koeffitsienti.	Tezligi V _{3q2-9} mG'c bo'lib, moylash yog' vannasi yordamida bo'lganda, V ₃ ≥6 mG's bo'lib moylash to'xtovsiz	0,8

	bo'lgan.	
	Moylab tokichilab bo'lganda	1,0
	Vahti-vaqti bilan moylanganda	1,5
K ₅ – Ish rejimini xisobga oluvchi koeffitsenti	Ish bir smenali	1,0
	Ish ikki smenali	1,25
	Ish uch smenali	1,45

Formula (1) dagi foydalanib rolikli zanjirni qadamini aniqlaymiz.

$$t = \sqrt[3]{\frac{21 \cdot 6 \cdot 10^6 \cdot P \cdot K_{10} \cdot M \cdot M}{[q] \cdot Z_1 \cdot \Pi_1 \cdot K_b}}$$

bunda R-o'zatiladigan quvvat V_T xisobida:

Aniqlangan qiymat standart bo'yicha yaxlitlanib olinadi. Bosimning ruxsat etilgan qiymati zanjir q15000s gacha ishlashi ta'minlanadi.

Uzatmalarni moylash. Uzatma zanjirlarni uning tezligiga nisbatan xar xil yo'llar Bilan moylash mumkin.

1. Tezlik $V < 10$ mG's gacha bo'lgan uzatmalarda zanjirlarni moyga botirish yo'li bilan moylash mumkin, bunda botirilgan zanjirning chuqirligi uning enidan oshmasligi kerak.
2. Tezligi $6 \div 12$ mG's bo'lgan zanjirli uzatmalarni maxsus sachratgich yordamida moylash mumkin.
3. Tezligi xamda uzatiladigan quvvat kata bo'lgan zanjirli uzatmalarni nasos yordamida moylash mumkin.
4. Tezligi kam, moy qo'yish uchun maxsus idishlar ishlatiladigan uzatmalarda sharnirlarni moylash uchun plastik moylarni ishlatish yo'li bilan hamda moyni tomchilab oqizish yo'li bilan moylash mumkin.

Nazorat savollari

1. Rolikli va tishli zanjirli uzatmalarning afzallik va kamchiliklari.
2. Zanjir sharnirining eyilish sabablari.
3. Rolikli va tishli zanjirlarning ishlatilishi.
4. Zanjirlarning asosiy o'lchamlari.
5. Yulduzcha tishlar soni qanday tanlanadi va aniqlanadi.

19-mavzu.	Vallar va o'qlar. Tuzilishi. Taxminiy hisobi. Eskiz sxemasi. Xavfsizlik koeffitsienti.
-----------	--

19.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
---------------	-----------------------------

O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Val va o'qlarni tuzilishi, tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar. 2. Vallarni taxminiy xisobi. Eskiz sxemasi. 3. Xavfsizlik koeffitsientni ta'minlovchi omillar.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Vallarni tuzilishi va tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar. Val qismlarini diametrlarini aniqlash. Taxminiy hisobi. Vallarni havfsizlik koeffitsientiga ta'sir qiluvchi omillar bilan tanishtirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Vallarni tuzilishini tushintirish; - qanday materiallardan tayyorlashga ahamiyat berish - Vallarni taxminiy hisobi va eskiz chizmasini tushintirish; - havfsizlik koeffitsienti qiymatiga ta'sir qiluvchi omillarni tushintirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Vallarni tuzilishi haqida ma'lumotga ega bo'ladi; - Vallarni qanday materiallardan tayyorlash mumkinligini biladi; - Vallarni taxminiy xisobi asosida eskiz loyixalash xaqida fikr bildiradi; - Vallarni havfsizlik koeffitsienti qiymatiga ta'sir qiluvchi omillari aytib beradi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamo'a va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya


Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Vallarni tuzilishini chizib bering? - Vallar qanday materiallardan tayyorlanadi? 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etadi. Vallarni taxminiy xisobi va eskiz loyixalashi xaqida tushintirish beradi. 2.3. Xavfsizlik koeffitsientiga ta'sir qiluvchi omillar bilan tanishtiradi. 2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor berishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi.	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Vallarni taxminiy xisobi bo'yicha o'zaro muxokama qilinadi. 2.3. Savol berib asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mustaqil ish uchun vazifa: "Xavfsizlik koeffitsienti" so'ziga klaster tuzish vazifa beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, yozib oladilar


Vizual materiallar.

1-ilova.


1-savol. Valni tuzilishi. Tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar.



2-savol. Vallarni taxminiy hisobi.



3-savol. Xavfsizlik koefitsientiga ta'sir qiluvchi omillar



Mashg'ulot bo'yicha xulosa


1. Vallarni tuzilishi va tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar to'g'risida talaba ma'lumotga ega bo'ladi.
2. Vallarni taxminiy hisoblash va eskiz loyixalash bo'yicha tushunchaga ega bo'ladi.
3. Havfsizlik koefitsienti qiymatiga ta'sir qiluvchi omillar to'g'risida bilimiga ega bo'ladi.

2-ilova.

Val va o'qlar

Vallar va o'qlar-tishli g'ildirak, shkiv va shunga o'xshash aylanuvchi detallarni o'rnatish uchun ishlatiladigan uzatmaning asosiy detallar hisoblanadi. Tuzilishi jihatdan o'qlar bilan val deyarli farq qilmaydi. Lekin bajaradigan ishiga ko'ra, ular bir-biridan farq qiladi. O'qlarning vazifasi detallarning aylanishiga sharoit yaratib berishdir. Bunda o'qning o'zi detal bilan birga aylanishi ham, aylanmasligi ham mumkin.

Vallarning vazifasi detallarning aylanishini ta'minlash bilan birga, aylanuvchi momentni uzatishdan ham iborat.



Val va o'qlarning tuzilishi uning qanday ish bajarishiga bog'liq bo'lib, har xil ko'rinishda bo'lishi mumkin, masalan, tekis, pogonali tirsakli, egiluvchan (1-rasm).

O'q faqat eguvchi kuchlanish ta'sirida, val esa eguvchi kuchlanish bilan bir vaqtda burovchi momentdan hosil bo'ladigan kuchlanish ta'sirida ishlaydi.

Materiallar. Val va o'qlarni tayyorlash uchun materiallarni tanlashda uning qanday ish bajarilishi, ishlash sharoiti, qayta ishlash texnologiyasi, tayyorlash xajmi va boshqa faktorlar xisobga olinadi.

Termik qayta ishlanmaydigan vallar St5, St6 markali, termik qayta ishlanadigan vallar 45, 40x, sirpanish podshipnik tayanchlarida ishlatiladigan vallar uglerod bilan to'yintirilgan 20, 20x, 12x3t, 18xgt markali pulat materiallardan tayyorlash tavsiya etiladi. Val va o'qlarni gabarit o'lchamlarini kamaytirish uchun legirlangan pulat materiallardan tayyorlanadi.

Diametrlari katta bo'lgan vallarning og'irligi kamaytirish maqsadida ularning ichi kovak qilib tayyorlanadi, bunda material miqdori 20...40% kamayadi.

Tirsakli hamda og'irligi katta bo'lgan vallar yuqori darajali mustahkam cho'yan materiallardan ham tayyorlanishi mumkin.

Vallar tokarlik stanokida qayta ishlanib, tsapfalar jivirlanadi. Yuqori darajada yuklangan vallar butun uzunligi bo'ylab jilvirlanadi. Bunda dumalash podshipniklari uchun tsapfa yuzasining notekisligi $R_{a0,16} \dots 0,32$ mkm, sirpanish podshipniklari uchun esa $R_{f0,1} \dots 0,16$ mkm bo'lishi kerak.

Valning yon tomonlarida, detallarni o'tkazishni osonlashtirish hamda ishchining ish jarayonida xavfsizligini ta'minlash uchun faska qilinadi.

Val va o'qlarni tayyorlash uchun ishlatiladigan ayrim pulat materiallarni mexanik xarakteristikalari jadvalda berilgan.

jadval.

Pulat materiallarni markasi	Tayyorlash mumkin bo'lgan eng kata diametr, mm.	Qattiqligi eng kamida $\geq NV$	σ_m , MPa	σ_{ok} , MPa	τ_{ok} , MPa	σ_{-1} , MPa	τ_{-1} , MPa
St-5	Xar qanday	190	520	280	150	220	130

	diametr						
45	Xar qanday diametr	200	560	260	150	250	150
-	120gacha	240	800	550	300	350	210
-	80gacha	270	900	650	390	380	230
40x	Xar qanday diametr	200	730	500	280	320	200
-	200gacha	240	800	650	390	360	210
-	120gacha	270	900	750	450	410	240
40xn	Xar qanday diametr	240	820	650	390	360	210
-	200gacha	270	920	750	450	420	250
20	60	145	400	240	120	170	100
20x	120	197	650	400	240	300	160

Vallarning ishga layoqatligi va xisobi.

Umumiy mashinasozlik sanoatida ishlatiladigan val va o'qlarning ishga layoqatligi uning mustaxkamligi va bikirligi bilan belgilanadi.


Vallarning xisoblashni boshlanishda valning o'qi bo'ylab joylashtiriladigan tishli g'ildarik, mufta, podshipnik va boshqa detallarning eni bo'yicha o'lchamlari na'malum, faqat valga ta'sir qiluvchi burovchi moment yordamida val uchining diametri aniqlanadi:

$$d = \sqrt{\frac{T}{0.2[\tau]}} \text{ MM,}$$

Bunda: T-aylanuvchi moment, Nm; $[\tau]$ q15-25MPa-buralishdagi ruxsat etilgan kuchlanish.

Taxminiy diametrga asoslanib, valning tuzilishini chamalab chizib olinadi. Bunda valning istalgan kesimidagi kuchlanish iloji boricha bir xil bo'lishiga erishish lozim. Buning uchun valning aylanuvchi detal o'rnatilgan qismini yo'g'onroq qilib, tayanchlarga yaqinlashgan sari ingichkalashtirib borish tavsiya etiladi. Valning elektrodvigatel bilan birlashadigan dimetrini tanlashda uni elektrodvigatel valga mos, ya'ni $d_{DV}(0,8...1,2) d_{DV}$ ga keltirish nazarda tutish lozim.

Vallarni diametrlari o'q bo'icha aniqlangach uning o'q bo'yicha uzunligi aniqlanadi.



Buning uchun valga detallari o'z o'lchamlari bilan o'tqaziladi 2-rasm. Bunda yulduzcha, tishli g'ildiraklarni eni uzatmalarning xisobidan olinadi, podshipnikni eni jadvaldan valning diametriga nisbatan tanlanadi. Valga xamma detallar o'tkazilgach, eguvchi va burovchi moment qiymatlarini aniqlash uchun xisobiy sxema tuziladi. Bunda val ikki tayachlarga o'tkazilgan balka sifatida ko'riladi.

Umuman olganda val burovchi moment xamda uzatmalarni ishlash jarayonida xosil bo'lgan kuchlar ta'sirida bo'ladi. Shuningdek valning konsol qismida muftadan qushimcha ravishda radial kuchlar ta'sirda bo'ladi. Tez xarakatlanuvchi valda $F_{mq}125\sqrt{T}$, sekin xarakatlanuvchi valda $F_{mq}250\sqrt{T}$. Uzatmani yig'ish jarayonida qo'yilgan noaniqliklar natijasida muftalardan xosil bo'lgan qushimcha radial kuchlar vtulka-bor moqli mufta uchun $F_{mq}(0,4-0,7) F_{tm}$ bunda $F_{tm}qTG'D_{ur}$ -muftadagi aylanma kuch. D_{ur} -mufta barmoqlar o'qidan o'tkazilgan aylana diametri.


Tishli mufta uchun $F_{mq}(0,15-0,2) F_{tm}$, bunda $F_{tmq}2TG'dq2TG'(mz)$; zm-tishli gardishni tishlar soni va moduli.

Valga ta'sir qiluvchi kuchlarni qiymati, tayanchlar o'rtasidagi masofalar aniqlangach garizantal va vertikal tekisliklar tayanchdagi reaksiya qiymatlari $R_{Aq}\sqrt{(R_A^H)^2 + (R_A^V)^2}$, $R_{Vq}\sqrt{(R_A^H)^2 + (R_A^V)^2}$, gorizontal va vertikal tekislikdagi eguvchi moment, ularning umumiyasi aniqlanadi va ya'ni eng xofli kesimdagi max eguvchi moment qiymati $M_{max} = \sqrt{M_H^2 + M_V^2}$, xamda eguvchi momentni ekvivalent qiymati $M_{\text{ek6}} = \sqrt{M_{\text{oz}}^2 + T^2}$ aniqlangan ekvivalent qiymat bo'yicha valning eng xofli kesimni diametri aniqlandi.


$$d = \sqrt{\frac{M_{\text{ek6}}}{0,1[\sigma_{\text{oz}}]}}, \text{MM}$$

bunda: $[\sigma_{\text{eg}}]$ q50-60MPaqegilishdagi kuchlanishni ruxsat etilgan qiymati.

Ehtiyotlik koeffitsient. Vallarda xosil bo'lgan kuchlanishlar uzgaruvchin bo'lib, bunda eguvchi kuchlanish simmetrik, burovchi momentdan xosil bo'lgan urinma kuchlanish pulsatsiya tsikl bilan o'zgaradi.



Valni xisoblash jarayonida sxemada, eng xofli kesimlari ya'ni kuchlanishlar tuplanadigan kesimlar (bir pog'onadan ikkinchi pog'onaga o'tadigan joylar, shponka o'rnatilgan joylar, maxsus teshiklar) ko'rsatilishi kerak masalan.



Bu xisoblash jarayonida val bir vaqtning uzida eguvchi va burovchi moment ta'sirida bo'lganda eng xofli kesimning xofsizlik koeffitsenti qo'yidagicha aniqlanadi.

$$S = \frac{S_{\sigma} \cdot S_{\tau}}{\sqrt{S_{\sigma}^2 + S_{\tau}^2}} \geq [S] = 1.5 \dots 2.5$$

Bu erda S_{σ} -normal kuchlanishlar bo'yicha xavfsizlik koeffitsienti, qiymati:

$$S_{\sigma} = \frac{(\sigma_{-1})_a}{\sigma_a}$$

S_{τ} -urinma kuchlanishlar bo'yicha xavfsizlik koeffitsienti, qiymati:

$$S_{\tau} = \frac{(\tau_{-1})_d}{\tau_a}$$

bunda σ_a, τ_a - xafli kesimdan kuchlanishlarni amplituda tsikli

$$\sigma_a = \sigma_{\sigma z} = \frac{M}{W} \quad \tau_a = \tau_{\sigma} / 2 = \frac{T}{2W_{\sigma}}$$

$M = \sqrt{M_x^2 + M_y^2}$ - eguvchi momentni umumiy qiymati; T – burovchi moment; W, W_k – tekshirilayotgan kesimdan uk buyicha olingan va polyar karshilik momentlari. Bu karshilik moment qiymatlari vallar uchun,

$$W = \frac{\pi d^3}{32} \quad W_k = \frac{\pi d^3}{16}$$

Govak vallar uchun

$$W = c \frac{\pi d^3}{32} \quad W_k = c \frac{\pi d^3}{16}$$

bunda: $c = 1 - \left(\frac{d}{D}\right)^4$ - koefitsient

$\frac{dG'}{D}$	0,4	0,42	0,45	0,48	0,5	0,53	0,56	0,6	0,63	0,67	0,71
c	0,974	0,969	0,959	0,947	0,938	0,921	0,901	0,87	0,842	0,8	0,747

$(\sigma_{-1})_d, (\tau_{-1})_d$ -val materiallarining tekshirilayotgan kesimidagi chidamlilik chegarasi qiymatlari:

$$(\sigma_{-1})_d = \frac{\sigma_{-1}}{(K_{\sigma})_d} \quad (\tau_{-1})_d = \frac{\tau_{-1}}{(K_{\tau})_d}$$

τ_{-1}, σ_{-1} -tanlangan material uchun oquvchanlik chegarasi 1-jadvaldan tanlanadi.

$(K_{\sigma})_d, (K_{\tau})_d$ -tekshirilayotgan kesimda normal va urunma kuchlanishlarni to'planishni hisobga oluvchi koefitsient qiymatlar:

$$(K_{\sigma})_d = \left(\frac{K_{\sigma}}{K_d} + K_F - 1 \right) \frac{1}{K_v}$$

$$(K_{\tau})_d = \left(\frac{K_{\tau}}{K_d} + K_F - 1 \right) \frac{1}{K_v}$$

K_{σ}, K_{τ} - kuchlanishlarni tuplanishini xisobga oluvchi koefitsient.

jadval.

tG'r	rG'd	σ_m , MPa bo'lganda K_{σ} ning qiymatlari				σ_m , MPa bo'lganda K_{τ} ning qiymatlari			
		500	700	900	1200	500	700	900	1200
2	0,01	1,55	1,6	1,65	1,7	1,44	1,4	1,45	1,45
	0,02	1,8	1,9	2,0	2,15	1,55	1,6	1,65	1,7
	0,03	1,8	1,95	2,05	2,25	1,55	1,6	1,65	1,7
	0,05	1,75	1,9	2,0	2,2	1,55	1,6	1,65	1,75
3	0,01	1,9	2,0	2,1	2,2	1,55	1,6	1,65	1,75
	0,02	1,95	2,1	2,2	2,4	1,6	1,7	1,75	1,85
	0,03	1,95	2,1	2,25	2,45	1,65	1,7	1,75	1,9
5	0,01	2,1	2,25	2,35	2,50	2,2	2,3	2,4	2,6
	0,02	2,15	2,3	2,45	2,65	2,1	2,15	2,25	2,4

Val diametrini ta'sirini hisobga oluvchi koefitsient, K_d jadval davomi.

jadval

Val materiali va xolati	Val diametri d, mm				
	30	40	50	70	100
Uglerodli po'lat materiallar, egilishdagi	0,88	0,85	0,81	0,76	0,71

kuchlanishga hosil bo'lganda					
Legirlangan po'lat materiallar, egilishdagi kuchlanish bo'lganda	0,77	0,73	0,7	0,67	0,62
Xarxil markali po'lat materiallar uchun buralishdagi kuchlanish ishlatilganda					

Valga tig'izlik bilan o'tkazilganda.

jadval

Val diametri d, mm	$K_{\sigma}G'K_d, \sigma_m$ MPa bo'lganda			$K_{\tau}G'K_d, \sigma_m$ MPa bo'lganda		
	500	700	900	500	700	900
30	2,5	3	3,5	1,9	2,2	2,5
50	3,3	3,95	4,6	2,45	2,8	3
100	3,3	3,95	4,6	2,4	2,8	3,2

K_F – val yuzasini notekisligini urtacha qiymatini xisobga oluvchi koeffitsient.

jadval

Notekislikni urtacha qiymati R_a , mkm	K_F koeffitsient qiymatlari, σ_m MPa bo'lganda			
	500	700	900	1200
0,4...0,1	1	1	1	1
3,2...0,8	1,05	1,10	1,15	1,25
2,5...6,3	1,2	1,25	1,35	1,5

Val yuzasining termik kayta ishlanishini hisobga oluvchi koeffitsienti, K_g .

jadval

Valni qattiqligi oshirish yo'llari	Valni markazida σ_m , MPa	Pog'onasiz tekis val	Kuchlanish to'planishi bo'lgan xollarda	
			$K_b < 1,5$	$K_b 1,8...2$
Qizdirib toplash	600...800	1,5...1,7	1,6...1,7	2,4...2,8
Yuqori chastotali tok yordamida toblash (Yu.Ch.T)	800...1000	1,3...1,5		
Azot bilan to'yintirish	900...1000	1,1...1,25	1,5...1,7	1,7...2,1
Uglerod bilan to'yintirish	700...800 1000...1200	1,4...1,25 1,2...1,3	2	

Ilova: Val yuzasini qattiqligi oshirilmasa, $K_{\tau}q1,0$

Vallarni bikrlikka hisoblash.

Vallarni ish jarayonida egilish ularning hamda ular bilan bog'liq bo'lgan detallarning ishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli vallarning egilishdan hosil bo'ladigan salqilikning hamda tayanchga nisbatan qiyalik burchagining qiymati ma'lum chegaradan ortib ketmasligi lozim. Masalan, dumalash podshipniklari o'rnatilgan vallar aylanganda dumalash elementlari halqalarda siqilmasligi. Rolikli podshipnik o'rnatilgan valda yuklanish rolik uzunligi bo'yicha bir tekis taqsimlanishi lozim.

Soliqlikni ruxsat etilgan qiymati, tsilindirsimon tishli g'ildiraklar, chervyak g'ildiraklar o'tkazilgan vallar uchun $[u]q0,01m$, konussimon tishli g'ildiraklar o'tkazilgan vallar uchun $[u]q0,005m$, bunda m ilashish moduli, umumiy mashinasozlik sanoatida $[u]q(0,0002...0,0003)\ell$, bunda ℓ -tayanchlar o'rtasidagi masofa.

Vallar uchun qiyalik burchagini ruxsat etilgan qiymat $[\theta]$ radial xisobda, sirpanish podshipnik tayanchlari uchun 0,001; tishli g'ildiraklar o'tqazilgan qismda 0,001; dumalash podshipniklari uchun 0,01; tsilindirsimon rolikli podshipniklar uchun 0,0025.

Kesmi doimiy bo'lgan vallar uchun o'z o'q atrofida buralishi burchagi qo'yidagicha aniqlanadi

$$\varphi = \frac{Tl}{(GJ_p)}$$

bunda: T-burovchi moment N.m, l o'z o'qi atrofida bo'raladigan val uzunligi, mm; G val materialni elastiklik moduli; J_p -valning polyar inertsiya momenti.

O'qlarni xisobi

O'qlar faqat eguvchi moment bo'yicha xisoblanadi. O'q diametrning taxminiy qiymati.

$$d = \sqrt[3]{\frac{M_{\text{eg}}}{0,1[\sigma]_{\text{eg}}}} \text{ mm}$$

bunda: d -o'q diametri, mm; M_{eg} eguvchi moment, N.mm; $[\sigma]_{\text{eg}}$ -eguvchi kuchlanishni ruxsat etilgan qiymati-100-160MPa.

O'qlarning xofsizlik koeffitsientini aniqlash vallarni xisoblashga uxshash bo'lib, bunda Tq_0 olinadi.

Nazorat savollari

1. Val bilan o'qning o'zaro farqi?
2. Vallar qanday materiallardan tayyorlanadi?
3. Vallarni taxminiy hisobiy va loyixalash.
4. Vallarni xavfsizligi koeffitsientini aniqlash.
5. Vallarni bikirlikka hisoblash.

20-mavzu.	Podshipniklar. Sirpanish podshipniklari. Ishlatilishi. Konstruktsiyasi xisobi.
------------------	---

20.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Podshipnik turlari. 2. Sirpanish podshipniklarini afzalliklari 3. Sirpanish podshipniklarini ichquyma materiallari

	4. Sirpanish podshipniklarda ishqalanish turlari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Sirpanish podshipniklarni afzallik va kamchiliklarini tushintiriladi. Ichquyma materiallari podshipnik ishiga ta'siri o'rganiladi. Ishqalanish turldari va shartli hisobi to'g'risida to'liq tasavurni shakllantiriladi.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Sirpanish podship-niklari afzallik va kamchiliklar tushiniladi; - Ichquyma materiallarni axamiyati bilan tanishtiradi; - Podshipnikda ishqala-nish turlari va shartli hisobi bilan tanish-tiradi.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Afzallik va kamchiliklarini ta'riflab beradi; - Ichquyma materiallarini axamiyatini tushuntiradi; - Ishqalanish turlarni va shartli hisobini o'rganadi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamoa va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya


Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Sirpanish podshipniklar qanday afzallik va kamchiliklarga ega? - ichquyma materiallarini qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak? 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etadi. Sirpanish podshipniklarda ishqalanish turlari va ularni shartli hisobi to'g'risida ma'lumotlar beradi. - Sirpanish podshipnikda ishqalanish turlari ta'riflanadi; - Sirpanish podshipniklarni shartli hisobi tushintiriladi; - Sirpanish podshipniklari suyuqlikda ishqalanish sharti bajarilishini aytadi.	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Talabalar ishqalanish turlarini o'zaoro muxokama qiladi. 2.3. Savol berib asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mustaqil ish uchun vazifa: "Ishqalanish turlari" so'ziga klaster tuzish vazifa beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. yozib oladilar

Vizual materiallar.

1-ilova.

1-savol. Podshipnik turlari.



2-savol. Sirpanish padshipnik afzalliklari.

- Tayanchlarda ajiraladigan podshipniklarni ishlatish kerak bo'lganda (masala tirsakli val);
- Diametri juda katta bir val tayanchlarida, bunday vallar uchun dumalash podshipnikli tayyorlash;
- Katta tebranish bilan aylanuvchi val tayanchlarida, bunda moy qatlami tebranishini so'ndiradi;
- Podshipniklarni diametlari bo'yicha o'lchamlari nisbatan kichik bo'lganda;
- Tayanchlarga yuqori darajada aniqlik bilan tayyorlanadigan podshipnikning o'rnatilishi talab etilganda;
- Burchak tezligi yuqori bo'lgan val tayanchlarida.

3-savol. Vallarni taxminiy hisobi. Eskiz loyixalash.



4-savol. Ishqalanish turlari



Mashg'ulot bo'yicha xulosa

1. Sirpanish podshipniklari afzallik va kamchiliklari ahamiyat beradi.
2. Ichquyma materiallariga qo'yiladigan talablar to'g'risida tushunchaga ega bo'ladilar.
3. Ishqalanish turlari va shartli xisoblarni o'rganadi.

2-ilova.

Podshipniklar.


Podshipniklar val hamda o'qlarning tayanchlariga o'rnatilib, tayanch vazifasini o'taydi. O'q yoki val orqali tayanchga tushadigan kuchni bevosita podshipnik kabul qiladi.

Mashinalarni ishlashi va ishga chidamligi podshipnik sifatida ko'p jixatdan bog'liq. Shuning uchun podshipniklarni tanlash va ish jarayonida ularni kuzatib turish masalalariga alohida e'tibor berish kerak.

Aylanayotgan val yoki o'q tayanchlari podshipniklarda ishqalanadi. Ana shu ishqalanishning turiga qarab podshipniklar sirpanish podshipniklari bilan dumalash podshipniklariga bo'linadi.

Sirpanish podshipniklari. Bu turdagi podshipniklar val tayanchlariga o'rnatilib, ko'pincha dumalash podshipniklarni ishlatish qiyinchilik tug'dirgan xollarda ishlatiladi, masalan, tayanchlarga ajraladigan podshipniklar ishlatish kerak bo'lgan xollarda (tirsakli vallar), diametri 1m dan oshiq bo'lgan vallarda, vallarni aylanish soni juda katta va kichik bo'lgan xollarda, katta tebranish bilan aylanuvchi val tayanchlarida va shunga o'xshash xollarda.

Aylanayotgan val yoki o'q tayanchlari podshipniklarda ishqalanadi, bunda xar xil yo'nalishda ta'sir qiladigan kuchlar uchun xar xil podshipniklar ishlatiladi. Masalan, val o'qiga tik ta'sir qiluvchi kuchlarni qabul qilish uchun radial podshipniklar, o'q bo'ylab ta'sir qiluvchi kuchlarni qabul qilish uchun tirak podshipniklar, val o'qiga tik xamda o'q bo'ylab ta'sir qiluvchi kuchlar uchun radial-tirak podshipniklar ishlatiladi.



Sirpanish podshipniklarida radial kuchlarni qabul qiladigan tayanchlari valning uchida joylashgan bo'lsa, ship deyiladi a -racm, bu tayanch valning o'rtasida joylashgan bo'lsa bo'yin b-rasm


deyiladi. O'q bo'yicha yo'nalgan kuchlarni qabul qiladigan podshipnik tayanchlariga tovon v -rasm deyiladi.

Sirpanish podshipniklarni ishlashining o'ziga xos xususiyatlari.

Podshipniklarni ishlashi, muxitga, ya'ni moy va yuklanishning turi aylanish soni, ishchi yuzalarning xolatiga bog'liq. Asosan podshipnik tayanchini yuzasi bilan moy orqali kontaktda bo'ladi.

Bunda moyning qalinligiga nisbatan suyuqlikdagi, yarim nim quruq va nim suyuqlikdagi ishqalanishi va quruq ishqalanish bo'linadi. Suyuqlikdagi ishqalanishni sodir qilish uchun tsapfa bilan podshipnik ishchi yuzasi moy qatlami bilan ajralgan bo'lishi kerak. Ya'ni

$$h > R_{r1} + R_{r2}$$



bunda R_{r1} —tsapfa yuzasidagi notekislikning balandligi, mkm;


R_{r2} —podshipnik yuzasidagi notekislikni balandligi, mkm;

Podshipniklarni ishlashning o'ziga xos xususiyatlari. Sirpanish podshipniklarini ishlashi uning asosiy parametrlari bosim q , tsapfaning burchak tezligi ω xamda yog'ning turi va kontakt yuza materiallarning mexanik xarakteristikalariga bog'liq.

Quruq ishqalanishda ishqalanishni engish uchun sarf bo'lgan quvvat uning ishlash rejimiga kup bog'liq bo'lmaydi.

Nim quruq va nim suyuqlikdagi ishqalanishda ishqalanishni engish uchun sarflangan quvvat uning ishlash rejimiga bog'liq, bunda o'zaro ishqalanuvchi yuzalarda notekisliklar bir – biriga tegishi yoki tegmasligi mumkin. Bu esa muxitga, moyni turiga, ishqalanuvchi yuzalarga bog'liq.

Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, valning burchak tezligi ω kichik bo'lib, radial kuch F_r o'zgarmas bo'lganda moy kontakt zonadan siqib chiqariladi, natijada ishqalanuvchi yuzalar bir – biriga tegadi, ekstsentrisitet qiymati maksimum bo'ladi.



$$l_{\max} = \frac{d_n - d_u}{2} = \frac{\Delta}{2} = \delta$$

Bunda: d_p , d_{ts} – podshipnik va tsapfa diametrlari; d , δ – podshipnik diametri va radius bo'yicha bo'shliq.

Nim quruq va nim suyuqlikdagi ishqalanishda kontakt yuzalarida eyilish xodisasi sodir bo'ladi, bunda ishqalanish koeffitsienti $0,2 \div 0,3$ ga etadi.

Burchak tezligini oshishi bilan ishqalanish koeffitsient qiymati kamaya boshlaydi, bu burchak tezligi $\omega \geq \omega_{kr}$ bo'lganda, ishqalanish $f_{qf_{\min}}$ bo'ladi. bunda, suyuqlikdagi ishqalanishda gidrodinamik bosim valni yog'da muloqot xolda ushlab turadi. Val bilan podshipnik o'rtasidagi bo'shliq

$$h_{\min} = \delta - e = \delta(1 - \varepsilon)$$

Bunda: $\varepsilon = \frac{e}{\delta}$ - nisbiy ekstsentrisitet.

Suyuqlikdagi ishqalanish bo'lganda tsapfa bilan podshipnik ishchi yuzasi moy qatlami bilan ajralgan bo'ladi 8.3 b– rasm, ya'ni:

$$h > R_{r1} + R_{r2}$$

Sirpanish podshipniklarni xisobi.

Valning mustaxkamligi va bikrligi xisoblanganda tsapfaning diametri aniqlanadi. Nim quruq va nim suyuqlik sharoitda ishlaydigan sirpanish podshipniklarining xisobi shartlidir. Bunda tsapfa bilan vkladish o'rtasida o'rtacha bosimning qiymati chegaralanadi, natijada moylashga sharoit yaratiladi.

Tsapfa – vkladishda nim quruq va nim suyuqlikdagi ishqalanish bo'lganda eyilishni kamaytirish uchun bosim q bo'yicha xisoblanadi, bunda $q < [q]$ shart bajarilishi kerak. Bu shart bajarilganda tsapfa bilan vklado'sh o'rtasidagi q bosim ruxsat etilgan qiymati $[q]$ dan kichik bo'lganligi uchun moyni siqib chiqarish xolatlar bo'lmaydi, natijada sirpanish podshipnik moyli sharoitda ishlaydi. Shuningdek podshipniklarni issiqlikka chidamliligini ta'mirlash uchun bosim va burchak tezligini ko'paytmasi bo'yicha xisoblanadi, ya'ni $qv < [qv]$, bunda sirpanish podshipnikni issiqlikni chidamliligini ta'minlanadi.

Sirpanish podshipniklarida eyilish va issiqlikka chidamliligini ta'minlash uchun quyidagi shart bajarilishi kerak:

$$q = \frac{F_r}{(ld)} \leq [q], \quad qv \leq [qv]$$

bu erda: q -xisobiy bosim; F_z - tayanchdagi reaksiya qiymati, l -ship (bo'yin)ning uzunligi; V -sirpanish tezligi, $mG's$; $[q]$ - solishtirma bosimning ruxsat etilgan qiymati; $[qv]$ -solishtirma bosim va sirpanish tezligi ko'paytmasining ruxsat etilgan qiymati jadvaldan olinadi.

Tsapfani loyihalash uchun $\varphi \frac{l}{d}$ - nisbat tanlab olinadi, φ ning kichik qiymatlarini katta yuklanish va tezlikda, katta qiymatni aniqlik darajasi yuqori va bikrligi katta bo'lgan vallarda olish tavsiya etiladi.


Iq $\varphi \cdot d$ ni (8.4) formulaga qo'ysak, $q = \frac{F_r}{(\varphi \cdot d^2)} \leq [q]$ natijada $d = \sqrt{\frac{F_r}{\varphi[q]}}$.mm.

O'lchamlari	Vkladish materiallari				
	SCh20	BrO10fl	BrA9jZl	B-16	Kapron
V, mG's	0.5	10	4	12	4
[q], MPa	4	15	15	15	15
[qV], MPa mG's	-	15	12	10	15

Podshipniklarni suyuqlikdagi ishqalanish rejimda ishlashini ta'minlash uchun moyda kerakli bosimni ya'ni valni mumqat xolatda ushlab turuvchi kuchni xosil qilish kerak. Moyda shunday bosimni xosil qilishni ikki xil usuli mavjud, bu statik (gidrostatik) va gidrodinamik usullardir.

Gidrostatik podshipniklar.

Bu podshipniklarda maxsus moslama yordamida moy, tsapfa bilan podshipnik o'rtasiga kerakli bosim bo'lganga qadar qo'yiladi. Bu usuldan foydalanish uchun maxsus moslama ishlatiladi.



Gidrodinamik podshipniklar. Bu usulda moy kam bosimli zonaga qo'yiladi. Bunda qo'ylayotgan moy kerakli darajada, ma'lum suyuqlikda bo'lib, valning aylanish soni $n \geq n_{kr}$ bo'lganda, etarli bosimli ponosimon shakli moy qatlamida suyuqlikdagi ishqalanish rejimi xosil bo'ladi.

Radial podshipniklarni gidrodinamik qonunlariga asoslanib xisoblaganda tsapfani muloqat xolatda ushlab turadigan radial kuchni qiymati qo'yidagicha aniqlash mumkin:

$$F_r = \frac{\lambda \omega}{\varphi^2} \ell d \Phi_\varepsilon$$

bunda: λ -dinamik kovushkonlik koeffitsienti, Pa·s; ℓ, d -tsapfaning uzunligi va diametri, mm; $\lambda = \frac{2\delta}{d}$ -nisbiy bushliq; F_ε -podshipnik yuklanishni belgilovchi nisbiy bushlik, $\varepsilon q G' \delta$ bog'liqli o'lchamsiz koeffitsient.

Yuqoridagi (8.4) formuladan ma'lumki tsapfani muloqat xolotda ushlab turadigan kuchning qiymati burchak tezligi, moyning dinamik kovushqoqlik λ , nisbiy bushlik ε ni oshishi bilan oshadi, nisbiy bushliqni kamayishi bilan kamayadi.

Podshipnikdagi bosim

$$q = \frac{F_r}{(\ell d)} = \frac{\lambda \omega}{\varphi^2} \Phi_\varepsilon, \quad \text{bunda} \quad \Phi_\varepsilon = \frac{q \varphi^2}{\varphi \omega} = f(h_{\min})$$

Demak eksentristetni ε ni belgilovchi F_ε koeffitsient qiymati, ya'ni moyning eng kichik qalinligi (h_{\min}) tsapfani burchak tezligi, moyning qovushqoqligi xamda tashqi kuchni ta'siriga bog'liq ekan. Shuningdek oxirgi formuladan ma'lumki burchak tezligi kamayish yoki yuklanishni q oshishi bilan h_{\min} qiymati kamayadi, tsapfani ishchi yuzasi podshipnik ishchi yuzasiga tegadi, bunday xoll bo'lmasligi uchun qo'yidagi shart bajarilish kerak

$$h_{\min} > h_{kr}$$

bunda: h_{kr} tsapfa bilan podshipnik ishchi yuzlarini notekisliklari o'rtasidagi masofa, bunda notekisliklar uzoro tegmaydi.

Sirpanish podshipniklarni suyuqlikdagi ishqalanish rejimida ishlash uchun. Tsapfa bilan podshipnik o'rtasidagi moyning eng kichik qalinligi, h_{kr} qalinlikdan n_ε marta katta bo'lishi kerak, ya'ni

$$n_\varepsilon q \frac{h_{\min}}{h_{kp}}$$


bunda: $h_{kr} q R_{rs} Q R_{rn} Q U$ -moy qalinligining eng kichik qiymati; U -yuklanish ta'sirida valning soliqiligini xisobga oladi.

Mashinasozlikda vallar yuzasini notekisligi $R_r \geq 2,5 \text{MKM}$, podshipniklarda $R_r \leq 5 \text{MKM}$. Extiyotlik koeffitsienti $n_\varepsilon q 1,2-1,5$. Umuman olganda sirpanish podshipniklari $0,1\delta \leq h_{\min} \leq 0,3\delta$ oroliqda ishlaydi, bunda eksentrisitiy $\varepsilon q 0,1 \dots 0,9$.

Sirpanish podshipnik konstruksiyalari va ularni eyilishi.

Podshipnik konstruksiyalari xar xil ko'rinishda bo'lib, bu mashinaning tuzilishi, ularni yig'ish, ishlatish sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Rasmlarda sirpanish podshipniklarni oddiy ko'rinishlari berilgan.

Podshipniklar tuzilishi jixatdan ajralmaydigan 4-rasm va ajraladigan 5-rasm turlarga bo'linadi. Katta yuklanishli podshipnik konstruksiyalarida korpus va tsapfadan tashqari antifriktsion xususiyatga ega bo'lgan vkladishlar ishlatiladi.



Vkladishlar-podshipniklarni asosiy detallardan bo'lib, ajralmaydigan va ajraladigan ikki pallali turlarga bo'linadi.

Vkladishlar ishqalanish yuzasining eyilishi butun ishlash muddatida juda kam qalinlikda bo'ladi. Bunday qalinlikdagi vkladishlarni tayyorlash qiyin, hamda mustahkamligi ta'minlash uchun vkladishlarni po'lat, cho'yan yoki bronza material yuzalarini antifriktsion material bilan qoplash yo'li bilan hosil qilinadi.

Korpusga o'rnatiladigan quyma vkladishlarni qalinligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\sigma_v q(0,035 \dots 0,05) d Q 2.5$$

bu erda: d-tsapfa diametri. Qoplash uchun ishlatiladigan antifriktsion materialning qalinligi δ q 0,0 1d

Poliamid materialidan tayyorlanadigan vkladishlarni qalinligi $\delta_v q(0,04 \dots 0,05) d Q1$. Qoplash uchun ishlatiladigan antifriktsion plastmassa materiallar qalinligi $\delta_l q(0,015 \dots 0,02) d$

Katta seriya bilan tayyorlanadigan vkladishlar ish unumdorligi oshirish uchun ishqalanish yuzasi qoplangan lentalaridan tayyorlanadi.

Bunda lentaning qalinligi 1,5...2,5 mm gacha bo'lib, koplanish uchun ishlatiladigan materialning qalinligi 0,2-0,3 mm gacha bo'lishi mumkin.

Sirpanish podshipniklarining ishlash sifatiga podshipnik uzunligini uning diametriga nisbati qiymatlari katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, $lG'd$ nisbati qiymatlari kichik bo'lsa, uzeldan moy oqib ketishi xavfi tug'iladi, bu qiymat katta bo'lganda ishqalanish yuzasida bosim kamayadi, lekin cheklarida bosim oshib uzal qizib ketishi mumkin. Shuning uchun bu qiymatlarni xar xil ishlash sharoitlarida xar xil ishlash tavsiya qilinadi. Masalan. kalta sirpanish podshipniklarida $lG'd$ q 0,3 0,4 burchak tezligi katta bo'lgan avtomobil dvigatellarida 0,5...0,6; dizel podshipniklarida 0,5...0,9; suyuqlikdagi ishqalanish ta'minlangan prokat stanoklarda 0,6...0,9; umumiy mashinasozlikda esa 1,5 gacha qabul qilish mumkin.

Sirpanish podshipnik ishqalanuvchi yuzalarning antifriktsion xususiyatlari shu o'zaro ishqalanayotgan materiallarga ko'p jixatdan bog'liq bo'ladi. Tanlangan vkladish materiallari po'lat kamdan-kam cho'yan materiallardan tayyorlangan materiallarning tsapfasi bilan juft xosil qiladi. Bunda valning tannarxi vkladishning tannarxiga nisbatan yuqori bo'lganligi uchun, bu val tsapfalari vkladishga nisbatan kam eyilishi kerak. Shuning uchun val tayanchlari yuzasini termik qayta ishlab, so'ng uglerod yoki azot bilan to'yintirib, ishchi yuzasining qattiqligi HRC 55-60° gacha etkaziladi.

Vkladish materialari; ishqalanish koeffitsienti kam, eyilishga chidamli, issiklikni utkazuvchan; zanglamaslik, elastiklik moduli kichik va shunga o'xshash xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Material sifatida Brof 10-1, Br 06I6SZ, Br AJ9 markali bronzalar, Asch-4 markali cho'yan materiallar ishlatiladi.

Nazorat savollari

1. Sirpanish podshipnik afzalliklari.
2. Sirpanish podshipnik kamchiliklari.
3. Ishqalanish turlari
4. Nim quruq va nim suyuqlikdagi sharoitda ishlaydigan podshipniklarni shartli xisobi
5. Suyuqlikdagi ishqalanish xosil qilish sharti
6. Vkladish materiallari qanday xususiyatga ega bo'lishi kerak.

21-mavzu.	Dumalash podshipniklari. Turlari. Tanlash ishlatilishi. Dinamik yuk ko'taruvchanlik bo'yicha xisoblash.
------------------	--

21.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Dumalash podshipnik turlari. Tanlash. Asosiy xarakteristikalar. 2. Dumalash podshipniklarini dinamik yuk ko'taruvchanlikka tekshirish.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Dumalash podshipnik turlari bilan tanishtirish. Tanlash. Afzallik va kamchiliklari. Dinamik yuk ko'taruvchanlikka tekshirish bo'yicha to'liq tasavvurni shakillantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Dumalash podshipnik turlari bilan tanish-tirish, tanlash yo'llari; - Dumalash podshipniki elementlarini tayyorlash uchun ishlatiladi materiallar. Termik qayta ishlash; - Dumalash podshipniklarni dinamik yuk ko'taruvchanlik bo'yicha tekshirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Podshipnik turlarini tanlab eskiz chizmasini chizib beradi; - Dumalash podshipnik elementlarini tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar va termik qayta ishlash bo'yicha muloxaza yuritadi; - Dumalash podshipniklarini dinamik yuk ko'taruvchanlikka tekshirishni asoslaydi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamoa va juftlikda ishlash

O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya
-------------------------	--


Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Dumalash podshipniklari qanday turlarga bo'linadi. - Dumalash podshipniklari qanday tanlanadi? 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etiradi. - Dumalash podshipniklarini dinamik yuk ko'taruvchanlik bo'yicha tekshirishni sabablarini tushuntiradi. 2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarni takidlaydi.	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Podshipnik turlari aytib beradi va eskiz chizmasi chiziladi. 2.3. Podshipnik tanlash yuk ko'taruvchanlikka o'zaro muxokama qiladi. 2.4. Savol berib asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mustaqil ish uchun vazifa: "Dumalash podshipnik" so'ziga klaster tuzish vazifa beradi, baholaydi	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. yozib oladilar

Vizual materiallar.

1-ilova.

1-savol. Dumalash podshipniklarni turlari. Tanlash. Asosiy xarakteristikasi.



2-savol. Dumalash podshipniklarni dinamik yuk ko'taruvchanlikka tekshirish.



Mashg'ulot bo'yicha xulosa


1. Dumalash podshipnik turlari bo'yicha ma'lumot berilib, eskiz chizmasi chiziladi. Tanlash uslublari tushuntiriladi. Tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar va termik qayta ishlashga urg'u beriladi.
2. Dumalash podshipniklari dinamik yuk ko'taruvchanlikka xisoblash sabablari tushuntiriladi.

2-ilova.

Dumalash podshipniklari.

Mashina va mexanizmlarning val tayanchlarida asosan dumalash podshipniklari ishlatiladi., bunda ishqalanishga sarflanadigan quvvat keskin kamayadi, ya'ni bu podshipniklarning foydali ish koeffitsenti sirpanish podshipniklarinikiga nisbatan yuqori bo'ladi.

Podshipniklarning hamma elementlari standartlashtirilgan bo'lib, dumalash elementlari uchun yulakchalari bo'lgan tashqi 1, ichki 2, halqalardan xamda dumalash elementi 3, (zoldir, rolik), dumalash elementlari bir-biridan ajratib turadigan separator 4dan tashkil topgan.




Ishqalanish kuchi va undan hosil bo'ladigan issiqlik miqdorining kichikligi vallarning aylana boshlashi uchun zarur bo'lgan qo'zg'atish momentining sirpanish podshipniklaridagiga qaraganda bir necha marta (5-10 marta) kichikligi; sarflanadigan moy miqdorining kamligi; uzunlik bo'yicha o'lchamining sirpanish podshipniklaridagiga nisbatan birmuncha kichikligi, rangli metall ishlatishni talab etmasligi mazkur podshipniklarning **afzalligi** hisoblanadi.

Diametri bo'yicha o'lchamlarining nisbatan kattaligi, xizmat muddatining qisqaligi (chunki kontakt kuchlanishlarning qiymati katta), kam seriyali yuqori aniqlikda tayyorlanadigan podshipniklar tannarxining yuqoriligi, ta'sir qiluvchi kuchlarga kam bardoshlilik; katta tezlik bilan xarakatlanganda shovqin bilan ishlashi ularning **kamchiligi** hisoblanadi.

Ishlab chiqarilayotgan podshipniklarning sirtqi diametrlari 0,5 mm dan 2 mm gacha, og'irligi esa 0,4 kg dan 7000 kg gacha bo'lishi mumkin.

Podshipniklarning ichki diametrlari 3 mm dan 10 mm gacha bo'lganda o'zaro 1 mm dan farq qiladi, 20 mm gacha 2-3 mm dan farq qiladi (10,12,15,17,20) 110 mm gacha 5 mm dan, 200 mm gacha 10 mm dan, 500 mm gacha 20 mm dan farq qiladi.




Dumalash podshipniklari qabul qila oladigan kuchlarning yunalishiga qarab, uch turga bo'linadi:

a) val o'qi tik ta'sir etuvchi kuchlarning qabul qilishga mo'ljallangan radial podshipniklar, masalan, a;

b) val o'qi bo'ylab ta'sir etuvchi kuchlarni qabul qilishga mo'ljallangan tirak podshipniklar, masalan e,

v) val o'qiga tik bo'lgan kuch bilan bir vaqtda uning o'qi bo'ylab yo'nalgan kuchlarni ham qabul qilishga mo'ljallangan radial-tirak podshipniklar, masalan v; g;



Podshipniklarning dumalash elementlari zoldirli, rolikli, konussimon rolikli, ignasimon va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Zoldirli podshipniklarni nisbatan katta tezlik bilan harakatlanadigan uzellarda ishlatish mumkin, rolikli podshipniklarga zoldirli podshipniklarga nisbatan 50-70% katta yuklanish berish mumkin.

Tuzilishi jihatidan dumalash podshipniklari bir va ikki qatorli podshipniklarga bo'linadi.

Podshipniklar sirtqi diametrlari bo'yicha juda ham engil (2 ta seriya); juda engil(2 ta seriya); engil, o'rta, og'ir seriyalarga bo'linadi. Eni bo'yicha ensiz, o'rtacha enli, enli hamda nisbatan enli seriyalarga bo'linadi. Sanoatda ko'p ishlatiladigan bu juda engil, engil, o'rta seriyali podshipniklardir. Podshipniklarni bir-biridan ajratish uchun raqam va harflardan iborat shartli belgi qabul qilingan. Bu belgining o'ng tomonidagi birinchi ikki raqami ichki diametrning shartli belgisi, o'ng tomondagi uchinchi raqam podshipnikning seriyasini bildiradi. Bunda juda engil seriya 1, engil seriya 2, o'rtacha seriya 3, og'ir seriya 4. engil enli seriya 5, o'rtacha enli seriya 6. O'ng tomonidagi to'rtinchi raqam podshipnikning turini bildiradi, bunda. 0-bir qatorli zoldirli lekin "0" yozilmaydi; 1-ikki qatorli sferik zoldirli; 2-tsilindrsimon kalta rolikli radial podshipnik; 5-maxsus o'ramli rolik; 6-zoldirli radial-tirak; 7-konussimon rolikli; 8-zoldirli tirak; 9-rolikli tirak. shartli belgining o'ng tomonidan beshinchi va oltinchi raqamlar podshipnik tuzilishidagi alohida xususiyatlarini masalan, zoldirli radial-tirak podshipniklarda zoldirlarning joylanishi kontakt burchagi, tashqi halqasida maxsus ariqchalar bo'lishi va boshqalarni ifodalaydi. Masalan, shartli belgi 11207. Demak, ikki qatorli sferak zoldirli podshipnik bo'lib, ichki diametri $d_{q07 \times 5q35} \text{mm}$; 2-engil seriya; 1-ikki qatorli; 1-podshipnikni valga mahkamlash uchun rezkali vtulka o'rnatilgan. Shu shartli belgi oldida tire qo'yilib yozilgan 6,5,4,2 sonlar podshipnikning aniqlik klassini bildiradi. Sonlarning qiymati kamayishi bilan aniqlik klassi ortib boradi. Agar son bo'lmasa, aniqlik klassi normal deb tushuniladi. Masalan, aniqlik klassi normal bo'lgan bir qatorli zoldirli radial podshipniklarning shartli belgisi: 208, 309, 408. Bunda ichki diametr 40 mm, engil, o'rta hamda og'ir seriyali podshipniklarni bildiradi.

Podshipniklarning turlari va ularning xarakteristikalari.

Zoldirli podshipniklar. Bir qatorli zoldirli podshipniklar (a) radial kuchlarni qabul qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, chegaralangan ravishda bo'ylama kuchlarni ham qabul qilishi mumkin. Bunda tashqi halqa 8^1 gacha buralishi mumkin. Zoldirning diametri $d_3 = 10,275 \dots 0,3175 / (D - d)$, bunda d, D – podshipnikning ichki va tashqi diametrlari. Zoldirlar soni $z \approx (D + d) / (D - d)$

Ikki qatorli zoldirli sferik podshipniklar (b) katta radial kuchlarni qabul qilishi mumkin, bunda halqaning buralishi $1,5-4^0$ gacha bo'lishi mumkin.

Zoldirli radial-tirak podshipniklar. (v). Radial va bir tomonlama ta'sir qiluvchi bo'ylama kuchlarni qabul qilishi mumkin. Bu xil podshipniklarga zoldirli radial podshipniklarga nisbatan 45% zoldir ko'p o'rnatiladi, natijada 30-40% yuklanishni oshirish mumkin.

Podshipniklarda zoldirlar $\alpha = 12^0 (36000), \alpha = 26^0 (46000), \alpha = 36^0 (66000)$ bo'yicha kontaktda bo'lishi mumkin. Tayanchlarga podshipniklardan ikkitasi o'rnatilsa, bunda ikki tomonlama ta'sir qiluvchi bo'ylama kuchlarni qabul qilish mumkin, hamda podshipnik katta

yuklanish ta'sirida ishlashi mumkin. Tayanchga o'rnatilgan podshipniklarda $\alpha = 26^{\circ}, \alpha = 36^{\circ}$ bo'lsa, bunday podshipniklar ikkitadan o'rnatilishi kerak.

Zoldirli tirak podshipniklar. (d,e) bir tomonlama ta'sir qiluvchi bo'ylama kuchlarni qabul qilishi mumkin. Bunda valning tezligi 5-10 mG's gacha bo'lishi mumkin. Zoldirning diametri $d_3 = 0,375(D-d)$, zoldirlar soni $zq3,66(DQd)G'(D-d)$.

Rolikli podshipniklar. Kalta rolikli radial podshipniklar (a) zoldirli radial podshipniklarga nisbatan bir necha marta katta radial kuchlarni qabul qilishi mumkin.

Rolikli ikki qatorli sferik podshipniklar. (b) juda katta radial kuchlarni qabul qilishga mo'ljallangan bo'lib, halqasi $0,5...2,5^{\circ}$ gacha buralishi mumkin.

Rolikli radial-tirak podshipniklar. (3-rasm, g) radial hamda bir tomonlama ta'sir qiluvchi bo'ylama kuchlarni qabul qilishi mumkin. Bunda valning tezligi 15 mG's gacha bo'lishi mumkin. Roliklarning kontakt burchagi $\alpha q10...16^{\circ}$. Bo'ylama kuchlarning qiymati nisbatan katta bo'lganda $\alpha q20...30^{\circ}$ bo'lgan podshipniklar ishlatiladi, bunda halqalar $1,5^{\circ}-2^{\circ}$ buralishi mumkin.

Ignasimon rolikli podshipniklar. (v) radial o'lchamlari kam bo'lgan uzellarda ishlatiladi, bunda tezlik 5 mG's gacha bo'lishi mumkin. Bu xil podshipniklar katta radial kuchlar ta'sirida ishlashi mumkin, lekin bo'ylama kuchlar ta'siri bo'lmasligi kerak. Ignasimon rolikning diametri 1,6...6 mm, uzunligi esa $lq(4...10) d$ mm.

Ishlatiladigan podshipniklarning tannarxi uning o'lchamlari, aniqlik klassi, konstruksiyasining tuzilishi, separator va uning qancha chiqarilishiga bog'liq. Masalan, bir qatorli zoldirli radial podshipniklarning narxini bir birlik qilib olinsa, zoldirli tirak podshipniklar 10...15% arzon, zoldirli radial-tirak podshipniklar 2...2,5 marta qimmat, konussimon rolikli podshipniklar 30...70% qimmat turadi. Agar podshipniklar dinamik yuk ko'taruvchanligi bo'yicha baholansa, eng arzon konussimon rolikli podshipniklar hisoblanadi.

Podshipniklar tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar.

Podshipnik dumalash elementlari va halqalari maxsus podshipnikli ShX15, ShX15SG markali yuqori uglerodli po'lat materiallardan tayyorlanadi. Shuningdek uglerod bilan to'yintirish mumkin bo'lgan 18XGT, 20X2N4A markali legirlangan po'lat materiallardan ham tayyorlanadi. Bunda xalqa va roliklarning qattiqligi HRC 60...65, zoldirlarniki esa HRC 62...66.

Podshipnik separatorlari nisbatan yumshoq bo'lgan uglerodli po'lat materiallardan tayyorlanadi. Katta tezlik bilan harakatlanuvchi podshipniklarda antifriktsion materiallar, ya'ni bronza, metallokeromika, poliamiddan tayyorlangan separatorlar ishlatiladi. Zarb bilan ta'sir qiluvchi uzellarda o'rnatilgan podshipnik dumalash elementlari plastmassadan tayyorlanadi. Bunda podshiniklarni halqalari qattiqligi katta bo'lmasligi kerak, shuning uchun engil qorishmalardan tayyorlanishi mumkin.

Podshipniklarning kinematika va dinamikasi.


Podshipniklar tuzilishi jihatidan planetar uzatmalarga o'xshash bo'ladi bunda separatorlarni o'q atrofida aylanish soni quyidagicha aniqlanadi:

Podshipnik ichki halqasi aylanganda:

$$n_c = \frac{n_b}{2} \left(1 - \frac{D_u \cdot \cos \alpha}{d_m}\right)$$

Podshipnik tashqi halqasi aylanganda:

$$n_c = \frac{n_T}{2} \left(1 + \frac{D_u \cdot \cos \alpha}{d_m}\right)$$



Dumalash elementlarini separatorga nisbatan aylanishi soni:

$$n_{uu} = \frac{n_b}{2} \left(\frac{d_{uu}}{D_{uu}} - \frac{D_{uu}}{d_m} \right)$$

Podshipnik elementlarini emirilish va ishlatilish darajasi.

Podshipniklarni ishlash jarayonida halqalarga ta'sir qiluvchi o'zgaruvchan kuchlanishlar, dumalash elementlarini dumalab harakatlanishi natijasida, tsikllar soni me'yoridan oshganda, ishchi yuzalar darz eydi. Vaqt o'tishi bilan bu darz eyilgan joylarga moylarni katta bosim ostida ta'siri natijasida yuza uvalanadi. Bu uvalanish sferik podshipniklarda tashqi halqadan, boshqa podshipniklarda, ichki halqadan boshlanadi.

Ish jarayonida podshipnik halqalari yoki dumalash elementlari sinishi yoki parchalanishi mumkin, bunda asosan rolikli podshipniklarda halqa chetlari sinadi, katta yuklanish bilan ishlayotgan podshipniklarda, eng katta kuch to'g'ri kelgan zoldir yoki shu zoldir bilan kontaktda bo'lgan halqa parchalanib ketishi mumkin. Yuklanishi bir tekis ta'sir bo'lganda bunday hodisalar ro'y bermaydi.

Sanoatda ko'pgina mashinalar qishloq xo'jaligi, to'qimachilik sanoati, avtomobil podshipniklari har qanday zichlagichlar o'rnatilishidan qat'i nazar abraziv muhitda ishlaydi, natijada halqa va dumalash elementlari tezda eyiladi. Bu abraziv eyilishni kamaytirish uchun podshipnik moylardan yaxshi tozalanib, sifatli zichlagichlar o'rnatilishi kerak.

O'z o'qi atrofida kam harakatlanuvchi katta yuklanishli podshipniklarda statik kuchlarning ta'sirida halqalarida qoldiq deformatsiyalar bo'lishi mumkin. Aylanma harakat bulmasa bu deformatsiya ko'payadi va ish jarayonida halqalar ishdan chiqadi.

Dumalash podshipniklarida halqa elementlari bilan birga separatorlar ham ishdan chiqadi, bunday hodisa asosan tez harakatlanuvchi podshipniklarda ro'y beradi. Separatorlar ishdan chiqishiga asosiy sabablardan biri bu markazdan qochma kuchlarning hamda dumalash elementlarining ta'siri natijasidadir. Ayniqsa bu bo'ylama kuchlar ta'sir qiluvchi podshipniklarda katta bo'ladi.

Dumalash podshipniklarini hisoblash asosan ikki turga bo'linadi:

- a) qoldiq deformatsiyalar bo'lmasligi uchun statik yuk ko'taruvchanlik bo'yicha;
- b) uvalanish hodisasi ro'y bermasligi uchun ishlash muddati (soat hisobida) yoki dinamik yuk ko'taruvchanlik qiymati aniqlanadi.

Podshipniklarni ishlash muddatni xisoblash asoslari.

O'tqazilgan tajribalar va izlanishlar asosida podshipniklarni dinamik yuk ko'taruvchanligi va uning ishlash muddatini bog'lovchi egri chiziq olingan uning matematik ifodasi

$$L_{10q}(CG'Re)^q$$

Bunda: L_{10} -podshipniklarni bazoviy ishlash muddati mln. min^{-1} ; S -dinamik yuk ko'taruvchanlikni bazaviy qiymati, kN. $[S]$ qiymat nazariy izlanishlar va tajribalar asosida xar bir tur podshipniklar uchun aloxida-aloxida aniqlangan qiymatlari jadvallarda berilgan bo'lib, bu yuklanish radial va radial-tirak podshipniklar uchun radial kuch (aylanmaydigan tashqi halqasi uchun), tirak, tirak-radial podshipniklar uchun bo'ylama kuch (bitta halqasi aylanganda) xisoblanadi. R_e -dinamik ekvivalent yuklanish, kN; q -daraja kursatkichi, zoldirli podshipniklar uchun $q=3,0$; konussimon rolikli podshipniklar uchun $q=3,33$. (9.4) formula yordamida zoldirli radial, radial-tirak, tsilindirsimon rolikli radial, konussimon rolikli, zoldirli va rolikli tirak podshipniklarni bazaviy ishlash muddati mln, min^{-1} xisobida aniqlanadi.

Podshipniklarni bazaviy ishlash muddat soat xisobida qo'yidagiga aniqlanadi

$$L_{10hq} \frac{10^6 L}{60n}$$

bunda: n -podshipnikni aylanish soni min^{-1} .

Podshipniklarni standart asosida bazaviy ishlash muddati soat xisobida ruxsat etilgan qiymat tsilindirsimon, konussimon podshipniklar uchun-10000s; chervyakli uzatmalar uchun-5000s. Umuman olganda podshipniklarni ishlash muddati yopiq uzatmalar uchun standart bo'yicha olingan ishlash muddatiga teng bo'lishi kerak. Bu qiymat tishli uzatmalar uchun-40000s, chervyakli uzatmalar uchun 20000s. Agarda podshipniklarni ishlash muddatni xisobiy qiymati L_h , ruxsat etilgan qiymat $[L_{10h}]$ dan kam bo'lsa, ya'ni $L_h > [L_{10h}]$ shart bajarilmasa xisob qaytariladi.

Mashinasozlikda podshipniklarni bazaviy ishlash muddati mln, min^{-1} xisobida qo'yidagicha aniqlanadi:

$$L_{10h} a_{23} (CG \cdot R_e)^{0.4};$$

bunda: a_{23} -podshipniklarni tayyorlash sifatni xamda ishlash shoraitni xisobga oluvchi koeffitsient. Ish shoraitlari oddiy bo'lgan zoldirli podshipniklar uchun $a_{23} q_{0,7-0,8}$; konussimon rolikli podshipniklar uchun $a_{23} q_{0,6-0,7}$; tsilindrik rolikli podshipniklar uchun $a_{23} q_{0,5-0,6}$;

Podshipniklarni statik va dinamik yuk kutaruvchanlik bo'yicha xisoblash.

Dumalash podshipniklarni jadvaldan standart asosida tanlanadi, bunda qoldiq deformatsiya bo'lmasligi uchun bazaviy statik yuk ko'taruvchanlik $[S_o]$, uvalanish xodisasi bo'lmasligi uchun bazaviy dinamik yuk ko'taruvchanlik $[S]$ bo'yicha tekshiriladi.

Statik yuk ko'taruvchanlik $[S_o]$, bo'yicha tekshirish. Vallarning aylanish soni $n < 1 \text{min}^{-1}$ bo'lgan xollarda statik yuk ko'taruvchanlik bo'yicha tekshiriladi, bunda $[S_o]$ statik radial yuklanishdan podshipnik xalqalarida yoki zoldir (rolik)da qoldiq deformatsiya 0,0001d (d-zoldir, rolik diametr) gacha bo'lishi mumkin.

Podshipniklar bir vaqtning o'zida radial F_r va bo'ylama F_a kuchlar bilan yuklangan bo'lsa, xisob statik ekvivalent yuklanish bo'yicha olib boriladi, ya'ni

$$R_{se} q X_o R_r Q U F_a$$

bunda, $X_o q_{0,5}$, $U_o q_{0,22}$ stgx – radial va bo'ylama kuchlarni xisobga oluvchi koeffitsient. Bu koeffitsientlar qiymati xar turli podshipniklar uchun jadvallarda berilgan.

Podshipniklarni tanlash $R_s \leq S_o$ shart bajarilishi kerak.

Bajarilishi kerak, bunda S_o -podshipniklarni statik yuk ko'taruvchanligi.

Dinamik yuk ko'taruvchanlik $[S]$ - bo'yicha tekshirish.

Vallarning aylanish soni $n > 10 \text{min}^{-1}$ ($n q_{1,0-10 \text{min}^{-1}}$ bo'lgan xollarda $n q_{10 \text{min}^{-1}}$ olinadi) bo'lgan xollarda dinamik yuk ko'taruvchanlik $[S]$ - bo'yicha tekshiriladi.

Podshipnik tanlashda $S < [S]$ shart bajarilishi kerak, bunda $[S]$ bu shunday doimiy yuklanishki, bunda podshipnik halqalari 10^6 mln. aylanganda ham tekshirilgan podshipniklarni 90% ishga yaroqli bo'ladi.

Podshipniklarni ishlash muddati uning aylanish soni, yuklanish qiymati va turi, podshipniklarni sifati, bo'ylama kuchni radial kuchga nisbati va va shunga uxshash muxim omillarga bog'liq. Shuning uchun podshipniklarni ishlash muddatini aniqlashda yuklanish sifatida ekvivalent yuklanish R_e qabul qilingan.

Bir qatorli zoldirli va rolikli radial, radial-tirak podshipniklar uchun bu qiymat

$$R_{e} q (V X R_r Q U F_a) K_1 \cdot K_2.$$

Kalta rolikli rodial tsilindirsimon rolikli podshipniklar uchun

$$R_{e} q V \cdot F_r \cdot K_1 \cdot K_2.$$

Zoldirli, rolikli tirak podshipniklar uchun

$$R_{e} q \cdot F_a \cdot K_1 \cdot K_2.$$

bunda F_2 -podshipnikka ta'sir qiluvchi radial yuklanishni umumiysi, kN; F_a -bo'ylama kuch, kN; V -xalqaning aylanishni xisobga oluvchi koeffitsient, ichki halqa aylanganda $V-1,0$, tashqi halqa aylanganda $V-1,2$; K_1 -uzatmaning ish rejimini xisobga oluvchi koeffitsient, yuklanish bir tekisda bo'lganda $K_1 q_{1,0}$, nisbatan notekis bo'lganda $K_1 q_{1,3-1,5}$; qattiq zarba bilan bo'lganda $K_1 q_{2,5-3,0}$. K_2 -podshipnikni qizishini xisobga oluvchi koeffitsient 1 –jadvaldan olinadi.

jadval

0t	100 ⁰ gacha	125 ⁰	150 ⁰	175 ⁰	200 ⁰	225 ⁰	250 ⁰
-------	------------------------	------------------	------------------	------------------	------------------	------------------	------------------

K ₂	1.0	1,05 ⁰	1,1 ⁰	1,15 ⁰	1,25 ⁰	1,35 ⁰	1,4 ⁰
----------------	-----	-------------------	------------------	-------------------	-------------------	-------------------	------------------

Podshipniklarni ishlash muddatiga bo'ylama F_a kuchni ta'siri sezilarli darajada, bu kuchning ta'sirda podshipnik halqalar bir-biriga nisbatan o'q bo'yicha siljiydi. Bunda halqalar o'rtasidagi bo'shliq qo'yidagi tenglik $F_a G'(VR_r) \leq e$ gacha bo'lganda dumalash elementlar bir tekisda yuklanishi ta'minlanadi. Bunda bo'ylama kuch F_a ekvivalent yuklanish qiymatiga ta'sir ko'rsatmaydi, ya'ni $x \geq 1$, $u \geq 0$. F_a qiymati oshishi bilan ya'ni $F_a G'(VR_r) \leq e$ bo'lganda podshipnikni ishlash sharoiti yomonlashadi, ishlash muddati kamayadi, bu esa bo'ylama kuchni xisobga oluvchi e koeffitsient yordamida xisobga olinadi, o'z navbatida x, u qiymatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Bo'ylama kuchlarni xisobga oluvchi e koeffitsient qiymati jadvaldan olinadi.

jadval

Podshipniklar turi	α^0	$\frac{F_a}{C_0}$	$F_a G'(VF_2) \leq e$		$F_a G'(VF_2) \geq e$		e
			x	u	x	u	
Bir qatorli zoldirli radial podshipniklar.	0	0,014	1	0	0,56	2,30	0,19
		0,028				1,99	0,22
		0,056				1,71	0,26
		0,084				1,55	0,28
		0,11				1,45	1,30
		0,17				1,31	0,34
		0,28				1,15	0,38
		0,42				1,04	0,42
Bir qatorli zoldirli radial-tirak podshipni	12 ⁰	0,014	1	0	0,45	1,81	0,30
		0,029				1,62	0,34
		0,057				1,46	0,37
		0,086				1,34	0,41
		0,11				1,22	0,45
		0,17				1,13	0,48
		0,29				1,14	0,52
		0,43				1,01	0,54
0,57	1,00	0,54					
Bir qatorli konussimon rolikli podshipniklar.			1	0	0,4	0,4ctgx	1.5tg α


jadval

Podshipnik shartli belgisi	Tashqi diametr D, mm	Ichki diametr d, mm	Dinamik yuk ko'taruvchi	Statik yuk ko'taruvchi	Koeffitsientlar		
			S _r , kN	S ₀ , kN	e	u	u ₀
7204	47	20	21	13	0,36	1,67	0,92
7205	52	25	24	17,5	0,36	1,67	0,92
7206	62	30	31	22	0,36	1,64	0,90
7207	72	35	38,5	26	0,37	1,62	0,89
7208	80	40	46,5	32,5	0,38	1,56	0,86
7209	85	45	50	33	0,41	1,45	0,80
7210	90	50	56	40	0,37	1,6	0,88

Radial-tirak podshipniklarni normal xolatda ishlashi uchun xar bir tayanch ta'sir qilayotgan bo'ylama kuchlar qiymati radial-kuchlardan xosil bo'lgan qo'shimcha bo'ylama kuchlardan kam bo'lmasligi, ya'ni

$$F_{as} \geq F_{s1} \quad F_{bs} \geq F_{s2}, \quad \text{shart bajarilish kerak.}$$

Masalan 9,6-rasmda podshipnika ta'sir qiluvchi kuchlar muvozanatda bo'lishi uchun $F_{as}QF_a - F_{bs}q0$ (b) shart bajarilishi kerak. Tenglamada F_{as} , F_{bs} qiymatlar na'ma'lum, masalani echish uchun F_{as} yoki F_{bs} larni birini qo'shimcha bo'ylama kuchlar F_{s1} yoki F_{s2} ga tenglab olamiz. Bunda $F_{as}qF_{s1}$ bo'lsa (b) formula qo'yidagi ko'rinishda bo'ladi $F_{s1}Q F_a - F_{bs}q0$ yoki $F_{vs}q F_{s1} - F_a > F_{s2}$ shart bajarilish kerak. Agarda bu shart bajarilmasa $F_{vs}q F_{s2}$ olinib masala qaytadan echiladi.



Masalani echimi: Podshipnikni turini tanlaymiz. Val tayanchlari uchun 210 markali engil seriyali bir qatorli zoldirli podshipnik tanlaymiz, jadvaldan $Sq35,1kN$ $S_0q19,8kN$ qiymatlarni olamiz.

2. Tayanchlarga ta'sir qiluvchi bo'ylama kuchlarning umumiy qiymatni aniqlaymiz.

A tayanchga bo'ylama kuch ta'siri bo'lmaganligi uchun $F_{AS}q0$.

V tayanchga ta'sir qiluvchi bo'ylama kuch $F_aq1120N$. Yuqorida qayd qilganimizdek zoldirli radial podshipniklar uchun $F_{sv}qF_aq1120N$.

3. Tayanchlar uchun x , u , e koeffitsient qiymatlarni aniqlaymiz. A tayanch uchun $F_{A0}q0$, shuning uchun $xq1$; $uq0$. V tayanch uchun $F_{AS}G'S_0q1120G'19800q0,056$ bo'lganda 9.2-jadvaldagi $xq0,56$, $uq1,75$, $e q0,26$ qiymatlarni olamiz.

4. x , u , e qiymatlarni aniqlashtiramiz V tayanch uchun $F_{sv} G'(vR_A)q1120G'3100q0,3eq0,26$ bo'lganligi uchun yuqorida qayd etilgan shartga ko'ra $xq0,56$, $uq1,75$ qiymatlarni qoldiramiz.

5. Dinamik yuklanishni ekvivalent qiymati, A tayanch uchun

$$R_{eA}qVXR_A \cdot K_1 \cdot K_2q1,0 \cdot 1,0 \cdot 2600 \cdot 1,4 \cdot 1,0q3640N.$$

bunda: $Vq1,0$; $Xq1$, $K_1q1,4$; $K_2q1,0$;

V tayanch uchun

$$R_{eV}q(VXR_vQUF_a) K_1 \cdot K_2q(1,0 \cdot 0,56 \cdot 3100q1,75 \cdot 1120)1,4 \cdot 1,0q5175N.$$

Bunda: $Vq1,0$; $Xq0,56$, $R_vq3100N$, $Uq1,75$, $F_aq1120N$, $K_1q1,4$, $K_2q1,0$.

6. Nisbatan katta yuklangan tayanch ya'ni V tayanch uchun podshipnikni ishlash muddatni aniqlaymiz.

$$L_{10h}q a_{23} \cdot \left(\frac{c}{R_{\ominus B}}\right)^q \frac{10^6}{60 \cdot n} = 0.75 \left(\frac{35100}{5175}\right)^3 \frac{10^6}{60 \cdot 320} = 12179c.$$

bunda: $Vq1,0$; $Xq0,56$, $R_vq3100n$, $uq1,75$, $F_aq1120n$, $K_1q1,4$, $K_2q1,0$.

6. Nisbatan katta yuklangan tayanch ya'ni V tayanch uchun podshipnikni ishlash muddatni aniqlaymiz.

$$L_{10h}q a_{23} \cdot \left(\frac{c}{R_{\ominus B}}\right)^q \frac{10^6}{60 \cdot n} = 0.75 \left(\frac{35100}{5175}\right)^3 \frac{10^6}{60 \cdot 320} = 12179c.$$

bunda $a_{23}q0,75$; $Sq35100N$, $R_{eV}q5175N$; $qq3,0$; $nq1450min^{-1}$

$L_{10h} > L_h$ ya'ni $12179 > 10000s$ shart bajarildi.

Masala: Berilgan val tayanchlari uchun konussimon rolikli podshipnik tanlansin. Bunda tayanchdagi reaksiya qiymatlari $R_{A}q2700N$, $R_{V}q2000N$. Bo'ylama kuch F_aq500N . Valning aylanish soni $nq2500min^{-1}$. Tsanfaning diametri $dq40mm$. Podshipnikning ishlash muddati $L_{10h}q10000s$.

Masalani echimi:


1. Podshipnik turi tanlanadi. Val tayanchlari uchun 7208 markali engil seryali konussimon rolikli podshipnik tanlaymiz, jadvaldan $eq0,38$, $uq1,56$, $u_0q0,86$ koeffitsientlarni xamda dinamik va statik yuk ko'taruvchanlik $Sq46,5kN$, $S_0q32,5kN$ qiymatlarini tanlaymiz.

2. Tayanchlarga ta'sir qiluvchi qo'shimcha bo'ylama kuchlarning qiymatini aniqlaymiz.

A tayanch uchun $F_{S1}q0,83e R_{Aq}0,83 \cdot 0,38 \cdot 2700q852N$.

V tayanch uchun $F_{S2}q0,83e R_{Vq}0,83 \cdot 0,38 \cdot 2000q631N$.

3. Tayanchlarga ta'sir qiluvchi bo'yлама kuchlarning umumiy qiymatni aniqlaymiz. – jadvalda berilgan tavsiyaga asosan $F_{S1} > F_{S2}$ xamda $F_a > 0$ bo'lganda $F_{as}qF_{S1}q852N$, $F_{as}qF_a - F_{vs}q0$.



bunda; $F_{vs}qF_{as}qF_aq F_{S1}qF_aq852Q500q1352N$.

4. Nisbatlarni aniqlaymiz

A tayanch uchun $\frac{F_{as}}{(VR_A)} = \frac{852}{1 \cdot 2700} = 0.315 < 0.38$ bo'lganligi uchun xq1, uq0.

V tayanch uchun $\frac{F_{BS}}{(VR_B)} = \frac{1352}{1 \cdot 2000} = 0.67 > 0.38$ bo'lganligi uchun xq0,4, uq1,56 qabul

qilamiz.

5. Ekvivalent dinamik yuklanishni aniqlaymiz.

A tayanch uchun $R_{eA}qVXR_A K_1K_2q1,0 \cdot 1,0 \cdot 2700 \cdot 1,0 \cdot 1,0q2700N$.

bunda; $Vq1,0$; $Xq1,0$; $K_1q1,0$; $K_2q1,0$.

V tayanch uchun $R_{eV}q(VXR_VQU F_{vs})K_1 \cdot K_2q(0,4 \cdot 1,0 \cdot 2000Q1,56 \cdot 1352)1,0 \cdot 1,0q2909N$

bunda; $Vq0,4$; $Xq1,0$; $R_{Vq}2000N$; $Uq1,56$; $F_{vs}q1352n$, $K_1q1,0$; $K_2q1,0$.

6. Ekvivalent dinamik yuklanish nisbatan katta bo'lgan tayanch uchun podshipnik tanlaymiz, ya'ni V tayanchga.

$$L_{10h}q a_{23} \cdot \left(\frac{c}{R_{\ominus B}}\right)^{3.33} \frac{10^6}{60 \cdot n} = 0.65 \left(\frac{46500}{2909}\right)^{3.33} \frac{10^6}{60 \cdot 2800} = 39440c. > [L_h] \text{ shart bajarildi.}$$

Podshipniklarni val va korpusga o'tkazish.

Podshipnik halqalarning yuklanishga nisbatan ularni val yoki korpusga o'tkazish ham xar xil bo'ladi. Bu o'tkazish standart asosida A G'teshikG' sistemasi, V G'valG' sistemasiga asoslangan. Podshipnikning tashqi halqasi korpusga V-sistema bilan birga o'tkazilsa, ichki halqasi A-sistema bilan o'tkaziladi. Bu o'tkazish jarayonida podshipnik halqalari qayta ishlanmaydi, kerak bulsa val yoki korpusning o'lchamlari o'zgartiriladi.

Podshipniklarni val yoki korpusga o'tkazishda halqalarning yuklanish xarakteri xisobga olinadi. Yuklanishlar esa qo'yidagilar bo'lish mumkin.

a). Radial kuchga nisbatan halqa harakatlanmaydi halqalarida joyli kuchlanish bo'ladi.


b). Podshipnik halqasi radial kuchga nisbatan aylanma harakat qiladi natijada halqalarning butun yuzasi birin-ketin yuklanadi bunday yuklanish tsirkulyatsiya yuklanish deyiladi.

v). Halqa radial kuchga nisbatan tebranma harakat qiladi, natijada tebranma yuklanish bo'ladi.

Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatdiki podshipnik ichki xalqasi aylanganda valga, tashqi halqasi aylanganda korpusga tig'izlik bilan o'tkazish kerak, aylanmaydigan tashqi halqa esa muayan xolatda mahkamlanmasdan o'rnatiladi, bunda halqa o'z o'qi atrofida yoki o'q bo'ylab siljishi mumkin, bu esa halqalarning bir tekisda yuklanishga yordam beradi.


Podshipniklarni ichki xalqasini vallarga maxkamlash usullari. Podshipniklarni valga maxkamlashda podshipnika ta'sir qilayotgan kuchning qiymati va yo'nalishi, o'z o'q atrofida aylanishi soni hisobga olinadi.

Podshipnikning aylanadigan halqasi o'z o'q atrofida siljimasligi uchun valga tig'izlik bilan o'tkazildi.



Podshipniklarni ichki halqasi bo'yicha valga maxkamlash usullari 7-rasmlarda ko'rsatilgan bunda a-xalqa yordamida, b-gayka yordamida, v-shayba xamda vint yordamida, g-shayba xamda ikkita vint yordamida. Bo'ylama kuchlarning qiymati nisbatan katta bo'lmagan xollarda to'g'ri burchakli prujinali halqa yordamida maxkamlash mumkin, Bunda prujinali halqa bilan podshipnik o'rtasida bo'shliq bo'lmasligi uchun maxsus xalqa qo'yish xam qo'yiladi. Bo'ylama kuchlarning qiymati nisbatiga katta bo'lganda gayka yordamida maxkamlash mumkin. b. Gayka o'z-o'zidan buralib bushamasligi uchun qo'shimcha barmoqli shayba ishlatiladi bunda val bilan gaykaning ariqcha qismiga barmoqli shaybaning barmoqli qismi kirgiziladi, natijada gaykani o'z-o'zidan buralib bushashiga chek qo'yiladi.

Podshipnik tashqi halqasini maxkamlash usullari. Podshipnik tashqi halqasini korpusga maxkamlash usullari rasmlarda ko'rsatilgan, bunda muayan xolatda maxkamlanmagan podshipniklarni tashqi halqasi maxkamlanmaydi. Tashqi halqani podshipnik qopqoq yordamida maxkamlash a-rasmda ko'rsatilgan. b-rasmda korpusdagi chiziq bilan prujinali xalqa yordamida maxkamlash ko'rsatilgan.



Nazorat savollari

1. Dumalash podshipnik turlari.
2. Dumalash element turlari.
3. Podshipniklar qanday elementlardan iborat bo'ladi?
4. Dinamik yuk ko'taruvchanlik deganda nimani tushinasiz?
5. Qanday hollarda dinamik yuk ko'taruvchanlik bo'yicha tekshiriladi?

22-mavzu.	Birikmalar. Ajralmas va ajraluvchan birikmalar. Ajraluvchan birikmalar. Mustaxkamlikka xisoblash.
------------------	--

22.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Birikmalarni mashina va mexanizmlarda moxiyati. Turlari. 2. Ajraluvchan birikma turlari. Mustaxkamlikka xisoblash.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Birikmalar va ajraluvchan birikma to'g'risida to'liq ma'lumot	

beriladi. Birikma elementlarini mustaxkamlikka tekshirish bo'yicha to'liq tasavurni shakillantiradi.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Birikmalarni turlari to'g'risida ma'lumot beradi; - Ajraluvchan birikma to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi; - Birikma elementlarni mustaxkamlikka tekshirib ko'riladi.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Birikma to'g'risida ma'lumot beradi; - Ajraluvchan birikma turlari to'g'risida fikr bildiradi; - Ajraluvchan birikma elementlarini mustaxkamlikka xisoblashni tushuntirib beradi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamo'a va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya


Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Birikmalarni mashina va mexanizmlarda moyiyati. - Ajraluvchan va ajralmas birikma. 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etiradi. - Ajraluvchan birikma turlari eskiz sxemasi. - Ajraluvchan birikma elementlarini mustaxkamlikka xisoblash 2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarni takidlaydi.	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Ajraluvchan birikma turlarini o'zaro muxokama qiladi. 2.3. Savol berib asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mustaqil ish uchun vazifa: "Ajraluvchan birikma" iborasiga klaster tuzish vazifa beradi, baholaydi	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. yozib oladilar

Vizual materiallar.

1-ilova.

1-savol. Birikmalarni mashina va mexanizmlarda moyiyati. Turlari.



2-savol. Ajraluvchan birikma turlari.



Mashg'ulot bo'yicha xulosa

1. Talaba mashina va mexanizmlarda birikma ishlatish maqsadi to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi.
2. Ajraluvchan birikma turlari bilan tanishadi.
3. Ajraluvchan birikmalarni mustaxkamlikka xisoblash asosida o'rganadi.

2-ilova.

Birikmalar.

Ma'lumki, mashinalar detal va uzellardan tashkil topib birikmalar vositasida yig'iladi. Birikmalar esa ajraladigan va ajralmaydigan turlarga bulinadi.

Ajralmaydigan birikmalar, bu shunday birikmalarki, bunda mashina uzellarini ayrim qismlarga ajratish uchun, birikma elementlarini sindirish va yig'ish jarayonida bu ish yuzasini qayta ishlash kerak bo'ladi. Parchin mixli, payvand xamda detallari uzaro tig'izlik bilan o'tkazilgan birikmalar shunday birikmalar xisoblanadi.

Rezbali, shponkali, shlitsli birikmalar ajraladigan birikmalar bulib, bunda uzellar detallarga ajratilganda detalning ishchi qismiga shikast etkazilmaydi.

Mashinalarning yaxshi ishlamasligi, muddatdan oldin ishdan chiqishi, ishlash jarayonida shovqinning oshib ketishiga undagi birikma sifatining pastligi (sifatli mahkamlanmaganligi, payvandlanmaganligi, birikma uchun material noto'g'pi tanlanganligi va x.k.) sabab buladi.

Birikma elementlari asosan mustaxkamlikka xisoblanadi. Bunda birikma elementlarining mustaxkamligi biriktirilayotgan detallarning mustaxkamligi bilan bir xilda bulishiga erishish kerak.

Rezbali birikmalar.


Ajraladigan birikmalarning eng ko'p tarqalgan turi rezbali birikmalardir. Bolt, vint, shpilka xususiy xollari bulib, mashinalarning ular vositasida yig'ilgan uzellari kerak bulgan vaqtda ayrim detallarga ajratilishi va yana qayta yig'ilishi mumkin.

Rezbali birikmalarning afzalliklari shundan iboratki, ular nisbatan katta yuklanish ta'sirida etarli darajada ishonchli ishlaydi; ularni ajratish va yig'ish oson; nisbatan arzon, barcha o'lchamlari standartlashtirilgan.



Rez'ba haqida umumiy ma'lumot. Rezbaning xamma o'lchamlari standartlashgan bo'lib rezbalar tsilindirsimon va konussimon sirtlarda kesiladi. Asosan tsilindirsimon rezbalar ishlatiladi, jips birikmalar xosil qilish uchun konussimon sirtlarda kesiladi. Rezbarlar shakliga ko'ra uchburchakli (a), trapetsiya (b), tirak (v), to'g'riturt burchakli (g) va aylanasimon (d) shakllarda bo'lishi mumkin. Rezbadagi o'ramlarning yo'nalishi chapdan ung tomonga yo'nalgan bo'lsa ung

rezba a-rasm ungdan chap tomonga yo'nalgan bo'lsa chap rezba deb ataladi b-rasm




Rezbalarni kirim soni bir, ikki va kup kirimli bo'lishi mumkin, masalan rasmda bir kirim (b) va uch kirimli (a) rezbani chizmasi berilgan.

<p>Rezbaning o'lchamlari. d-rezbaning tashqi diametri; d_1-rezbaning ichki diametri; d_2-rezbaning o'rtacha diametri; N_1-rezba ishchi shaklini balandligi;</p>	
--	--

N -rezbaning umumiy balandligi; R -rezbaning qadami; α -rezba shakl burchagi; φ -rezba o'ramining ko'tarilish burchagi.

$$\operatorname{tg} \varphi = \frac{p}{\pi d_2}$$


Rezbaning asosiy turlari. Metrik rezba.



Mashinasozlikda eng ko'p tarqalgan rezba metrik rezba bo'lib shakli uchburchak, burchak shakli 60° ga teng. Metrik rezbalar asosan maxkamlash uchun ishlatilib rezba qadami yirik yoki mayda bo'lishi mumkin.


Rezbaning shartli belgisi M xarf bilan belgilanadi, yonidagi son uning tashqi diametri bildiradi. Masalan $M24$, demak metrik rezba d_{q24} mm. Agarda rezba mayda qadamli bo'lsa, qadam o'lchami ko'rsatiladi, masalan $M24 \times 1,5$, bunda metrik rezba tashqi diametri d_{q24} mm, qadami $p_{1,5}$ mm.

Trapetsidal rezba. Bir kirimli va kup kirimli bo'lib trapetsiya burchagi $\alpha \approx 30^\circ$. Xarakat reveres bilan bo'lganda ishlatiladi. Ishda ishonchli, mustaxkam asosan vint-gayka uzatmalarda ishlatiladi. Shartli belgisi $Tr40 \times 6$, bunda rezba trapetsiodal, diametri 40mm, qadami 6mm.



Tirak rezba. Rezba nosimmetrik bo'lib ishchi bo'lmagan yuzasini qiyalik burchagi 30^0 . Ishchi qismning qiyalik burchagi 3^0 . Yuklanish katta bo'lgan (vintli press, domerat va boshqalar) birikmalarda ishlatiladi. Rezbaning shartli belgisi S80x10, bunda S-tirak rezba; 80-diametri, mm; 6-rezba qadami, mm.

Aylanisimon rezba. Rezba shaklini burchagi $\alpha 30^0$. Asosan dinamik yuklanish bo'lgan birikmalarda ishlatiladi. Yuqorida ko'rsatiogan rezbalarning eng ko'p tarqalgan metrik rezba bo'lib asosan maxkamlash uchun ishlatiladi.




Maxkamlash uchun ishlatiladigan detallarning asosiylari bu bolt, vint, shpilka.

Bolt – qalinligi nisbatan katta bo'lmagan detallarni maxkamlash uchun ishlatiladi, bunda bolt kallagini xamda gaykani joylashtirish xamda o'z o'q atrofida burash uchun joy bo'lishi kerak.


Bolt bir uchi kalit yoki otvyortka uchun muljallangan kallagi, ikkinchi uchidan esa gayka burab kiritiladigan rezbasi bulgan sterjendir (rasm, a)

Vint – qalinligi nisbatan katta, mustaxkamligi ta'minlangan, birikmani bikrligini taminlash massasini kamaytirish kerak bo'lgan xollarda ishlatiladi. Boltning gayka uchun muljallangan rezbali uchiga gayka buralmay, bu uchi biriktirilishi lozim bulgan detalga buraladigan bulsa bunday bolt vint (rasm, b) deyiladi.

Shpilka- vint ishlatilgan xolatlarda rezba material etarli darajada mustaxkamligi ta'minlanmagan bo'lib, xamda bunda birikmani vaqti-vaqti bilan ajiratib, biriktirish kerak bo'lgan xollarda ishlatiladi. Agar sterjenning ikki uchi rezbali qilib yasalgan bulsa, u shpilka deb ataladi (8-rasm, v) eyilishga chidamli, FIK yuqori bulishi uchun ishqalanish kuchi nisbatan kam bulishi kerak.



Uzgaruvchan kuch va moment ta'sirida rezbali birikmalar uz-uzidan buralib bo'shishi mumkin. Buning sababi titrash natijasida rezbalardagi ishqalanish kamayadi va buning oqibatida uz-uzidan tormozlanish xususiyati yo'qoladi. Shuning uchun o'zgaruvchan kuchlar ta'sirida birikmalardagi rezbalarning o'z-o'zidan buralmasligiga quyidagi usullar yordamida erishish mumkin :




1. Контргайка
2. Пружинали шайба
3. Шплинт

1. Kontrogayka va prujinalovchi shayba qo'yish yo'li bilan (rasm, a). Bunda qo'shimcha detallar xisobiga rezbadagi umumiy qarshilik oshadi.
2. Shplint yoki simdan foydalanib (rasm, b). Bunda gayka bolt sterjeniga shplint yoki sim vositasida maxkamlab ko'yiladi.
3. Gaykani detalga maxsus planka yoki shayba yordamida maxkamlash yo'li bilan (rasm, v).

Rezbalı birikmalarnı ishlashını o'zıga xos xususiyatlari.

Rezbalı birikma bu rezbalı sterjen va bu sterjenğa burab kiritilgan gaykadan iborat bo'ladi.

Buning uchun kalitga qo'yilgan F_k kuch yordamida xosil bo'lgan burovchi moment rezbadagi ishqalanish xamda gaykaning detalga tegib turgan sirtidagi ishqalanish kuchlaridan xosil bo'lgan momentni engish kerak bo'ladi, ya'ni



$$T_o = T_p + T_T$$

bunda: T_r - rezbadagi moment; T_t - gaykaning detalga tegib turgan sirtida xosil bo'lgan ishqalanish kuchning momenti.

T_r , T_t moment qiymatlari quyidagicha aniqlanadi, bunda rezbadagi moment:

$$T_p = F_z \cdot 0,5d_2 = F \cdot \operatorname{tg}(\beta + \varphi') \cdot 0,5d_2$$

bunda: ψ - rezbaning ko'tarilish burchagi; φ^1 - ishqalish burchagi.

Gaykaning detalga tegib turgan sirtida xosil bo'lgan moment o'rtacha diametr bo'yicha aniqlandi.

$$T_T = f F \cdot 0,5d_{yp} \quad [3]$$

bunda: $d_{yp} = \frac{D + d_0}{2}$; D - gaykani detalga tegib turgan diametri; d_0 - vint uchun mo'ljallangan teshikchaning diametri.

Burovchi momentini umumiy qiymati

$$T_o = T_p + T_T = \left[F \cdot \operatorname{tg}(\beta + \varphi') \cdot 0,5d_2 + f_1 F \cdot 0,5d_{yp} \right] = 0,5d_2 F \left[\operatorname{tg}(\beta + \varphi') + f_1 \cdot \frac{d_{yp}}{d_2} \right] \quad [4]$$


Formula (1) dagi standart qiymatlarni olsak, ya'ni lq15d metrik rezbalar uchun $\beta \approx 2,5^\circ$; $d_2 \approx 0,9d$; $d_{yp} \approx 1,4d$; $f_1 \approx 0,2$. Bu qiymatlarni (1) formulaga qo'ysak $F_q(60-100)F_k$ ya'ni kalitga qo'yilgan 1N kuch yordamida (60-100) N kuchdan yutiladi.

Rezbanı mustaxkamlikka xisoblash.

Rezbanı mustaxkamlikka xisoblashda yuklanish uramlari orasida, bir xilda taqsimlanadi deb qabul qilinadi. Lekin tajribalar shuni kursatadiki, bu yuklanish bir xil bulmaydi, masalan 6

uramdagi gaykaning birinchi o'ramining yuklanishi 52% bulsa, oxirgi o'ramning yuklanish 2 % ni tashkil etadi.

Rezbalarga ta'sir etuvchi kuchning rezba o'ramlari opacida bir tekis taqsimlanmaganligini asosiy sabablaridan biri shuki, o'q bo'ylab ta'sir etuvchi kuchdan vintdagi rezbaning bir tomonga, gaykadagi rezbaning esa qarama - qarshi tomonga deformatsiyalanishidir.



Rezbaning (sa) yuzasi ezilishga tekshiriladi, bunda $\sigma_{ez} < [\sigma]_{ez}$ shart bajarilishi kerak. Ezuvchi kuchlanishning xisobiy qiymati:

$$\sigma_{ez} = \frac{F}{\pi d_2 h z} \leq \sigma_{ez}$$

bu erda: F- o'q bo'ylab ta'sir etuvi kuch;

d_2 –rezbaning o'rtacha diametri;

h- rezba shaklining balandligi;

z – gaykadagi rezba o'ramlarining soni;

$[\sigma_{ez}]$ – ezuvchi kuchlanishning joiz qiymati.

Vintning v a gaykaning rezba asoslari kesimi kesilishiga tekshiriladi, bunda $t_{kec} < [t_{kec}]$ shart bajarilishi kerak.

Vintnin a-v kesimi uchun

$$\tau_{kec} = \frac{F}{\pi d_1 k H} \leq [t_{kec}]$$

Gaykaning s-e kesimi uchun

$$\tau_{kec} = \frac{F}{\pi d k} \leq [\tau_{kec}]$$

bunda: d- rezbaning tashqi diametri; d_1 – rezba asosining diametri; F- boltga ta'sir etuvchi kuch; N – gaykaning balandligi; k – rezbaning turini xisobga oluvchi koeffitsient. To'g'ri burchakli rezba uchun $k \approx 0,5$; trapetsiya rezba uchun $k \approx 0,65$; uchburchakli rezbali uchun $k \approx 0,8$. $[t_{kec}]$ – joiz kesilidagi kuchlanish.

Birikmani loyixalashda (vint xamda gaykaning materiali bir xil bo'lganda) rezba turini tanlab d ni aniqlab, N ning o'lchamini belgilash mumkin: $H = F / \pi d_1 k [\tau_{kec}]$, bunda rezba xamda sterjenning mustaxkamligining bir xilligi ta'minlanadi. Standart gaykalarining balandligi $N \approx 0,8d$ deb olinadi.

Vint xamda shpilkalarni burab kiritish chuqurligi po'lat, materiallar uchun $N_1 \approx d$, cho'yan materiallar uchun $N_1 \approx 1,5d$ deb olish tavsiya etiladi, bunda rezbaning mustaxkamligi ta'minlanadi.

Bolt sterjenini mustaxkamlikka xisoblash.


Boltli birikmalarning sterjenida tashki kuch ta'sirida xar xil kuchlanishlar xosil buladi.

Bunda sterjendagi kuchlanishlar qiymati tashqi kuchlarning yo'nalishiga bog'liq bulib, quyidagicha aniqlanadi.

1-xol. Bolt sterjeniga faqat chuzuvchi kuch ta'sir etadi. Bunga sirib tortilmagan, ya'ni zo'riqtirlmagan xolatda osib qo'yilgan ilgak misol bo'la oladi. Uning rezbali qismi tashqi F kuch ta'sirida cho'zilishga d_1 diametr bo'yicha tekshiriladi:

$$\sigma = \frac{4F}{\pi d_1^2} \leq \sigma_u$$

$$d_1 = \sqrt{\frac{4F}{\pi[\sigma_u]}}$$



2-xol. Bolt sirib tortilgan bulib, sterjenga tashqi kuch ta'sir etmaydi. Bunga masalan, yopiq uzatmaning qopqog'ini sirib maxkamlash uchun ishlatiladigan boltlar kiradi. Bolt sterjenga sirib tortish natijasida chuzuvchi va burovchi kuchlanishlar xosil bo'ladi, bunda tashqi chuzuvchi kuch ta'sirida xosil bulgan kuchlanish $\sigma = \frac{4FG}{\pi d_1^2}$ sterjen rezbasidagi moment ta'sirida xosil bulgan burovchi kuchlanish quyidagicha bo'ladi:

$$\tau = \frac{T_p}{W_p} = \frac{0.5Fd_2tg(\varphi + \rho^1)}{0.2d_1^3}$$


Sterjendagi umumiy (ekvivalent) kuchlanish

$$\sigma_{33} = \sqrt{\sigma^2 + 3\tau^2} = \sigma \sqrt{1 + 3\left(\frac{\tau}{\sigma}\right)^2}$$

bu erda

$$\frac{\tau}{\sigma} = \frac{0.5Fd_2tg(\sigma + \rho^1)\pi d_1^2}{\left(\frac{\pi d_1^3}{16}\right)4F}$$

3-xol. Bolt sirib tortilgan, bolt sterjeniga chuzuvchi kuch ta'sir etadi. Bunga (gaz, suyuqlik) bosim ostida bo'ladigan germetik idishlarning qopqog'i misol bo'la oladi. F_s kuch bilan sirib tortilgan birikma tirqishidan xavo yoki suyuqlik chiqmasligi kerak. Buning xisoblash uchun birikma detallarini deformatsiyasi xisobga olinishi kerak.



Masalan – rasmdagi birikmada boltli birikma siqilmagan xolati ko’rsatilgan. Agarda birikma F_0 kuch bilan siqilsa, elastik deformatsiya xisobiga bolt sterjeni Δl_b ga cho’ziladi, detali esa Δl_d ga qisqaradi. Shu deformatsiyalar grafik ravishda rasmda ko’rsatilgan. Agarda birikmaga qo’shimcha tashqi kuch G' ta’siri bo’lsa (germetik idish ichidagi bosim), bolt yanada Δl_b ga cho’ziladi, detal esa Δl_d ga siqilishi kamayadi. Bunda shu tashqi kuchning bir qismi boltni Δl_b ga cho’ziladi, bir qismi $(1-x)G'$ esa detalni Δl_d ga siqish kamaytirishga qilinadi. Bunda bolt F_b kuch ta’sirida cho’ziladi, detallar esa F_d kuch ta’sirida siqiladi. Ya’ni

$F_b \chi F_0 Q \chi G'$ – boltga ta’sir qilayotgan cho’zuvchi kuchni umumiy qiymati.

$F_b q F_0 Q \chi G'$ –detalni siquvchi kuchni qiymati.

Bunda: χ – tashqi kuchni qaysi qismi boltga ta’sir qismini ko’rsatuvchi koeffitsient. Bu koeffitsientni aniq qiymatni aniqlash keyin, taxminiy qiymati elastiksimon qistirma bo’lmagan po’lat va cho’yandan tayyorlangan birikmalar uchun $\chi q 0,2 \dots 0,3$; agarda elastiksimon qistirma (rezina, polietilen va boshqalar ishlatilsa $\chi q 0,4 \dots 0,5$.

Birikma tirqishlaridan xavo, suyuqlik chiqmasligi uchun siquvchi kuchning eng kichik qiymati

$$F_{0\min} = (1 - \chi)F$$

bo’lishi kerak. Lekin xisoblash jarayonida $G'_0 > F_{0\min}$ shart bajarilishi kerak, ya’ni tirqishlarning ochilmasligini ta’minlashi zarur, bunda

$$F_0 = k(1 - \chi)F$$

qabul qilinadi, k- xocizlik koeffitsient yuklanish doimiy bo’lib, qistirma ishlatilmasa $k q 1,25 \dots 2$; yuklanish o’zgaruvchan $k q 2,0 \dots 4,0$. Agarda birikmada qistirma ishlatilsa, $k q 5,0$ olinadi, natijada yukoridagi formula o’rniga

$$F_0 = k(1 - \chi)F + \chi F$$

ifodani olamiz. Boltli birikmalarda boltni mustaxkamligini xisoblashda burovchi moment 1,3 koeffitsient bilan xisobga olinadi. Natijada siquvchi kuchni xisobiga quyidan olinadi

$$F_x = 1,3k(1 - \chi)F + \chi F$$

Boltli mustaxkamligi ekvivalent kuchlanish bo’yicha aniqlanadi.

$$\sigma_{\text{экв}} = \frac{4F}{\pi d_x^2} \leq [\sigma_2] \quad d_x \geq 1,3 \sqrt{\frac{F_x}{[\sigma_2]}} \quad \text{MM}$$

Agarda bolt qo’shimcha ravishda siqilsa burovchi moment xisobiga bolt strejendagi kuchlanish quyidagicha aniqlanadi.

$$\sigma_{\text{экв}} = \frac{5,2F}{\pi d_x^2} \leq [\sigma_2] \quad d_x \geq 1,3 \sqrt{\frac{F_x}{[\sigma_2]}} \quad \text{MM}$$

Qadami nisbatan katta bo’lgan metrik rezbalar uchun $d_2 \approx 1,1 d_x$, $\beta q 2^0 30^1$, $\rho^1 q 9^0 45^1$ deb qabul qilsa, $\tau G' \sigma \gg 0,5$. Bunda d_2 , φ , ρ I ning qabul qilingan qiymatlari uchun

$$\sigma_{\text{экв}} \approx 1,3\sigma$$

Demak, bolt strejeniga cho’zuvchi va burovchi kuchlar ta’sir qiluvchi F_y umumiy kuchning qiymatini yuqorida belgilagandek olish tavsiya etiladi, bunda kuchlaning qiymati quyidagicha

aniqlanadi:

$$\sigma_{\text{ok}} = 1,3\sigma = \frac{5,2F}{\pi d_1^2} \leq [\sigma]$$

Bolt rezbasining xisobiy diametri.

$$d_1 \geq \sqrt{\frac{5,2F_y}{\pi[\sigma]}} \quad \text{mm}$$

Bu erda $\sigma = \sigma_{\text{ok}} / [S]$ - bolt uchun cho'zilishdagi joiz kuchlanish. σ_{ok} - bolt materialining oquvchanlik chegarasi, $[S]$ - xavsizlik koeffitsienti, uning qiymati – jadvaldan yuklanish xarakteriga botning diametriga va materialga muvofiq olinadi.

Materiallar va ruxsat etilgan kuchlanishlar.

Standart asosida tayyorlanadigan rezba sterjenlar St 3, St 10, St 20, St 35, St 45 markali kam uglerodli po'lat materiallardan tayyorlanadi, kerak bo'lgan xollarda 35X, 40X, 38XA va shunga o'xshash legirlangan po'lat materiallardan tayyorlanadi.

Rezba sterjenlarni mustaxkamligini oshirish uchun termik qayta ishlanadi (yaxshilash, toblash).

Bolt, vint, shpilkalar mustaxkamligi bo'yicha 12 ta klassga bo'linadi, bunda: 3.6, 4.6, 4.8, 5.6, 6.6, 6.8, 6.9, 8.8, 10.9, 12.9, 14.9. Bunda berilgan sonlarni birinchisini 100 ga kupaytirib mustaxkamlik chegarasini eng kichik qiymatini NG'mm² olinadi. Kupaytmasini 10 ga kupaytirib oquvchanlik chegarasi olinadi, masalan, 5.6 klass bunda $\sigma_{\text{m}} \text{q}5 * 100 \text{q}500 \text{NG}'\text{mm}^2$; $\sigma_{\text{ok}} \text{q}5 * 6 * 10 \text{q}300 \text{NG}'\text{mm}^2$.

Birikma gaykalari tayyorlashda xam shu materiallardan foydalanadi. Rezbalarni mustaxkamlik klassni tanlashda yuklanish xarakteri, ishlash sharoiti, tayyorlanish sharoiti xisobga olinadi. Ayrim uglerodli materiallarni mustaxkamlik klasslari va xususiyatlari jadvalda berilgan.

jadval

Mustaxkamlik klassi	Mustaxkamlik chegarasi σ_{m} , MPa		Oquvchanlik chegarasi σ_{ok}	Po'lat materiallar markasi	
	min	max		bolt	gayka
3.6	340	490	200	Ct 3	St3
4.6	400	550	240	20	St3
5.6	500	700	300	30, 35	10

Ruxsat etilgan kuchlanishlar. Chuzilishga ruxsat etilgan kuchlanish quyidagicha aniqlanadi.

$$[\sigma_r] = \frac{\sigma_{\text{ok}}}{[S]} \leq [\sigma_r]$$

bunda σ_{ok} - oquvchanlik chegarasi, MPa; $[S]$ xavsizlik koeffitsienti qiymati yuklanish xarakteriga, bolt material va diametri xamda maxkamlanish nazorat qilinish yoki qilinmasligiga bog'liq. Yuklanish o'zgarmas maxkamlash nazorat qilinmagan xollar uchun $[S]$ ni qiymati jadvalda berilgan.

jadval

Bolt materiali	Rezba diametri		
	6 ... 16	16 ... 30	30 ... 30
Uglerodli po'latlar	5 ... 4	4 ... 2,5	2,5 ... 1,5
Legergangan po'latlar	6,5 ... 5	5 ... 3,3	3,3

Maxkamlash nazorat qilingan xollarda yuklanish o'zgarmas bo'lsa xavsizlik koeffitsienti $[S]$ q 1,3 ... 1,5.

Birikmalar bolt sterjenni kesilishga ishlagan xollarda

$$[\tau_k] = (0.2 \div 0.3) \sigma_{\text{ok}}$$

Birikmada bolt sterjeni ezilishga ishlagan xollarida

$$[\sigma_k] = 0.8\sigma_{ok}$$


Shponkali va shlitsli birikmalar.

Shponkali va shlitsli birikmalar yordamida shkiv, tishli g'ildirak, mufta va shunga o'xshash detallar vallarga mahkamlanadi. Bunda birikma asosan burovchi moment bilan yuklanadi.

Shponkali birikmalar. Bu birikmalar val, shponka xamda g'ildirakni (shkiv, tishli g'ildirak, yulduzcha va boshqalar) gubchagidan iborat bo'lib, shponka burovchi momentini uzatish uchun ishlatiladi. Shponkali birikmaning afzalligi bu uning tuzilishi oddiy bo'lib, ularni yig'ish va qismlarga ajratish nisbatan engil va arzonligidadir. Kamchiliklari: shponka uchun mo'ljallangan o'yiqlik bo'lishi, bu esa shu kesimning mustaxkamligini kamaytiradi. O'yiqlarda kuchlanishlarni to'planishi birikmaning mustaxkamligini val xamda g'ildirakning mustaxkamligidan kichikligi. Shuning uchun shponkali birikmalar dinamik yuklanish bilan ishlaydigan va katta tezlik bilan xarkatlanuvchi vallarda ishlatish tavsiya etilmaydi. Kamchiliklardan yana biri bu xar bir shponka o'tkaziladigan joyiga moslab o'rnatilishi kerak, shuning uchun katta seriya bilan tayyorlanadigan uzellarda xam tavsiya etilmaydi.

Shponkali birikmalar zo'riqqan va zo'riqmagan bo'lishi mumkin.

Zo'riqmagan birikmalarda prizmatik, segmentli shponkalar, zo'riqqan birikmalarda tsilindrsimon, ponasimon shponkalar ishlatiladi.



Prizmalik shponkalar. Bu shponkalarda ishchi tomonlari h bo'lib, uning uchlari aylanasimon tekis yoki bir tomoni aylanasimon ikkinchi tomoni tekis bo'lishi mumkin.

O'lchamlari valning diametriga nisbatan jadvaldan tanlanadi.

Tanlangan shponka yon yoqlari burovchi moment ta'sirida hosil bo'lgan ezilishdagi kuchlanishga (16-rasm) tekshiriladi, bunda

$$\sigma_{33} = \frac{4T}{d l_x t_2} \leq [\sigma_{33}]$$

Bu erda: T – buruvchi moment N mm hisobida;

l_x - shponkaning hisobiy uzilish;

t_2 - shponkaning gubchakaga o'tkazilgan qismning balandligi;

$[\sigma_{33}]$ - ezilishdagi kuchlanishning ruxsat etilgan qiymati, MPa.

Shponkaning uzunligi gubchakaning uzunligidan $5 \div 10$ mm kam olinadi. Bunda ikki uchi tekis bo'lgan shponkaning uzunligi $l_x = l$, ikki uchi aylanasimon bo'lgan shponkaning uzunligi $l_x = l - \epsilon$. ν -shponkaning eni.

Agarda ezilishdagi xisobiy kuchlanishning qiymati ruxsat etilgan qiymatdan 5% ko'p bo'lsa, shponkaning uzunligini oshirish yoki shlitsli shponka bilan almashtirish tavsiya etiladi.

Burovchi moment qiymatlari nisbatan kichik bo'lganida **segmentli shponkalarni** ham ishlatish mumkin. 16-rasm Shponkaning balandligi $h \approx 0,4d$, uzunligi $l \approx d$. Bu shponkalar ham ezilishga hamda ensiz bo'lgani uchun qo'shimcha ravishda kesilishga tekshiriladi.

$$\left. \begin{aligned} \sigma_{\text{oz}} &= \frac{2T}{[d(h-t_2)l]} \leq [\sigma_{\text{oz}}] \\ \tau_{\text{kes}} &= \frac{2T}{(db\ell)} \leq [\tau_{\text{kes}}] \end{aligned} \right\}$$

bu erda b – shponkaning eni.

Tsilindrsimon shponka. Standart asosida tayyorlanib o'yiqa ma'lum darajada tig'izlik bilan o'rnatiladi. Bunday shponkalar valning tayanch uchi kalta bo'lgan hollarda ishlatilib uzunligi $l \approx (3 \dots 4)d_{sh}$; diametri $d_{sh} \approx (0,13 \div 0,16)d$ olish tavsiya etiladi. Tanlangan shponkani ezilishga tekshiriladi.

$$\sigma_{\text{oz}} = \frac{4T}{d_u \cdot \ell \cdot d} \leq [\sigma_{\text{oz}}]$$

bu erda: d_{sh} - shponkaning diametri;
 d - valning diametri.

Shponkaning sonini uzatilayotgan momentiga nisbatan quyidagicha aniqlash mumkin.


$$z = \frac{16T}{\pi d d_u l [\sigma_{\text{oz}}]}$$


Standart bo'yicha tayyorlanadigan shponkalar uchun mustaxkamligi 500 MPa dan kam bo'lmagan uglerodli va legirlangan po'lat materiallar ishlatiladi. Ruxsat etilgan kuchlanishlarning qiymati ish rejimiga, val xamda vtulka materiallarning mustaxkamligiga bog'liq bo'lib qiymatlarini quyidagicha olish tavsiya etiladi.

Birikmada gubchak po'lat materialdan tayyorlangan bo'lsa, $[\sigma_{\text{oz}}] \approx 120$ MPa; gubchak cho'yan materialdan tayyorlangan bo'lsa, $[\sigma_{\text{oz}}] \approx 70$ MPa. Yuklanish zarb bilan ta'sir bo'lganda bu qiymat 50 % kamaytiriladi.

Shlitsli birikmalar.

Valning sirtida va unga o'rnatilgan detall gupchagi teshigining sirtida ariqchalar o'yilib, detallardan birining chizig'i, ikkinchisining botig'iga tushadigan qilib o'rnatilsa, shlitsli birikma xosil bo'ladi. Bunday birikmalarda shponkali birikmalardagiga nisbatan quyidagicha afzalliklari bor: birinchidan detallar valda yaxshi markazlanadi, kerak bo'lganda ularni val o'qi bo'ylab suriladigan qilib o'rnatish xam mumkin; ikkinchidan o'lchamlari bir xil bo'lgan birikmalarda shlitsli birikmalar shponkali birikmalarga nisbatan katta burovchi moment uzata olishi mumkin; uchinchidan yuklanish zarb bilan bo'lganda xam ishda ishonchli.





Shlitsli brikmalarning barcha o'lchamlari standartlashgan bo'lib, shakli to'g'ri to'rt burchakli evolventa va uchburchakli bo'lishi mumkin. Bulardan eng ko'p tarqalgani to'g'ri to'rtburchak shaklli shlitslardir.

To'g'ri to'rtburchak tishli shlitsli birikmalarda detallar shlitslarning tish osti va tashqi diametri bo'yicha yoki yon tomonlari bilan markazlashtiriladi (a,b,v.-rasm), xamda jadvaldan burovchi momentga nisbatan tanlanadi.

Markazlashtirish D yoki d bo'yicha bo'lsa gubchak va val o'qlarini o'qdoshligi yon bo'yicha markazlashtirganga nisbatan yaxshi bo'ladi. Yon yoqlari bilan markazlashtirish ish sharoiti og'ir bo'lgan xollarda tavsiya etiladi, chunki bunda tishlarga yuklanish nisbatan bir tekisda yuklanadi.

Bu birikmalar standart asosida uch xil seriyaga bo'linadi, engil seriya ($Dq26... 120$ mm, tishlar soni $Zq6;8;10$), o'rtacha seriya ($Dq14...125$ mm, tishlar soni $Zq6;8;10$), og'ir seriya ($Dq20...125$ mm, tishlar soni $Zq6;10;20$).

Asosan engil seriya qo'zg'almas birikmalarda ishlatiladi. O'rta seriya qo'zg'aluvchan birikmalar, og'ir seriya esa burovchi moment katta bo'lganda qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan xolda ishlatiladi.

Evolventa shaklli shlitsli birikmalarni standart asosida yon tomonlari bilan markazlashtiriladi, kamdan-kam tashqi diametri bo'yicha markazlashtiriladi. Bu birikmalar to'g'ri to'rtburchakli birikmalarga nisbatan shlitslarni nisbatan kupligi xisobiga anikligi, mustaxkamligi yuqori. Kesish texnologiyasi engil, nisbatan arzon. Shuning uchun bunday birikmalar keng tarkalgan. Bu birikmalar xam qo'zg'almas yoki qo'zg'aluvchan bo'lishi mumkin.

<p>Uchburchak shlitsli birikmalar, nisbatan katta bo'lmagan momentlarni uzatish uchun qo'zg'almas birikma shaklida ishlatiladi. Shlitslarni sonlari 70 tagacha bo'lishi mumkin. Markazlashtir faqat yon tomonlari bilan bo'ladi. Asosan asbobsozlik sanoatida kup ishlatiladi.</p>	
<p>To'g'ri to'rt burchakli shlitslarni hisobi, rasm Bunday shlitsli birikmalarni ishlatish darajasi eyilishga xamda ezilishga chidamliligi bilan belgilanadi. Jadvaldan valning diametriga nisbatan standart asosida tanlab olinadi va ezilish va eyilishlarga kuchlanishlarni xisobiy qiymatlari aniqlanib, ruxsat etilgan qiymat bilan solishtiriladi.</p>	

Ezilishga xisoblash. Xisobiy kuchlanishni qiymati quyidagicha aniqlanadi.

$$\sigma_{\sigma_3} = \frac{M}{(S_F l)} \leq [\sigma_{\sigma_3}]$$

bunda: M- uzatilayotgan aylanuvchi momenti, S_F – valning o'qiga nisbatan olingan ishchi yuzaning umumiy statik momenti, mm³G'mm. (jadval), l – shlitsning uzunligi, mm.

-jadval

Seriya	Shlitsning o'lchamlari z x d x D	b	S _F , mm ³ G'mm
O'lchamlari, mm (- rasm)			
Engil	8x36x40	7	182
	8x42x46	8	211
	8x46x50	9	230
	8x52x58	10	440
O'rta	8x36x42	7	343
	8x42x48	8	396
	8x46x54	9	600
Og'ir	10x42x52	6	978
	10x46x56	7	1020

Eyilishga xisobi. Eyilishga chidamliligi quyidagicha aniqlanadi.

$$\sigma_{e_{\text{ül}}} = \frac{M}{S_F l} \leq [\sigma_{e_{\text{ül}}}] \quad \text{ëku} \quad \sigma_{\sigma_3} \leq [\sigma_{e_{\text{ül}}}]$$

Shlitsli birikmalar o'lchamlari uning mustaxkamlik va bikrligi bilan belgilanadi. Agarda σ_{eyl} , σ_{ez} larning xisobiy qiymatlari, puxsat etilgan $[\sigma_{\text{ez}}]$, $[\sigma_{\text{eyl}}]$ qiymatlaridan 5 % ga ohsa l uzunlikni oshiradi yoki boshqa seriya olinadi.

Ruxsat etilgan kuchlanishlar. Yuzasi toblanmagan qo'zg'almas shlitsli birikmalar uchun $[\sigma_{\text{ez}}]$ q30÷70 MPa, toblangan bo'lsa $[\sigma_{\text{ez}}]$ q80÷180 MPa, yuzasi toblan o'q bo'yicha xarakatlanuvchi birikmalar uchun $[\sigma_{\text{ez}}]$ q5÷15 MPa.

Eyilishga ruxsat etilgan kuchlanish qiymati ishga yuzaning termik qayta ishlanishiga xamda qattiqligiga bog'liq bo'lib, termik qayta ishlanish yaxshilanish bo'lganda σ_{eyl} q0,032 NV, toblash bo'lganda σ_{eyl} q0,3 NRS

Nazorat savollari

1. Ajraluvchan birikmalar qanday turlarga bo'linadi?
2. Rezbalar qanday turlarga bo'linadi?
3. Uzel hosil qilish uchun qanday rezbalar ishlatiladi.
4. Shponkalar qanday turlarga bo'linadi.
5. Birikmalar qanday materiallardan tayyorlanadi.
6. Qanday xollarda o'litsli birikmalar ishlatiladi?

23-mavzu.	Ajralmas birikmalar. Turlari. Mustaxkamlikka xisoblash.
------------------	--

23.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Birikmalarni mashina va mexanizmlardagi moxiyati. Turlari. 2. Ajraluvchan birikma turlari. Mustaxkamlikka xisoblash.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Birikmalar va ajraluvchan birikma to'g'risida to'liq ma'lumot beriladi. Birikma elementlarini mustaxkamlikka tekshirish bo'yicha to'liq tasavurni shakillantiradi.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Birikmalarni turlari to'g'risida ma'lumot beradi; - Ajraluvchan birikma to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi; - Birikma elementlarini mustaxkamlikka tekshirib ko'riladi.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Birikma to'g'risida ma'lumot beradi; - Ajraluvchan birikma turlari to'g'risida fikr bildiradi; - Ajraluvchan birikma elementlarini mustaxkamlikka xisoblashni tushuntirib beradi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, targatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamo'a va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - Birikmalarni mashina va mexanizmlarda moyiyati. - Ajraluvchan va ajralmas birikma. 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etiradi. - Ajralmas birikma turlari eskiz sxemasi. - Ajralmas birikma elementlarini mustaxkamlikka xisoblash 2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarni takidlaydi.	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Ajralmas birikma turlarini o'zaro muxokama qiladi. 2.3. Savol berib asosiy joylarini yozib oladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mustaqil ish uchun vazifa: "Ajralmas birikma"ni so'ziga klaster tuzish vazifa beradi, baholaydi	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. yozib oladilar


Vizual materiallar.

1-ilova.

1-savol. Ajralmas birikma moyiyati

Bu shunday birikmaki, bunda mashina uzellarini ayrim qismlarga ajratish uchun birikma elementlarini sindirish, tiklash uchun esap qayta ishlash kerak bo'ladi.

2-savol. Ajralmas birikma turlari.



Mashg'ulot bo'yicha xulosa

1. Talaba mashina va mexanizmlarda birikma ishlatish maqsadi to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi.
2. Ajralmas birikma turlari bilan tanishadi.
3. Ajralmas birikmalarni mustaxkamlikka xisoblash asosida o'rganadi.

Payvand birikmalar.

Payvand birikmalar ajralmas birikmalarning asosi bo'lib, ulardan mashinasozlikda va qurilishlarda keng ko'lamda foydalaniladi. Chunki payvand birikmalarda boshqa ajralmas birikmalardagiga qaraganda birmuncha afzalliklari bor, masalan birikma kam mehnat talab qilishi bilan birga, metallni tejashga imkon beradi. Bundan tashqari, murakkab shakilli yirik cho'yan quymalar o'rniga payvand birikma vositasida tayyorlangan engil po'lat detallar ishlatilishi, materialni 30-40% tejashga imkon beradi.

Payvandlashni suyuqlantirib va bosim ostida payvandlash usullariga bo'linadi.

Suyuqlantirib payvandlashga elektr yoyi, elektroshlok usulida, gaz alangasida, elektron nuri yordamida plazma, lazer nuri yordamida va boshqa payvandlash usullari kiradi.

Bosim ostida payvandlashga kontakt usuli, ishqalab, portlash, sovuqlayin va boshqa usullar kiradi.

Sanoatda asosan elektr yoyi yordamida, gaz alangasini yordamida xamda kontakt usulida payvandlashlar ko'p ishlatiladi.

Elektr yoyi yordamida payvandlashda maxsus elektroddan (ustki qismi suyuq shisha aralashmasi qoplangan metall sterjen) foydalaniladi. Payvandlash jarayonida erigan metal chok xosil qiladi, bunda sterjen ustidagi aralashma erib chokni ustini qoplaydi (flyusi) bu esa xavo tarkibidagi kislorod va azotdan chokni saqlaydi, natijada chok sifatli bo'ladi.

Dastaki yordamida kam, o'rtacha uglerodli po'lat materiallarni payvandlashda E34, E42, E42A, E46, E46A va boshqa markali elektrodlar ishlatiladi. E xarfi keyingi sonlar mustaxkamlik chegarasini eng kichik qiymatni bildiradi. Masalan E46A mustaxkamlik chegarasi σ_{mq460} MPa, A xarfi payvand chok sifatli ekanligini bildiradi.


Dastaki yordamida kalta, noqulay joylashgan choklarni xosil qilishda foydalaniladi. Katta seriya bilan tayyorlanadigan konstruksiyalarni xosil qilishda avtomatik chok xosil qiluvchi uskunalarda foydalaniladi, bunda unumdorligi dastaki yordamiga bajarilgan ishga nisbatan 10÷20 maratagacha oshadi.

Kontakt payvandlashda – biriktiriladigan joyda kerakli darajada tok yordamida qizdiriladi, bunda ulanadigan joyi plastik xolatga keladi, unda detallar ma'lum kuch bilan siqilganda payvand chok xosil bo'ladi.

Detallarni o'zaro uchma-uch, ustma-ust va burchak ostida payvandlash mumkin.

Payvand choklar shakliga qarab ustma-ust va burchakli choklarga bo'linadi.

Uchma-uch payvandlash. Detailarning bir tekislikda joylashgan ikki uchini bir-biriga uchma-uch payvandlash natijasida hosil bo'lgan payvand chok uchma-uch payvand chok deyiladi. Odatda, ulanadigan detailarning uchlariga mahsus ishlov berib, payvandlash uchun tayyorlanadi.




Payvand choklarning mustahkamligini hisoblashda chokning ko'ndalang kesimida ta'sir etayotgan kuchlanish qiymati uning hamma nuqtalarida bir xil deb qabul qilinadi va bu kuchlanishning qiymati payvand chokka ta'sir qiluvchi kuchlarga nisbatan quyidagicha aniqlanadi.

$$\sigma'_2 = \frac{F}{\delta l_2} \leq [\sigma'_2]$$

bu erda: F- cho'zuvchi kuch, N; σ'_2 - cho'zilishdagi kuchlanishni xisobi qiymati; δ - chokning qalinligi, mm; l - chokning uzunligi, mm.

Ustma-ust payvandlash. Ulanish lozim bo'lgan ikki detalning,


masalan, listning biri ikkinchisi ustiga qo'yib payvandlansa, ustma-ust chok hosil bo'ladi. Bunday hollarda payvand chokning ko'ndalang kesimi uchburchak shaklida bo'ladi va burchakli yoki valiksimon chok deb ataladi. Chokning shakli normal, botiq va qabariq bo'lishi mumkin.



Qabariq chok detalning ulangan joyidagi kesimini sezirarli darajada o'zgartiradi, bu esa, o'z navbatida shu erda kuchlanishlarning qo'shimcha to'planishiga sabab bo'ladi. Ana shu nuqtaiy nazarda, choklarning botiq bo'lgani yaxshi. Ammo choklarni botiq qilish qo'shimcha mehnat talab etadi. Shuning uchun aksaryat choklar normal shaklda tayyorlanadi. Lekin o'zgaruvchan kuch ta'sir etadigan hollarda chokning botiq qilib tayyorlash tavsiya etiladi. Burchakli choklarni asosiy xarakterli o'lchamlari bu uning kateti va balandligi. Chokning balandligi uning katetiga bog'liq bo'lib, quyidagicha $h \approx 0,7K$ aniqlanishi mumkin.

Qalinligi $\delta \geq 3$ mm bo'lgan listlar uchun katet K ning eng kichik qiymati 3 mm bo'lishi mumkin. Detallarni ustma-ust payvandlashda choklarni ta'sir etayotgan kuch yo'nalishiga tik, parallel, ma'lum burchak hosil qilib joylashtirish mumkin, birinchi holda payvand chok ro'para chok deb ikkinchi holda-yonbosh chok, uchinchi holda esa qiyshiq chok deb ataladi.

Yonbosh payvand chok. Bunday choklarda asosiy kuchlanish chokning m-m kesimidagi urinma kuchlanishidir (24-rasm). τ - kuchlanishni chokning uzunligi bo'yicha taqsimlanishi, payvandlangan detallarning bikrligiga bog'liq. Agarda bu bikrlilik bir xil bo'lsa kuchlanish bir tekis taqsimlanadi, har xil bo'lganda notekis taqsimlanadi.



Shuningdek, yonbosh chok qanchalik uzun bo'lsa, kuchlanishni xam shunchalik notekis taqsimlanadi, shuning uchun chokning uzunligini $l \leq 50k$ olish tavsiya etiladi.


Cho'zuvchi kuch ta'sirida yonbosh choklardagi kuchlanish qiymat quyidagicha aniqlanadi:

$$\tau = F / (2l \cdot 0,7 \cdot K) \leq [\tau^1]$$

bu erda: 0,7 –chokning m-m kesim bo'yicha qalinligi.

Yonbosh choklar nosimmetrik bo'lganda 25-rasm chokning uzunligini shu chokdan detalning og'irlik markazigacha bo'lgan masofani teskari proportsional tarzda olinadi, ya'ni

$$l_1 / l_2 = e_2 / e_1$$





bunda har ikki tomonidagi choklarda kuchlanish qiymati bir xil bo'lib, qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$\tau = F / [0,7k(l_1 + l_2)] \leq [\tau^1]$$

O'zaro tik qilib payvandlash. Bunday payvandlashda detallar o'zaro uchma-uch (b) yoki burchakli chok (a) yordamida biriktiriladi. Payvandlash dastagi yordamida bajarilsa burchakli chok hosil bo'ladi va cho'zilish va moment ta'siridan mustahkamligi quyidagicha aniqlanadi (rasm,a).

$$\tau = 6M / (2l^2 \cdot 0,7K) + F / (2l \cdot 0,7 \cdot K) \leq [\tau^1]$$

Payvandlash avtomatik ravishda bajarilsa uchma-uch chok hosil bo'ladi, bunda chokning mustahkamligi quyidagicha aniqlanadi (b-rasm): $\sigma = 6M / (\delta \ell^2) + F / (\delta \ell) \leq [\sigma^1]$



Kontaktli payvandlash usuli. Listlar ustma-ust kontaktlanib payvandlansa, chokning mustahkamligi listning mustahkamligiga teng bo'ladi. Shuning uchun bunday hollarda chokni alohida hisoblab o'tirishga hojat qolmaydi.

Listlar ustma-ust ikki xil usulda payvandlanishi mumkin, bulardan biri nuqtaviy, a-rasm ikkinchisi lentaviy, b-rasm payvandlash usullaridir.

Nuqtaviy payvandlashda listlarning payvandlanadigan qismlari ustma-ust qo'yiladi va bir necha nuqtasida biriktiriladi. Bunda har bir nuqtaning diametri listning qalinligiga nisbat tanlanadi, ya'ni:

agarda $\delta \leq 3$ mm bo'lsa $d_{q1,2} \delta Q4$ mm
 agarda $\delta > 3$ mm bo'lsa $d_{q1,5} \delta Q5$ mm

Nuqtali payvand chok orasidagi va qirralardan eng chetidagi nuqtalargacha bo'lgan masofa quyidagicha olinadi (27- rasm,a).

$$t = 3d, \quad t_1 = 2d, \quad t_2 = 1,5d$$

Nuqtaviy payvand birikma kesimidagi kuchlanish


$$\tau = 4F / (z \cdot i \pi d^2) \leq [\tau^1]$$

bu erda: z - payvand nuqtalar soni; i - har bir nuqtadagi qirqilish mumkin bo'lgan tekisliklar soni.

Kontaktli payvandlashning lentaviy turi listlarning biriktirilgan qismlarida lenta shaklidagi chok hosil qilishidan iborat. Bunda chokdagi kuchlanish quyidagicha aniqlanadi:

$$\tau = F / v \ell \leq [\tau^1]$$

Bu erda: v - payvand chokning eni; ℓ - chokning uzunligi. Bunday birikmalarda nuqtaviy payvand birikmaga nisbatan kuchlanish to'planishi kam bo'ladi.



Payvand choklarning mustahkamligi va ruxsat etilgan kuchlanish.

Payvand choklarining mustahkamligiga ko'p narsalarga bog'liq masalan, o'zaro – payvandlanayotgan detal materialining sifati va, payvandlash texnologiyasi, payvandlash turi, ta'sir etayotgan kuchning o'zgaruvchan yoki o'zgarmasligiga.

Cho'yan, rangli metall qorishmalari, ko'p uglerodli po'lat materiallarni payvandlash nisbatan qiyin, kam yoki o'rtacha uglerodli po'lat materiallarni esa payvandlash engil.

Payvandlanganda choklar avtomatik ravishda bajarilgan bo'lsa, bunday choklarning mustahkamligi dastaki yordamidaolingan chokka nisbatan mustahkam bo'ladi.

jadvalda kam, o'rta uglerodli hamda kam legirlangan (14GS, 15GS, 15XSND, 09G2, 19G) materiallar uchun yuklanish ta'sir o'zgarmas bo'lgan payvand birikmalar uchun ruxsat etilgan kuchlanish qiymatlari berilgan.

jadval

Payvandlash usuli	Chokdagi ruxsat etilgan kuchlanishlar		
	$[\sigma_2^1]$	$[\sigma_0^1]$	$[\tau^1]$
E42A yoki E50A elektrodleri bilan dastlabki yordamida va flyusqatلامي ostida avtomatik payvandlanganda, uchma-uch hamda kontaklab payvandlash.	$[\sigma_2]$	$[\sigma_2]$	$0,65$ $[\sigma_2]$
E42 yoki E50 elektrodleri bilan dastlabki yordamida; gaz vositasida payvandlanganda.	$0,9[\sigma_2]$	$[\sigma_2]$	$0,6$ $[\sigma_2]$
Kontaktlab nuqtaviy va tasmali payvandlash.	-	-	$0,5$ $[\sigma_2]$

Parchin mixli birikmalar.

Parchin mixlar asosan diametri 20 mm dan ortiq bo'lmagan po'lat, mis, alyuminiy simlaridan tayyorlanadi. Bunday simlarni uchi parchalanib, ma'lum shakldagi kallakka aylantirilsa, parchin mix hosil bo'ladi. Parchin mixlar katta kichikligiga qarab, sovuqlayin yoki qizdirilib tayyorlanadi. Rangli metallardan yasalgan barcha parchin mixlar hamda diametri 12 mm gacha bo'lgan po'lat parchin mixlar sovuqlayin, diametri 12 mm dan katta bo'lganlar esa qizdirilgandan keyin parchalanadi.

Ulanadigan qismlarda teshiklar hosil qilish uchun parma yoki pressdan foydalaniladi.

Parchin mixlar yordamida xosil bo'lgan birikmalar quyidagi turlarga, ya'ni mustaxkam, mustaxkam-jips xamda jips choklarga bo'linadi. Hozirgi vaqtda mustaxkam-jips hamda jips choklar o'rniga payvand choklar ishlatilganligi uchun asosan mustaxkam choklarni hisoblashni ko'ramiz.

Parchin mixlar (o'lchamlari) standartlashgan. Kam yuklangan birikmalarda

xamda elastik materiallarni biriktirishda o'rtasi teshik parchin mixlar-pistonlar ishlatiladi. O'rnatish qulay bo'lishi uchun parchin mixning diametri teshikning diametridan kichikroq qilinadi.

Parchin mixli birikmalarda choklar bir, ikki va shaxmat qatorli qilib o'rnatilishi mumkin. Shuningdek birikma bir kesimli, ikki kesimli hamda ko'p qismli bo'lishi mumkin.

Parchin mixli choklarni mustahkamlikka hisoblash. Parchin mixli birikmalarning mustahkamligi parchin mix sterjeni kesimining kesilishdagi kuchlanishga, sterjen yuzasining ezilishdagi kuchlanishga hamda o'zaro biriktirilgan listlarning cho'zilishdagi kuchlanishga chidamliligi bilan belgilanadi.

Ustma-ust parchin mix yordamida biriktirilgan birikmani ko'ramiz. Bunda d_0 - parchin mix diametri biriktiriladigan listlarning qalinligiga bog'liq bo'lib, kesimli birikmalar uchun $d_0 \approx (1,8 \div 2,0)\sigma$, ikki kesimli birikmalar uchun $d_0 \approx (1,2 \div 1,8)\sigma$; σ -biriktiriladigan detallarning qalinligi: samolyotsozlikda $d \geq 2\sqrt{\sigma}$; t - parchin mixlar o'rtasidagi masofa; bu masofa bir kesimli birikmada $3d$, ikki kesimli birikmada $3,5d$; F, t - masofaga ta'sir qiluvchi kuch; $[\tau_k]$ - parchin mix sterjeni uchun ruxsat etilgan kesimdagi kuchlanish; $[\sigma_{33}]$ - parchin mix sterjeni bilan biriktirilayotgan detallar o'rtasidagi ezilishdagi kuchlanish; $[\tau_k^1]$ biriktirilayotgan listlar uchun ruxsat etilgan kesimdagi kuchlanish; ℓ - parchin mixdan chokning chekkasigacha bo'lgan masofa, hamma gurux choklar uchun $\ell \geq (1,5 \dots 2,0)d_0$

Rasmda berilgan parchin mixli birikmaning mustahkamlik sharti.

a) Parchin mix sterjenida kesilishdagi kuchlanishni xisobiy qiymati:

$$\tau_k = F / [\pi(d_0^2 / 4)] \leq [\tau_k]$$


b) Parchin mix sterjen sirti bilan biriktirilayotgan detallar o'rtasidagi ezilishdagi kuchlanishni xisobiy qiymati:

$$\sigma_{33} = F / (d_0 \sigma) \leq [\sigma_{33}]$$

v) Biriktirilayotgan listlarning 1-1 kesim bo'yicha cho'zilishdagi kuchlanishni hisobiy qiymati.

$$\sigma_2 = F / [(t - d_0)] \leq [\sigma_2]$$

Parchin mixlar asosan po'lat, mis, alyuminiy kabi materiallardan tayyorlanadi. St0, St2 po'lat materiallardan tayyorlangan parchin mixlar uchun ruxsat etilgan kesilishdagi kuchlanish $[\tau_k] = 100 \div 140$ MPa, ezilishdagi ruxsat etilgan kuchlanish $[\sigma_{33}] = 240 \div 280$ MPa.



Nazorat savollari

1. Ajralmas birikma turlari.
2. Payvand birikma afzalliklari.
3. Payvand birikma turlari.
4. Parchin mixli birikmalarni so'zlab boring.
5. Parchin mixlar qanday materiallardan tayyorlanadi.

24-mavzu.	Muftalar. Turlari. Tanlash. Mustaxkamlikka xisoblash.
------------------	--

24.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 50-70 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Muftalar. Turlarini tanlash. 2. Elastik elementli muftalarni tanlash va elementar xisoblash. Tekshirish.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Muftalarni vazifasi, tanlash, ilshatilishi to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Mufta elementlarini mustaxkamlikka xisoblash to'g'risida ma'lumotlar beradi..	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Mashina va mexanizmlarda muftalarini ishlatish moxiyati, turlari bilan tanishtiradi; - Mufta turlari va qanday xolatlarda ishlatilishini tushuntiradi.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Muftalarni ishlatish sabablarini tushuntirib beradi, tanlashga e'tibor beradi; - Mufta turlarni aytib beradi; - Mufta element o'lchamlarni mustaxkamlikka xisoblashni sabablarini tushuntiradi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, blits-so'rov, klaster, kontseptual jadval.
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r
O'qitish shakli	Individual, frontal, umumjamoa va juftlikda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Proektor, kompyuter bilan jihozlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi


Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotda kutilgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalar e'tiborni jalb etish va bilim olish darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi.	2.1. Eshitadi. O'ylab javob beradi. Javob beradi va to'g'ri

	<p>- Mashina va mexanizmlarda qanday muftalar ishlatiladi.</p> <p>- Muftalar qanday sharoitlarda ishlatiladi.</p> <p>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishni davom etiradi.</p> <p>- Mashina va mexanizmlarda muftalarni ishlatilish sabablarini, moxiyatini, turini tushuntirish.</p> <p>2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarni takidlaydi.</p>	<p>javobni eshitadi.</p> <p>2.2. Muftalarni turlarini o'zaro muxokama qiladi.</p> <p>2.3. Savol berib asosiy joylarini yozib oladi.</p>
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mustaqil ish uchun vazifa: "Mufta turlari" so'ziga klaster tuzish vazifa beradi, baholaydi	3.1. Eshitadi. aniqlashtiradi. yozib oladilar


Vizual materiallar.

1-ilova.

1-savol. Muftalar. Turlari. Tanlash.



2-savol. Elastik elementli muftalarni tanlash va elementlarni mustaxkamlikka xisoblash.



Mashg'ulot bo'yicha xulosa

1. Mashina va mexanizmlarda muftalar ishlatish sabablarini tushuntiradi.
2. Ishlash sharoitiga nisbatan muftalar tanlash yo'llarini baxolaydi.
3. Elastik elementni mufta turlari va element mustaxkamlikka xisoblashni o'rganadi.

2-ilova.

MUFTALAR

Muftalar val, truba va shunga o'xshash detallarning uchlarini o'zaro ulash uchun ishlatiladi va mexanik, elektrik, gidravlik turlarga bo'linadi. Mashina detallari kursida faqat vallarga mo'ljallangan mexanik muftalargina o'rnatiladi. Bunday muftalarning asosiy vazifasi vallarni o'zaro birlashtirish bilan birga, ularning biridan ikkinchisiga buruvchi moment uzatishdan iboratdir. Muftalar vazifasi hamda tuzilishiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi.

1. Doimiy biriktiriladigan muftalar; bunday muftalardan foydalanilganda mashinaning ishini to'xtatmay turib, vallarni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.


2. Boshqariladigan ulovchi muftalar; bunday muftalar vositasida mashina ishini to'xtatmagan holda, zarur bo'lgan hollarda vallarni ulash yoki ajratish mumkin.

3. O'z-o'zini boshqaruvchi (avtomatik) muftalar; bunday muftalar, mashinaning normal ishlashi uchun talab qilingan sharoit ta'minlanmagan hollarda avtomatik ravishda vallarni bir-biridan ajratadi va talab qilingan normal sharoit yaratilishi vallar mufta vositasida avtomatik ravishda yana ulanadi.

Quyida mashinasozlikda keng ko'lamda ishlatiladigan asosiy muftalarning ishlashi, tuzilishi va ularni hisoblash usullari bilan tanishib chiqamiz.

Doimiy biriktirilgan muftalar.

Muftalarning bu turkumiga vallarni bir-biriga nisbatan biror yo'nalishda siljishga yo'l qo'ymaydigan qilib biriktiradigan qo'zg'almas muftalar hamda vallarning turli yo'nalishda siljishiga ma'lum darajada imkon beradigan qo'zg'aluvchan muftalar kiradi. Bu xil muftalarning eng oddiyi vtulkali va flanetsli muftalardir.



Muftalar valning diametri hamda uzatilayotgan burovchi momentga nisbatan tanlanadi.

Vtulkali muftalar. Bunda val uchlariga vtulka kiygizilgan bo'lib, vtulka val bilan shtif, shponka yoki shlits yordamida biriktirilgan bo'ladi (a,b,v).

Bunday muftalar valning diametri 70 mm gacha bo'lganda ishlatiladi. Vtulka konstruksion po'lat materialdan tayyorlanib o'lchamlari quyidagicha olish tavsiya etiladi: $D \text{ q } (1,5 \dots 1,8)d$, uzunligi $Lq(2,5 \dots 4)d$. d -valning diametri. Muftaning o'lchamlari standartlashtirilgan.

Flanetsli muftalar. Val uchlariga o'tkazilgan ikkita yarim flanetsli muftalar boltlar yordamida mahkamlanadi. Bunda bir valdan ikkinchi valga harakat shu flanets yuzidan ishqalanish hisobiga o'tkaziladi. Bu xil muftalar 40, 35L markali po'lat materiallardan tayyorlanib o'lchamlari quyidagicha: $Dq(3 \dots 3,5)d$. Umumiy uzunligi $Lq(2,5 \dots 4)d$. d -valning diametri. Boltlarning soni $z \text{ q } 4 \dots 6$. Mufta standartlashtirilgan bo'lib, valning diametri 12. ..220 mm, uzata oladigan momenti 45000 N.m gacha bo'lishi mumkin.

Yarim flanetsli muftalarni o'zaro biriktirish uchun ishlatilgan boltlar bo'shliq bilan o'rnatilganda moment shu flanetslar yuzidagi ishqalanish hisobiga uzatiladi, bunda boltni mahkamlash uchun kerakli kuchning qiymati quyidagicha aniqlanadi.

$$T = \frac{F \cdot f \cdot D_0 \cdot z}{2 \cdot S} \quad \text{bundan} \quad F = \frac{2T \cdot S}{D_0 \cdot z \cdot f}$$

bu erda: F - boltni mahkamlash uchun kerakli kuchning qiymati; $S \text{ q } 1,2 \dots 1,5$ xavfsizlik koeffitsienti; D_0 -bolt o'rnatilgan aylana markazi; z -boltlar soni; $f \text{ q } 0,15 \dots 0,2$ -ishqalanish koeffitsienti.

Bolt bo'shliqsiz o'rnatilganda burovchi moment bolt yordamida uzatiladi, bunda bolt kesimi kesilishiga tekshiriladi.

$$\tau_{\kappa} = \frac{4F_t}{(z \cdot \pi d^2)} \leq [\tau]$$

Yuqorida ko'rib chiqilgan muftalarning tuzilishi vallarning aniq o'qdosh bo'lishini, ishlash jarayonida esa muayyan bir vaziyatni egallashni talab qiladi. Bu talabni qanoatlantirish esa qiyin, chunki tashqi kuch ta'sirida val egilishi mumkin. Buning oldini olish uchun, ya'ni ish jarayonida valning kichik oraliqqa siljishini va uning natijasida hosil bo'ladigan qo'shimcha dinamik kuchlarning ishga salbiy ta'sirini ma'lum darajada yo'qotish maqsadda kompensatsiyalovchi muftalar ishlatiladi.

Elastik elementli muftalar.


Muftalarning bunday turi ishlatilganda, vallarning o'qdoshligi qat'iy bo'lmasligi mumkin, hamda ishlash jarayonida hosil bo'lib turadigan qisqa muddatli o'ta yuklanishning hamda dinamik kuchlarning mexanizm ishiga salbiy ta'sirini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Bundan tashqari, elastik elementli muftalardan foydalanilganda vallarda rezonans hodisasi deyarli sodir bo'lmaydi.

Mufta tarkibida elastik elementlar metallmas hamda metalli materiallardan tayyorlanishi mumkin.

Metallmas materiallarning eng asosiylaridan biri bu rezina bo'lib, yuqori darajada elastiklikka ega, nisbiy deformatsiyasi ε q 0,7 -0,8, metallga nisbatan 10 martagacha tashqi zarb kuchlarini so'ndirish xususiyatiga ega. Lskin ishlash muddati qisqa, mustahkamligi esa kam. Bu esa uning tashqi o'lchamlarini katta bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ularni katta moment uzatiladigan muftalarda ishlatish tavsiya etilmaydi.

Quyida ana shunday muftalardan ba'zilarining tuzilishi hamda hisoblash masalalari bilan tanishib chiqamiz.

Vtulka-barmokli mufta - bu elastik elementli metallmas materialdan tayyorlangan kompensatsiyalovchi mufta bo'lib, boshqa turdagi muftalarga nisbatan ko'p ishlatiladi (3-rasm). Yarim muftalar bir uchida rezba, ikkinchi uchida esa elastik materialdan tayyorlangan vtulka yoki ko'ndalang kesimi trapetsiya shaklida bo'lgan bir necha halqa o'rnatilgan barmoqlar yordamida biriktiriladi. Mufta o'lchamlari normallashtirilgan (D q 150mm, T q 15000 Nm gacha) bo'lib, vtulka yoki halqa kesimining balandligi unchalik katta bo'lmaganligi tufayli, kichik qiymatli (Δ_{ch} q 0,3..0,6, $\Delta\alpha$ q 1° gacha, Δa q 1-3mm) siljishlarga imkon beradi 10.3 - rasm.




Bunday muftalar ko'pincha, elektr dvigatel vali bilan yuritma valini biriktirish uchun ishlatiladi.

Mufta burovchi momentga nisbatan jadvaldan olinib, barmoqlar egilishga, elastik elementi esa ezilishga tskshtiriladi.

$$\sigma_{zz} \leq \frac{2T_k G'}{Z(d_1 D_1)} \leq [\sigma_{zz}]$$

bu erda: Z - barmoqlar soni; $[\sigma_{zz}]$ q 1,8..2,0 MPa .



Elastik elementli yulduzsimon ko'rinisdagi kompensatsiyalovchi mufta ko'rsatilgan. Yarim muftalardagi o'yiqlarida joylashadigan yulduzsimon ko'rinisdagi elastik element siqilishdagi kuchlanishga tekshiriladi.

Bu xil muftalarning o'lchamlari standartlashtirilgan bo'lib, asosan tez xarakatlanuvchi vallarni (n q 3000...6000 min^{-1} gacha, T_{q3} ..120 N.m, d_{q12} ..45 mm) biriktirish uchun ishlatiladi. Mufta yordamida vallarni radial siljishini $\Delta_{ch} \leq 0,2$ mm gacha, burchak siljishini $\Delta \alpha \leq 1^{\circ}30'$ gacha kompensatsiyalash mumkin. Mufta asosiy o'lchamlari o'rtasida quyidagicha bog'lanish mavjud:

$$D \approx 2,5d; d^1 \approx (0,55 \dots 0,5)D;$$

$$h \text{ q } (0,3 \dots 0,22)D$$


Ish jarayonida elastik elementda hosil bo'lgan ezilishdagi kuchlanish qiymati quyidagicha aniqlanadi.

$$\sigma_{\text{ez}} \text{ q } 24DT G' (zh(D^3 - d^1)) \approx [\sigma_{\text{ez}}]$$

bu erda: z - yulduzcha tishlari soni; $[\sigma_{\text{ez}}]$ q 2...2,5 MPa.

Elastik elementlari metall materiallardan tayyorlangan muftalar katta burovchi moment uzatish bilan birga, uzoq muddat ishlay oladi hamda tashqi o'lchamlarini kichik qilib tayyorlash mumkin. Bunda elastik elementlar o'zgarmas yoki o'zgaruvchan bikrlilik bilan tayyorlanadi.

Elastik elementli metallardan tayyorlangan (prujina) kompensatsiyalovchi mufta ko'rsatilgan. Ular maxsus shakldagi tishli ikki yarim muftadan iborat. Yarim mufta tishlari prujina vositasida bir-biriga bog'lanadi. Bu muftalar asosan og'ir mashinasiozlik sanoatida ishlatilib o'lchamlari standartlashtirilgan. Bular yordamida vallarning radial siljishini $\Delta_{ch} \leq 0,5 \dots 3$ mm, burchak siljishini





$\Delta \alpha$ q $1^{\circ}15'$, chiziqli siljishni Δa q 4...20 mm gacha kompensatsiyalash mumkin.

Tez-tez va ajratib turish talab etilgan hollarda (masalan, avtomobillarda) tishli muftalarning sinxronizator deb atalgan turidan foydalaniladi.

Sinxronizatorni ishlatishdan maqsad tishli muftalarni ilashishda hosil bo'ladigan qo'shimcha dinamik kuchlarni kamaytirish va muftaning ravon xamda nisbatan bir tekis ishlashini ta'minlashda iborat.

Friktsion muftalar.

Boshqariladigan ulovchi muftalar sifatida friktsion muftalardan ko'proq foydalaniladi, chunki bu muftalar vositasida etakchi valning xarakatini to'xtatmay, uni etaklovchi val bilan oson ulash mumkin. Bunda etakchi val, etaklanuvchi valga, uning tszligi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ulanaveradi. Bundan tashqari, mexanizmدا o'ta yuklanish hodisasi ro'y bergan taqdirda hosil bo'ladigan havfli vaziyat friktsion muftaning yarim muftalar



Ishqalanadigan sirtlarning nisbatan tez eyilishi friktsion muftalarning asosiy kamchiligidir. Friktsion muftalar ish sirtlarining shakliga ko'ra quyidagi uch gruppaga bo'linishi mumkin:

a) diskali muftalar (a,b); konussimon muftalar (v,g); v) kolodkali, lentali va boshqa muftalar.

Diskali muftalar. Bunday muftalarning eng oddiysi ishqalanish sirtlari bo'lgan ikkita yarim muftadan iborat. Yarim muftalardan biri valga 1 qo'zg'almaydigan qilib o'rnatiladi, ikkinchi esa val 2 ga o'q bo'ylab bemalol siljiydigan qilib o'rnatiladi. Vallarni bir-biriga ulash uchun, sirpanadigan yarim mufta qo'zgalmas yarim muftaga F_a kuch bilan siqiladi. Bunda hosil bo'ladigan ishqalanish kuchining momsnti quyidagicha aniqlanadi.

$$kTqF_a \cdot f_{yp}$$

bu erda: $r_{yp} = (D_1 + D_2) / 4$ - ish yuzasining o'rtacha radiusi. $D_1 / D_2 = 2 \dots 1,5$ deb olinadi.

F_a kuchning qiymatini kamaytirish uchun ko'p diskali muftalardan foydalaniladi, 9-rasm.

Ko'p diskali muftada uzatiladigan burovchi moment qiymatini ishqalanuvchi disklar soni z hamda siquvchi kuch hisobiga oshirish mumkin. Bunda F_a ning qiymati ishqalanish yuzasiga to'g'ri kelgan bosim q bilan chegaralangan (jadval).

Friktsion muftalar uchun joiz bosim va ishqalanish koeffitsienti

jadval

	q, MPa	f
Moy bilan ishlaganda		
Toblangan po'lat toblangan po'lat ustida	6...8	0,06
Cho'yan toblangan po'lat yoki cho'yan ustida	6...8	0,08
Tekstolit po'lat ustida	4...6	0,12
Metall-keramika toblangan po'lat ustida	8	0,10
Moysiz ishlaganda		
Pressllangan asbest po'lat yoki cho'yan ustida	2...3	0,3
Metall-keramika toblangan po'lat ustida	3	0,4
Cho'yan toblangan po'lat yoki cho'yan ustida	2...3	0,15

Konussimon muftalar. Bunday muftalar friktsion muftalarning bir turi bo'lib, ulardagi ishqalanish yuzalari konus shaklida (8-rasm). Yarim muftalar bir-biriga F_a kuch bilan siqilganda ularning urinish sirtida solishtirma bosim q ta'sirida ishqalanish kuchi qf hosil bo'ladi. Burovchi moment ishqalanish kuchining konus aylanasiga urinma bo'lgan tashkil etuvchisi hisobiga uzatiladi. Bu hol e'tiborga olinsa, suriladigan qilib o'rnatilgan yarim muftaning muvozanat sharti quyidagicha ifodalanadi:

$$F_a = qb\pi D_{yp} \sin \alpha, \quad kT = T_f = qfb\pi D_{yp} / 2$$

bu erda: T - burovchi momentning hisobiy qiymati; T^f - ishqalanish kuchining momenti.

Yuqoridagi tenglamalarni birgalikda echib, quyidagini hosil qilamiz:

$$kT = Tf = \frac{F_a D_{yp}}{2} \cdot \frac{f}{\sin \alpha} = F_a \cdot \frac{D_{yp}}{2} \cdot f$$

bu erda: f - G'sina keltirilgan ishqalanish koeffitsienti.

Demak, F_a ni kamaytirish uchun f ni kattalashtirish kerak. f ni kattalashtirish uchun esa α ni kichraytirish lozim. Biroq α ni haddan tashqari kichraytirish tavsiya etilmaydi, chunki bunday holda yarim muftalar bir-biriga jipslashib qolib, ularni ajratish birmuncha qiyinlashadi. Bunday holning oldini olish uchun $\alpha > r$ q arctg f shart bajarilishi kerak. Odatda $\alpha \approx 15^\circ$ bo'ladi.

Ish yuzalarini eyilishga chidamliligini ta'minlash uchun quyidagi shart bajarilishi kerak, ya'ni


$$q = \frac{F_a}{b\pi D_{yp} \sin \alpha} \leq [q]$$

Friksion muftalarning ishlatilish imkoniyati. Bu asosan bir-biriga ishqalanuvchi sirtlarning eyilishiga va issiqlikka chidamliligi bilan belgilanadi. Biroq hozirgi vaqtda bu xil muftalarni issiqlikka hamda eyilishga hisoblash ma'lum sabablarga ko'ra birmuncha qiyin. Shuning uchun hozirgi vaqtda ish yuzalarida hosil bo'ladigan solishtirma bosimga asoslangan hisoblash usulidan ko'proq foydalaniladi.

Friksion muftalar uchun ishlatiladigan materiallar friksion uzatmalar uchun ishlatiladigan materiallarning o'zidir.

Avtomatik muftalar.

Avtomatik muftalarning ishlatiladigan asosiy maqsad zarur bo'lgan hollarda vallarni bir-biridan avtomatik ravishda ajratishdir. Bu xil muftalar bir nnscha turlarga bo'linadi.



Saqlagich muftalar. O'ta yuklanish hollari ro'y berganda mashina detallarini sinab ketishdan saklash uchun saqlagich muftalaridan foydalaniladi. Bunda muftalar o'ta yuklanish sodir bo'lgan hollarda sinib ketadigan elementi bor muftalardir (8-rasm). Bu mufta shtif bilan biriktirilgan ikkita yarim muftadan iborat. O'ta yuklanish sodir bo'lganda shu shtif sinadi.

Shtifga uzatiladigan burovchi moment qiymatini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$kT = \frac{zD_1\pi d^2}{k_z \cdot 2 \cdot 4} \leq [\tau] \quad \text{yoki} \quad kT = \frac{zD_1A}{k_z \cdot 2} \leq [\tau]$$

bu erda: z- shtiflar soni; k_z – shtiflarga yuklanishni notekis taqsimlanishini hisobga oluvchi koeffitsient.

Amalda muftaga o'rnatiladigan shtiflarning soni 1 yoki 2 ta bo'ladi.

$k_z = 1,0$ bo'lganda $z \geq 1$; $k_z = 1,2$ bo'lganda $z \geq 2$

$[\tau]$ q 420 MPa toblangan St5 po'lat materialdan tayyorlangan shtiflar uchun kesilishdagi joiz kuchlanish.

Markazdan qochirma muftalar. Bunday muftalar aylanish soni ma'lum qiymatdan ortganda vallarni ulab, aylanish soni pasayganda ularni bir-biridan ajratadi, ya'ni bu muftalar aylanish sonini qiymatiga qarab, vallarni avtomatik ravishda ulab-ajratib turish maqsadida ishlatiladi. Bunday muftalardan ichki yonuv dvigateli bilan ishlaydigan mashinalarda foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda aylanishlar soni kamayib qolgan dvigatel butunlay to'xtab qolmaydi, chunki aylanish soni kamayishi bilan mufta dvigatelni yuklanishdan ozod qiladi.

Kerakli burovchi momentni uzatish uchun burchak tezligi ω ning qiymati etarli darajada bo'lishi kerak. Bu qiymat quyidagicha aniqlanadi.

$$kT \leq 0,5(F_m - F) f \cdot z \cdot D = 0,5mzdrf(\omega_1^2 - \omega_0^2)$$

bu erda: z- kolodkalar soni; f- ishqalanish koeffitsenti;

ω_0 - kolodkaning barabanga tekkuncha bo'lgan tezligi;

ω_1 - zarur bo'lgan burovchi momentni uzatishga imkon beruvchi burchak tezligi.

$F = 48 EIU G'L^3$ - prujina yordamida ta'sir etayotgan kuch;

$I = bh^3G^2$ - prujina ko'ndalang kesimining inertsiya momenti; Y- egrilik qiymati.

Mufta uchun friksion materiallar va uning hisobi boshqa friksion muftalar kabi bo'ladi.

Nazorat savollari.

1. Muftalarning vazifasi va ularni tanlash;
2. Muftalar tuzilishiga ko'ra qanday guruxlarga bo'linadi?
3. Elastik elementli kompensatsiyalovchi mufta turlari. Afzallik va kamchiliklar nimalardan iborat?
4. Boshqariladigan ulovchi muftalar, ularning turlari, afzallik va kamchiliklari nimalardan iborat?
5. Boshqariladigan friksion muftalar, turlari afzallik va kamchiliklari nimalardan iborat?
6. Avtomatik muftalar nima maqsadda ishlatiladi?

**“MASHINA DETALLARI” FANIDAN
AMALIYO T MASHG’ULOTLARIDA
O’QITISH TEXNOLOGIYASI**

1-mavzu.	Yuri	inematik xisobi
-----------------	-------------	------------------------

1.2. Amaliy mashg’ulotning o’qitish texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Yuritmaning kinematik xisobi (Amaliy mashg'ulot)
O'quv mashg'uloti rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Yuritmaning umumiy F.I.K. aniqlash. 2. Talab etilgan quvvatni aniqlash. 3. Elektrodvigatel tanlash. 4. Umumiy uzatish sonini pog'onalarga taqsimlash. 5. Har bir val uchun quvvat, aylanishlar soni, burovchi moment va burchak tezliklarni aniqlash.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Nazariy bilimlarini mustaxkamlash va kengaytirish, yuritmani kinematik xisoblashni o'rgatish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Yuritmaning kinematik xisobi to'g'risida tushincha berib, xisobni misolda bajarib ko'rsatish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Yuritmaning kinematik xisobi to'g'risida tushincha xosil qilib, hisobni olib borish ketma-ketligi bilan tanishish va misolda xisobni bajarish;
O'qitish uslubi va texnikasi	Blits-so'rov, birgalikda hisoblaymiz, "Yuritma, uzatma" so'zlariga klaster, munozara.
O'qitish vositalari	O'quv qo'llanmasi, spravochnik, proektor, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Labratoriya jihozlari va proektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi (1-mashg'ulot)

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	<ol style="list-style-type: none"> 1.1. Mavzuni, maqsadi rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: yuritma bilan bog'liq qanday terminlarni bilasiz? Ularning mazmunlarini ham bilasizmi? Mazmunining muhokamasi guruhda davom etishini e'lon qiladi. 	<ol style="list-style-type: none"> 1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradi.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	<ol style="list-style-type: none"> 2.1. Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi. Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi va o'qituvchi boshchiligida misol ishlanadi. 2.4. Talabalar bilan hamkorlikda doskada misol ishlanadi va muxokama qilinadi. 	<ol style="list-style-type: none"> 2.1. Misolni yoziladi. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. O'qituvchi savollariga javob beradilar. 2.4. Misol ishlanadi.
3-bosqich.	<ol style="list-style-type: none"> 3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni 	<ol style="list-style-type: none"> 3.1. Eshitadilar.

Yakuniy (10 min.)	baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida "Yuritmani kinematik xisobi" bo'yicha berilgan qiymatlar bo'yicha misol ishlab kelish topshiriladi.	3.2. Topshiriqni oladilar
----------------------	--	---------------------------

O'quv topshiriqlar

1- ilova.

<p>Гуруҳ билан ишлаш қоидалари</p> <p>Гуруҳ аъзоларининг ҳар бири</p> <ul style="list-style-type: none"> - ўз шерикларининг фикрларини хурмат қилишлари лозим; - берилган топшириқлар бўйича фаол, ҳамкорликда ва масъулият билан ишлашлари лозим; - ўзларига ёрдам керак бўлганда сўрашлари мумкин; - ёрдам сўраганларга кўмак беришлари лозим; - гуруҳни баҳолаш жараёнида иштирок этишлари лозим; - "Биз бир кемадамиз, бирга чўкамиз ёки бирга қутиламиз" қоидасини яхши билишлари лозим.

*** Bitta gap bilan savolga javob bering**

1. Berilgan qiymatlarga asosan yuritmani kinematik hisobini bajarish tartibi.
2. Yuritmani umumiy F.I.K.sini aniqlash.
3. El.dvigatel tanlash.
4. Umumiy uzatish sonini aniqlash va pog'onalarga taqsimlash.
5. Xar bir val uchun quvvat, aylanishlar soni, burovchi moment va burchak tezlik qiymatlarini aniqlang.

2-ilova

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (ball)

Guruh	1 topshiriq	2 topshiriq	3 topshiriq (har bir savol 0,2 ball)			Ballar yig'indisi (3,0)
	(1,0)	(1,4)	1-savol	2-savol	3-savol	
1	Yuritma nima	El. dvigatel qanday vazifani bajaradi	El. dvigatel nimaga qarab tanlanadi.	Uzatish soni nima	Yuritmaning umumiy uzatish sonini aniqlash	
2						
3						

3-ilova.

Bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar

tG'r	Tushuncha	Bilaman "Q", Bilmayman "-".	Bildim "Q", Bila olmadim "-".
1	Yuritma		
2	Uzatma		
3	Elektrodvigatel		
4	Uzatmaning F.I.K.		
5	Yuritmaning umumiy F.I.K.		

6	Uzatmaning uzatish soni		
7	Yopiq uzatma		
8	Quvvatni o'lcham birligi		
9	Burovchi moment		
10	Burovchi moment o'lchov birligi		

4-ilova

MEXANIK UZATMALARNING HISOBI

Elektrodvigatel tanlash. Yuritmalarning kinematik hisobi. Vallardagi momentlarni aniqlash.

Yuritmani loyihalash, uning kinematik o'lchamlarini hisoblashdan, bu esa o'z navbatida elektrodvigatel tanlashdan boshlanadi. Bunda quyidagi hollar bo'lishi mumkin:

1. Yuritma ishchi valning quvvati $P_{u.e}$, kVt. xamda aylanish soni n , min^{-1} berilgan bo'lsa (1-rasm), elektrodvigatel valdagi quvvat quyidagicha aniqlanadi.

$$P_1 = P_{u.e} / \eta_{ym}$$


Bu erda η_{oi} -yuritmaning umumiy F.I.K., har bir uzatma F.I.K qiymatlarning ko'paytmasiga teng. Uzatmalarni F.I.K qiymatlari jadvaldan tanlanadi.

Jadval

Uzatmalarni F.I.K – η		
Uzatmalarning turlari	Yopiq uzatma	Ochiq uzatma
Tsilindrsimon uzatmalar	0,96-0,98	0,93-0,95
Konussimon uzatmalar	0,95-0,97	0,92-0,94
Chervyakli uzatmalarda uzatish soni:		
30 dan yuqori bo'lganda		0,70-0,50
14 dan 30 gacha		0,75-0,85
8 dan 14 gacha		0,80-0,90
Zanjirli		0,92-0,96
Tasmali		0,94-0,96

Bir juft dumalash podshipniklar uchun $\eta_{q0,99-0,995}$

Bir juft sirpanish podshipniklar uchun $\eta_{q0,98-0,99}$



2. Yuritma ishchi valiga o'rnatilgan lentali, zanjirli konverlarni baraban yoki yulduzchalariga ta'sir qiluvchi aylanma kuch F_t qiymati hamda shu baraban yoki yulduzchanning o'lchamlari berilgan bo'lsa, tezligi aniqlanib, ishchi valdagi quvvat quyidagicha aniqlanadi.

$$P_{u.e} = \frac{F_t \cdot V}{1000} \text{ kVt}$$

Bunda: a) Lentali kanveyr uchun $V = \frac{\pi D_{\delta} n_{\delta}}{60} \text{ m/c}$


b) Zanjirli konveyr uchun
$$V = \frac{\pi \cdot z \cdot t \cdot n_{(\delta)10}}{60} \text{ m/c}$$

D_{δ} -barabanning diametri; n_{δ} , n_{10} -baraban yoki yulduzchanning aylanish soni, min^{-1} ; z-tishlar soni; t-yulduzcha tish qadami, mm.

Asinxron elektrodvmgatel turlari

Jadval

Quvvat R, kVt	n-sinxron aylanishlar soni, min-1			
	3000	1500	1000	750
0,25	-	-	-	71B8G'680
0,37	-	-	71A6G'910	80A8G'675
0,55	-	71A4G'1390	71B6G'900	80B8G'700
0,75	71A2G'2840	71B4G'1390	80A6G'915	90A8G'700
1,1	71B2G'2810	80A4G'1420	80B6G'920	90LB8G'700
1,5	80A2G'2850	80B4G'1415	90L6G'935	100L8G'700
2,2	80W2G'2850	90L4G'1425	100L6G'950	112MA8G'700
3,0	90L2G'2840	100S4G'1435	112MA6G'955	112MB8G'700
4,0	100S2G'2880	100L4G'1430	112MA6G'955	132S8G'720
5,5	100L2G'2800	112M4G'1445	132S6G'965	132M8G'730
7,5	112M2G'2900	132B4G'1455	132M6G'970	160S8G'730
11,0	132M2G'2900	132M4G'1460	160S6G'975	160M8G'730
15,0	160S2G'2940	160S4G'1465	160M6G'975	180M8G'730
18,0	160M2G'2940	160M4G'1465	180S6G'975	-




3. Yuritma ishchi vallagi aylanuvchi moment T, hamda aylanish soni n, berilgan bo'lsa, ishchi validagi quvvat quyidagicha aniqlanadi.

$$P = \frac{T \cdot n}{9550} \text{ kVt}$$

4. Yuritma bironta valning quvvati aniqlangach, qolgan vallarning quvvati quyidagicha aniqlanadi, ya'ni, $P_2 = P_1 \cdot \eta_1$, $P_3 = P_2 \cdot \eta_{II}$

Aniqlangan P_1 quvvat bo'yicha jadvaldan elektrodvmgatel tanlanib, eskiz chizmasi chiziladi o'lchamlari jadvaldan olinadi.

jadval



Dvigatel markasi	Polyuslar soni	Dvigatel o'lchamlari									
		L ₁	N	D	d ₁	l ₁	l ₂	l ₃	b	d ₀	h
4AA50	2,4	174	142	112	9	20	32	63	80	5,8	50
4AA56	2,4	194	152	128	11	12	36	71	90	5,8	56
4AA63	2,4,6,8	216	164	138	14	30	40	80	100	7,0	63
564A71		285	201	170	19	40	45	90	112	7,0	71
4A80A		300									
4A80V	2,4,6,8	320	218	186	22	50	50	100	125	10	80
4A90L		350	243	208	24	50	56	125	140	10	90
4A100S		365	265					132			
4A100L		395	280	235	28	60	263	140	160	12	100
4A112M	2,4,6,8	452	310	260	32	80	70	140	190	12	112
4A132S		480									
4A132M		530	350	302	38	80	89	178	216	12	132
4A160S	2	624			42			178			
	4,6,8				48						
4A160M	2	667	430	358	42	110	108	210	254	15	160
	4,6,8				48						
4A180S	2	662			48			203			
	4,6,8				55						
4A160S	2	720	470	410	48	110	121	210	279	15	180
	4,6,8				55						

Yuritma uzatmalarining uzatish soni.

Yuritma uzatmalarining umumiy uzatish soni u_y elektrodvigatel valini aylanish sonini necha marta kamaytirib yoki valdagi aylanuvchi momentni qancha marta oshirib berishni ko'rsatadi, ya'ni:

$$u_y = n_{\partial B} / n_{uB}$$

Bu erda: $n_{\partial B}$ -dvigatel valining aylanish soni, min^{-1} . n_{uB} -yuritmadagi ishchi valning aylanish soni bo'lib, uning qiymatini quyidagicha aniqlash mumkin.

a) Yuritmda lentali konveyerni tezligi, V m/c , hamda barabanning diametri D (m), berilgan bo'lsa;

$$n_{uB} = 60V / (\pi D \delta) \text{ min}^{-1}$$

b) Yuritmada zanjirli konveyrning tezligi V , hamda yulduzchanning tishlar soni z , qadami t berilgan bo'lsa;

$$n_{uB} = 60V / (\pi z \cdot t) \text{ min}^{-1}$$

Aniqlangan u_y ning qiymati har bir uzatmaga taqsimlanadi, chunki:

$$u_y = u_I \cdot u_{II} \cdot u_{III} \dots$$

Yuritmaning uzatish soni bir necha pog'ona uzatmalar bilan ta'minlansa quyidagi tavsiyalarga amal qilish kerak bo'ladi:

a) Loyixalanayotgan yopiq uzatmalarning gabarit o'lchamlari hamda og'irligi ahmiyatga ega bo'lmasa pog'onalar sonini kamaytirish tavsiya etiladi, bunda yopiq uzatma nisbatan arzon bo'ladi.

b) Loyixalanayotgan yopiq uzatmaning og'irligi, gabarit o'lchamlari kam bo'lishi kerak bo'lgan hollarda ko'p pog'onali uzatmalar olish tavsiya etiladi.

Kinematik sxemada uzatmalarni uzatish soni qiymatlarni quyidagicha olish tavsiya etiladi.

Uzatmalar uchun tavsiya etilgan uzatish sonlari.

jadval

Uzatmaning turi	Tavsiya etilgan u ning o'rtacha qiymati	Tavsiya etilgan u ning eng katta qiymati
Bir pog'onali yopiq tsilindrsimon uzatma	3 ÷ 6	12,5
Ochiq tsilindrsimon uzatma	3 ÷ 7	15 ÷ 30
Ochiq va yopiq konussimon uzatma	2 ÷ 3	6,3
Yopiq chervyakli uzatma	10 ÷ 40	80
Ochiq chervyakli uzatma	10 ÷ 60	120
Zanjirli uzatma	2 ÷ 6	8
Tasmali uzatma	2 ÷ 5	6

Uzatish soning qiymatini bir pog'onali yopiq tsilindrsimon va konussimon uzatmalar uchun GOST asosida quyidagicha tanlash mumkin.

1. qator – 2,0; 2,5; 3,5; 4,0; 5,0; 6,3.

2. qator – 2,24; 2,8; 3,55; 4,5; 5,6; 7,1.




Ilova: asosan birinchi qatordan tanlash tavsiya etiladi.

Standart asosida yopiq bir pog'onali chervyakli uzatmalar uchun chervyak kirim soni Z_1 q 1,2,4 bo'lganda, quyidagicha tanlash mumkin:

1. qator – 10; 12,5; 16; 20; 25; 31,8.

2. qator – 11,2; 14; 18; 22,4; 28; 35,5.

Ikki pog'onali tishli uzatmalarda har bir pog'onasi uchun uzatish sonini qiymatini quyidagicha tanlash tavsiya etiladi.

Uzatmani sxemasi	Uzatish soni		Uzatmani sxemasi	Uzatish soni		Uzatmani sxemasi	Uzatish soni	
	u_I	u_{II}		u_I	u_{II}		u_I	u_{II}
	$\frac{u_p}{u_{II}}$	$0,88\sqrt{u_p}$		$\frac{u_p}{u_{II}}$	$0,95\sqrt{u_p}$		$\frac{u_p}{u_{II}}$	$1,1\sqrt{u_p}$

Vallardagi burovchi momentlar.

1. Yuritma ishchi validagi quvvat P_{ub} hamda aylanish soni n , min^{-1} berilgan bo'lsa, burovchi moment quyidagicha aniqlanadi.

$$T_{u.b} = 9550 \frac{P_{ub}}{n_{ub}} \text{ Nm}$$

Tez harakatlanuvchi valdagi burovchi moment qiymati

$$T = \frac{T_{ub}}{(u \cdot \eta)} \text{ Nm}$$

Bu erda u – uzatmaning uzatish soni. η - yuritmaning F.I.K.

2. Yuritmada lentali yoki zanjirli konveyerlarni baraban yoki yulduzcha diametrlari hamda ta'sir qiluvchi aylanma kuch berilgan bo'lsa, valdagi burovchi moment qiymati:

$$T = F_t \cdot \frac{D_{\sigma}}{2} \text{ Nm} \quad \text{yoki} \quad T = F_t \cdot \frac{D_{\rho}}{2} \text{ Nm}$$

Bu erda D_{σ} , D_{ρ} - baraban, yulduzcha diametrlari, m; F_t – aylanma kuch, N.

2-mavzu.	Tsilindrsimon uzatma hisobi
-----------------	------------------------------------

2.2. Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vahti – 4 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Tsilindrsimon uzatma hisobi (Amaliy mashg'ulot)
O'quv mashg'uloti rejasi	<ol style="list-style-type: none">1. Material tanlash.2. O'qlararo masofa hisobi.3. Geometrik o'lchamlar hisobi.4. Ilashmada hosil bo'luvchi kuchlar.5. Kontakt kuchlanish bo'yicha tekshirish.6. Egilishdagi kuchlanish bo'yicha tekshirirish.

<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Nazariy bilimlarni mustaxkamlash tsilindrsimon uzatma hisobini ketma-ketligi bo'yicha misol ishlashni o'rganish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Tsilindrsimon uzatma xisobini va spravochniklardan foydalanishni o'rgatish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Nazariy bilimlarni kengaytirilib qo'yilgan talablarga asosan yopiq tsilindrsimon uzatma xisobini bajarishni o'rganish. Spravochniklardan foydalanishni o'rganish.
O'qitish uslubi va texnikasi	Blits-so'rov, birgalikda o'qiyamiz, "Tsilindrsimon uzatma" so'zlariga klaster, munozara.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, spravochnik, proektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi (1-mashg'ulot)

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzuni, maqsadi rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Tsilindrsion uzatma bilan bog'liq qanday terminlarni bilasiz? Ularning mazmunlarini ham bilasizmi? Mavzuining muhokamasi guruhda davom etishini e'lon qiladi. Xisobni bajarishni boshlaydilar.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradi. O'qituvchi bilan birga hisobni boshlaydilar. 1.2. O'qituvchi bilan birga hisobni boshlaydilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi. Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi. Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi.	2.1. 1 xisob bajariladi 2.2. Savollar beradi. 2.3. Hisobga tadbiiq etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. Har bir talabaga alohida variant beriladi va uni xisoblash topshiriladi.	3.1. Eshitadilar. Topshiriqni oladilar.

O'quv topshiriqlar

1- ilova.

<p>Гурух билан ишлаш қоидалари</p> <p>Гурух аъзоларининг ҳар бири</p> <ul style="list-style-type: none"> - ўз шерикларининг фикрларини хурмат қилишлари лозим; - берилган топшириқлар бўйича фаол, ҳамкорликда ва масъулият билан ишлашлари лозим; - ўзларига ёрдам керак бўлганда сўрашлари мумкин; - ёрдам сўраганларга кўмак беришлари лозим; - гурухни баҳолаш жараёнида иштирок этишлари лозим; - “Биз бир кемадамыз, бирга чўкамиз ёки бирга қутиламиз” қоидасини яхши билишлари лозим.

*** Bitta gap bilan savolga javob bering**

1. Tsilindrsimon uzatma qanday uzatma?
2. Uzatish soni nima?
3. Tsilindrsimon uzatma g'ildiraklari qanday materiallardan tayyorlanadi.
4. O'qlararo masofa nima?

2-ilova

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (ball)

Guruh	1 topshiriq	2 topshiriq	3 topshiriq (har bir savol 0,2 ball)			Ballar yig'indisi (3,0)
	(1,0)	(1,4)	1-savol	2-savol	3-savol	
1						
2						
3						

3-ilova.

Bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar

tG'r	Tushuncha	Bilaman "Q", Bilmayman "-".	Bildim "Q", Bila olmadim "-".
1	Tsilindrsimon uzatma		
2	Uzatmaning uzatish soni		
3	Uzatma validagi burovchi moment		
4	O'qlararo masofa		
5	Diametrlar		

4-ilova

Guruh uchun topshiriq

1- guruh.

Insert jadvali yordamida "Tsilindrsimon uzatma xisobi" mavzusini yoritish.

Matnni belgilash tizimi

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (Q) – yangi ma'lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

Insert jadvali

Tushunchalar	V	Q	-	?
Tishli uzatmalar				
Tsilindrsimon uzatmalar				
Tishli uzatmalar uchun ishlatiladigan materiallar				
Tsilindrsimon uzatma				
Uzatmani geometrik o'lchamlar				

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi (2-mashg'ulot)

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzuning maqsadi rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tilishini ma'lum qiladi. 1.2. Blits-so'rov o'tkazadi va auditoriyaning tayyogarlik darajasini aniqlaydi: 1) Uzatma, tsilindrsimon uzatma haqida nimani bilasiz? Mavzu mazmunining muhokamasi guruhda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradi. 1.2. Misol hisobini davom ettiradi..
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalarga vazifa beradi. O'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Vazifani bajarishda o'quv materiallari ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.3. Hisob bajariladi va savollar beriladi. 2.4. Talabalar javobini sharxlaydi, xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.5. Bilimni sinash uchun tarqatma material savoolariga javob berish taklif etiladi.	2.1. Hisob natija-larini taqdim qiladi-lar. 2.2 Savollar beradilar. hisoblashadi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi mavzu bo'yicha umumiy xulosalarni shakllantiradi. Guruhlarga umumiy ball beradi. Talabalarni baholaydi va rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida variant bo'yicha tsilindrsimon uzatmani hisobi topshiriladi.	Eshitadilar. Topshiriqni oladilar..

5-ilova

Tsilindrsimon uzatmalarni hisobi.

Uzatmalarni asosiy o'lchamlari bu o'qlararo masofa a_ω , uzatish soni u , tish eni koeffitsienti ψ_a ilashish moduli m , tishning qiyalik burchagi β .

Tsilindrsimon uzatmani hisoblash uchun kerakli uzatish sonini, ruxsat etilgan kontakt va egilishdagi kuchlanishni aniqlash, material tanlash yuqorida berilgan. O'qlararo masofa esa quyidagicha aniqlanadi.

$$a_\omega = K_a (1+u) \sqrt[3]{\frac{K_{H\beta} \cdot T_2 \cdot 10^3}{\psi_a \cdot u^2 \cdot [\sigma_H]^2}} \text{ mm,}$$

bu erda: K_a - o'qlararo masofa koeffitsienti, qiya tishli uzatmalar uchun K_a q43; to'g'ri tishli uzatmalar uchun K_a q49,5; ψ_a - tish eni koeffitsienti qiymati etaklovchi g'ildirakni tayanchga nisbatan joylashishiga bog'liq:

Simmetrik joylashsa – $0,315 \div 0,4$

Nosimmetrik joylashsa – $0,25 \div 0,315$

Konsol joylashsa – $0,2 \div 0,25$

Tavsiya etilgan qiymatning kichigining g'ildirak tishlarini qattiqligi HRC>45 bo'lganda tanlanadi. Tanlangan ψ_a ning qiymati standart bo'yicha muvofiqlashtirish kerak ya'ni ψ_a q0,1; 0,15; 0,2; 0,25; 0,4; 0,55; 0,63.

$K_{H\beta}$ - yuklanish notekis taqsimlanishi hisobga oluvchi koeffitsient. Tishli g'ildiraklarni materiallarini termik qayta ishlanishi a, b gurux bo'yicha olingan bo'lib, etaklanuvchi tishli g'ildirak tezligi $V < 15$ mG's hamda tish yuzasining qattiqligi <350 HB bo'lganda g'ildirak tishlari o'zaro tez moslashganligi uchun $K_{H\beta}$ q1,0; >350 HB bo'lganda koeffitsient qiymati quyidagicha aniqlanadi.

$$K_{H\beta} = 1 + \frac{2\psi_a}{S} \leq 2,0$$

bunda $\psi_d = 0,5\psi_a(1+u)$ - tish eni koeffitsienti; S - tayanchlarga nisbatan tishli g'ildiraklar joylashganini hisobga oluvchi koeffitsienti, qiymati jadvaldan tanlanadi

Etaklovchi tishli g'ildirakni tayanchga nisbatan joylanishi	S
Tayanchga zoldirli podshipnik o'rnatilib kansol holatda joylashgan	1
Tayanchga rolik podshipnik o'rnatilib kansol holatda joylashgan	2
Nosimmetrik joylashgan	4
Simmetrik joylashgan	8

T_2 – etaklanuvchi tishli g'ildirak validagi burovchi moment, Nm hisobida; $[\sigma_H]$ – ruxsat etilgan kontakt kuchlanish, MPa. Aniqlangan o'qlararo masofa $a_\omega(d_{e2})$ standart bo'yicha yaxlitlanadi, mm

1 – qator	40	50	63	80	125	160	200	250	315	400	500
2 – qator	71	90	112	140	180	224	280	355	450	560	710

2. Etaklanuvchi tishli g'ildirak eni $b_2 = \psi_a \cdot a$

3. Etaklovchi tishli g'ildirak eni $b_1 = 1,12b_2$

4. Etaklanuvchi tishli g'ildirak tish bo'luvchi aylanasining o'lchami

$$d_2 = \frac{2a \cdot u}{(1+u)} \text{ mm.}$$

5. a_ω, b_2, d_2 qiymatlari aniqlangach kontakt kuchlanishning hisobiy qiymati aniqlanadi.

$$\sigma_H = K_a \sqrt{\frac{F_t(1+u)K_H}{b_2 \cdot d_2}} \leq [\sigma_H]$$

bu erda: K – qo'shimcha koeffitsient to'g'ri tishli uzatmalar uchun 436, qiya tishli uzatmalar uchun 376; $K_H = K_{H\alpha} \cdot K_{H\beta} \cdot K_{H\gamma}$ – yuklanish koeffitsienti. $K_{H\alpha}$ – yuklanishni tishlararo notekis taqsimotlanishi hisobga oluvchi koeffitsient, qiymati to'g'ri tsilindrsimon uzatmalar uchun 1,0; qiya tishli tsilindrsimon uzatmalar uchun 1,1; $K_{H\beta}$ – qo'shimcha dinamik kuchlarni hisobga oluvchi koeffitsient qiymati, to'g'ri tishli g'ildiraklar uchun tish yuzasining qattiqligi ≤ 350 NV bo'lganda – 1,2; >350 bo'lganda – 1,1; qiya tishli g'ildiraklar uchun tish yuzasining qattiqligi ≤ 350 NV

bo'lganda – 1,1; >350NV bo'lganda – 1,08. $K_{H\beta}$ – koeffitsient qiymatni aniqlash yuqorida ko'rsatilgan.

Hisobiy kontakt kuchlanish qiymati $\sigma_H \leq (0,9 - 1,05)[\sigma_H]$ shartni bajarish kerak, agar bu shart bajarilmasa a_w , yoki b_2 qiymatlarini o'zgartirib hisob qaytariladi.

6. Uzatma g'ildiraklarning ilashish moduli

$$m_n \geq \frac{2K_m \cdot T_2}{d_2 \cdot b_2 [\sigma_F]} \text{ mm,}$$

bu erda K_m – modul koeffitsienti bo'lib, qiymati to'g'ri tishli g'ildiraklar uchun 6,8; qiya tishli g'ildirak uchun 5,8. Modulning aniqlangan qiymati standart bo'yicha yaxlitlanad, m , mm.

1 – qator	1	1,5	2	2,5	3	4	5	6	8	10
2 – qator	1,25	1,75	2,25	2,75	3,5	4,5	5,5	7	9	

Modulni asosan 1 – qatordan tanlash tavsiya etiladi. Quvvat uzatadigan uzatmalarda tish yuzasining qattiqligi $\geq 350\text{NV}$ bo'lganda $m > 1$ mm; g'ildirak tishlarini birortasini qattiqligi ≥ 45 HRC bo'lganda $m \geq 1,5$ mm olinadi.

7. Uzatma g'ildirak tishlarining qiyalik burchagi β hamda umumiy tishlar soni, Z_y

a) Qiya tishli g'ildirak uchun qiyalik burchagining eng kichik qiymati

$$\beta_{\min} = \frac{\arcsin 4_m}{b_2}.$$

b) Uzatma g'ildirak tishlarining umumiy soni

$$Z_y = \frac{2a \cos \beta_{\min}}{m},$$

Z_y ning qiymatini yaxlitlab qiyalik burchagini hisobiy qiymati aniqlanadi, ya'ni $\beta = \arccos(Z_y \cdot m / 2a)$. Qiya tishli g'ildirak uchun qiyalik burchagining qiymatlar $\beta_{\min} = 8^\circ - 15^\circ$. Hisoblanganda aniqlik darajasi verguldan keyin 5 – xonagacha olinishi kerak.

8. Etaklovchi va etaklanuvchi g'ildirak tishlari soni

$$\text{Etaklovchi g'ildirak tishlar soni } Z_1 = Z_y / (1 + u) \geq Z_{1\min}$$

$$\text{Etaklanuvchi g'ildirak tishlar soni } Z_2 = Z_y - Z_1$$

9. Uzatma g'ildiraklarning geometrik o'lchamlari

G'ildirak diametrlari	To'g'ri tishli tsilindsimon g'ildiraklar	Qiya tishli tsilindsimon g'ildiraklar
Tish bo'luvchi aylanasini o'lchami		
a) Etaklovchi g'ildirak	$d_1 = mz_1$	$d_1 = m_n z_1 / \cos \beta$
b) Etaklanuvchi g'ildirak	$d_2 = mz_2$	$d_2 = m_n z_2 / \cos \beta$
Tashqi aylanasining o'lchami		
a) Etaklovchi g'ildirak	$d_{a1} = d_1 + 2m$	$d_{a1} = d_1 + 2m$
b) Etaklanuvchi g'ildirak	$d_{a2} = d_2 + 2m$	$d_{a2} = d_2 + 2m$
Tish osti aylanasining o'lchami		

a) Etaklovchi g'ildirak	$d_{f1} = d_1 - 2,5m$	$d_{f1} = d_1 - 2,5m$
b) Etaklanuvchi g'ildirak	$d_{f2} = d_2 - 2,5m$	$d_{f2} = d_2 - 2,5m$

10. Tishli g'ildiraklarning ilashishda hosil bo'lgan kuchlar.

	To'g'ri tishli uzatmalar	Qiya tishli uzatmalar
Aylanma kuch, F_t	$F_t = 2T/d$	
Markazga intiluvchi kuch, F_r	$F_r = F_t \cdot \operatorname{tg} \alpha, \alpha = 20^0$	$F_r = F_t \cdot \operatorname{tg} \alpha / \cos \beta$
Bo'ylama kuch		$F_a = F_t \cdot \operatorname{tg} \beta$

11. Egilishdagi kuchlanishni hisobiy qiymati

Etaklanuvchi g'ildirak uchun

$$\sigma_{F2} = \frac{F_t \cdot Y_{F2} \cdot Y_\beta \cdot K_{F\alpha} \cdot K_{F\beta} \cdot K_{Fv}}{b_2 \cdot m} \text{ MPa,}$$

Etaklovchi g'ildirak uchun $\sigma_{F1} = \sigma_{F2} \frac{Y_{F1}}{Y_{F2}}$ MPa bunda $\sigma_F < [\sigma_F]$ shart bajarilishi

kerak.

$K_{F\alpha}$ – uzatma g'ildirak tishlarning aniqlik darajasini hisobga oluvchi koeffitsienti bo'lib qiymati to'g'ri tishli tsilindsimon uzatmalar uchun – 1,0; qiyalik burchagi $\beta > 0$ bo'lganda g'ildirak tishlarini aniqlik darajasiga nisbatan quyidagicha olinadi.

Aniqlik darajasi	6	7	8	9
$K_{F\alpha}$	0,72	0,81	0,91	1,0

Y_F – tish shaklini g'isobga oluvchi koeffitsient qiymatijadvaldan to'g'ri tishli tsilindsimon g'ildiraklar uchun tishlar soniga nisbatan tanlanadi, qiya tishli tsilindsimon g'ildiraklar uchun keltirilgan tishlar soniga nisbatan tanlanadi.

$$Z_K = Z / \cos^3 \beta$$

Z yoki Z_k	17	20	22	24	26	28	30	35	40	45	50	65	≥ 80
Y_F	4,27	4,07	3,98	3,92	3,88	3,84	3,80	3,75	3,7	3,66	3,65	3,62	3,61

Y_β – g'ildirak tishlarining qiyalik burchagini egilishda kuchlanishga ta'sirini hisobga oluvchi koeffitsient

$$Y_\beta = 1 - \frac{\beta}{140^0}$$

K_{Fv} – qo'shimcha dinamik kuchlarni hisobga oluvchi koeffitsient bo'lib qiymati tish yuzasini qattiqligiga nisbatan quyidagicha olinadi:

To'g'ri tishli tsilindsimon g'ildirak uchun

$\leq 350 \text{ NV}$ bo'lganda K_{Fv} q1,4

$> 350 \text{ NV}$ bo'lganda K_{Fv} q1,1

Qiya tishli tsilindsimon g'ildirak uchun

$\leq 350 \text{ NV}$ bo'lganda K_{Fv} q1,2

$> 350 \text{ NV}$ bo'lganda K_{Fv} q1,1

$K_{F\beta}$ – kuchlanishlarni tish eni bo'yicha notekis taqsimlanishlarini hisobga oluvchi koeffitsient. Tishli g'ildirak materiallari a, b – gurux bo'yicha termik qayta ishlangan bo'lsa – 1,0; >350 NV bo'lganda

$$K_{F\beta} = 1 + \frac{1,5 \cdot \psi_{\alpha}}{S} \leq 1,7$$

3-mavzu.	Konussimon uzatma hisobi
-----------------	---------------------------------

3.2. Amaliy mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti – 4 soat	Talabalar soni: 25-30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Konussimon uzatma hisobi (Amaliy mashg'ulot)
O'quv mashg'uloti rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Berilgan qiymatlar bilan tanishtirish 2. Material tanlash, ruxsat etilgan kuchlanishlarni hisoblash. 3. d_{e2} ni hisoblash. 4. Uzatmaning geometrik o'lchamlarni xisoblash. 5. Kontakt kuchlanish bo'yicha tekshiruv hisobi. 6. Egilishdagi kuchlanish bo'yicha tekshiruv hisobi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Yopiq konussimon uzatma hisobini o'rganish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Tsilindrsimon uzatma xisobini o'rganish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: - Nazariy bilimlarni chuqurlashtirib va kengaytiradi va konussimon uzatma hisobini amalda bajarishni o'rganadi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Blits-so'rov, birgalikda hisoblaymiz, "Konussimon uzatma" iborasi bo'yicha so'zlariga klaster, munozara.

O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, spravochnik, proektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi (1-mashg'ulot)

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzuni, maqsadi rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Konussimon uzatma bilan bog'liq qanday terminlarni bilasiz? Ularning mazmunlarini ham bilasizmi? Mavzuining muhokamasi guruhda davom etishini e'lon qiladi. Xisobni bajarishni boshlaydilar.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradi. O'qituvchi bilan birga hisobni boshlaydilar. 1.2. O'qituvchi bilan birga hisobni bajaradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi. Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin hisobni boshlagani e'lon qilinadi.	2.1. xisob bajariladi 2.2. Savollar beradi. 2.3. Olgan bilimlarini xisobga tadbiq etadilar. 2.4. Hisobni bajaradilar va muhokamada ishtirok etadi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. mustaqil ish sifatida berilgan variant bo'yicha yopiq konussimon uzatma hisobini bajarish topshiriladi.	Eshitadilar. Topshiriqni oladilar.

O'quv topshiriqlar

1- ilova.

Гурух билан ишлаш қоидалари
<p>Гурух аъзоларининг ҳар бири</p> <ul style="list-style-type: none"> - ўз шерикларининг фикрларини хурмат қилишлари лозим; - берилган топшириқлар бўйича фаол, ҳамкорликда ва масъулият билан ишлашлари лозим; - ўзларига ёрдам керак бўлганда сўрашлари мумкин; - ёрдам сўраганларга кўмак беришлари лозим; - гурухни баҳолаш жараёнида иштирок этишлари лозим; - “Биз бир кемадамиз, бирга чўкамиз ёки бирга қутиламиз” қоидасини яхши билишлари лозим.

*** Bitta gap bilan savolga javob bering**

1. Konussimon uzatma qanday uzatma?
2. Konus va tsilindsimon uzatma farqi?
3. Yopiq konus uzatma qaysi kuchlanish bo'yicha tekshiriladi?

4. Ochiq konus uzatma qaysi kuchlanish bo'yicha tekshiriladi?

5. Konussimon uzatmada qanday modullar mavjud.

2-ilova

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari (ball)

Guruh	1 topshiriq	2 topshiriq	3 topshiriq (har bir savol 0,2 ball)			Ballar yig'indisi (3,0)
	(1,0)	(1,4)	1-savol	2-savol	3-savol	
1						
2						
3						

3-ilova.

Bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar

tG'r	Tushuncha	Bilaman "Q", Bilmayman "-".	Bildim "Q", Bila olmadim "-".
1	Konussimon uzatma		
2	Uzatmaning afzallik va kamchiligi		
3	Uzatma g'ildiraklari uchun material tanlash		
4	Geometrik o'lchamlar d_{e1}, d_{e2}		
5	Modul m_e		
6	Modul m_n		
7	Etaklovchi g'ildirak bo'luvchi konus burchagi φ_1		
8	Etaklanuvchi g'ildirak bo'luvchi konus burchagi φ_2		
9	Tashqi konus masofa R_e		
10	O'rta konus masofa R_m		
11	Tashqi bo'luvchi diametr d_{e1}		
12	O'rta bo'luvchi diametr d_{m1}, d_{m2}		

Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi (2-mashg'ulot)

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzuning maqsadi rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tilishini ma'lum qiladi. 1.2. Blits-so'rov o'tkazadi va auditoriyaning tayyogarlik darajasini aniqlaydi: 1) Uzatma, konussimon uzatma haqida nimani bilasiz? Mavzu mazmunining muhokamasi guruhda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradi. 1.2. Misol hisobini davom ettiradi..
2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalarga vazifa beradi. O'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Vazifani bajarishda o'quv materiallari ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish	2.1. Hisob natija-larini taqdim qiladi-lar. 2.2 Savollar beradilar.

	<p>mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.3. Hisob bajariladi va savollar beriladi. 2.4. Talabalar javobini sharxlaydi, xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.5. Bilimni sinash uchun tarqatma material savoolariga javob berish taklif etiladi.</p>	hisoblashadi.
3-bosqich. Yakuniy (10 min.)	<p>3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi mavzu bo'yicha umumiy xulosalarni shakllantiradi. Guruhlarga umumiy ball beradi. Talabalarni baholaydi va rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida variant bo'yicha konus uzatmani hisobi topshiriladi.</p>	<p>Eshitadilar. Topshiriqni oladilar..</p>

4-ilova.

Konussimon uzatmalarni hisobi.

1. Uzatma tishli g'ildiraklar uchun materiallar tanlash, termik qayta ishlash va tish yuzasini qattiqligini belgilash hamda ruxsat etilgan $[\sigma_H]$, $[\sigma_F]$ qiymatlarini aniqlash yuqorida berilgan.

2. Etaklanuvchi g'ildirak tishlarning bo'luvchi aylana bo'yicha o'lchami

$$d_{e2} = 1653 \sqrt{\frac{T_2 \cdot K_{H\beta} \cdot u}{V_H \cdot [\sigma_H]^2}} \text{ mm}$$

bu erda V_H – konussimon g'ildirak tishlarini tsilindrsimon g'ildirak tishlariga nisbatan mustaxkamligini kamligini hisobga oluvchi koeffitsienti, to'g'ri tishli uzatmalar uchun 0,85.

$K_{H\beta}$ – yuklanishni notekis taqsimlanishni hisobga oluvchi koeffitsient. Tish yuzasining qattiqligi $\leq 350\text{NV}$ bo'lganda to'g'ri tishli g'ildiraklar uchun – 1,0; tish yuzasining qattiqligi $>350\text{NV}$ bo'lganda qiymati quyidagicha aniqlanadi.

$$K_{H\beta} = 1 + \frac{2\psi_\alpha}{S} \leq 2$$

bu erda: $S_{q2,0}$ – tayanchlarga nisbatan tishli g'ildiraklarni joylanishini hisobga oluvchi koeffitsient. (yuqorida 1-§ berilgan)

$\psi_d = 0,166\sqrt{(1+u^2)}$ tish eni koeffitsienti

3. konus burchagi, konus uzunligi hamda tish eni.

a) konus burchaklari $\operatorname{tg}\varphi_1 = 1/u$; $\varphi_2 = 90 - \varphi_1$;

b) konus uzunligi $R_e = d_{e2} / 2 \cos\varphi_1$

v) tishning eni $b = 0,285R_e$.

4. Uzatma g'ildiraklarning ilashish moduli

$$m_e = \frac{14T_2 \cdot K_{F\beta}}{V_F \cdot d_{e2} \cdot b_2 [\sigma_F]} \text{ mm}$$

bu erda: m_e - to'g'ri tishli konussimon g'ildiraklar ilashish moduli, V_F – konussimon tishlarni mustaxkamligini to'g'ri tishli g'ildirak tishlarini mustaxkamligiga nisbatan kamligini hisobga oluvchi koeffitsient, to'g'ri tishli g'ildiraklar uchun – 0,85.

$K_{F\beta}$ – yuklanishni tish eni bo'yicha notekis taqsimlanishini hisobga oluvchi koeffitsient. Tish yuzasining qattiqligi $\leq 350\text{NV}$ bo'lganda to'g'ri tishli g'ildiraklar uchun – 1,0; tish yuzasining qattiqligi $>350\text{ NV}$ bo'lganda.

$$K_{F\beta} = 1 + 1,5\psi_d / S \leq 1,7$$

bu erda S_q -jadval. ψ_d – koeffitsient qiymati yuqorida aniqlangan. Aniqlangan modul qiymat 0,00 gacha aniqlik bilan hisoblanib standart bo'yicha yaxlitlanmaydi.

Quvvat uzatadigan uzatmalar uchun modul qiymati $m_{e(te)} > 1,5$; mm bo'lishi kerak, ochiq uzatmalar uchun esa qiymat 30% kattalashtirib olinadi.

5. Uzatma g'ildiraklarning tishlar soni aniqlanadi.

$$Z_2 = d_{e2} / m_{e(te)}, \quad Z_1 = Z_2 / u$$

aniqlangan qiymatlar butun son qilib yaxlitlanib olinadi, bunda Z_1 ni qiymati g'ildiraklar tishlarini kesish jarayonida uning asosi kesilmasli shart bajarilishi kerak.

6. Uzatish soning hisobiy qiymatlari.

$$u_x = Z_2 / Z_1 \quad \Delta u = (u_x - u) / u \cdot 100\% \leq [4\%] \text{ shart bajarilishi kerak.}$$

7. Boshlang'ich konus burchagining hisobiy qiymati:

$$\text{tg } \varphi_1 = \frac{1}{u_x}, \quad \varphi_2 = 90 - \varphi_1$$

8. Uzatma uchun siljish koeffitsienti tanlanadi, etaklovchi va etaklanuvchi g'ildirak tishining qattiqlig $HB_1 - HB_2 \leq 100$ bo'ladi. – jadvaldan siljish koeffitsienti qiymati aniqlanadi, bunda

$$X_{e2} = -X_{e1}, \text{ agarda } HB_{1\dot{y}p} - HB_{2\dot{y}p} > 100 \text{ bo'lsa } X_1 = X_2 = 0$$

-jadval

Z_1	Uzatish soni u bo'lganda X_{e1} koeffitsient qiymatlari				
	2,0	2,5	3,15	4,0	5,0
12	-	0,50	0,53	0,56	0,57
13	0,44	0,48	0,52	0,54	0,55
14	0,42	0,47	0,50	0,52	0,53
15	0,40	0,45	0,48	0,50	0,51
16	0,38	0,43	0,46	0,48	0,49
18	0,36	0,40	0,43	0,45	0,46
20	0,34	0,37	0,40	0,42	0,43
25	0,29	0,33	0,36	0,38	0,39
30	0,25	0,28	0,31	0,33	0,34
40	0,20	0,22	0,24	0,26	0,27

9. Tish g'ildiraklarini geometrik o'lchamlar.

O'lchamlari	To'g'ri tishli g'ildirak uchun
Tish bo'luvchi aylanasi o'lchami	$d_{e1} = m_e \cdot Z_1$
Etaklovchi g'ildirak uchun	$d_{e2} = m_e \cdot Z_2$
Etaklanuvchi g'ildirak uchun	

Tashqi aylanasining o'lchami	$d_{ae1} = d_{e1} + 2(1 + X_{e1})m_e \cos \alpha_1$ $d_{ae2} = d_{e2} + 2(1 + X_{e2})m_e \cos \alpha_2$
Tish osti aylanasining o'lchovi	$d_{fe1} = d_{e1} - 2(1,2 - X_{e1})m_e \cos \alpha_1$ $d_{fe2} = d_{e2} - 2(1,2 - X_{e2})m_e \cos \alpha_2$

10. Ilashishda hosil bo'lgan kuchlar

	To'g'ri tishli g'ildiraklar uchun
Aylanma kuch	$F_t = 2T_2/d_{m2}$ $d_{m2} = 0,857d_{e2} - \text{o'rtacha diametr}$
Etaklovchi tishli g'ildirak uchun a) Bo'ylama kuch b) Markazga intiluvchi kuch	$tg \alpha = tg 20^\circ = 0,364$ $F_{a1} = F_t \cdot tg \alpha \cdot \sin \varphi_1 = 0,364F_t \cdot \sin \varphi_1$ $F_{r1} = F_t \cdot tg \alpha \cdot \cos \varphi_1 = 0,364F_t \cdot \cos \varphi_1$
Etaklanuvchi tishli g'ildirak uchun a) Bo'ylama kuch b) Markazga intiluvchi kuch	$F_{a1} = F_{r2}$ $F_{r1} = F_{a2}$

11. Egilishdagi kuchlanishni hisobiy qiymati

$$\sigma_{F2} = \frac{F_t \cdot Y_{F2} \cdot K_{F\beta} \cdot K_{Fv}}{b \cdot m_e \cdot Y_F} \leq [\sigma_{F2}]$$

bu erda: $K_{F\beta}$ – qiymatini aniqlash 4p. ko'rsatilgan. K_{Fv} – qo'shimcha dinamik kuchlarni hisobga oluvchi koeffitsient, qiymati g'ildirak tish yuzasining qattiqligi ≤ 350 NV bo'lganda – 1,2; >350 NV bo'lganda – 1,1.

Y_F – g'ildirak tish shaklini hisobga oluvchi koeffitsient, qiymati “keltirilgan” g'ildirak tishlari songa nisbatan jadvaldan tanlanadi.

Keltirilgan tishlar soni

$$Z_{K1} = (Z_1)/\cos \varphi_1, \quad Z_{K2} = (Z_2)/\cos \varphi_2$$

Z_K	12	14	17	20	25	30	40	50	60	80	>100
Y_K	-	-	4,27	4,07	3,90	3,80	3,70	3,65	3,63	3,61	3,60

12. Kontakt kuchlanishni hisobiy qiymati

$$\sigma_H = 2120 \sqrt{\frac{T_2 \cdot K_{H\beta}}{d_{e2}^3 \cdot V_h}} \leq [\sigma_H]$$

bunda $\sigma_H = (0,9 - 1,03)[\sigma_H]$ shart bajarilishi kerak.

Masalani echimi.

1. Tishli g'ildiraklar uchun material tanlash xamda termik qayta ishlashni belgilash.

Yuqoridagi tavsiyaga asosan tishli g'ildiraklar uchun a,b,v,g larda berilgan materiallarni xamda termik qayta ishlashni tanlab bir-biriga taqqoslaymiz.

A) Variant.

Etaklovchi va etaklanuvchi tishli g'ildiraklar uchun 40x markali po'lat material tanlaymiz.

Bunda termik qayta ishlash yaxshilanish tish yuzasining qattiqligi (235...262)NV₂; (269...302)NV₁.

B) Variant.

Etaklovchi va etaklanuvchitishli g'ildiraklar uchun 45x markali po'lat material tanlaymiz, bunda etaklovchi tishli g'ildirak termik qayta ishlanish yaxshilanish Q yu.ch.t yordamida toblash. Tish yuzasining qattiqligi (45...50) HRC; Etaklanuvchi tishli g'ildirak uchun termik qayta ishlanishi yaxshilanish, tish yuzasining qattiqligi (235...262)NV₂.

V) Variant.

Etaklovchi va etaklanuvchi tishli g'ildiraklar uchun bir xil 40xN material tanlaymiz, bunda termik qayta ishlashni yaxshilanish Q yu.ch.t yordamida toblash, tish yuzasining qattiqligi (48...53) HRC.

2. G'ildirak tishlarning o'rtacha qattiqligi.

A) Variant

NV₁₀r q (269Q302)G'2q285,5

NV₂₀r q (235Q262)G'2q248,5

B) Variant.

HRC₁₀r q (48Q53)G'2 q 50,5 ≈ 490 HB

NV₂₀r q (269Q302)G'2q285,5

V) Variant.

HRC q (48Q53)G'2 q 50,5 ≈ 490 HB

